

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

Xoliqova Nodira Jahongirovna

JADID ADABIYOTIDA  
XOTIN-QIZLAR OBRAZI

Monografiya

“BOOKMANY PRINT”  
TOSHKENT – 2024

**UO‘K: 894.375**

**KBK: 83.3(5O‘z)**

**X 74**

Xoliqova Nodira Jahongirovna.

Jadid adabiyotida xotin-qizlar obrazi [Matn]: monografiya /  
N.J. Xoliqova. – Toshkent: Bookmany print, 2024. – 256 b.

**Mas’ul muharrir:**

**Jabborov Nurboy Abdulhakimovich,**

Alisher Navoiy nomidagi TDO‘AU professori, filologiya fanlari doktori

**Taqrizchilar:**

**Davlatova Adiba Raxmatovna,**

ChDPU professori, filologiya fanlari doktori.

**Pardayev Qo‘ldosh Uzoqovich,**

Alisher Navoiy nomidagi TDO‘AU professori, filologiya fanlari doktori.

XX asrning oxiri va XXI asrga kelib, jahon adabiyotshunosligida xotin-qizlarning tarix, jamiyat, madaniy va adabiy hayotda tutgan o‘rnini qanday estetik mezonlar asosida tasvirlanganini baholash har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb eta boshladi. Ishda xotin-qizlar obrazi genezisi, evolyutsiyasi, adabiy tur va janrlar kesimidagi tasvirlanish tamoyillari kabi muammolar monografik asosda, tizimli va kompleks o‘rganilgan. Monografiyada Hamza, Cho‘lpon, Fitrat, Avloniy, Tavallo she’rlari; A.Qodiriy, Cho‘lpon, Hamza romanlari; Xoji Muin, Fitrat, Nusratilla Qudratilla, Hamza, Cho‘lpon dramatik asarlari misolida o‘zbek jadid adabiyotida xotin-qizlar obrazining tadrijiy takomilini ochib berish, lirik, epik va dramatik asarlardagi obrazlar misolida ayol dunyoqarashi va faoliyatidagi o‘sish jarayoni badiiy talqinining evolyutsion bosqichlarini aniqlash hamda ilmiy-nazariy asoslashga doir fikr-mulohazalar taqdim etilgan.

Monografiya oliy ta’lim muassasasi talabalari va mavzuga doir ulmiy tadqiqot olib borayotgan tadqiqotchilar uchun mo‘ljallangan.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Ilmiy-texnik Kengashining 2024-yil 27-noyabrdagi 6-sonli majlis bayonnomasiga asosan nashrga tavsiya etilgan.

**ISBN 978-9910-06-318-3**

© Xoliqova N.J., 2024.

© “Bookmany print” nashriyoti, 2024.

## KIRISH

Jahon adabiyotshunosligida xotin-qizlarning tarix, jamiyat, madaniy va adabiy hayotda tutgan o'rni turli adabiy tur va janrlar kesimida qanday estetik mezonlar asosida tasvirlanganini baholash XXI asrga kelib har qachongidan ham dolzARB bo'lib qoldi. Ayollarning haq-huquqi, jamiyat hayotida tutgan mavqeい masalalari global ahamiyat kasb etayotgan bugungi kunda xotin-qizlar obrazining badiiy adabiyotdagi ifodasi, ayol obrazini yaratishdagi ijodiy tendensiya va metodlar, ayol-oila-jamiyat munosabatlarining yoritilish tamoyillari kabi muammolar yangidan yangi tadqiqot uchun manba vazifasini o'tamoqda.

Dunyo adabiyotshunosligida xotin-qizlar obrazi tasviriga xos estetik qonuniyatlar, muayyan ijodkorlar asarlarida invidual badiiy tafakkurning namoyon bo'lish shakllari tizimli baholanib kelmoqda. Poetikaning boshqa masalalari qatori ayol obrazi takomilida ham ijodkor mahorati yetakchi o'rin tutishi, qahramon ruhiyati va xarakteri, uning shaxs sifatidagi kamolotiga ijtimoiy-ma'naviy muhit ta'sirining ifodalanishi usullari, personaj surati va siyrati uyg'unligining tasvirlanish darajasi ilmiy izlanishlarning asosini tashkil etmoqda.

O'zbek jadid adabiyotida xotin-qizlar obrazi evolyutsiyasini tadqiq etish mumtoz adabiyot bilan zamonaviy adabiyotning o'zaro aloqadorligi va obrazlarning tadrijiy takomilini belgilash imkonini berishi jihatidan ham ahamiyatlidir. Xususan, she'riy, nasriy va dramatik asarlarda xotin-qizlar obrazi poetik takomilining o'rganilishi o'zbek jadid adabiyoti taraqqiyotining ijtimoiy-ma'rifiy va adabiy-estetik omillarini aniqlash imkonini kuchaytiradi. Ayolning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni, uning dunyoqarashi va tafakkur dunyosi, ma'naviy olamini tasvirlashda ruhiy-falsafiy, ramziy-majoziy obrazlilik ustunlik qilishi bu muammoni kompleks o'rganishni taqozo etadi. Bu jarayonni kuzatish ma'naviy-ruhiy tafakkur tadrijini aniqlashga ko'maklashadi. Ayni paytda, jadid ijodkorlari asarlaridagi ayol obrazining monografik asosda tizimli o'rganilishi, obrazlar evolyutsiyasi tadqiqi adabiyotshunoslik uchun muhim ilmiy qimmatga ega. O'zbek adabiyotshunosligida jadid adabiyoti, XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlari Turkistonidagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat, madaniy hayot, Vatan va millat taqdiri va yurt

mustaqilligi, xotin-qizlar ma'rifati masalalarining badiiy talqinlari muayyan darajada bahosini olgan. Biroq xotin-qizlar obrazining genezisi, lirik, epik yoki dramatik turga oid asarlarda tasvirlanishi qonuniyatları yaxlit holda tizimli tadqiq qilingan emas. Bu esa, o'zbek jadid adabiyotida xotin-qizlar obrazining tadrijiy takomili masalasini alohida o'rganish vazifasini kun tartibiga qo'yadi. Chunki "Vatanimiz ozodligi va xalqimiz baxt-saodati yo'lida jonini fido qilgan jadidlarning ilmiy-ma'rifiy, adabiy-badiiy merosi biz uchun bugun ham beqiyos ahamiyatga ega... Bugun buyuk ajdodlarimizning beba ho merosiga tayanib, yangi Renessans poydevorini yaratish uchun bizda barcha imkoniyatlar mavjud, deyishga to'la asoslarimiz bor"<sup>1</sup>. O'zbek jadid adabiyotida xotin-qizlar obrazining genezisini aniqlash, bu obrazning lirik, epik va dramatik asarlarda tasvirlanishi tamoyillari hamda takomil evolyutsiyasini yoritish, ijodkor estetik ideali va mahorati, janr va uslub poetikasi nuqtai nazaridan baholash masalalari ushbu tadqiqot mavzuining dolzarb ekanini tasdiqlaydi.

Turkistonda jadidchilik tarixi va jadid namoyandalari, shuningdek, xotin-qizlar mavzusiga bag'ishlangan ilmiy ishlar dunyoning yetakchi ilmiy va oliy ta'lim muassasalari, jumladan, Harvard universiteti (AQSh, 1997, 2007), Arizona universiteti, Stenford universiteti (AQSh, 1990), London universiteti (Buyuk Britaniya 1981, 2009), Indiana universiteti (AQSh, 1989), Humboldt universiteti (Germaniya, 1993, 2008), Kaliforniya universiteti (AQSh, 1998) Karlton universiteti (AQSh), Sankt-Peterburg davlat universiteti, (Rossiya, 2016), Istanbul universiteti (Turkiya, 2000), Gazi universiteti (Turkiya, 2017), Boshqird davlat pedagogika universiteti (Boshqirdiston, 2011), Qozon federal universiteti (Tatarston, 2014), Tojikiston Milliy universiteti (Tojikistin, 2014), R.B.Suleymanov nomidagi Sharqshunoslik instituti (Qozog'iston 2023)da olib borilgan va davom etmoqda.

Dunyo adabiyotshunosligidagi tadqiqotlar natijasida mavzuga aloqador quyidagi ilmiy qarashlar ilgari surilgan: farg'onalik ayollar turmush tarzi (Qozon, 1886), mashhur ayollar, oila (Qozon, 1898), O'rtta Osiyoda ayollar hukumati (London universiteti, 1981, 2009),

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Туркий давлатлар ташкилоти Давлат раҳбарлари кенгаши мажлисидаги нутқи // Халқ сўзи. – Тошкент, 2023 йил 3 ноябрь.

hokimiyat tepasidagi musulmon ayollar (Moskva, 1982), Hujum harakati va ayollar (Indiana universiteti, 1989), islom dunyosidagi sufiy rahnamo ayollar (Harvard universiteti, 1997), Cho‘lpon ijodida ayollar obrazi (Kleopatra) va jadid dramaturgiyasi (Humboldt universiteti, 1993), adabiyotda ayol obrazi (Moskva, 1994), fors adabiyotida ayollar (Dushanbe, 1998), Sharq va musulmon ayoli (Arizona universiteti, Harvard universiteti, 2007, Stenford universiteti), ayol va islom (Kembridj universiteti, 2008), ilk o‘zbek she’riyatida Sharq va ayol (Humboldt Universiteti, 2008), xotin-qizlar ijodi (Moskva, 2009), jadidchilik va ayollar masalasi (Ufa, 2014), ozarbayjon adabiyotida ayollar obrazi (Baku, 2015), arab dunyosida ayol, xotin-qizlar ozodligi, Gasprali ijodida ayollar (Qrim, 2015), Cho‘lponning “Yorqinoy” dramasida ayol (Ataturk universiteti, 2017), xotin-qizlar obrazi va tipologiyasi (Rossiya, 2018), ayollar obrazi tadriji (Dushanbe, 2021), qadimchilar va jadidlar (Ufa, 2021), turkiy folklorida ayollar (Rossiya, 2022), xorij adabiyotida ayollar huquqi (Moskva, 2023), O‘rta Osiyoda so‘fiy ayol (Kolumbiya universiteti, 2024)<sup>2</sup> va boshqalar.

<sup>2</sup> Наливкин В., М.Наливкина. Очерк быта женщины оседлого туземного населения Ферганы. – Казань, 1886. – 244 с.; Ризоуддин ибн Фахруддин. Машхур хотунлар. – Тошкент: Navro‘z, 2019. – 304 б.; Ризоуддин ибн Фахруддин. Оила. – Тошкент: Мехнат, 1991. – 62 б.; Habiba Fathi. Femmes d'autorité en Asie centrale. Quête des ancêtres et recompositions identitaires dans l'islam postsovietique. – Paris, Maisonneuve & Larose, 2004. – 348 р.; Учок Б. Женщины-правительницы в мусульманских государствах. – М.: Наука, 1982. – 176 с.; Marianne Kamp. The new Woman in Uzbekistan: Islam, Modernity, and Unveiling under Communism. University of Washington press, 1989. – 332 р.; Шиммел А. Жонон менинг жонимда (Й.Парда таржимаси). – Тошкент: Шарқ, 1999. – 176 б.; Kleinmichel Sigrid. Die gefesselten Frauen und Kleopatra bei Culpan / Studia Turcologica Cracoviensia 8. – Krakow, 2001. – S. 23-42; Желоховцев А.Н. Образ женщины в литературе / Социальные и гуманитарные науки. Серия 7. Литературоведение. 1994-4. – М., 1999. – С.61-75; Nikki R. Keddie. Women in the Middle East: Past and Present, Princeton University Press, 2007. – 356 pp; Judith E.Tucker. Women, family and gender in Islamic law. – Cambrige: Cambridge University Press, 2008. – 255 p; Baldauf I. Orient und Frau in der frühen uzbekischen Lyrik. – Berlin, 2008. – 200 s.; Чубукчиева Л. Женский вопрос в истории джадидизма // Из глубины столетий, 2014, № 1/2. – С. 44-51; Өзизова N. Hüseyin Cavid dramaturgiyasında qadinlarin tipləri və Cavidin məhəbbət konsepsiysi. – Baki: Elm, 2005. – 275 s.; Ублых Л. Женщина в арабском мире / <https://dzen.ru/a/ZgWRuJJV-DICNPb4?sid=553651459108632478>; Керимов Т.Н. Проблема эмансипации женщины в творчестве Джемиля Керменчили / <https://ana-yurt.com/qrt/content/problema-emansipacii-zhenschiny-v-tvorchestve-dzhemilya-kermenchikli>; Абибуллаева Э. Роль женщины в видении Исмаила Гаспринского / Крымское историческое обозрение, 2015, № 1. – С. 216-231; Özturkchu N. Çolpan'in Yarkinay piyesinde Kadın / Yangi o‘zbek adabiyotining shakllanishi va takomilida Abdulhamid Cho‘lpon ijodining o‘rnini. 2022. – В. 103-114; Жернова Н.С. Образ женщины в произведениях А.М. Ремизова: к проблеме типологии.

Jahon adabiyotshunosligida xotin-qizlar mavzusi va jadidshunoslikka oid ilmiy-nazariy muammolarni o‘rganish bo‘yicha quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: xotin-qizlar obrazini qiyosiy-tarixiy va qiyosiy-tipologik aspektida o‘rganish, xotin-qizlar obrazi genezisi va takomil bosqichlari, o‘zbek jadid adabiyotida obrazning bu turiga yondashuv mezonlari va o‘ziga xos talqini, jadid shoiru adiblar ijodiy laboratoriyasi, milliy xarakter va umumbashariy qadriyatlar sintezi, Sharqu G‘arb madaniy aloqalari ta’sirida poetik tasvir va talqinlar transformasiyasi tadqiqi.

O‘zbek jadid adabiyotida xotin-qizlar obrazining evolyutsion takomili bilan bog‘liq muammolar bugungi kunga qadar maxsus tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilgan emas. Shunga qaramay, ayollarning jamiyatda tutgan o‘rni, ijtimoiy-siyosiy va madaniy taraqqiyotdagi xizmatlari tarixiy aspektida muayyan darajada tadqiq etilgan<sup>3</sup>.

O‘zbek adabiyotshunosligida milliy uyg’onish davrida ijod qilgan shoiralar adabiy merosining xalqimiz adabiy-ma’rifiy va estetik tafakkuri rivojida tutgan o‘rni, ularning lirik va epik asarlarida o‘sha zamon ayolining ijtimoiy ahvoli, orzu-o‘ylari, armonlari talqini yuzasidan bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan<sup>4</sup>.

---

Дисс.канд.филол.наук. – Вологда, 2018. – 201 с.; Саттар Н. Кадимисты о джадидах /<https://dzen.ru/a/YFuBNiHqlEoGfR8G?sid=553651459108632478>.

<sup>3</sup> Жўраева Н.Д. Ўзбекистон ижтимоий-иктисодий ва маданий ҳаётида хотин-қизларнинг ўрни (XX асрнинг 20-30 йиллари). Тарих фан.номз....дисс. – Тошкент, 2004; Хидирова Н. Аёллар масаласига оид манбалар ва уларнинг таҳлили (XVI-XX аср бошлари Ўрта Осиё мисолида) // Journal of Central Asian Renaissance, Volume 2, Issue 1, 2021. – Р. 37-47; Расулов А. Жадидчилик ҳаракатида татар аёлларининг тутган ўрни / Жадид маърифатпарварлик ҳаракатининг ғоявий асослари. – Тошкент: Тошкент ислом университети, 2016. – Б.175-183; Насретдинова Д. Туркистон маданий ҳаётида татар аёллари. – Toshkent: Yangi nashr, 2015. – 184 б.; Rajabova D. Turkistonda jadid qarashlarida ayollar va yoshlar masalasi: tarix fan.nomz...diss. – Toshkent, 2015; Шодмонова С. XIX аср охири-XX аср бошларида Туркистон матбуотида хотин-қизлар ҳукуклари ҳақидаги мунозаралар / <https://einfolib.uz/index.php/2020/10/17/xix-asr-ohiri-xx-asr-boshlarida-turkiston-matbuotida-hotin-qizlar-huquqlari-haqidagi-munozaralar/>; Muhiddin R. Turkistonda aholiga tibbiy yordam ko‘rsatish va xotin-qizlar masalalari davriy matbuot talqinida (1870-1917 yillar) / Ўзбекистон олимлари ва ёшларининг инновацион илмий-амалий тадқиқотлари. – Тошкент, 2021, 30 июн. -Б.7-10.

<sup>4</sup> Кодирова М. Шоира Анбар. – Тошкент, 1991; Мұхаммаджонова Л. Маърифатпарвар шоиралар – Дилшод Барно ва Анбар Отиннинг ахлоқий қарашлари. Фалсафа фан.номз...дисс. – Тошкент, 2005; Эшонова С. Қўқон шоиралари: Нисо ва Хоний ижоди. Филол.фан.номз...дисс. – Тошкент, 2006; Давлатова А. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиётида эстетик идеал муаммоси. Филол.фан.номз...дисс. – Тошкент, 2011; Пардаева

Jadid adabiyoti namoyandalari bo‘lgan ayol ijodkorlar she’rlari XX asr boshlaridayoq alohida to‘planib nashr etilgan<sup>5</sup>. Mazkur nashrlarda o‘sha davr xotin-qizlari obrazi, ayol va jamiyat munosabatlari, shoiralarning milliy ozodlikka doir qarashlari o‘ziga xos talqin etilgan.

Sho‘rolar zamonida jadid adabiyotini o‘rganish butunlay taqiqlangani ma’lum. Natijada bu mavzuda tadqiqotlar yaratish imkoniyati cheklangan. Jadid adabiyoti va unda xotin-qizlar obrazi talqini masalalari mustaqillik davridagina xolis o‘rganila boshladi. Jadidshunos Begali Qosimov ilmiy asarlarida qardosh qrim-tatar va o‘zbek adabiyoti bu jihatdan alohida ajralib turishi, o‘zbek jadid she’riyati, nasri va dramalarida ayol obrazining badiiy takomili yuzasidan konseptual ilmiy qarashlar bildirilgan<sup>6</sup>. Bundan tashqari, jadid she’riyati, nasri va dramaturgiyasiga doir tadqiqotlarda xotin-qizlar obrazi evolyutsiyasi bo‘yicha e’tiborga loyiq ilmiy-nazariy tahlillar amalga oshirilgan<sup>7</sup>. Biroq zikr etilgan tadqiqotlarda jadid adabiyotida xotin-qizlar obrazining tadrijiy takomili maxsus tadqiq qilinmagan.

---

Н. Анбар Отин асарларида муаллиф ижодий нияти ва бадиий-эстетик идеалининг поэтик ифодаси. Филол.фан.б.фалс.док....дисс. – Тошкент, 2022.

<sup>5</sup> Даврон И. Ашъори нисвон (литотипография). – Тошкент: И.И.Вайнер типографияси, 1914; Oybek. Erk kuylari. (Nashrga tayyorlovchi O.Hamroyeva). – Toshkent: Bookmany print, 2024. – 46 bet.

<sup>6</sup> Косимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. – Тошкент: Маънавият, 2002. – 400 б.; Уйғонган миллат маърифати. – Тошкент: Маънавият, 2011. – 320 б.; Миллий уйғониш даври адабиёти. 2-жилд. – Тошкент: Faafur Fулом номидаги НМИУ, 2022. – 340 б.

<sup>7</sup> Кўшжонов М. Абдулла Қодирийнинг тасвиirlаш санъати. – Тошкент: Фан, 1966. – 76 б.; Ўзбекнинг ўзлиги. – Тошкент: Халқ мероси, 1994. – 136 б.; Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. – Тошкент: O‘zbekiston, 2008. – 536 б.; Лутфидинова Х. Ёзувчининг эстетик идеали ва аёллар образи (“Ўтган кунлар” ва “Кеча ва кундуз” романлари мисолида). Филол.фан.номз....дисс. – Тошкент, 1994. – 141 б.; Норматов У. Қодирий мўъжизаси. – Тошкент: O‘zbekiston, 2010. – 272 б.; Жабборов Н. Маърифат надир. – Тошкент: Маънавият, 2010. – 112 б. Каримов Б. Абдулла Қодирий феномени. – Тошкент: Info kapital group, 2019. – 480 б.; Чўлпон ва танқид. – Тошкент: Адабиёт жамғармаси, 2004. – 84 б.; Фаниев И. Фитрат драмалари поэтикаси ва фитратшунослик. – Бухоро: Дурдана, 2024. – 598 б.; Афоқова Н. Ўзбек жадид адабиётида шеърий шакллар тараққиёти тамойиллари: Филол.фан.д-ри...дисс. – Тошкент, 2005. – 281 б.; Abdirashidov Z. Ismoilbek suygan ayollar // Tafakkur, 2011, 4-сон. – В. 63. Қурунов Д. Чўлпон насли поэтикаси. – Тошкент: Шарқ, 2004. – 288 б.; Ризаев Ш. Жадид драмаси. – Тошкент: Шарқ, 1997. – 320 б.; Matqurbanova D. Cho‘lponning “Gavharoy” hikoyasida ayol taqdiri tasviri // O‘zbek tili va adabiyoti, 2021, 2-сон. – В. 94-98; Усманова С. Ўзбек ва инглиз романларида аёл руҳияти тасвири (Абдулҳамид Чўлпон ва Самуэль Ричардсон ижоди мисолида). Филол.фан.б.фалс.док...дисс. – Фарғона, 2021. – 142 б.

O‘zbek jadid adabiyotida xotin-qizlar obrazining tadrijiy takomilini ochib berish, lirik, epik va dramatik asarlardagi obrazlar misolida ayol dunyoqarashi va faoliyatidagi o‘sish jarayoni badiiy talqinining evolyutsion bosqichlarini aniqlash hamda ilmiy-nazariy asoslash mazkur tadqiqotning maqsadi deb belgilandi. Monografiyada quyidagi vazifalar qayd etildi:

xotin-qizlar obrazining o‘zbek mumtoz adabiyotidagi badiiy talqiniga xos xususiyatlarni belgilash;

o‘zbek jadid she’riyatida xotin-qizlar obrazi erk va ozodlik g‘oyasining badiiy-estetik asosi ekanini hamda ona obrazining poetik takomili masalasini ilmiy asoslash;

o‘zbek jadid nasrida xotin-qizlar timsoli evolyutsiyasini milliy ruh va “Yevropa ayoli” obrazining badiiy tasviri kesimida yoritish;

badiiy nutq va konflikt o‘zbek jadid dramasida xotin-qizlar obrazi takomilining estetik asosi ekanini ilmiy dalillash;

xotin-qizlar obrazining jadid adabiyotidagi tadrijida ijodkor badiiy mahoratining o‘rni masalasini yoritish hamda nazariy umumlashtirish.

Xotin-qizlar obrazining o‘zbek mumtoz adabiyotidagi tadriji va jadid adabiyotida yangilanish tamoyillari, lirik, epik va dramatik asarlardagi takomilini belgilashda Cho‘lpon, Hamza, Avloniy, Tavallo she’rlari, Qodiriy, Cho‘lpon, Hamza romanlari va hikoyalari, Hamza, Cho‘lpon, Fitrat, Xoji Muin, Nusratilla Qudratilla kabi ijodkorlarning dramatik asarlari asosiy manba vazifasini bajardi. Bunda qiyosiy-tarixiy, analitik, sotsiologik, lingvopoetik tahlil usullaridan foydalanildi, natijada quyidagi ilmiy yangiliklarga erishildi:

xotin-qizlar obrazining genezisi va tadrijiy takomili Qur’oni karimda zikr etilgan Maryam, Oysha, Bilqis va Zulayxo singari ayollardan Xorazmiy, Sayyid Qosimiy, Alisher Navoiy asarlaridagi yor timsoligacha, Zahiriddin Boburning ulug‘ onasi Eson Davlatbegimdan jadid shoimu adiblar she’riy, nasriy va dramatik asarlaridagi personajlargacha evolyutsion jarayonni o‘tagani misollar orqali asoslangan;

jadid she’riyatida xotin-qizlar obrazi ezgulik va qabohat, ma’rifat va jaholat, erk va istibdod o‘rtasidagi kurashni ifoda etgani, ayol mustamlaka iskanjasida qolgan Turkiston ramzi sifatida estetik

ideal darajasiga yuksalgani, Vatan va millat taraqqiysi timsoli o‘larq tasvirlangani ochib berilgan;

o‘zbek jadid nasri misolida xotin-qizlar obrazi ma’rifat va oriyat (“Yangi saodat”, Maryam), hayo va ibo (“O’tkan kunlar”, Kumush), qat’iyat va jasorat (“Mehrobdan chayon”, Ra’no), sharqona andisha va xoksorlik (“Kecha va kunduz”, Zebi), mutelik va haqsizlik qurboni (Cho‘lpon hikoyalari, Sharofatxon va Gavharoy) timsoli sifatida davr, muhit hamda o‘zbek ayollari tabiatiga xos milliy xususiyatlarni aks ettirgani, o‘zbek qizlari xarakteri takomillashuvida muhim o‘rin tutgani dalillangan;

jadid dramalarida ayollar bosh obraz sifatida ijodkor konsepsiyasini ifodalagani, ijtimoiy-siyosiy muhit va bosh qahramonlar fojeiy qismati, diniy mutaassiblik va ayol baxti o‘rtasidagi ziddiyat fonida personaj ruhiyati va kechinmalari, iztiroblari-yu quvonchlari, o‘tkir farosati va zakosi dramatik tasvirlangani isbotlangan;

she’riyatda lirik, nasrda epik, sahma asarlarida esa dramatik tasvir vositasida **yangi ayol** obrazi tasviri tadrijiy ravishda takomilga erishgani, milliy ruhiyatning realistik tasviri yetakchilik qilgani, o‘zbek va “Yevropa ayoli” obrazlariga yuklangan estetik funksiya ijodkor badiiy niyatini aks ettirgani, xotin-qizlar obrazi tasvirida poetik nutqning mubolag‘a, metafora, qarg‘ish, kakofemizm va evfemizm singari turlari san’atkorona qo‘llangani aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati jadid adabiyotiga doir nazariy fikrlarni to‘ldirishi va boyitishi, xususan, xotin-qizlar obrazining genezisi va evolyutsiyasi o‘rganilgani, o‘zbek jadid she’riyati, nasri va dramalari ayol obrazining estetik vazifasi, ijodkor individual badiiy tafakkuri va idealini ifodalagani, lirik kechinma, epik ko‘lam va dramatik vaziyatlar kompleks tahliliga doir yangi ilmiy qarashlardan nazariy manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Chiqarilgan ilmiy-nazariy xulosalar, dalillar va mulohazalardan oliv o‘quv yurtlari bakalavriat va magistratura bosqichlari uchun “O‘zbek adabiyoti tarixi” hamda “Jadid adabiyoti tarixi” fanlari bo‘yicha darslik, o‘quv, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar yaratish, ma’ruzalar, maxsus kurs, seminarlarda foydalanish mumkin.

## I BOB. O‘ZBEK ADABIYOTIDA XOTIN-QIZLAR OBRAZINING TARAQQIYOT BOSQICHLARI

### 1.1. O‘zbek mumtoz adabiyotida xotin-qizlar obrazining badiiy tadriji

Insoniyat badiiy tafakkurining ibtidosidan to bugungi kunga qadar xotin-qizlar obrazi muayyan takomil bosqichlarini o‘tagani ayon. Milliy adabiyotimiz tarixining ilk davrlaridan zamonaviy adabiy jarayongacha ayol obrazi evolyutsiyasi muayyan estetik qonuniyatlarga tayanadi. Ushbu obraz yangilanishining poetik asosi jadid adabiyotidan boshlanadi. Jadid adabiyoti, o‘z navbatida, o‘zbek xalq og‘zaki ijodi, mumtoz badiiy tafakkur va jahon adabiyoti tajribalari asosida xotin-qizlar obrazini yangi takomil bosqichiga olib chiqdi. Buyuk nemis faylasufi I.Kant har bir davrning o‘ziga xos qiyofasi borligini yozganida benihoya haq edi. Uning ahamiyati shundaki, davr taraqqiyoti ayollarning intellektual darajasi bilan belgilanishidadir. Kantning fikricha, ayol kishi har qanday taraqqiyot shakli mavjudligining mezoni va asosidir. Yer yuzida jamiyat shakllanib, adabiyot deb atalgan hodisa vujudga kelgandan beri uning negizida boqiy mavzu – muhabbat va u bilan bog‘liq holda ayol obrazi markaziy o‘rinlardan birida turadi.

Insonning yaratilishi haqidagi manbalarda yozilishicha, Haq taolo Odam alayhissalomning chap qovurg‘asidan Momo Havvoni yaratgan, husnni yuz hissaga bo‘lib, to‘qson to‘qqizini Havvoga bergen va Hazrat Odam Havvoga “ko‘p rog‘ib (rag‘batli, moyil)” bo‘lgan<sup>8</sup>. Shuning uchundir mashhur olmon shoiri Iogann Wolfgang Gyote har bir erkak o‘z vujudini qanday ehtiyyot qilsa, ayolini ham shunday ehtiyyot qilmog‘i, nazokatu nafosat, latofatu muruvvat bilan munosabatda bo‘lishga chaqiradi:

*Ayollarga zulm o‘tkazma, bo ‘lma toshbag‘ir,  
Ular qiyshiq qovurg‘adan yaralgan, axir.  
Netsin, Olloh yaratibdi ularni shundoq,  
Sinib qolar to‘g‘rilashga uringaning choq.  
O‘z holiga qo‘ysang – battar qiyshayadi ul,  
Odam o‘g‘li, o‘zing tanla, qay biri ma’qul.*

<sup>8</sup> Bu haqda qarang: Рабғузий Носируддин. Қиссаси Рабғузий. Нашрга тайёровчи ва изоҳлар муаллифи Б.Абдушукуров. – Т.: Ёшлар нашриёт уйи, 2018. – Б. 21.

*Muruvvat qil, senga qarshi qilsalar-da jang,  
Yaxshi emas, sinib qolsa bitta qovurg‘ang<sup>9</sup>.*

Zero, Qur’oni karimda “Niso” (“Ayollar”) nomi bilan alohida sura nozil qilingani ham Islom dinida xotin-qizlarga ehtirom ayricha bo‘lganini ko‘rsatadi. Surada ayollarga tegishli barcha hukmlar, ularning huquqlari, zimmalaridagi burch-vazifalariga maxsus urg‘u berilgan. “Insoniyat Islom dini kelgunga qadar ayol kishi haqida katta xato tasavvurda va ahmoqona munosabatlarda edi. ...xususan, g‘arb xalqlari orasida ayol kishi haqida bo‘hton nazariyalar to‘qilgan edi. Ya’ni, ayol kishi shaytonning malayi bo‘lib, erkak kishini yo‘ldan ozdirish uchun yaratilgan, degan fikr hukm surgan. Shuning uchun ular ayol kishini ko‘rishni ham istamas, undan shaytondan qochganday qochar, ayol kishiga ko‘zlar tushib qolsa, tavba qilishga shoshilar edilar. Shu davrda Ovrupada odam ko‘paymay qolgani hammaga ma’lum. Eng achinarlisi, hozirda ayollarning homiyligini va ularning ozodligining garovdorligini da’vo qilayotgan Ovrupada bir vaqtlar ayol o‘zi aslida kim ekanligini “aniqlash” uchun maxsus anjuman ham o‘tkazilgan. Bu yig‘in ayolni “erkak xizmatiga yaratilgan maxluq”, deb qaror chiqargan. Islom dini bu taxlit bid’at va xurofotlarning barchasini barbod etib, ayolning teng huquqli inson ekanini, uni ham Alloh yaratganini, erkakka juft qilganini, ikkovlaridan ko‘plab erkagu ayollarni taratilishini e’lon qilgan”<sup>10</sup>.

Manbalar o‘rta asrlarda ayollarga og‘ir bo‘lganini ko‘rsatadi. “Yevropada qiz bolani har qanday o‘tkinchi yo‘lovchi joduda ayblashi mumkin edi. XIV asrdan XVIII asrgacha bo‘lgan davrda Yevropada “jodugar”likda ayblanib, taxminan 40-50 mingta inson olovda yoqib yuborilgan. Ularning ko‘pchiliginи esa xotin-qizlar tashkil qilgan. 1613 yili Niderlandiyada mashhur Rumor sudi bo‘lib o‘tdi va unda butun Yevropada misli ko‘rilmagan darajada ko‘p “jodugar”lar yoqib yuborildi. Birinchi bo‘lib gulxanga yangi tug‘ilgan chaqaloqlarni la’natlashda ayblangan doya ayol Enten Djillis tashlangan va shunga o‘xshash bir qancha yolg‘on ayblovlар

<sup>9</sup> [http://www.dunyouzbeklari.com/?p=63409&fdx\\_switcher=true&replytocom=12122](http://www.dunyouzbeklari.com/?p=63409&fdx_switcher=true&replytocom=12122) // Жумаев Б. Аёл – иқбол – истиқбол... (3-қисм)

<sup>10</sup> Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. Тафсири Хилол. 1-жуз. – Т.: Hilol nashr, 2019. – Б. 458.

bilan jami 63 nafar ayol olovda yondirildi. Bundan tashqari johiliya davrida ham ayollarga nisbatan g‘oyatda yomon munosabatda bo‘lingan. Yangi tug‘ilgan qiz farzandlar tiriklayin ko‘milgan. Ayollarning hech qanday huquq va erkinliklari bo‘lmagan, ularga past nazar bilan qaralgan»<sup>11</sup>. Islomga qadar mavjud bo‘lgan ko‘plab taraqqiy etgan mamlakatlarda ayollarning huquqlari cheklangani kuzatiladi. Bular jumlasiga Yaponiya, Xitoy, Misr, Rim, Hindiston kabi davlatlarni kiritish mumkin<sup>12</sup>.

Mavzuga tegishli qator tarixiy kitoblar butun dunyoda ayol kishining jamiyatdagi o‘rniga past nazar bilan qaralib, qadr-qimmat, haq-huquqlari toptalgan, erki va huquqi o‘z qo‘lida bo‘lmagan kimsa kabi noto‘g‘ri baho berib kelinganiga guvohlik beradi. Buning sababi insonlarda ilm yo‘qligi edi. Vaholanki, dinning mohiyatini anglash – tinchlik va to‘g‘ri munosabatlar garovidir. Aynan Islom kirib kelishi bilan xotin-qizlarning haq-huquqlari erkaklar bilan tenglashdi. Ayollik maqomi yuksaldi. Ilk xalifalik davrida ayollar e’tiborli rutbalarda bo‘lishgan, biroq keyinchalik ular siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotdagi faol ishtirokidan uzoqlashib, faqat uy va oila ishlari bilan cheklanib qolgan<sup>13</sup>.

Aslida, ayol kishi ishlamasligi, ta’lim olmasligi, ijtimoiy faoliyat yuritmasligi kerak degan qarashlar mutlaqo islomga yot. Gap shariatga ko‘ra ayollar haq-huquqlariga amal qilinishida. Ko‘pchilik tenglik va bir xillik tushunchalarini adashtirishadi. Ayollarning huquqlari erkaklar bilan tenglashtirilgan, lekin bu degani aslo bir xil degani emas. Islom ayol kishining jamiyat oldida teng huquqli bo‘lishini talab qiladi. Musulmon ayolining o‘rni va maqomi, burchi, huquqi va erkinliklari Qur’oni karim va Hadislarda aniq ko‘rsatib qo‘yilgan.

Payg‘ambarimiz Muhammad (sollallohu alayhi va sallam) Hadisi shariflarida “Baxtning to‘rtta tarkibiy qismi bor: Munosib xotin, yaxshi bolalar, yaxshi do‘sstar va oilaviy hayot”, deb

<sup>11</sup> Karimova Sh. Badiiy asarlarda ayollik ibrati. Scientific Progress, Volume 2 / Issue 1 / 2021 <https://cyberleninka.ru/article/n/badiiy-asarlarda-ayollik-ibrati/viewer>

<sup>12</sup> Bu haqda qarang: Абдуллаев М.А. Правовое положение женщины в исламе // Актуальные проблемы российского права. 2008. № 3. – С. 569-575.

<sup>13</sup> Қаранг бу ҳақда: <https://cyberleninka.ru/article/n/zhenskiy-islamizm-fenomen-hhievka/viewer> / Балтанова Г.Р. Женский исламизм – феномен XXI века // Вестник экономики, права и социологии, 2016, № 1. – С. 224-229.

aytganlar. Darvoqe, erkakning baxtu saodati-yu farzandlar kamoli, jamiyat ravnaqi, millat taraqqiyoti – bularning bari ayol, uning aqlu zakovati, ilmu ma’rifati, hilmu odobi, dunyoqarash-u matonatiga bog‘liq. *Islomda ayollar ulug‘lanishining boisi uning “zaifa”ligidan emas, balki erkaklarning ayollar oldida mas’uliyatini oshirishni nazarda tutilganidan ekanini anglash zarur.* Alloh taolo oldida erkak va ayollar barobar. Ayollarga ham xuddi erkaklarga bo‘lgani singari namoz o‘qish, ro‘za tutish, ehsonlar qilish, Haj ziyorati buyurilgan, hatto ular ba’zi masalalarda imtiyozlarga ega. Shunchalikki, er mabodo xotinini xushlamasa ham, unga yaxshi muomalada bo‘lishga chaqirilgan: “*Va ular ila yaxshilikda yashangiz. Agar ularni yoqtirmasangiz, shoyadki, Alloh siz yoqtirmagan narsada ko‘pgina yaxshiliklarni qilsa*” (*Niso surasi, 19-oyat*).

Qur’oni karimda ayricha diqqat qilinadigan xususlardan birinchisi, ayollarning aksariyati payg‘ambarlarning onalari yoki rafiqalari sifatida tasvirlangan. Bu muborak kitobdagi 19 sura “Maryam” nomi bilan ataladi. “*Yana o‘z nomusini saqlagan ayol – Maryam binti Imronni (misol keltirdi). Bas, Biz o‘z (dargohimizdagi) ruhimizdan unga pufladik (va u Isoga homilador bo‘ldi). U Parvardigorining so‘zlarini va kitoblarini tasdiq etdi hamda (Uning amriga) itoat etuvchilardan bo‘ldi*” (Tahrim surasi, 12-oyat). U turli o‘rinlarda 34 marta zikr etilgan. Maryamga Janobi Haq osmondan dasturxon yuborib turgan. Iso alayhissalom Qur’oni karimda Maryam o‘g‘li Iso deb nisbalanishi ham Alloh taoloning islomdagi barcha ayollar, xususan, Maryam onamizga lutfidir.

Rasululloh (sollallohu alayhi va sallam) bir hadisi shariflarida: “Jannat ayollarining eng yaxshisi Maryam binti Imron, Osiyo binti Mazohim, Xadicha binti Huvaylid va Fotima binti Muhammad”, deb marhamat qiladilar (Muttafaqun alayh).

Qur’oni karimning boshqa suralarida kelgan Oysha (r.a.), Bilqis va yana ko‘plab ayollar obrazi keyinchalik Sharq mumtoz adabiyotida ko‘plab asarlarning vujudga kelishiga zamin hozirladi. Masalan, Qur’oni karimda eng go‘zal qissa, deb e’tirof etilgan Yusuf va Zulayho (Qur’onda Zulayho ismi bilan emas, Azizning xotini, malika deb keltiriladi) qissasi (“Yusuf” surasi, 23-33 oyatlar)da ayol timsoliga alohida diqqat qaratilgan. Unda Yusuf alayhissalomning

Misrda qul qilib sotilganidan keyingi hayotlari va Misr Azizining rafiqasi Zulayhoning unga oshiq bo‘lishi bilan bog‘liq voqealar hikoya qilinadi. Ozarbayjonlik olim X.G.Ko‘ro‘g‘lining aniqlashicha, turkiy adabiyotning o‘zida “Yusuf va Zulayxo” haqida 50 ga yaqin asar yaratilgan<sup>14</sup>. Jumladan, Qul Ali (“Qissai Yusuf”), Nosiriddin Rabg‘uziy (“Qissai Yusuf Siddiq alayhis-salom”), Durbekka nisbat berilgan (“Yusuf va Zulayxo”), Haydar Xorazmiy, Mulla Yusuf Yorkandiy, Nozim Hiraviy, Sayqaliy, Xiromiy, Salohiy, Andalib (“Yusuf-Zulayxoyi turkiy”)<sup>15</sup>, Hoziq<sup>16</sup> kabilarning epik yoki lirik uslubdagi dostonlari shular jumlasidandir<sup>17</sup>.

Qur’oni karimga tayanib yozilgan “Qissasi Rabg‘uziy” asarida ham ayol obrazi muallifning diqqat-markazida turgan. Ma’lumki, «Qissasi Rabg‘uziy» asari turkiy tilda yozilgan dastlabki nasr namunalaridan biri bo‘lib, mo‘g‘ul xonlaridan To‘qbug‘axon iltimosi va homiyligida hijriy 710 (milodiy 1310) yilda Xorazm hududidagi Raboti O‘g‘uzning qozisi, alloma adib Nosiruddin Rabg‘uziy tomonidan yozib tugallagan<sup>18</sup>. Qissalar turkumida Odam Ato va Momo Havodan boshlab to Muhammad (s.a.v.)gacha yashab o‘tgan payg‘ambarlarning hayoti, amallari, o‘y-fikrlari hikmatlar, rivoyatlar orqali mohirona aks ettirilgan. Umuman, asarda Islom falsafasi va Sharqona qadriyatlar o‘zaro uyg‘unlashib ketganligining guvohi bo‘lamiz.

Muallif Odam Atoning yonida Momo Havvoni, Ibrohim payg‘ambar bilan Sora raziyallohu anhuni, Ismoil payg‘ambar bilan onasi Bibi Hojarni, Yusuf bilan Zulayhoni, Isoning validasi Bibi Maryamni, Muhammad (s.a.v.)ning yonida Xadicha raziyallohu anhu va Oyisha raziyallohu anhuni o‘ziga xos tarzda tasvirlaydi.

<sup>14</sup> Короглы Х.Г. Сюжет о Юсуфе о Зулайхе в тюрских литературах // СВ. 1975, № 3.

<sup>15</sup> Андалибнинг бошқа асарлари ҳақида маълумот олиш учун Qarang: Каримбой Курамбоев. Андалиб ва Фурқат // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 1971. – № 2. – Б. 25; Б.А.Карриев. Навоий ва туркман адабиёти. // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 1972. – № 2. – Б. 42.

<sup>16</sup> Qarang: Шодиев Эргашали. Ҳозик куллиёти // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 1971. – № 2. – Б. 60-61.

<sup>17</sup> Bu haqda to‘liqroq ma’lumot olish uchun qarang: Жумаева Д. “Юсуф ва Зулайхо” туркумидаги достонларнинг қиёсий-матний тадқиқи. Филол фан. бўйича фалс. докт. дисс. – Т., 2020.

<sup>18</sup> Rabg‘uziy asarni yozishda Abu Is’hoq Nishopuriyning forscha «Qissas ul-anbiyo»sidan, Vahb ibn Munabbihning arab tilidagi «Ka’b ul-axbor» asaridan alohida foydalanganligi qayd etiladi. Qarang: Остонакулов И. Қиссас ар-Рабғузий – адабий асар. Филол фан.номз. дисс. – Т., 1993.

Masalan, Ibrohim alayhissalom va ularning ayollari Soraga bir podshoh zulm qilarkan, Sora onamiz Ibrohim payg‘ambarning yonlarida turib, mardonavor tarzda o‘zlarini va nomuslarini himoya qilganlari haqidagi quyidagi lavhani keltirish o‘rinli: “Podshoh Soraga har qancha so‘z qotsa hamki, javob bermadi, ikki qo‘li bilan yuzini to‘sancha yig‘lar edi. Podshoh toqati toq bo‘lib, Soraning yoniga keldi, yuzini ochay deya qo‘lini cho‘zgandi, shu on Ibrohim alayhissalom duo qildi: “Ilohi, bu kofirga qudratingni ko‘rsatgil!” Podshohning ikki qo‘li bo‘ynigacha quridi. Shunda u: “Ey Sora, duo qil, qo‘llarim joyiga qaytsin, seni ozod qilaman!” dedi. Duo qildi, ikki qo‘li joyiga keldi. Yana qasd qilgandi, tag‘in qo‘li quridi. Bu hol uch bor takrorlandi. Shunda zilzila turdi, yer tebrana boshladi. “Sendan menga tekkan bu balolar nimani bildirur, deb so‘radi podshoh. “Yo‘q, mendan emas, ular seni kofirliging va menga nisbatan kuch ishlatganing tufayli yuz berdi”, - dedi Sora. “Men senga kuch ishlatmadim-ku?!” - dedi podshoh. “Sen menga emas, balki Ollohnинг payg‘ambariga kuch ishlatding... sen uni mendan ayirding, bu ranj balolar senga shu tufayli tegdi”<sup>19</sup>.

O‘zbek mumtoz she’riyatida ham xotin-qizlar obrazi alohida ahamiyatga ega bo‘lib, eng kichik lirik janr – farddan tortib, katta epik asar – masnaviy-dostonlargacha ayol obrazi yuksak pardalarda tarannum etilgan. Turkiy nomachiligining ibtidosi bo‘lgan Xorazmiyning “Muhabbatnoma” asari ayol go‘zalligi badiiy talqin etilgan asar sifatida turkiy adabiyotdan munosib o‘rin egalladi. Asar oshiqning yorga yozgan 11 nomasidan iborat bo‘lib, unda nomalardan tashqari g‘azal, qit’a, fard kabi kichik lirik janrlarga xos namunalar ham kiritilgan.

Xorazmiy yor ta’rif-tavsifi, oshiqning ruhiy kechinmalarini, iztirob va qalb tuyg‘ularini mahorat bilan aks ettiradi:

*Ochilsa la ’lingiz, shakar sochilur,  
Ko ‘rub gulг‘unchaning og ‘zi ochilur.  
Bo ‘yingtek sarv yo ‘q bo ‘ston ichinda,  
Yuzing nuridin oy nuqson ichinda.  
Tabassum qilsangiz, shakkar uyolur,  
Tishing injusidin gavhar uyolur.*

<sup>19</sup> Носируддин Рабғузий. Қиссаси Рабғузий. Ҳозирги ўзбек тилига табдил қилувчи Б.Абдушукуров. – Т., 1993. – Б.47.

*Qachonkim tor og ‘zing shakkarbor,  
Sabo gulg ‘unchaning og ‘zin yirtor<sup>20</sup>.*

Shoir mahbubaning portretini chizishda betakror turkona tashbehlar tanlaydi. Nomalarda husn-jamoli, odob-axloqi bilan lirik qahramonni maftun qilgan ma’shuq namoyon bo‘ladi:

*Erurman vaslinga doim talabgor,  
Nechakim tun uzun bo ‘lsa, tongi bor.  
Topilg ‘ay maqsudim topkungda bori,  
Saodat qilsa Xorazmiyg ‘a yori.  
Og ‘ir uyquchi baxtim necha yotqay,  
Visoling mashriqidin ham tong otqay<sup>21</sup>.*

Temuriylar davri adabiyotining yirik vakillaridan biri, to‘rt masnaviy dostoni bilan epik poeziya rivojiga munosib hissa qo‘sghan Sayyid Qosimiyy “Ilohiynoma” asari bilan, obrazli qilib aytilda, ayol sadoqatiga badiiy haykal o‘rnatdi.

*Bor erdi vaqtি bir sohibjamole,  
Nigore nozanine bemisole.  
Malohat kishvarida podshohe,  
Ko ‘zi lashkarkashu husni sipohe.  
Latofat suyidin bo ‘lmish sirishta,  
Kamoli husnina hayron farishta<sup>22</sup>,*

misralari bilan boshlangan doston Sayyid Qosimiyning boshqa asarlaridan tubdan farq qilib, ayol madhiga bag‘ishlangan qomusdir. Uning markazida vafo va sadoqat timsoli ayol turadi. Dostonning nomlanishiyoq Farididdin Attorning shu nomdag'i masnaviysini eslatadi. Haqiqatan, adabiyotshunos olimlar N.Rahmonov, D.Yusupovalar ham mazkur asar Farididdin Attorning shu nomdag'i asariga javob ekanligini tasdiqlashgan<sup>23</sup>. Aslida esa doston Attorning “Ilohiynoma”sidagi bir hikoya asosida yozilgan. Sayyid Qosimiyy doston so‘ngida shunday yozadi:

*Ilohiynomayi Attor bu dur,  
Davayi siynai afgor bu dur.*

<sup>20</sup> Раҳмонов Н. Ўзбек адабиёти намуналари. – Т.: Фан, 2007. – Б. 320.

<sup>21</sup> Раҳмонов Н. Ўзбек адабиёти намуналари. – Т.: Фан, 2007. – Б. 320.

<sup>22</sup> Илохийнома. Ж.Камол таржимаси. – Т., 2007. – Б. 131.

<sup>23</sup> Қаранг: Rahmonov N. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Т.: Sano-standart, 2017. – 556 b.; Юсупова Д. Алишер Навоий “Хамса”сида мазмун ва ритмнинг бадиий уйғулуги. – Т.: Mumtoz so‘z, 2011. – 144 б.

*Oni turki birla Qosimiy aydi,  
Ma’oniy guharini elga yoydi.*

Mumtoz adabiyotda keltirilgan xotin-qizlar tavsifi tarixiy manbalarda davom ettirilgan. Sohibqiron Amir Temur saroyiga elchi bo‘lib kelgan kastiliyalik Klavixo Ryui de Gonzalesning o‘z “Kundalik”larida Bibixonim haqida to‘xtalib, uni “Kano”<sup>24</sup> deb ataydi. O‘z davrida “Bilqisi Sug‘ro”, “Boniyi Kubro”, “Ulug‘ podshohzoda”<sup>25</sup> nomlarini olgan Saroymulkxonimni (1341-1408) 1404-yil 8-sentabrda “Dilkusho” bog‘ida o‘tkazilgan qabul marosimida<sup>26</sup> ilk bor ko‘rgan elchi malikaning tashqi ko‘rinishi haqida gapirar ekan, quyoshdan saqlanish uchun yuziga judayam ko‘p upa surtilganiyu yuzi yengil oq to‘r bilan to‘silganini, oltin rangli qip-qizil libosi-yu qimmatbaho toshli qalpoq va dubalg‘asini, 15 tacha ayol etagini ko‘tarib va 300 dan ortiq aslzoda ayollar ortidan kelayotganini tasvirlab, uning Suriya va Eron podshohi Axinxon (Sulton Qozonxon)ning qizi ekani haqidagi ma’lumotlarni yozib qoldirgan<sup>27</sup>. Zero, Temuriylar Renessansi, xususan, xonimlarga xorijlik mualliflarning ahamiyat qaratishi, qiziqishlari, birmuncha xolis fikr-mulohazalari albatta qimmatlidir. Shu o‘rinda mashhur sayohatchi olim Ibn Battutaning XIV asr birinchi yarmida yashagan turk ayollari hayotiga oid ma’lumotlari diqqatga sazovor. Sayyoh Anatoliya, Oltin O‘rda, Markaziy Osiyo kabi mamlakatlarda uchratgan ayollarni ko‘rib, goh taajjubda, goh hayratda qolib shunday yozadi: “Turk xalqlari orasida ayollarga hurmat-ehtirom juda yuksak. Ular erkaklardan ham ko‘ra balandroq mavqega ega. Bozorga chiqqan ayolga o‘zining eri hamrohlik qilib borar ekan, ko‘rgan odamlar erkaklarni ayolning quli sifatida qabul qilishadi”<sup>28</sup>. Darhaqiqat, u paytlarda hamma joyda ham musulmon ayollari yuzlarini yopishmagan. Xususan, turk va mo‘g‘ul jamiyatida ayollarning yurish-turishlari, mavqeい boshqa xalqlarnikiga nisbatan

<sup>24</sup> <https://www.facebook.com/groups/246149995752425/posts/655182868182467> // Ульжаева III. Клавихо “Кундалик”ларидан

<sup>25</sup> Qarang: Шомий Н. Зафарнома. – Т., 1996. – Б. 129, 138-139.

<sup>26</sup> Фармонов Р., Фармонова М. Амир Темур Кўрагон ва император Наполеон. – Т.: Tamaddun, 2017. – Б. 23.

<sup>27</sup> Bu haqda qarang: Жабборов Р. Бибихоним қабрини нега очишган? // <https://zarnews.uz/vol>

<sup>28</sup> Ру Жан-Поль. Женщины // <https://biography.wikireading.ru/78575>

ancha erkin bo‘lganini ko‘p manbalar tasdiqlaydi<sup>29</sup>. Ko‘chmanchi turkiy xalqlar ayol kishining qudratiga shak-shubhasiz ishongan, bunga asoslari bor edi<sup>30</sup>. Garchi oila boshlig‘i erkak kishi bo‘lib qolsa-da, erkakning sha’ni va g‘ururi ayolning zimmasida bo‘lgan. Professor Q.Yo‘ldoshev ta’biri bilan aytganda, “... *o‘zbek qizlari minglab yillar davomida o‘zi va yaqinlarining orini saqlashni eng yuksak a’mol sanaganlar*”<sup>31</sup>. Turkiy xalqlarda ayolning qadr-qimmati qanday ekanini xalq og‘zaki ijodi namunalari ham tasdiqlaydi<sup>32</sup>.

O‘rta asrlarning eng zabardast mutafakkiri, so‘z mulkining sultonı Alisher Navoiy hayoti va ijodiy faoliyatida oila, ona, ayollar masalasiga nihoyatda jiddiy va samimiyat bilan yondashilgan. Uning lirik asarlarida yor obrazi orqali tarannum etilgan nozik xilqat sohibalari o‘z go‘zalligi, vafo-sadoqati, ayrim o‘rinlarda jafokorligi va sitamkorligi bilan o‘ziga xos timsol darajasiga ko‘tarilgan:

---

<sup>29</sup>Елеулова А.А. Положение женщины в золотоордынской цивилизации // <https://ozattar.kz/ru/material/view?id=15741>

<sup>30</sup> Ayollar tarixini doimo erkaklar yozgan / Turkonxotun, Xotinkent va matriarxat @Qurultoy // <https://www.youtube.com/watch?v=2XzaLe5-NgM>

<sup>31</sup> [http://www.dunyouzbeklari.com/archives/9694?amp%3Bfdx\\_switcher=true](http://www.dunyouzbeklari.com/archives/9694?amp%3Bfdx_switcher=true) // Йўлдошев К. Ўзбек аёлининг маънавияти.

<sup>32</sup> Turkiy xalqlarda ayolning qadr-qimmati qanday ekanini xalq og‘zaki ijodi namunalari ham tasdiqlaydi: ...*Xo‘ja kelsa, chiqar murid naziri, Xotin bo‘lmasmikan ernening vaziri?! Er deganning aqlin olmas bo‘lurmi? Aldab-suldab yo‘lga solmas bo‘lurmi?* “Alpomish”da Barchinoyning onasiga aytgan bu so‘zları xotin-qizlarning sirli tomonlarini namoyon qilgandek bo‘ladi. Oilaparvar o‘zbek ayoli o‘zini oila sohibidan aslo ustun tutmaydi, biroq oqilona yo‘l bilan qudratini namoyish etadi. Turkiy xalqlar og‘zaki ijodida eng qadimgi zamonlardayoq xotin-qizlarning ta’lim-tarbiyasi masalasiga alohida e’tibor qaratilgan. “Eng muhimi esa, ayollar ya’ni xotunlar bo‘lg‘usi hoqonlarning onasi bo‘lganliklari uchun ham ularning tarbiyasiga, mavqeiga katta e’tibor bergenlar. Bu tasavvurlar “Alpomish” dostonida Barchin va Qaldirg‘och obrazlari orqali yaxshi ochib berilgan” (Эшонқул Ж. Эпик тафаккур тадрижи. – Т.: Фан, 2006. 29-б.). Xususan, Barchinning go‘zalligi, oqilaligi, ma’naviy barkamolligi mardlik, jasurlik, jangovarlik, yurtparvarlik, xalqparvarlik kabi fazilatlari bilan uyg‘un bo‘lgan. Tadqiqotchi Galima Musina “O‘zbek xalq dostonlarida xotin-qizlar obrazi” kitobida “Barchin obrazining yaratilishida ma’lum bir tarixiy shaxs sabab bo‘lgan. Tarixda o‘tgan alp ayollar obrazining xalq dostonlarida ko‘tarinkilik bilan kuylanish sabablari ham shundadir” (Мусина Г. Ўзбек халқ достонларида хотин-қизлар образи. – Т.: Фан, 1983. – Б. 43), - deydi. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li kuylagan Barchin obrazi Alpomishning nafaqat sadoqatli yori, balki jamiyatdagi ijtimoiy masalalarga,adolatsizlikka isyon ko‘targan ayol qiyofasida gavdalanadi. Turkiy xalqlarda ayollarning jamiyatda tutgan o‘rnii, mavqeい baland turganini tasdiqlovchi ko‘plab ma’lumotlar uchraydi. Shulardan biri “O‘rxun-Yenisey yodgorliklarida yozilgan Bilga Qoonning gaplarida “O‘maydek onam Xotun”, deb hurmat bilan tilga olingan bu ayolning oila va urug‘ining tirikchiligidida juda katta roli borligi bilinib turadi” (Мусина Г. Ўзбек халқ достонларида хотин-қизлар образи. – Т.: Фан, 1983. – Б. 45).

*Qosh birla, ko ‘zing yaxshi, qabog ‘ing yaxshi,  
Yuz birla so ‘zing yaxshi, dudog ‘ing yaxshi,  
Eng birla menging yaxshi, saqog ‘ing yaxshi,  
Bir-bir ne deyin, boshdin ayog ‘ing yaxshi.*

Navoiy “Xamsa”sining to‘rtala dostonida ham xotin-qizlar obrazi muhim rol o‘ynagan bo‘lib, Layli, Shirin, Dilorom, Ravshanak, Mehrnoz, Chin go‘zali va boshqalar shular jumlasidandir. Navoiy xayol ko‘zgusidagi ideal ma’shuqani Shirin obrazida mujassamlashtiradi. “Navoiyning Shirini juda olijanob qiz. U Farhodning samimiyl muhabbatini qadrlaydi va unga o‘zi ham oshiq bo‘ladi. Shirin Farhodning kimligini bilmagani holda unga ko‘ngil qo‘yar ekan, podshoh Xusravni oddiy toshtarosh hunarmanddan baland qo‘ymaydi. Farhodning vafotini eshitib, qattiq qayg‘uradi, Xusrav va uning padarkush farzandi Sheruyaga xotin bo‘lganidan Farhodga sodiqligicha halok bo‘lishni afzal ko‘radi”, - deyiladi “Alisher Navoiy: qomusiy lug‘ati”da.

N.Komilov “Tasavvuf” kitobida ta’kidlashicha, Shirin Navoiyning dostonida Yaratganning mazhari sifatida namoyon bo‘ladi. Uning pok surati va siyrati Haq zotida fano bo‘lgan pokiza Farhodni o‘ziga butkul shaydo, ishqiga giriftor etgan edi:

*Ko ‘rub Shirinni hayrat lol qildi,  
Taajjub bir yo ‘li behol qildi<sup>33</sup>.*

Zotan, Shirin timsoli O‘rta asrlar Sharq adabiyotining eng mashhur obrazlaridan biri bo‘lib, yildan yilga, asrdan asrga, xalqdan xalqqa o‘tgani sayin sayqallahib, poetik takomilga erishib bordi. Navoiy yaratgan ayollar obrazi orasida Shirin benihoya go‘zalligi, komil axloqi, chin sevgi qahramoni ekani bilan alohida ajralib turadi. Shirin obrazining genezisi adabiyotshunoslar tomonidan ko‘p marotaba tadqiq etilgan<sup>34</sup>. Nurboy Jabborov “Tarixi muluki Ajam”dagi ma’lumotlarga tayanib, bu obrazni tarixiy shaxs sifatida talqin etsa<sup>35</sup>, ozarbayjon adabiyotshunosi S.Shixeeva uning kelib chiqishi turkiy ekani haqidagi to‘xtamini dalillaydi<sup>36</sup> (qarang: **I-**

<sup>33</sup> Комилов Н. Тасаввуф. – Т.: Movarounnahr-O‘zbekiston NMIU, 2009. – Б.188-190.

<sup>34</sup> Qarang: Эркинов С. Навоий “Фарҳод ва Ширин”и ва унинг қиёсий таҳлили. – Т.: Фан, 1971.

<sup>35</sup> Жабборов Н. Маоний ахлиниң сохибқирони. – Т.: Adabiyot, 2021. – Б.25

<sup>36</sup><https://edebiyyatqazeti.az/news/science/7931-turkluyu-ile-qururlanan-sirin-nizaminin-xosrov-ve-sirini->

*ilova*). Navoiy ijod konsepsiyasiga ko‘ra, Shirin – Haq taoloning mazhari. Buyuk shoir uning vositasida xavoss ishqini yuksak darajada badiiy talqin etadi. Farhod va Shirinni, o‘z maslagiga muvofiq, soliki majzub obrazi maqomida tasvirlaydi. Bu hol buyuk Navoiyning ayol obrazini estetik ideal maqomiga yuksaltirgani dalilidir.

Hazrat Navoiyning ayollar orasidan yetishib chiqqan tadbirkor, olima, davlat arboblarining salohiyati, iqtidoriga ishonchi Mehinbonu siymosida yaqqol ko‘zga tashlanadi:

*Mehinbonu ki donishparvar erdi,  
Bilik ahliga shohi sarvar erdi.*

O‘z o‘rnida Firdavsiy va Nizomiyya birdek tilga olingan, mamlakat siyosiy hayotida muhim o‘rin egallagan ayol malikalar – Mehinbonu<sup>37</sup>, Sinduxt<sup>38</sup>, Gurdiyalardir<sup>39</sup>. “Shohnoma”ning tadqiqotchilaridan N.Ashurovaning qayd qilishicha, Kir, Doro kabi podshohlar davrida ayollarning hokimiyatda tutgan mavqeい juda baland bo‘lgan, mamlakat ishlarini idora etishda o‘z muhrlaridan foydalangan. Hatto Sosoniylar davrida ayrim ayollar podshoh maqomida bo‘lishgan. Firdavsiy o‘z asarida Xumoy, Buronduxt, Ozarmduxt, Dinok kabi ayol podshohlarni ham madh etgan<sup>40</sup>.

---

esasinda?fbclid=IwAR0NO0iYRF4H\_r3eRGQeH5Bbcq44m0RtN190v99e7fqYKObLV5rCgPIE 5SU /Türkülü ilə qürurlanan Şirin. Nizaminin "Xosrov və Şirin"ı əsasında - Səadət Şixiyev

<sup>37</sup> Mehinbonu – Nizomiy va Navoiyning Mehinbonusi bilan Firdavsiy yaratgan Sinduxt o‘rtasida o‘xhashliklar bor. Sinduxtning Rudobaga, Mehinbonuning Shirinka (garchi ammasi bo‘lsa-da), bergen oqilona tarbiyasi ayni kungacha ham o‘zining axloqiy-estetik qimmatini yo‘qotmagan, ular qizlarida axloqiy poklik, oljanoblik, samimi sevgi-muhabbat, mehr-shafqat kabi tuyg‘ularini tarbiyalaydi, ularning mamlakat idorasida tutgan ziyraklik, qat’iylik, irodalilik va sodiqlik fazilatlari har qanday erkak kishining ham tahsiniga sazovor.

<sup>38</sup> Sinduxt – Qobuliston malikasi, Mehrobshohning rafiqasi, eronlik Zolu Zarni sevib qolgan Rudobanong onasi, mamlakat kelajagi uchun bu yoshlarning sevgisini xavfli deb bilgan Eron shohi Manuchehrning buyrug‘iga binoan Qobulning kulini ko‘kka sovurmoqchi bo‘lgan Somning oldiga elchi bo‘lib borib, tinchlik sughini tuzishga muvaffaq bo‘lgan ayol, oqilonalik, ehtiyojkorlik (diplomatik) yo‘li bilan urushni to‘xtatgan, dushmanini do‘stga aylantirgan, vatani, xalqi, oilasi, eri va farzandlari uchun tinchlik ta‘minlay olgan oqila malika.

<sup>39</sup> Gurdiya – “Shohnoma”da mardligi va jasurligi bilan jangovar erkaklardan ham ustun bo‘lgan qahramon-ayol obrazi, u chinakam vatanparvar, Xitoy hoqonini o‘z nayzasi bilan o‘ldirgan va bu jasorati uchun Xusrav tomonidan shon-sharaflarga munosib topilib, saroydagil qo‘riqlash xizmati boshlig‘i etib tayinlangan ayol va eng qizig‘i, podshohga qarshi chiqqani uchun erini o‘ldirgan ayol, shu bois Firdavsiy uning go‘zalligini emas, balki aql-idroki va jasoratini tasvirlaydi, Xusrav Parvezga qarshi jangga chiqqan Bahrom Chubinning singlisi, ayrim ma’lumotlarga ko‘ra, rafiqasi.

<sup>40</sup> Qarang: Ашуррова Н.Д. Эволюция художественного видения образа женщин в персидско-таджикской классической литературе (на примере творчества Фирдоуси и

Navoiy xotin-qizlarning nechog‘li salohiyatga ega ekanini “Farhod va Shirin” dostonida o‘nta olima va san’atkor qizlar obrazi orqali tasvirlaydi. Ular shoira, raqqosa, mantiqchi, astronom, faylasuf, notiq, tarixchi, hikmatchi, hisobchi, muammo va topishmoq ustasi kabi ilm sohibalari edi.

Shoir asarlaridagi bir qator tarixiy va mifologik shaxslar, xususan, Alanquva, Zoli zar, Halima ona, Bilqisi soniy – Xadichabegin timsollari ham muallif niyati va badiiy mahoratining hosilasi o‘laroq adabiyotdan o‘rin olgan. “Xamsa”ning to‘rtinchı dostoni “Sab’ayi sayyor”da Xadichabegin madhi keltirilgan. Hadichabegin Sulton Husayn Boyqaroning e’tiborli rafiqasi bo‘lgan. Shoir Xadichabegin ta’rifida talmeh va tashbehga murojaat etadi:

*Ham Sulaymoni ahdg‘a hamdam,  
Hamdamu hamnishinu munis ham.*

Baytda Sulaymoni ahd talmehida Husayn Boyqaro nazarda tutilgan, Xadichabegin uning eng yaqin do‘sti, hamsuhbati, maslahatchisi ekaniga ishora.

*Chin Sulaymong‘a yor erur ne ajab,  
Anga Bilqisi soniy o‘lsa laqab.*

Boz ustiga, Xadichabeginni “Bilqisi soniy”, ya’ni ikkinchi Bilqis deb ulug‘laydi. Ma’lumki, Qur’oni karimda zikri kelgan Bilqis – Sulaymon payg‘ambarning suyukli xotini. Boshqa o‘rinlarda ham Hadichabegin Sorai Uzmo, Xadichai Kubro deya sharaflangan.

Umuman olganda, jasoratli ayol timsoli Mehinbonu, ishq timsoli Shirin, og‘ir tuzum sharoitidan ezilgan Layli, vafo va sadoqat ramzi Dilorom, go‘zal, mard va jasur qiz Lo‘bati Chiniy, “hamdamu hamnishinu munis” Hadichabegin timsollari orqali obrazlar silsilasini yaratgan Alisher Navoiy o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy hayotiga ko‘z tutishni maqsad qilgan.

Hamma davrlarda kabi o‘rta asrlarda ham ijtimoiy-siyosiy muammolar bo‘lgani va muammolarga ayollar ham duch kelgani tabiiy. Navoiyning zamondoshi shoira Mehriy Hirotiy shunday

---

Низами). Диссертация на соискание ученой степени доктора филологических наук. – Душанбе, 2021. – С. 148-149.

ayollardan biri. U “Majolis un-nafois” tazkirasida tilga olingan<sup>41</sup>. Bu ayol taqdir taqozosi bilan podshoning zindoniga tushib, birmuncha azob tortgan, shu bois ijodida achchiq istehzo, hasratu nadomat aks etgan<sup>42</sup>. Chunonchi, bu faktlar xotin-qizlar masalasi har vaqt dolzarb bo‘lganini tasdiqlaydi. Shoira Mehriy taqdiri keyingi asrlarda yashab ijod etgan ayol ijodkorlar taqdirini yodga soladi. Ular haqida mazkur tadqiqotning keyingi boblarida to‘xtalamiz.

O‘zbek mumtoz adabiyotidagi xotin-qizlar mavzusi haqida so‘z ketganda, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning ishq-muhabbat, vafo va sadoqat, visol va hijron motivlari avj pardalarda ifodalangan she’rlari diqqatga loyiq. Uning nazmida ma’shuqaning maftunkor husnu tarovati, latofati, sharqona odob-axloqi betakror tasvirlangan.

*Xazon yaprog ‘i yanglig ‘ gul yuzung hajrida sarg ‘ardim,  
Ko ‘rub rahm aylagil, ey lola ruh, bu chehrai zardim.  
Sen ey gul, qo ‘ymading sarkashligingni sarvdek hargiz,  
Ayog ‘ingga tushub bargi xazondek muncha yolvordim.*

Uni butun dunyoga tanitgan memuar asar “Boburnoma”da ham muallifga umri davomida hamroh bo‘lgan ayollar ko‘p bora tilga olingani haqida adabiyotshunos Burobiya Rajabova quyidagilarni yozadi: “Boburnoma”da yozilgan muhim ma’lumotlardan biri bu – onasi haqidagi xabarlardir. Bobur onasi Qutlug‘ Nigorxonimni “Boburnoma”da o‘ndan ortiq ma’lumotlarda tilga oladi. Asarda “mening validam”, “mening onam”, “validam”, “validaxonim”, “onam”, “onam xonim” kabi jumla va birikmalari bilan eng ko‘p tasvirga olgan ayol obrazi ham aslida onasidir<sup>43</sup>. Onalar qatorida

<sup>41</sup> Юсупова Д. Алишер Навоийнинг адабиётшунослик ва тилшуносликка доир асарлари // <https://www.e-adabiyot.uz/maqola/1057> / “Majolis un-nafois”da o‘sha davrda yashagan ba’zi ayol shoiralar haqida ham ma’lumot keltiriladi. Garchi ularning nomlari tazkirada alohida ijodkor sifatida keltirilmasa ham, ular haqidagi shoirning qaydlari adabiyotshunoslik uchun nihoyatda muhimdir. Alisher Navoiy tazkiraning shoir Shayxzoda Ansoriyga bag‘ishlangan fasilda “andoq zohir bo‘lurkim, validasi ham xushtab’dur va Bediliy taxallus qilur” degan ma’lumotni keltirsa, Mavlono Sulaymoniy haqidagi faslda Hofiz Sheroziy g‘azaliga nazira tariqasida yozilgan va Mavlono Sulaymoniyning deb hisoblangan she’r haqida “Va mashhuri munundoqdururukim, bu abyot Mavlono Hakim tabibning xotini Mehriningdur” deb yozadi..

<sup>42</sup> Bu haqda qarang: Фаниева С. Уч машхур шоирга замондош уч шоира // Шарқ аёли: кеча ва бугун. – Т., 2013 / Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Б. 45-46.

<sup>43</sup>[https://uza.uz/ru/posts/boburnomada-oqila-mudabbira-onalar-qanday-tasvirlangan\\_451420?q=%2Fposts%2Fboburnomada-oqila-mudabbira-onalar-qanday-tasvirlangan\\_451420](https://uza.uz/ru/posts/boburnomada-oqila-mudabbira-onalar-qanday-tasvirlangan_451420?q=%2Fposts%2Fboburnomada-oqila-mudabbira-onalar-qanday-tasvirlangan_451420)

katta buvi, ena, bibi, momolarning ham inson hayotidagi o‘rnini hech kim bosa olmasligini Boburning sarguzashtlarga boy, qo‘nimi oz hayot yo‘li ko‘rsatadi. Boburning ulug‘ onasi haqidagi so‘zlariga diqqat qilaylik: “Xotunlar orasida ra’y va tadbirda mening ulug‘ onam Eson Davlatbegimcha kam bo‘lg‘ay edi. Bisyor oqila va mudabbira edi. Ko‘proq ish – kuch alarning mashvarati bila bo‘lur edi”<sup>44</sup>. Muallif o‘z memuarida Husayn Boyqaroning to‘ng‘ich xotini Beka Sultonbegim kabi “kajxulq” ayollar haqida shunday yozadi: “Tengri hech musulmong‘a bu baloni solmag‘ay, yomon xo‘yluq, kajxulq xotun ilohiy olamda qolmag‘ay”<sup>45</sup>. Ayollar tabiatining o‘ziga xos yaxshi va yomon tomonlari muallif tomonidan badiiy ifoda etilgan.

Darvoqe’, “Boburnoma”da Eson Davletbegim, Shohbegim, Xadichabegim, Zuhrabegim og‘a, Malika Bayda singari tarixiy shaxslar misolida saroy, davlat, ra’iyat ishlarida yuqori mavqega ega ayollar surati va siyratini chizadi. Bobur kichkina bir detal bilan bo‘lsa-da, ularning mulk, millat ishlariga, podshoh va shahzodalar hayotiga ijobiy yoki salbiy, xayrli yo xayrsiz ta’sir kuchlarini ham ta’kidlab o‘tadi”<sup>46</sup>. Asarda, shuningdek, umrining oxirigacha yuragida armon bo‘lib qolgan egachisi (opasi) Xonzodabegim haqidagi tasvirlar mag‘rur va munis, jigarlariga mehribon, fidoyi turk millati ayollarining chinakam qiyofasini xotirlashi bilan qimmatlidir<sup>47</sup>.

Demak, “Boburnoma”dagi xotin-qizlar obrazining real shaxslar bilan bog‘liqligi ham alohida mavzu. Eng muhim, bular oddiy insonlar emas, biri onasi bo‘lsa, yana biri “ulug‘ onasi” va oilasiga daxldor bo‘lgan ayollar siymosi. Muallifning ularni maxsus tilga olishidan ko‘zlangan ulug‘ maqsadlari bor. U o‘zining tarixda nom qoldirishiga, uning buyuk shaxs bo‘lib yetishishiga o‘z tarbiyasi,

---

tasvirlangan\_451420 // Ражабова Б. “Бобурнома”да оқила ва мудаббира оналар қандай тасвирланган?

<sup>44</sup> Bobur Z.M. Boburnoma. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2015. – B.44.

<sup>45</sup> Bobur Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2015. – B. 284.

<sup>46</sup> O‘sha manba.

<sup>47</sup> Құдратуллаев Х. Султонлар кечмиши аёллар тақдирида (Бобурнинг “Бобурнома” асарида хотин-қизларга берган баҳоси) // Маърифат, 2004, 14 февраль; Құдратуллаев Х. Бобурнинг оиласы ғамхўрлиги // Маърифат, 2012, 11 февраль; Құдратуллаев Х. Оилапарвар Бобур // Ҳалқ сўзи, 2012, 14 февраль; Құдратуллаев Х. “Бобурнома”да мустаҳкам оила ғояси // Ўзбекистон овози, 2012, 14 февраль

ilmu zakovati, mehru vafosi bilan beqiyos o‘rin egallagan insonlar, avvalo, onalar, ayollar bo‘lganini unutmasliklarini istagan. Yirik ma’rifatparvar Rizouddin ibn Faxruddinning “Oila” asaridagi fikrlar so‘zimizni quvvatlaydi: “*insonlar har vaqt xotunlar istagani kabi bo‘lajaklar, agarda, buyuk va fazilatli odamlarga ehtiyojingiz bo‘lsa, xotunlarga buyuklik va fazilat o‘rgatingiz... Zero, onadan olgan tarbiyasini bola umri boricha unutmas*”<sup>48</sup>.

O‘rta asrlarda Turonzaminda hukmdorlik qilgan va dunyo ilm-faniga ma’lum va mashhur asarlari bilan hissa qo‘sghan podsholar sirasiga yana bir temuriyzoda alloma Mirzo Ulug‘bek (1394–1449) (“To‘rt ulus tarixi”) va xorazmshoh Abulg‘ozzi Bahodurxon (1603–1664) (“Shajarayi tarokima”, “Shajarayi turk”)lar kiradi. Ularning asarlarida, Bobur asaridan farqli o‘laroq, Odam Atoning yaratilishidan tortib, payg‘ambarlar hayoti, O‘g‘uzxon avlodni, turkmug‘ul avlodlari, Markaziy va O‘rta Osiyoning o‘sha davr ijtimoiy-siyosiy tarixi bilan bir qatorda ba’zi ayollar zikri mavjud. Ayniqsa, Alanquva<sup>49</sup> afsonasi tarixiy ahamiyat kasb etgan. Abulg‘ozixonning yozishicha<sup>50</sup>, turkiylar naslidan malika Alanquva tuynugidan kirib kelgan yigit timsolidagi nурдан homilador bo‘ladi (qarang: **2-ilova**). Mirzo Ulug‘bekning «To‘rt ulus tarixi» kitobiga tayanib aytilsa, Sohibqiron Amir Temur urug‘i o‘n to‘rt avlod osha Alanquvaga borib bog‘lanadi.

Biz yuqorida turkiy tilda so‘z aytgan Xorazmiy, Sayyid Qosimi, Navoiylarning adabiy durdonalarida aks etgan ayollar obrazini kuzatdik. Ulardagi eng birinchi umumiylilik shuki, ijodkorlarning har biri, avvalambor, xotin-qizlarning tashqi go‘zalligi va ichki dunyosini ulug‘laydi. Ularda pok tiynatli, soliha ayollar tasvir etilgan. Boburning memuar asarida ayollar obrazi

<sup>48</sup> Ризоуддин ибн Фахруддин. Оила. Таржимон Зиёев Т. – Т.: Мехнат, 1991. – Б. 10-11.

<sup>49</sup> Abulg‘ozzi Bahodurxon ga ko‘ra, malika Alanquva O‘g‘uzxon avlodidan bo‘lgan Yulduzonning nabirasi hisoblanadi. U o‘zining amakivachchasi Do‘bunbayon Xonning turmush o‘rtog‘i bo‘lgan. Xon o‘ttiz yoshiga yetmasdan vafot etadi. Undan ikki nafar farzand qoladi. Kattasi yetti yoshli Bilgaday va ikkinchisi olti yoshli Bekchiday. Beva qolgan, xon o‘rniga yurtni boshqarayotgan Alanquvaga qarindoshlari, turli-tuman Xonlardan sovchilar keladi. Ammo, malika o‘g‘illarini o‘stirib, ularga saltanatni topshirgach, shaxsiy hayoti haqida o‘ylashini bildirib, sovchilarga rad javobini beradi.

<sup>50</sup> Мирзо Улуғбек. Тўрт улус тарихи. Таржимон ва муҳаррир Б.Аҳмедов ва бошқалар. – Т.: Чўлпон, 1994. – Б. 63-64; Абулғози Баходурхон «Шажараи турк». Т.: «Чўлпон», 1990. 44-45-бетлар.

avtobiografik xarakterga ega bo'lsa, Mirzo Ulug'bek, Abulg'ozzi Bahodirxonlarning asarlaridan joy olgan ayollar obrazi diniy-mifologik mohiyat kasb etgani bilan ajralib turadi.

Ta'kidlash joizki, XV-XX asr adabiyotida ayollarga bag'ishlangan tazkiralarni tadqiq etgan O.Toychieva xulosa qilishicha, "XV-XX asrlarda ayollarga maxsus bag'ishlab yozilgan va xotin-qizlarning nomlari zikr etilgan 24 ta tazkira tadqiqi tarixda sharq ayollari orasidan nafaqat ijodkor ayollar, shuningdek, hukmdor, xattot, rassom, so'fiy, musiqashunos va mug'anniylar ham yetishib chiqqanini ko'rsatadi"<sup>51</sup>. Sharq adabiyoti, falsafa va tarix bilimdoni Rizouddin ibn Faxriddinning "Mashhur xotunlar" tazkirasi oxirgi ming yillikda yashab ijod qilgan besh yuzdan ortiq ilmu ma'rifikatli va o'z zamonasining peshqadam ayollari haqidagi ma'lumotlar jamlangani bilan ilmiy qimmatga ega<sup>52</sup>.

Bizningcha, arab olimi A.Xalafning "Arab san'atida ayollar obrazi" maqolasidagi mana bu qaydlari hayotiy va ilmiy haqiqatga uyg'un: "Sharq san'atida ayol obrazi markaziy o'rinni egallaydi. Ammo bu obraz ko'p ma'nolarga ega bo'lib, turlichal talqin qilinadi. Bir tomonidan, u ayolni ma'naviy yuksak darajada bo'lsa-da, "narsa" sifatida, ammo dunyoviy sevgining timsoli sifatida tasvirlaydi. Ikkinchisi tomonidan, ayolga nisbatan dunyoviy sevgi Allohga muhabbat ramzini ifodalaydi. Va bu ikkinchi xususiyatda ayol tasviri ayniqsa she'riyat va tasviriy san'at sintezida keng qo'llanilgan"<sup>53</sup>.

Sharq mumtoz adabiyoti g'oyalarning teranligi, obrazlarning chuqur ishlangani bilan ajralib turadi. Tekshirishlarimizga ko'ra, ayol obrazi, ayol xarakteri ham muayyan asarda, doston yoki she'rda asrlardan asrlarga o'tib, o'sha davr va zamon talabiga ko'ra, mansub avlodning dunyoqarashi va sajiyasiga ko'ra, shuningdek, muallifning niyatlariga, iqtidoriga qarab ham takomillashib boravergan.

<sup>51</sup> Тўйчиева О. XV-XX аср адабиётида аёлларга бағишланган тазкиралар. Филол.фен.фалс.докт. ... (PhD) дисс.-я. – Т., 2021. – Б. 165.

<sup>52</sup> Qarang: Ризоуддин Фахриддин ўғли. Машхур хотунлар. Таржимонлар: М.Эшмуҳаммедова ва Б.Умурзоқов. – Т.: Navro'z, 2019. 304 бет. – Т.: Factor press, 2021. – 154 бет.

<sup>53</sup> Халаф А.А. Образ женщины в Арабском искусстве // Вестник ВГУ. Серия филология и журналистика. 2012. № 1. – С. 118.

Xotin-qizlar obrazining ilk genezisi “Qur’oni karim”dagi Zulayho, Zaynab, Bilqis kabilar bilan boshlanganini yuqoridagi misollar orqali ko‘rdik. O‘zbek mumtoz adabiyotidagi ayol obrazining ishlanishini tahlilga tortdik. Eron Ahamoniylari podshosi Kayxusravga qarshi kurashgan massaget qabilasining jasur malikasi Tumaris, mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi o‘g‘li Jaloliddin Manguberdi oldida so‘nggi nafasigacha yonida turgan Oychechak Xotun, ko‘pchilik temuriy shahzodalarni tarbiya qilgan tadbirkor malika Saroymulkxonim, Zahiriddin Muhamad Boburga barcha yurishlarida, eng og‘ir vaziyatlarda hamrohlik qilgan fidoyi ona Qutlug‘ Nigorxonim, Amir Umarxonning fozila ayoli, o‘g‘illariyu nevaralari bilan birga qatl etilgan Nodirai Davron, Marg‘ilonning ko‘plab shoira qizlariga ustozlik qilgan Jahon otin Uvaysiy, Oloy malikasi nomi bilan tanilgan, rus bosqinchilariga qarshi mardona kurash olib borgan, rus generallarini muzokaraga chaqira olgan Qurbonjon dodoxoh kabi momolar qoni oqayotgan turkiy xalq hech qachon dushmanga bo‘yin egmagani, taslim bo‘lmagani, ayollar ham erkaklar qatori bir safda turib janglarda ishtirok etgani o‘zbek xotin-qizlarining mard va jasur ajdodlari borligi isbotidir (qarang: *3-ilova*).

## **1.2. Xotin-qizlar obrazi talqinida o‘zbek jadid adabiyotining xos xususiyatlari**

Sharq ayoli tabiatan bo‘ysunuvchan. G‘azab, zo‘ravonlik, kurash va qon to‘kish uning tabiatiga xos emas, aksincha, har doim go‘zallik va ezgulik ramzi, shuningdek, oila o‘chog‘ining qo‘riqchisi bo‘lib kelgan. Akademik Naim Karimovning “Ko‘p asrlik o‘zbek adabiyoti tarixida ikki asrni “oltin asr” deyish mumkin. Biri – XV asr bo‘lsa, ikkinchisi – XX asr. Agar Navoiy fors tili hukmron davrda o‘z asarlari bilan o‘zbek adabiy tili va mumtoz o‘zbek adabiyotining maydonga kelishiga tamal toshini qo‘ygan bo‘lsa (bu – Navoiy va Bobur davri adabiyoti), XX asrda Behbudiy, Qodiriy, Cho‘lpon, Fitrat yangi o‘zbek adabiy tili va adabiyotini yaratishda, ustozlari an‘analarini davom ettirib, jahon adabiyoti yutuqlarini o‘zlashtirgan holda, o‘zbek adabiyotida realizm metodining qaror topishiga, adabiyotning real hayot bilan yaqinlashishiga, badiiy so‘zning jamiyat hayotiga ta’sir ko‘rsata oluvchi kuch bo‘lishiga,

yangi zamонавијадабијтурваjanrlar bilan boyishiga jiddiy hisса qо'shdilar"<sup>54</sup>, - degan fikr-mulohazalari ko'plab tadqiqotchilarga o'рганилаготган davrga munosabat bildirishlarida to'g'ri yo'naliш олишга ko'maklashadi.

XX asr boshi milliy shoир va qalamkashlarning bosh mavzularidan biri xotin-qizlarning ilmli, madaniyatli, o'qimishli bo'lishiga qaratilgan edi. Bu mavzuda ko'plab maqolalar, she'rlar, ocherklar nashr etildi. So'fizodaning "O'qing onalar", Tavalloning "Qarindosh va hamshiralarimiz – mazluma qizlar tilindan" she'rlarida Turkiston xotin-qizlarining "mute' joriyalar" holida ekani, ularning ilmu ma'rifat egallashiga "challasavod" kimsalar qarshilik ko'rsatayotgani aytilgan.

Avvalo, ayollarning savodsizligi va ilmsizligi o'lka ziyolilarini tashvishlantirgan. Turkiston o'lkasini savodsizlikdan xalos qilishning yangicha usuli eskicha o'qitish usulidan voz kechib, yevropacha o'qitish tartibini joriy etishdan iborat edi. Bu tartibni birinchilardan bo'lib boshlab bergen ma'rifatparvar inson, jadid ziyolilarining otasi sanalmish Ismoil Gasprali bo'ldi. U ham yevropacha, ham mahalliy, ham milliy ta'lim jihatlarini uyg'unlashtirib, yangicha o'qitish usulini tavsiya qildi. Chunki mavjud o'qitish tartibi zamon talablariga javob bermas edi.

Ismoil Gasprali amalga oshirishni istagan va sa'y qilgan muhim ishlar sirasida xotin-qizlarni o'qitish va musulmon ayoliga ta'limtarbiya berish masalasi bor edi. U shunday deydi: "Islom tarixining ilk asrlarida musulmon ayoli o'ta muhim o'rin egallagan edi. Xo'sh, endi-chi, insof va vijdon bilan aytинг-chi, hech nimani bilmaydigan, ilm-fan, hayot, haq-huquqdan mosuvo hozirgi ayollar Islomning ilk davridagi ayollariga o'xshaydimi?"<sup>55</sup> Fidoyi ma'rifatparvar tomonidan qo'yilgan bu savol mazkur payt eng dolzarb muammo ediki, ayrimlar bu muammoga qarshi kurashgan bo'lsa, yana boshqalar ayollarning porloq istiqbolidan umidvor edi.

Anbar Otin ayollarning millat kelajagida betakror o'rni borligini «Risolai falsafai siyohon» ("Qarolar falsafasi risolasi") asarida

<sup>54</sup> <https://uforum.uz/showthread.php?p=426976> (Каримов Н. Асар юрак қони билан ёзилади // "Шарқ юлдузи" ва "Звезда Востока" журналлари Боз мухаррири в.б. Улуғбек Ҳамдам билан сұхбат).

<sup>55</sup> Тихонова Н.Е. Исмаил Гаспринский и егоprotoевразийские идеи. – Санкт-Петербург, 2016. – С. 58.

qat’iy ta’kidlaydi: «...zamonlar kelurki, albatta, bu zamonlar ajib afsona bo’lur va bu zamondagi xusumat yo tuhmat o’tidin nishon qolmas. Bir zamone bo’lurki, kamina mushtipar kabi mazlumalar olijanob, orzu qilg‘ondan ziyoda bo’lur. Ul zamonda barcha xalq sohibjamol bo’lur, ul zamonda ayollar har qancha husn va latofat ila ozod yururlar va alarg‘a hech kishi ola ko’z ila yomon nazar solmas. Sababki, har erkak o’z suyar yori va sohibjamol vafodori ilan mammun ro’zg‘or kechurgay. Ul vaqt qizlar ilmi dunyoviy tafsilik‘a tuyassar bo’lub, irfon taxtida qaror topib, ellar va ulug‘lar safiq‘a doxil o’lurlar»<sup>56</sup>. Muallif o’zi yashagan davr va zamondagi, tuzumdagи jaholatni, zulmni qoralar ekan, xotin-qizlar manfaatlarini himoya qiladigan tuzumni, yakka nikohga asoslangan oilani, ayollari zamonaviy ta’lim olib rivojlangan jamiyatni orzu qiladi.

Ijodkorning mavjud real hayotni inkor qilish orqali orzu-istiklarini ifodalash usuli Abdulla Avloniy ijodiga ham xosdir. Uning “Oila munozarasi” she’rida jamiyatda uchrayotgan muammolar oila a’zolarining ziddiyatli munosabatlari orqali ko’rsatilgan. She’rda maktabni targ‘ib qiluvchi, zamon yangiliklaridan boxabar shaxs – er obrazi ijodkorning ideali bo‘lib xizmat qilgan bo‘lsa, xotini, ya’ni ona obrazi esa eskicha qarashga ega, “o‘qiganlar beixlos bo‘ladi”, degan aqida tarafdoi. Aslida 15 bandli bu dialog-munozarada oila ramziy mazmunga ega. Agar oila Turkiston deb talqin etilsa, ko’z oldimizda qanday manzara hosil bo‘lishi mumkin? Bil’aks, eru xotin bir maslak va matlabda, farzandlari baxtu saodati, istiqboli, farog‘ati yo‘lida birlikda harakat qilishlari lozim. Bu munozarada esa er va xotinning dunyoqarashi, orzu-istiklari o‘rtasida katta tafovut bor. Avloniy farovon kelajak garovi sifatida ilmning, mukammal odob-axloqning, xususan, ayolning ma’rifatli bo‘lishi zaruriyatini uqtiryapti.

Darhaqiqat, tarix fanlari doktori Sanobar Shodmonovaning aniqlashicha, “Turkistonning mahalliy ayollarini umuman savodsiz bo‘lgan deyish haqiqatga ziddir, chunki ularning ichida otinoyi qo‘lida savod chiqarib, diniy ta’lim olishganlar ham bo‘lgan. Otinoyilar ayol o‘qituvchilar bo‘lib, ular qizlarga o’z uylarida dars bergenlar.

---

<sup>56</sup> Дилшод. Анбар Отин. – Т.: Фан, 1994. – 157-158 бетлар

Diniy ta'lidan tashqari, she'riyatdan ham saboq berishgan. Masalan, 1884 yilgi ma'lumotga ko'ra, Chust shahridagi muallima Komila Bibining qizlar mакtabida 8 nafar o'quvchi, Umruya Bibi mакtabida 12 nafar qizlar o'qishgan. Lekin, mahalliy ayollar dunyoviy ta'lim olish imkoniyatidan mahrum edilar. Qolaversa, bunday otinoyi maktablari soni o'lkada yetarli bo'lмаган”<sup>57</sup>.

Eng katta muammo shunda ediki, tadqiq qilinayotgan davrda va o'tmishda ham xotin-qizlar ommaviy o'qitilmagan. Ayollarning ijtimoiy va ijodiy faoliyati juz'iy hodisalar bo'lганiga qaramasdan, barcha davrlarda ayol ijodkorlar ko'plab uchragan. Xususan, Ismoil Gasprali «Turkiston ulamosi» asarida Turkistonning yuzdan ortiq ulamosi bilan tanishtiradi. O'n fasldan iborat ushbu asarda diqqatni tortadigan fasllardan biri bu 7 nafar turk shoirasi haqida keltirilgan qaydlardir. Bular – Oyshayi Samarqandiy, Mehri Nurjahonbegim, Lola xotun, Asimiy, Iffatiy va Do'xtari Qoshg'ariylardir. Ular haqidagi ma'lumot qayd etish bilan cheklangan. Lekin shunga qaramasdan asarning Turkiston adabiy tarixini o'rganishdagi o'rni juda muhim ekanini ta'kidlash kerak. Tarix guvoh, turkiy ayollar, shu jumladan, musulmon ayollar ni azal-azaldan iste'dod va azmu shijoatda tengsiz bo'lганlar. Buni ishimiz davomida keltiriladigan qator manbalar tasdiqlaydi.

Tadqiqotimiz xotin-qizlar obrazining poetik takomiliga bag'ishlangani bois jadid adabiyoti ma'naviy ozuqa olgan ayrim mumtoz asarlaridagi ayollar obraqi xususida to'xtalamiz. Biz sevib ardoqlaydigan Kumush va Ra'no, Zebi va Yorqinoy obrazlari o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmagan. Ularni dunyoga keltirgan asos, avvalo, tarixiy-ijtimoiy muhit bo'lsa, ko'plab badiiy asarlar ta'sirini ham aslo inkor etib bo'lmaydi.

Jadid adabiyoti yangi davrning yangicha adabiyoti bo'lsa-da, uning ildizlari mumtoz adabiyot bag'rida yetishib chiqqanini, xususan, fors mumtoz adabiyoti namunalarini ham badiiy o'zlashtirganini ta'kidlash lozim. Bular orasida Firdavsiyning buyuk “Shohnoma”si turkiy adabiyotdagi ko'plab asarlar uchun nafaqat

<sup>57</sup> Шодмонова С. XIX аср охири – XX аср бошларида Туркистон матбуотида хотин-қизлар хукуқлари хақидаги мунозаралар // <https://elibrary.ru/item.asp?id=49442991>; <https://einfolib.uz/index.php/2020/10/17/xix-asr-ohiri-xx-asr-boshlarida-turkiston-matbuotida-hotin-qizlar-huquqlari-haqidagi-munozaralar/>

shoh asar, balki “ona asar” bo‘lib qolgani shubhasiz. Eng qadimgi sivilizatsiyalardan biri hisoblanmish Eron tamaddunida bu shoh asarning o‘rni cheksiz.

Ma’lumki, “Shohnoma”ning dastlabki vazifasi vatanparvarlik va milliy g‘urur tuyg‘usini yuksaltirishga qaratilgan edi. Bu asarda keltirilgan ayollar obrazi shunchalar ko‘pki, ularga bag‘ishlab maxsus tadqiqotlar olib borilgan. Shulardan biri tojik tadqiqotchisi Jonon Bobokalonovaning “Naqshi zanon dar nomai shohon” (“Shohnoma”da ayollarning o‘rni”) tadqiqotidir. Ishda barcha ayollar obrazi batafsil tahlil qilingan bo‘lib, shular orasida o‘zbek adabiyoti tadrijiga katta ta’sir ko‘rsatgan xotin-qizlar obrazi, xususan mamlakat siyosiy hayotida muhim rol o‘ynagan ayollar Mehinbonu, Sinduxt, Gurdija<sup>58</sup> obrazlari haqida tadqiqotimiz avvalida to‘xtalgan edik. Jadid adabiyotida yaratilgan ayollar obraziga o‘xhash qahramonlardan biri Nushoba haqida to‘xtalsak.

Nushoba obrazi (Nizomiyning “Iskandarnoma”sida ushbu qahramon Barda shahri hokimi bo‘ladi) Gurdija singari oqila, ehtiyotkor, irodali, g‘amxo‘r, eng chigal muammolarni hal qila oluvchi uddaburon, shuningdek, jangovar va Vatanini sevuvchi ayol sifatida tasvirlanadi. Nushoba obrazini Ismoil Gaspralining “Xotunlar o‘lkasi” malikasi bilan qiyoslash mumkin. Shuni ta’kidlash kerakki, faqat ayollar hukmron bo‘lgan shaharlar tasviri Firdavsiy va Nizomiyda (“Shohnoma”da Xarum shahri malikasi (ismi keltirilmagan) va Andalusiya shahri malikasi Kaydofa) birdek uchrashi barobarida jahon adabiyotida ham bu syujetdan mohirona foydalilanligani ma’lum<sup>59</sup>. Tarixiy afsonalarga ko‘ra, bu yerga yetib kelgan oxirgi odam Aleksandr Makedonskiy bo‘lgan. U dunyonи zabit etgach, hammaga ma’lum va mashhur bo‘lgan ayollar o‘lkasini

<sup>58</sup> Jonon Bobokalonova “Naqshi zanon dar nomai shohon” (“Shohnoma”da ayollarning o‘rni”) asarida Gurdija obrazi haqida shunday deydi: “Gurdija o‘z vatanini sevadigan ayol... U jang qilish va o‘limdan ko‘ra tinchlik va hamjihatlikni afzal ko‘radi. Tinchlik yo‘li bilan kelishuvni ta’minalash uning asosiy maqsadi. Gurdianing tushunchasiga ko‘ra, jangarilarning o‘z mamlakati podshosiga qarshi qo‘zg‘olon va tartibsizliklar qilishi aqlsizlik va ehtiyotsizlikdir, chunki ular mamlakatning yo‘q qilinishiga va aholining qashshoqligiga olib keladi. Bu haqda qarang: Бобокалонова Ж. “Шоҳнома”да аёлларнинг ўрни. – Душанбе, 1998. – Б. 90.

<sup>59</sup> Xususan, Gomerning “Odisseya”sida, Gerodot, Evripid, Plutarkning tarixiy solnomalarida xotinlar o‘lkasi haqida yozma ma’lumotlar keltirilgan. Bu haqda qarang: Ашурова Н.Д. Эволюция художественного видения образа женщин в персидско-таджикской классической литературе (на примере творчества Фирдоуси и Низами). Диссертация на соискание ученой степени доктора филологических наук. Душанбе, 2021. – С. 13.

ziyorat qilishni istaydi. “Amazonka”lar yurtining boshlig‘idan ruxsat tekkach, shaharga kirar ekan, u harbiy kiyimlarda terilib turgan va faqat jangari ayollardan iborat bo‘lgan armiyani ko‘rib, hayratda qoladi. Ular Vatanini himoya qilish uchun har qanday xoin va qudratli dushman bilan jang qilishga tayyor, shuningdek, shaharning behisob boyligiyu zukko malikaning himoyachilari uni juda ta’sirlantiradi. Nushoba ham Gurdiya singari shirinso‘zligi va mehmondo‘stligi bilan, Aleksandrni o‘ziga ishontirish bilan mamlakatini urush va halokatdan qutqarib qoladi<sup>60</sup>. Aytish joizki, Firdavsiy va Nizomiyning ham, Ismoilbek Gaspralining ham xotinlar o‘lkasini yaratishdan asl muddaosi ayollar kuchli, oqila, o‘z Vatanini sevuvchi va uni himoya qila oluvchi inson ekanini ko‘rsatishdan iborat edi. Ular, yuqorida guvohi bo‘lganimizdek, oqilaligi, tinchliksevarligi va notiqligi bilan turli mojaro va urushlarning oldini olishi mumkin.

Firdavsiyning “Shohnoma”siga kiritilgan yana bir qator obrazlar ko‘plab sevgi dostonlarini dunyoga keltirgan bo‘lsa ajab emas. Undagi “Zol va Rudoba”, “Bejan va Manija, “Siyovush va Farangis”lar haqidagi sevgi-muhabbat qissalari juda go‘zal va ta’sirli syujetga, romantik ruhga ega.

Shuningdek, biz sevgan Kumushbibining zaharlanish lavhasi ildizi “Shohnoma”ga borib taqalsa ajab emas. Firdavsiyning “Shohnoma” asarida Eron podshosi Xusrav Rum Qaysari Sezarning qizi Maryamga uylangach, Shirin erini kundoshidan rashk qilib, uni zaharlab o‘ldiradi. Muayyan vaqt o‘tgach, Shirinning o‘zini ham shu qismat kutardi. U Xusravning dahmasida zahar ichib o‘ladi. Kundoshlik degan baloi ofat ne-ne ayollarni baxtsizlik sari eltganiga eng mumtoz misol. Birgina zaharlash voqeasi sababli fors adabiyotida yaratilgan Shirin obrazini ideal obraz sirasiga kiritib bo‘lmaydi. Firdavsiy va Nizomiyalar yaratgan Shirin obrazi bilan Navoiy yaratgan Shirin o‘rtasida tubsiz jarlik borligini birgina shu faktning o‘zi ham tasdiqlaydi.

---

<sup>60</sup> Bu haqda qarang: Ашурова Н.Д. Эволюция художественного видения образа женщин в персидско-таджикской классической литературе (на примере творчества Фирдоуси и Низами). Диссертация на соискание ученой степени доктора филологических наук. Душанбе, 2021. – С. 171, 177.

Qodiriy zaharlash voqeasini o‘tmish mumtoz adabiyoti ta’siridami yoxud real voqealar ta’sirida keltirganmi, bizga ma’lum emas. Biroq, zaharlash lavhasi “Kecha va kunduz” romanining kulminatsion nuqtalaridan biri ekanini hisobga olsak, ikkala omilning ham ta’siri bo‘lgani ehtimoldan xoli emas. Boshida ijobiydek ko‘ringan Zaynab yoxud Poshshaxon obrazlari borgan sari qabih, yovuz niyatli odamga aylanib, erining e’tiborini o‘ziga qarata olmagani uchun begunoh insonlarning umrini zavol qilishi ayollik a’moliga xos bo‘lmagan yovuzlik edi. Shirin, Zaynab va Poshshaxonni bunday tubanlikka undagan narsa – kundoshlik edi. Rashk insonni aqldan ozdirishi, ko‘zini ko‘r, qulog‘ini kar qilishi hech gap emas. Baxtli bo‘lomagan ayolda o‘z-o‘zidan kek va adovat hissi paydo bo‘lishi hech kimga sir emas.

“Shohnoma”da kelgan yana bir o‘xhash epizodlardan biri farzandi vafot etgach, aqldan ozgan ona obrazi. “Kecha va kunduz”da Zebining onasi Qurvonbibi bilan “Shohnoma”dagi Suxrobning onasi Taxmina, Rustami dostonning onasi Rudobalarning qismati bir xil. Bu obrazlar ojiza onaizorning farzandi uchun jonini berishga tayyor ekani, onaning farzandisiz bu dunyoda yashay olmasligini ko‘rsatib berdi. Albatta, onadek buyuk hilqat millat va zamon tanlamaydi. Qaysi xalqqa mansub bo‘lmasin, qaysi davrda yashamasin farzand uchun onaning o‘rnini hech kim bosa olmaydi. Ona obrazi xususida keyingi boblarda batafsil to‘xtalamiz.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida, musulmon Sharqining yangi uyg‘onish davrida ayollarning ozodligi eng muhim masalalardan biri edi. Eng boshidanoq ayollar masalasi “Tarjimon” gazetasida yetakchilik qildi. 1887 va 1891 yillarda Gasprinskiy ayollar uchun davriy nashr ochishga urindi. Ammo bu urinishlar Peterburg amaldorlari tomonidan rad etildi va muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Gaspralining ayollar masalasiga doir qarashlari uning “Dor ur-Rohat musulmonlari” va “Xotunlar o‘lkasi” utopik romanlarida yaqqol ifodalangan. Birinchi asarida u ayolni barcha masalalarda erkak bilan tenglikda tasvirlaydi. U qozi ayol obrazini yaratadi, sudda uning rozilgisiz oilaviy janjal yoki ayollar masalasi hal qilinmaydi va qonuniy kuchga ega bo‘lmaydi. Ikkinchi asarda Gasprinskiy ayol o‘rnida erkakni ko‘rsatadi, ya’ni muallif ularning ijtimoiy rolini almashtiradi. Bu mamlakatda erkak hijobda yuradi, bolalarni

tarbiyalaydi, taom tayyorlaydi, kir yuvadi, ayol esa hamma narsada hukmronlik qiladi. Bu bilan u musulmon ayolning jamiyatdagi haqiqiy mavqeini ko'rsatishga uringan va bu masalani umummuhokamaga qo'ygan.

Ismoil Gaspralining "Dor ur-Rohat musulmonlari" asari xayoliy-sarguzasht asar bo'lish barobarida jannatmakon mamlakatni jonli tasvirlab, bir-biridan qiziq sarguzasht va ajoyibotlarga boyligi uchun kitobxon qalbini hayajonga to'ldirib, g'ayrat-shijoatga boshlaydi. Adibning mahorati shundaki, u o'z orzu-xayollarini, tarixiy fakt va voqealarni asarga badiiy sintez qilgan. Kitobxon bir paytning o'zida muallifning g'oyasini, tarixiy haqiqatlarni, shuningdek, go'zal bir o'lka tasvirini ko'rgandek bo'ladi. Asarda yozuvchi e'tiborini qaratgan xarakterli qirra – xotin-qizlar bo'lib, ularning erkaklar bilan barobar ta'lim olishi, turmush-maishatda haq-huquqlari teng bo'lishi, ayniqsa, ular orasida qozi xotinlar borligi – na Toshkentda, na Farangistonda yo'q odatlar edi. Gasprali urg'u bermoqchi bo'lgan masala ayni shu – xotin-qizlar emansipatsiyasi edi.

Gaspralining "Doru-r-rohat musulmonlari" asari ijtimoiy-estetik ideallarga xizmat qiluvchi asar bo'lgani uchun unda oddiy fuqarodan tortib, hukmdorgacha komil qiyofada tasvirlangan. Ayniqsa, Amir, Shayx Jalol, Faridabonu obrazlariga muallif ichki bir muhabbat bilan yondashadi. Bir o'rinda Faridabonu "g'oyat alvon va chiroyli kiyangan edi, bu holda yanada go'zal, sasi yanada xush va totli eshitilardi" deb ta'riflaydi. Xuddi Fitrat asarlaridagi oqila qizlar, Qodiriy romanlaridagi ideal ayollar kabi Faridabonu ham g'oyatda go'zal. Uning qizil libosda ta'riflanishi esa Fitratning Zulayhosini eslatadi. Qiz nafaqat husnu latofatda balki odob, ilm, san'atda ham barkamol. "Doru-r-rohat"ning har bir fuqarosi xuddi Faridabonudek ziyoli, chunki ularni voyaga yetkazgan ota-onalarning o'zları serxislat insonlar. Muallif bu xususda Mulla Abbas tilidan shunday deb yozadi: "Qanday go'zal turmush! Qanday xush maishat! Otasi – mudarris, ikki o'g'li – muallim, qizi – tabibayi komila va inson shaklidagi bulbul. Buncha rohat, nazokat va safo! Qanday baxtiyor insonlar"<sup>61</sup>. Bu asar ham Mulla Abbas tilidan

<sup>61</sup> Давлатова А.Р. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиётида эстетик идеал муаммоси. Филол.фундамент.... дисс-я. – Т., 2011. – Б. 137.

hikoya qilinadi. “Mulla Abbos xotin-qizlarning haq-huquqlarini zamonaviy bir holda qabul qiladi, o‘z o‘rniga qo‘yadi. Lekin u vaqtdagi islom dunyosidagi xotin-qizlarning ahvolini ko‘z oldimizga keltirsak, albatta, u tavsif etgan musulmon ayolining obrazi o‘z davri uchun xayoliy edi”<sup>62</sup>. Islom dunyosidagi xotin-qizlarning ahvolini yaxshilash uchun Gasprali baholu qudrat so‘zda va amalda harakat qildi. U orzu qilgan jamiyat esa uning asarlarida eng go‘zal tasvirlarda berildi.

“Gasprinskiy asarlarida estetik ideal qahramon hisoblangan ayollar obrazi o‘zbek adabiyotidagi shu kabi qahramonlardan farq qiladi. Gasprinskiy orzusidagi qizlar o‘qimishli bo‘lish bilan bir qatorda erkin fikrli, o‘z taqdirlarini o‘zlari belgilay oladigan mustaqil, bir oz yevropalashgan bo‘lsa, o‘zbek adabiyotida esa bu holat kuzatilmaydi”<sup>63</sup>, - deydi Adiba Davlatova. Gasprali Yevropa va islom madaniyatini o‘zida uyg‘unlashtirgan ayollar har qanday jamiyatni yuksaklikka olib chiqishiga astoydil ishongan edi.

Mulla Abbos xotin-qizlarning haq-huquqlarini himoya qilar ekan, u ta’riflagan ayol obrazi Turkistonda ham bo‘lgani hiqiqatdan uzoq gap emas, biroq Turkiston xotin-qizlari u paytda hali ommaviy ta’lim olish imkoniyatiga ega emasdi. Qodiriy yaratgan Kumush ham aslida Faridabonudan na husnu tarovati bilan, na ilmu zakovati bilan zarracha kam emas edi. Biroq XIX asar oxiri – XX asr boshida Turkiston qizlarining erkinligi -“muxtoriyati” cheklangan edi. Mulla Abbos ta’riflagan Faridabonudek tabibayi komila qizlar yetishmog‘i uchun millat qizlari ommaviy tusda o‘qitilmog‘i shart edi. Ismoil Gaspralining bosh maqsadi ham aslida shu edi.

Ismoilbek Gaspralining “Xotunlar o‘lkasi” asari Mulla Abbos Fransaviyning navbatdagi sayohat va sarguzashtlaridan biriga bag‘ishlangan. Unda hikoya qilinishicha, Mulla Abbos uch nafar fransuz va bir nafar arab karvonboshi va yo‘lboshchi bilan sahro bo‘ylab Sudan mamlakatiga yo‘l olishadi. Qirq kun yo‘l bosishadi, qirq birinchi kun qattiq bo‘ron ko‘tarilib, bularni to‘rt kun davomida yo‘lidan adashtirib qo‘yadi. Ular o‘zlari bilmagan holda Xotunlar o‘lkasi hududiga kelib qolishadi. Ularni 100 askar qizlar asirga olib

<sup>62</sup> Абдирашидов З. Ислом Гаспринский ва Туркистонда жадидчилик. – Т., 2008.

<sup>63</sup> Давлатова А.Р. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиётида эстетик идеал муаммоси. Филол.фундамент.... дисс-я. – Т., 2011. – Б.137.

ketishadi. Bu qavm qiyofasiga ko‘ra qora habash bilan badaviy arabning aralashuvidan hosil bo‘lgan edi. Yo‘lboshchi Abdullaning aytishicha, bu xotinlar asir olingan erkaklarni hecham ozod etmas, ularni o‘zlariga “ma’shuq” qilib olar ekan. Yoki juda bo‘lmasa, ishchi, oshchi, cholg‘uchi qilib olishar ekan. Xotunlar o‘lkasining malikasi bu erkaklarni o‘z haramiga olishi ehtimoli katta edi. Chunki ular oq yuzli edi.

“Darhaqiqat, bu xotinlarning va ular idora qilgan mamlakatning ahvoli chindan g‘aroyib edi. Xotinlar erkaklar o‘rnida, erkaklar esa ayollardek qo‘rkoq, sertamanno va ojiz edilar. Ozgina mulohaza qilinsa, bu hol turmush va tarbiyaning, odatlarning inson hayotiga ko‘rsatadigan buyuk ta’siriga yorqin ibrat edi. Bu yurtning xotinlari mamlakatni boshqarish va jang qilishga, erkaklari esa ichkarida bo‘lib, kir yuvish, ovqat pishirib, bichish-tikishga odatlanganlari uchun ularning o‘rinlari almashib qolganday edi. Tarbiya naqadar buyuk narsa ekan! Odatning roli va o‘rni-chi?! U ham beqiyosdir. O‘simplik va hayvonlarni joyini yangilash, ob-havoni almashtirish bilan ancha o‘zgartirish mumkin. Inson bolasini esa, ayniqsa, shu jumladan, axloq, tabiat, odat, vujuddagi quvvat, yurakdagi jasorat kabilarning hammasi turmush va tarbiyaning samarasi ekanligiga xotinlarning taqdiri dalildir”<sup>64</sup>.

“Xotunlar o‘lkasi” juda qiziqarli asar. Garchi asardagi voqeahodisalar, qahramonlar ijodkorning badiiy to‘qimasi bo‘lsa-da, unda ozmi-ko‘pmi tarixiy haqiqat borligini sezish qiyin emas. Bizningcha, Ismoilbek Gaspiralining ushbu asari yaratilishida xalq og‘zaki ijodining o‘rni katta bo‘lgan. “Go‘ro‘g‘li” turkumiga mansub dostonlarda “Guloyim, Zaydinoy, Xoldoroyim, Gulixiromon, Xon Dalli, Malika Ayyor, Oysulton, Bo‘tako‘z, Mashriq, Ammomo, Gulpari, Gulchehra kabi ayol obrazlari bir tomondan, go‘zal, ikkinchidan, samimi oshiq, o‘z ishqiga vafodor yor, uchinchidan, mehribon ona, to‘rtinchidan, doston qahramonini har qanday mushkullardan qutqazuvchi epchil, uddaburro, oqila; beshinchidan, urushda, jangu jadalda qo‘rmas jangchi mergan hamdirlar”<sup>65</sup>, - deb

<sup>64</sup> И smoил Гаспринский (Гаспрали). Ҳаёт ва мамот масаласи. Танланган асарлар. – Т.: Маънавият, 2006. – Б 315.

<sup>65</sup> Мусина Г. Ўзбек халқ достонларида хотин-қизлар образи. – Т.: Фан, 1983. – Б. 85.

o‘zbek xalq dostonlaridagi ayollarning barcha sifatlariga urg‘u beriladi.

“Xotunlar o‘lkasi”da xotin-qizlarning o‘z o‘lkasini harbiy mudofaa qilishi Go‘ro‘g‘li dostonidagi “Chambil qamali” voqeasida tasvirlangan Og‘a Yunuspari boshliq ayollarning o‘z yurtini mudofaa qilishi bilan juda o‘xshash ekanini kuzatishimiz mumkin. Xususan, Yunusparining qo‘rg‘on xotinlarini yig‘ib, aytgan so‘zlariga diqqat beraylik:

*Qovoqlarin uyinglar,  
Qiz-xotinni yig‘inglar.  
Po‘pakni yig‘ib tashlab,  
Sochin boshga tuginlar.  
Xotinlikni qo‘yinglar  
Sarboz anjoim kiyinglar  
Dushman sirni bilmasin  
Elga yaqin kelmasin.*

Bu so‘zlarni aytib, Yunuspari xotinlarga askariy kiyimlar kiygizib, qurol-yarog‘ bilan kiyintirib, baland tog‘ tepasida bo‘lgan qo‘rg‘on atrofida saf torttirib qo‘yadi<sup>66</sup>. Mana, ayollar armiyasining badiiy in’ikosi. “Urushda, jangu jadalda qo‘rqmas jangchi mergan” bo‘lgan turkiy ayollari “Xotunlar o‘lkasi” asaridan o‘rin oldi.

“Xotunlar o‘lkasi” har qanday ziyoli insonni tashvishga solgan ijtimoiy muhit manzarasini aks ettirdi. Mulla Abbas qatori har bir erkak ayol qadrini anglamog‘i uchun uning ahvoliga tushishi shart emas, lekin ijodkor ko‘zlagan maqsad shu ediki, u ko‘plab “er”larning ko‘zlarini ochishi kerak edi.

“Xotunlar o‘lkasi” xayoliy-sarguzasht qissasi, Begali Qosimov ta’biri bilan aytganda, “Asar ayollarni «sochi uzun, aqli kalta» deguvchi islom mutaassibligiga kinoya bo‘lganidek, emansipatsiya niqobi ostida ularning asliy xususiyatlari hisoblanishi lozim bo‘lgan nazokatdan uzoklashtirilishiga, «erkaklashtirilishi»ga qarshi isyon ham edi”<sup>67</sup>. Darhaqiqat, bu asarda, bir qarashdan, “emansipatsiya”, ya’ni xotin-qizlar ozodligi g‘oyasi tajassum etgani bilan, unda

<sup>66</sup> Bu haqda qarang: Мусина Г. Ўзбек халқ достонларида хотин-қизлар образи. – Т.: Фан, 1983. – Б. 82.

<sup>67</sup> Исмоил Гаспринский (Гаспрали). Ҳаёт ва мамот масаласи. Танланан асарлар. – Т.: Маънавият, 2006. – Б. 320.

ayollarning “erkaklashtirilishi”ga qarshi kurash yotganini olim to‘g‘ri e’tirof etgan.

Oxirgi asrlarda Yevropa orqali bizga kirib kelgan ayollarning huquqlari bilan bog‘liq ayrim atamalarning kelib chiqishi bilan qiziqadigan bo‘lsak, xotin-qizlar emansipatsiyasi sinonimi sifatida tilga olinadigan “feminizm” atamasi 1890-yillarda Fransiyada keng qo‘llanila boshlandi, birozdan keyin u Buyuk Britaniyada, keyin belgiya, ispan, italyan, nemis, yunon va rus manbalarida paydo bo‘ldi. Xotin-qizlarning uyushgan harakati 1840-yillarda AQShda, 1850-yillarda Angliyada, 1860-yillarda Fransiya va Germaniyada, 1870-1880-yillarda Skandinaviya mamlakatlarida boshlangan. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida feminism asosan sufrajizm, ya’ni ayollarning fuqarolik ovoz berish huquqi uchun kurashining sinonimi sifatida qo‘llanilgan<sup>68</sup>.

1840-1920 yillar davomida sodir bo‘lgan feministik harakat feminismning birinchi bosqichi deb qabul qilingan. XIX asr xotin-qizlarning ijtimoiy va siyosiy teng huquqli bo‘lishining zarurligini asoslash davri bo‘ldi. XIX asr boshlarida feministik g‘oyalarning shakllanishiga avvalambor utopistlar Sh.Fure, A.Sen-Simon va R.Ouenning falsafiy konsepsiyalari ahamiyatli ta’sir etdi. S.Ayvazova ta’kidlaganidek, Sh.Fure va A.Sen-Simon ayolning “tabiat bergen huquqidan” tashqari unda ijtimoiy huquq ya’ni: ta’lim olish, mehnat qilish va mustaqil bo‘lish huquqi mavjudligini eslatib o‘tishdi<sup>69</sup>.

1848 yilda Amerikada ayollar huquqlari bo‘yicha birinchi konferensiya “Barcha erkaklar va ayollar teng yaratilgan” shiori ostida shakllantirildi. Unda ta’lim, meros, xususiy mulk va ajralish huquqidagi tenglik masalalari ko‘tarildi (bu birinchi feministik konferensiya hisoblanadi)<sup>70</sup>. Shu o‘rinda, G‘arb ayollariga xos “feminizm” tushunchasi bilan Sharq ayollarini emansipatsiyasini

---

<sup>68</sup> Qarang: <https://cyberleninka.ru/article/n/zhenskoe-dvizhenie-genezis-i-evolyutsiya/viewer> // Т.А.Королева. Женское движение: генезис и эволюция // Вестник Томского государственного университета. 2013. № 368. – С. 44-50.

<sup>69</sup> Bu haqda qarang: Брандт Г. Философская антропология феминизма. Природа женщины. – СПб., 2006. – С. 16-17.

<sup>70</sup> Qarang: <https://cyberleninka.ru/article/n/zhenskoe-dvizhenie-genezis-i-evolyutsiya/viewer> // Т.А.Королева. Женское движение: генезис и эволюция // Вестник Томского государственного университета. 2013. № 368. – С. 44-50.

farqlash lozim. Feminizm (lot. *femina* «ayol»)<sup>71</sup> – jamiyatdagi ayollar huquqlari uchun ayollar harakati bo‘lsa, emansipatsiya (lot. *emancipatio*, xalos bo‘lish)<sup>72</sup> – zulmdan va qaramlikdan ozod bo‘lish ma’nosini anglatadi.

“Ingliz tadqiqotchi Jenni Myurreyning fikriga ko‘ra, XX asr tarixchilar nazarida “ayollar davri” hisoblandi. Feminizmning birinchi bosqichi ingliz ayollariga ovoz berish huquqini bergen bo‘lsada, ular amalda buni ko‘rishmadi. Ularning jamiyatga ko‘rsatayotgan ta’siri sezilmadi. Ta’lim olish ayollarning jamiyatda o‘z o‘rnini topishda eng muhim soha ekanligi va shu orqaligina ayol o‘zligini ko‘rsata olishi mumkin ekanligiga ishonch hosil qilindi. Fikrimizga ko‘ra, feminizmning birinchi to‘lqini adabiyotda yangi ayol tushunchasini shakllantirib berdi. “Yangi ayol” ingliz adabiyotida turlicha talqin etildi. Yangi ayol xarakterini ingliz adibalari chuqurroq angladilar va asarlarida yangi ayolning xarakter qirralarini teranroq oolib bera oldilar. Virjiniya Vulf bilan bir qatorda adabiyotga kirib kelgan ayol ijodkorlar ham o‘z asarlarida “yangi ayol”ning xarakter xususiyatlarini namoyon etuvchi obrazlarni yaratdilar. Ular modernizm yunalishida ijod etmasalar-da, romanlarida, hikoyalarida ayol xarakterining feminizm harakati natijasida yuzaga kelgan yangi xususiyatlarini asarlarida gavdalantirdilar”<sup>73</sup>.

Demak, XX asr boshida ingliz adabiyotida paydo bo‘lgan yangi ayol mavzusi butun dunyo bo‘ylab kechayotgan dolzarb muammo sababli dunyoga kelgan edi. Qizig‘i shundaki, Yevropa adabiyotida xotin-qizlarning haq-huquqini himoya qilish an’anasi ayol ijodkorlarning asarlarida ko‘plab uchraydi<sup>74</sup>. Sharq va musulmon

<sup>71</sup><https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%A4%D0%BC%D0%BC%D0%B8%D0%BD%D0%BC%D0%BC%D0%BC> / Wikipedia. Феминизм.

<sup>72</sup>[https://znanierussia.ru/articles/%D0%AD%D0%BC%D0%B0%D0%BD%D1%81%D0%BC%D0%BF%D0%B0%D1%86%D0%B8%D1%8F\\_\(%D1%81%D0%BE%D1%86%D0%B8%D0%BE%D0%BB%D0%BE%D0%B3%D0%B8%D1%8F\)](https://znanierussia.ru/articles/%D0%AD%D0%BC%D0%B0%D0%BD%D1%81%D0%BC%D0%BF%D0%B0%D1%86%D0%B8%D1%8F_(%D1%81%D0%BE%D1%86%D0%B8%D0%BE%D0%BB%D0%BE%D0%B3%D0%B8%D1%8F)) / Знание Вики. Эмансипация.

<sup>73</sup> Мухаммедова Н. Феменизмнинг инглиз адабиётида акс этиши / Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси, 2020 – 3/2. – Б. 87-89.

<sup>74</sup> Жорж Санд (Амандина Аврора Люсиль Дюпен) – 1804-1876 йилларда яшаб ижод этган француз адабаси бўлиб, у 71 та роман муаллифи. Унинг асарларида аёллар эрки масаласи асосий ўринни эгаллайди. Унинг “Индиана” асари жуда кенг шуҳрат қозонган. Bu haqda qarang: <https://artforintrovert.ru/materials/tpost/a3olm15k91-kak-zhorzh-sand-stala-ikonoi-zhenskoi-em> // Как Жорж Санд стала иконой женской эмансипации? Шунингдек, Симона де Бовуар («Мехмонлар» (*L'Invitée*, 1943) ва «Мандаринлар» (*Les Mandarins*, 1954),

adabiyotida esa ayollar erki-ozodligi mavzusi eng avvalo erkak ijodkorlar tomonidan qalamga olindi va targ‘ib qilindi.

Yevropa va qardosh xalqlar adabiyotining o‘zbek jadid adabiyotidagi xotin-qizlar obrazini shakllantirishdagi o‘rni cheksiz. 1903-yilda “Tarjimon” gazetasida chop etilgan Gaspralining “Xotinlar” asari (ocherk) Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lponning Semiramida, Kleopatra kabi Yevropa tarixidagi mashhur ayollar timsoliga bag‘ishlangan she’rlarni yozishga turtki bo‘lgani ehtimoli katta. Va umuman bu asardagi xotin-qizlarning Islomgacha va Islomdan keyingi haq-huquqlari, Yevropa va Osiyo ayollarining farqi, mashhur ayollar haqidagi qiziqarli ma’lumotlarning barchasi o‘zbek jadid ziyyolilari uchun ma’rifiy qo‘llanma vazifasini o‘tagan bo‘lsa, ajab emas.

Xotin-qizlar erki masalasi nafaqat Turkiston yoxud Yevropada, balki butun dunyoda ommaviy tus olgan edi<sup>75</sup> (qarang: **4-ilova**). Bular orasida eng achinarlisi Xitoy ayollarining qismati bo‘lgani haqida Turkistondagi eng birinchi ayollar jurnali “Yangi yo‘l”ning 1927-yil 2-sonida chop etilgan A.L. ismli muallifning “Xitoy xotin-qizlari: eski odat qurbanlari” maqolasida o‘qiyimiz (qarang: **5-ilova**).

XX asr boshida Sharq va G‘arb xalqlarini, xususan, ijodkor va ziyyoli ahlini bir-biriga bog‘lab turgan muhim vosita – matbuot ekani ma’lum. Bizgacha yetib kelgan asarlarning aksariyati matbuotda o‘z ifodasini topgan edi. Shunisi quvonarlik, bular orasida xotin-qizlar tashabbusi bilan yaratilgan jurnallar dunyo yuzini ko‘ra boshladi. Turkiy musulmon dunyosidagi ayollar uchun birinchi maxsus nashr “Olami nisvon” (“Ayollar dunyosi”) jurnalining mas’ul muharriri Gasprinskiyning qizi Shafiqqa Gasprali bo‘lgan. Unda Islomda ayollar va erkaklarning tengligi, ilm-fan va ta’lim, nikoh va oila institutini isloq qilish kabi keng tarqalgan muammolar aks etgan. Bundan tashqari, jurnal o‘quvchilarni boshqa mamlakatlardagi

---

“Иккинчи жинс” (1949), Джейн Остин (“Андиша ва ғурур”, “Эмма”), Шарлотта Бронте (“Джейн Эйр”) каби аёл адibalар асарларида хотин-қизларнинг зулм остида қолгани тасвир этилган.

<sup>75</sup> Bu haqda qarang: <https://cyberleninka.ru/article/n/rol-zhenschiny-v-videnii-ismaila-gasprinskogo-perevod-na-russkiy-yazyk-ocherka-i-gasprinskogo-zhenschiny/viewer> // Абидуллаева Э. Роль женщины в видении Исаила Гаспринского (перевод на русский язык очерка И. Гаспринского «Женщины») Крымское историческое обозрение, 2015, № 1. – С. 216-231.

ayollarning hayoti va kundalik hayoti bilan tanishtirdi. Masalan, “Kavkaziyadagi muslima xonimlar” maqolasidagi faktlarni taqqoslash asosida Turkiston ayollarini ijtimoiy ahvolining umumiylar manzarasini tasavvur qilishimiz mumkin: “...Kavkazdagagi musulmon ayollar ham jaholat ummoniga g‘arq bo‘lishgan. Ilm haqida gapso‘z yo‘q. Ularda ma’rifatga qiziqish yo‘q. Ularning hayoti paypoq to‘qish, kiyim tikish, oshxona ishlarini bajarish yoki shunchaki bekorchi o‘tirishdan iborat. Ularning bolalar tarbiyasi bilan ishi ham, erlari bilan ham ishlari yo‘q, qo‘shnilari bilan yaqin munosabati yo‘q. Ular baqirib gapirishadi, tartib, adab haqida tasavvurga ega emaslar. Kavkaz musulmon ayollarini faqat tilla taqinchoqlar, kiyim-kechaklar, sochlariga va kaftlariga xina surtish va qoshlarni bo‘yash bilan bandlar. Shu bilan birga, ular sog‘lig‘iga umuman g‘amxo‘rlik qilmaydilar: yalangoyoq yurishadi, zax va qorong‘i uylarda yashaydilar. Keyinchalik ular kasal bo‘lishadi. Shunday qilib, ularning yoshligi behuda o‘tib ketmoqda...”<sup>76</sup>. Bu paytda barcha musulmon ayollarining taqdiri o‘xhash va deyarli bir xil bo‘lganini yuqorida keltirilgan so‘zlar ham tasdiqlaydi.

Tatar yozuvchisi Jamil Kermençikli ham qrim-tatar ayollarining taqdiriga kuyinchaklik bilan yondashgan. U xalqining shonli o‘tmishiga ishora qilib, qo‘rqmas onalarning jasoratlarini eslab, quvonadi va zaifa qizlari nima ahvolga tushib qolganini ko‘rib, umidsizlikka tushadi va buni shunday ifoda qilgan edi: “...Nega bir paytlar jang maydoniga erkak bilan teng yetib kelgan qo‘rqmas tatar ayollarining hozirgi boyaqish qizlari shunchalik qo‘rroqki, ular hatto quyosh nuridan ham cho‘chib ketishadi. Ularni toza havodan nafas olish huquqidan mahrum qilishsa-da, singan oyoqlari qonga belashsa-da, hatto ovoz chiqarishga ham jur’at etolmaydilar...”<sup>77</sup> Kirmençekli so‘zda chizgan jasur ayol siymosi Ismoil Gaspralining “Arslon qiz” asaridagi Guljamolni eslatadi. Guljamol – Uchturfon aholisini itoatsizlik holatlarida qo‘lga olish va o‘lim bilan tahdid qilgan Xitoy jangchisiga yakka o‘zi qarshilik ko‘rsatgan qiz. Shahar zodagonlarining zaifligidan hafa bo‘lib, yashirincha harbiy zirh

<sup>76</sup> Bu haqda qarang: Kavkasiyada müslime hanimlar // Alem-i nisvan. – № 1. – S. 3.

<sup>77</sup> Bu haqda qarang: Kermençikli C. Bu da bir nev insaf // Millet. – 1917, iyul 21; Джемиль Керменчикли. Ма-бих-иль ифтихарым – къырымлыкътыр меним гъууруым. Макъалелер ве шиирлер джыйынтыгъы / Тертип этиджи Т.Н. Кириев. – Акъмесджит: Къырым девлет окуйв-педагогика нешрияты, 2005. – 135 с. – С. 28.

kiyib, otliq, erkak niqobi ostida butun armiyasini hujumga olib borishga muvaffaq bo‘lgan. Shunday qilib, Gasprali fransuz xalq qahramoni Janna D’arkning musulmoncha ko‘rinishini yaratadi.

“Tarjimon”, “Vatan xodimi” gazetalari, “Olami nisvon” jurnali ta’siri ostida ayollar ozodlik harakati rivojlanib borgan. Shunga qaramay, Qrimdagi ayollarning aksariyati o‘rnatilgan an’analar va o‘zlarining xurofotlari ostonasidan o‘tishga jur’at eta olmadilar, deydi tadqiqotchi T.N.Karimov<sup>78</sup>. O‘sha paytdagi mashhur rejissyor Jalol Meinov qrim-tatar teatri hayotidagi eng qiziqarli faktlarni eslashicha, qariyb 1914 yilgacha sahnadagi barcha ayollarga tegishli rollarni erkaklar ijro qilishga majbur bo‘lgan<sup>79</sup>. Bunaqa vaziyat faqat musulmonlar jamiyatiga xos emas edi. Yevropa teatri sahnasida ayol obrazining sahnalashtirilishi haqida nemis faylasufi I.V.Gyote “Rim teatrida erkaklar tomonidan ijro etilgan ayollar rollari” maqolasida shunday yozadi: “...Qadimda, san’at va axloqiy tamoyillar eng rivojlangan davrda, ayollar teatr sahnasiga yaqinlashtirilmagan. O‘sha paytdagi pyesalar ijrosi ayollar ishtirokisiz amalga oshirilgan yoki ayollar rolini zarur ko‘nikma va epchillikka ega bo‘lgan aktyorlar ijro etishgan<sup>80</sup>. Bu holat XX asr boshidagi Turkiston teatri sahnasi bilan aynan o‘xhash.

Shuningdek, Jamil Kermenchikli erksiz tatar qiziga qarata “Uchrashganda” she’rida aytgan mana bu so‘zlari e’tiborga loyiq:

*Ot boshingdan bu qo ‘rqinchli kafanni,*

*Zulmat ichra qolganing yetar.*

*O ‘lgandan so ‘ng kafan kiyib to ‘yarsan,*

*Ortiq kiyma bu kafanni o ‘lguncha!*<sup>81</sup> (she’r tarjimasi – N.X.)

Shoir paranjini kafanga qiyoslamoqda. U ayoldan hozirgi holatini oqilona baholashni va o‘zi uchun yangi ma’no topishni

<sup>78</sup> <https://ana-yurt.com/qrt/content/problema-emansipacii-zhenshchiny-v-tvorchestve-dzhemiliya-kermenchikli>

Керимов Т.Н. Проблема эмансипации женщины в творчестве Джемиля Керменчикли // АНА ИОПТ урф-адетлеримизни унутмайыкъ.

<sup>79</sup> Керимов И.А. Мейнов Джелял. – В кн.: Деятели крымскотатарской культуры (1921–1944). Библиографический справочник / Гл. ред. и сост. Д.П. Урсы. – Симферополь: Доля, 1999. – 240 с. – С. 133.

<sup>80</sup> Гете Иоган Вольфганг. Об искусстве и литературе. Собрание сочинений. В 10-ти томах. – Т. 10. – М.: Художественная литература, 1980. – 510 с. – С. 265.

<sup>81</sup> Керимов И.А. Мейнов Джелял. – В кн.: Деятели крымскотатарской культуры (1921–1944). Библиографический справочник / Гл. ред. и сост. Д.П. Урсы. – Симферополь: Доля, 1999. – 240 с. – С. 133.

talab qiladi. Ortiqcha uyatchanlik, yolg‘on xurofotdan qutulishga chaqirgan Jamil Kermenchikli ayolning o‘z dinidan butunlay voz kechishga da’vat etmaydi. Uning fikricha, madaniyatli muslimmon ayol madaniy jihatdan qoloq ayoldan ko‘ra Vatanga ko‘proq manfaat keltira oladi. Ismoil Gasprali ta’kidlaganidek, haq-huquqi toptalgan ayollar millatning rivojlanishiga hatto to‘sinqinlik qiladi. Ular aholining teng yarmini tashkil etar ekan, hur fikrlovchi ayollar safini to‘ldirish muhim edi.

XX asr boshida Turkiston o‘lkasi jadid va qadimchilari erkak va ayollarning haq-huquqlari masalasida kelisha olmagan edi. Tatar davriy matbuotida ham Turkistondagi “Al-isloh” va “Al-izoh” jurnallaridagi kabi ayollarning huquqlari erkaklar bilan teng bo‘lishi kerakligi uqtirilgan bo‘lsa, ba’zida erkaklar har tomonlama ayollardan ustun ekanligi<sup>82</sup> ta’kidlangan<sup>83</sup>. Gaspralining urg‘ulashicha, turmush qurgandan so‘ng, ayol umr yo‘ldoshi va onaga aylanadi. Oilaviy hayotda u turmush o‘rtog‘iga g‘amxo‘rlik qilishi, taom tayyorlashi, uyni saranjom-sarishta qilishi lozim. O‘z navbatida, erkak kishi oilasi uchun moddiy jihatdan to‘kislik yaratishi, pul topishi talab etilsa, ayol erining daromadini oila farovonligi uchun oqilona sarflashi lozim<sup>84</sup>. Darhaqiqat, ma’rifatparvar adib keltirganidek, ayol va erkakning oilada o‘z vazifalari belgilangan. Islom bu haqda nima deyishi haqida yuqorida to‘xtaldik. Shunday ekan, ayol va erkak biri ikkinchisidan ustun yoki past, deb qaralishi insoniylik va axloqiylik mezonlariga mutlaqo zid.

Darhaqiqat, tatar ayollarining mashhur jurnallaridan biri “Suyumbeka”da xotin-qizlarning ta’lim olishi va ularning haq-huquqlari tiklanishiga oid ko‘plab maqolalarning mualliflari ayollar edi. Bular ichida eng faollari Faxr-ul Banot Sibg‘atulloh qizi,

<sup>82</sup> Qarang: Ирләрнең хатынларга караганда хокуки// Дин вә мәгыйшәт. 1907. № 4. 53–54 б.; Ир вә хатынларның жәміг хокукта мұсәвәтенең батланы// Дин вә мәгыйшәт. 1907. № 5. 69–70 б.; Мотыйгулла ибн мулла Гатаулла. Мұсәвәт хокук вә хөррият нисә // Дин вә мәгыйшәт. 1907. № 15. 231–232 б. 28. Ирләрнең хатынларга караганда хокуки// Дин вә мәгыйшәт. 1907. № 4. 53–54 б. 53 б. 29.

<sup>83</sup> Bu haqda qarang: Брилева Д. О женщине и устами женщины: мусульманка в татарской периодической печати начала XX в. // Гендерные стратегии и дисциплинарные практики, №2(36). – Казан, 2018. - С. 24.

<sup>84</sup> Qarang: <https://cyberleninka.ru/article/n/rol-zhenschiny-v-videnii-ismaila-gasprinskogo-perevod-na-russkiy-yazyk-ocherka-i-gasprinskogo-zhenschiny/viewer> // Абибулаева Э. Роль женщины в видении Ислама Гаспринского (перевод на русский язык очерка И.Гаспринского «Женщины») Крымское историческое обозрение, 2015, № 1. – С. 216-231.

Zaynab Valieva, Bog‘bo‘stan (Muminova), Mag‘ro‘y Muzaffariya, Gulsum Tereshkaviy va boshqalar edi. Faxr-ul Banot Sibg‘atulloh qizining “Oila saboqlari” risolasi o‘zbek tilida 1913-yilda chop etilgan. Kitob qizlar maktabi uchun darslik sifatida yozilgan bo‘lib, 87 darsdan iborat. Unda yosh xotin-qizlar bilishi lozim bo‘lgan tarbiya, axloq-odob, uy-ro‘zg‘or ishlari-yu bolalar tarbiyasi bilan bog‘liq masalalar yoritilgan. Zaynab Valieva “Tatar ayollarining o‘tmishi va kelajagi” maqolasida muallif ayrim erkak afandilar tomonidan oliy maktablarni bitirgan rus xonimlari bilan hatto diniy ilm maktabini bitirmagan tatar ayollarini solishtirish noto‘g‘ri, deb biladi. Ayollargaadolatsiz munosabatda bo‘layotgan erkaklarni ismlari bilan keltirib, ularga murojaat qilib, tanqid qiladi (Vəlieva. Tatar xatyinlarynyң uzganы və kiləchəge //Söembikə. 1914. № 11. 20 b)<sup>85</sup>.

Najib Oja Fozil “Tatar qiziga” she’rida xotin-qizlar ozodligi va ta’limi masalasini ko‘tarib, yosh tatar ayolini xurofot va bid’atga asoslangan eski urf-odatlardan voz kechishga undaydi:

*Bilmam, ne kutasan shu naqshli kashtali  
Ipak yengli ko ‘ylakdan-u to ‘qilgan ro ‘molingdan,  
Erkigni to ‘sadigan, noqulaylik yaratgan?  
Yopinma, Tatar qizi! Gul yuzing sarg ‘aytirma,  
Qimmatbaho kunlaring «Oq libos» bilan qoraytirma!*<sup>86</sup>

Shoira har bir kishining rivojlanishi sivilizatsiyaning umumiylaraqqiyotini belgilashiga ishonch bildiradi, kelajak onalarini tarbiyalash zarurligini uqtiradi: bugun bola bo‘lsang-da, ertaga sen ona bo‘lasan, aynan sen farzandlaringni “xalq uchun!” tarbiya qilasan.

Shunday qilib, “Suyumbeka” jurnalida xotin-qizlar mavzusida muhokamalarda ishtirok etgan ayollar gender tushunchasini shakllantirdilar, unda erkaklar zo‘ravonligini fosh qilish, otalar va erlar tomonidan qilinayotgan zug‘umdan xalos bo‘lishga chaqiriqlar, shuningdek, erlarga moliyaviy qaramlikdan qutulishga da’vatlar aks

<sup>85</sup> Bu haqda qarang: Брилева Д. О женщине и устами женщины: мусульманка в татарской периодической печати начала XX в. // Гендерные стратегии и дисциплинарные практики, №2(36). – Казан, 2018. - С. 28-29.

<sup>86</sup> Qarang: <https://whysavelanguages.wordpress.com> // Maksym Mirieiev, 2012. Просветительские идеи в творчестве писателей крымскотатарской диаспоры Румынии в конце XIX – первой половине XX вв. (She’r tarjimamoni – N.Xoliqova).

etgan edi. Maqolalar mazmunidan ko‘rinadiki, tatar ayollari birmuncha jasoratli, qat’iyatli va haq-huquqini talab qila oladigan jur’atli bo‘lishgan, xotin-qizlarning ta’lim olishi uchun qat’iyat bilan kurashgan.

Mukammal oila va turmush qurish uchun er va xotin zamona yangiliklaridan barobar boxabar bo‘lmog‘i kerak. Buning uchun har birlariga ilm-ma’rifat eshiklari ochiq bo‘lmog‘i kerak. Bu g‘oya deyarli barcha umumturkiy adiblar ijodida mushtarak ekaniga amin bo‘ldik. Jumladan, qrim-tatar shoirlari B.Choban-zade, A.Giraybay, N.Chelebidjixan, M.Nuzet, U.Ipchi, A.Odabash, Z.Djavtobel, J.Kermenchiklilarning asarlarida tatar xotin-qizlarining nochor qismati, to‘rt devor ichidagi zimiston kabi kunlari, tengsiz nikoh-oila tufayli zavol ko‘rayotgan taqdirlari haqida so‘z boradi.

O‘zbek jadid ijodkorlarini chuqur o‘yga toldirgan bu muammolar erk kuychisi Cho‘lponning “Sharq qizi”, “O‘zbek qizi uchun”, “Men va boshqalar”, “Yer asiralari” kabi she’rlarida qalamga olingan:

*Faqat, men bir o‘zim, Sharqning bir qizi  
Bahor kelganini ko‘rmay qolaman:  
Uzun, qora qishning ketmasdan izi  
Uning do‘sti – kuzni kutib olaman<sup>87</sup>. (“Sharq qizi”)  
Menda-da qanot bor, lekin bog‘langan...  
Bog‘ yo‘qdir. Shox yo‘qdir. Qalin devor bor:  
So‘zlari sadafdek, tovushi naydek  
Kuyim bor...uni-da devorlar tinglar...<sup>88</sup> (“Men va boshqalar”)*

Bu misralar xotin-qizlar fojiasi nafaqat o‘zbek ayollari, balki butun Sharq xotin-qizlari taqdiriga bitilgan yozuqligiga dalolat qiladi.

Adibning yuragini og‘ritgan alam va hasrat, “yer asiralari”ning ozodligi haqidagi orzu-istiklari ko‘p o‘tmay shoirning “Qor qo‘ynida lola”, “Kecha va kunduz” kabi nasriy asarlariga ko‘chdi.

“Ayollarning haq-huquqlari erkaklarnikidan kam emasligini, shundan kelib chiqib, ularning jamiyatdagi mavqeい ham erkaklarning ijtimoiy darajasida ekanini, bizningcha, Fitrat jadidlar ichida nisbatan birinchilardan bo‘lib e’tirof etdigina emas, balki isbot etdi

<sup>87</sup> Чўлпон. Яна олдим созимни. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1994. – Б. 388.

<sup>88</sup> O‘sha manba: – Б.49. 4

ham”<sup>89</sup>. Ibratli oilalarning harakati bilan tug‘iladigan mukammal turmush manzarasi va komil jamiyat haqidagi tavsiyalar Fitratning “Rahbari najot”, “Oila” kabi risolalarida aks etgan. “Oila” risolasida “Qaerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muazzam bo‘ladi”<sup>90</sup>, - deydi ijodkor. U Qur’oni karimdagи “Xotinlaringiz sizlarning ziroatgohingizdir, shunday ekan ularga yaxshi munosabatda bo‘lingizlar”<sup>91</sup> oyatiga tayanadi. Xotin-qizlarning erki va ozodligi masalasi ularning munosib oila qurishdan boshlanishi ko‘plab ijodkorlarning asarlarida badiiy yo‘sinda ifoda etildi.

Nozimaxonim “Ayo mahkumalar...” g‘azalida tutqun o‘zbek ayollariga murojaat etib, qo‘shni turkiy qizlaridan ibrat olishni, ular kabi jaholatni yengib chiqishni, bid’atdan qutulishni, erkin nafas olib yashashni uqtiradi:

*Boqingkim, o‘zga millat qizlari na yerlara yetmush,  
O‘qub ilmu hunarlarni, ki hikmat sirrini bilmush,  
Bilib o‘z e’tiborin ham huquqini tanib olmush,  
Asrlar eltg‘on ul bid’at uyqusidin uyg‘oning!*

Shoiraning eng katta orzularidan biri savodli, o‘qimishli, har hikmat sirini biladigan, o‘z huquqini tanigan ziyoli qizlarni ko‘rmoq edi. Jamiyatdagи barcha qoloq illatlar, ziddiyatli qarashlar fikri ochiq ziyoli qatlam tomonidan tanqid qilindi va bularning barchasi badiiy asarlarda o‘z in’ikosini topdi.

Jadid she’riyatidagi yangilanish ilk bor an’anaviy aruz vaznida namoyon bo‘ldi. Bu turning janrlariga ma’rifatli, ziyoli, huquqini tanigan ayollar obrazi kirib keldi. Dilshodi Barno, Anbar Otinlar boshlab bergen an’analar keyinroq Tavallo, So‘fizoda, Hamza, Cho‘lpon kabilar ijodida yanada sayqal topdi. O’tgan asrning 20-yillarigacha yaratilgan she’riy asarlarda ilm-ma’rifat g‘oyasi o‘z dolzarbligini yo‘qotmadi.

Ozarbayjon shoiri Jalil Mamadqulizoda qofiyabozlikni, mazmun va vaznni qofiyaga qurban keltirishni va she’r yozganda eski ishq mavzusining siyqa takrorini tanqid qilar ekan, tagmatnda

<sup>89</sup> Болтабоев Ҳ. Фитрат ва жадидчилик. – Т.: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – Б. 149

<sup>90</sup> Фитрат А. Оила ёки оила бошқариш тартиблари. – Т.: Маънавият, 2000. – Б. 4.

<sup>91</sup> Фитрат А. Оила ёки оила бошқариш тартиблари. – Т.: Маънавият, 2000. – Б. 11.

ilm-irfon va ma'rifatli ayolni yetishtirish masalasi ko'ndalang turadi: "...qirq besh manzum asarda qirq besh yorning, ya'ni qirq besh ilmsiz musulmon qizining qora sochlarini va qirmizi yanoqlarini qofiyaga tuzublar. Natija: natijada millat avom, millat johil, millat och!..."<sup>92</sup>.

"Demak, adabiyotdagি an'anaviy estetik qimmatlar endi zamon talabiga javob bermay qoldi. Faqat xalq manfaatini himoya qilishga qodir so'zgina yashashga haqli. Muhabbat – avvalo millatga, yurtga izhor etilmog'i lozim", - deydi adabiyotshunos Adiba Davlatova. Ajziy ijodiga baho bergen Vadud Mahmud esa: "qosh, xol, xat, zulflardan foyda chiqmaslig'ini va bu kalimalarni "hayotiy lashtirmak" kerakligini chin tushunganidan bu so'zlarga boshqa rang bera boshlaydi"<sup>93</sup>, deb ijtimoiylikka xayrixohlik bilan munosabat bildiradi.

"Bir suratdaki har bir qalamning o'z muqaddas vazifasi bor: birinchi navbatda millatning xushbaxtligi yo'lida xizmat etmak"<sup>94</sup> deb aytilgan so'zlarda adabiyot qudrati, da'vati ko'plab muammolarni bartaraf etishi g'oyasi ilgari suriladi. Adabiyotga bunday yangicha yondashuv o'zbek jadid ziylolarida ham uchraydi. Mahmudxo'ja Behbudiy Fitratning "Munozara" asariga yozgan taqrizida uni foydali asar deb e'tirof etar ekan, buning sababi undagi ijtimoiy masalalar talqini ekanini ham aslo yashirmaydi. "...Farangiy va Mudarris tilidan bu muhim bahslik risolani tahrir etuvchi vahmi zoing'a arzi tashakkur qilarman. Inshoollo, bu risola buxoriylarni uyg'onmoqig'a bois bo'lub, "Munozara" muharririni rahmat ila yod etarlar"<sup>95</sup>.

Fitrat "Munozara"sida har bir inson, u xoh erkak bo'lsin, xoh ayol bo'lsin, ilm olishi kerakligi, ularning daxlsizligini ta'minlash, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, teng huquqli bo'lishi, amalmansabni suiste'mol qilish, poraxo'rlik, fahsh kabi illatlarni daf qilish, millat istiqboli uchun poydevor bo'ladigan barkamol avlod tarbiyasi va bunda xotin-qizlarning hissasi, ulushi va mas'uliyati nihoyatda cheksiz ekani bot-bot takrorlanadi.

<sup>92</sup> Жалил Меммедгулузаде. Молла Несреддин / Фелјетонлар, мегалелер, хатирелер, мектублар. Азербајеан университети нешрийаты. – Бакы, 1961. – С. 649.

<sup>93</sup> Вадуд Маҳмуд. Танланган асарлар. – Т.: Маънавият, 2007. – Б. 63.

<sup>94</sup> Жалил Меммедгулузаде. Молла Несреддин / Фелјетонлар, мегалелер, хатирелер, мектублар. Азербајеан университети нешрийаты. – Бакы, 1961. – С. 649

<sup>95</sup> Бехбудий. "Мунозара" хақида. ТВГ, 1911. – №73.

Shu o‘rinda Behbudiyning ushbu so‘zlarini keltirish o‘rinli: “Taraqqiy etgan millatlarning onalari o‘qitar ekan, biz avval onamizni o‘qitub, anga til o‘rgatmog‘imiz kerak. Chunki bizni ilm va tilsizligimiz alardandur”<sup>96</sup>.

She’riyatda davr voqeligi ruhiy holat bilan uyg‘un holda aks etib bordi. Xususan, Cho‘lpon, Said Ahroriy kabi ijodkorlar davrning ayanchli manzaralariga loqayd bo‘lmasdan, ularga chora izlagan. Cho‘lponning “Binafsha” she’rida yolg‘iz taskini faqat o‘z qalamida qolgan millatparvar insonning tuyg‘ulari bilan yuzlashasiz:

*Binafsha, shunchalar chiroyli yuzing bor,  
Nimaga uzoqroq kulmaysan?  
Binafsha, shunchalar tortguvchi ko‘zing bor,  
Ko‘nglimga isriklik to‘kmaysan?*

Go‘zal va betakror yaratiq bo‘lmish binafsha eng xokisor gul bo‘lganidan shoir uning bu xususiyatida millatning ruhiy ahvolotini ko‘radi. Shunchalar “chiroyli yuzi”, shunchalar “tortguvchi ko‘zi” bo‘la turib, binafsha lirik qahramon – oshiq ko‘ngliga “isriklik” to‘kmaydi.

*Binafsha, go‘zalim, qayg‘ilim, kelmaysan,  
Qayg‘ing zo‘r, qayg‘imni bilmaysan:  
Sevgimni sezmaysan,  
Menga bir kulmaysan.*

Shoirning “Binafsha”si ham “Sharq qizi”ni yodga soladi. Unda ezilgan, toptalgan, yanchilgan xalq gavdalanadi. Lirik qahramonni ayol timsolidagi yurt, vatan o‘ziga oshiq qilgan. Shoир binafshaga oshiqligini “go‘zalim”, “qayg‘ilim” degan sifatlashlarda namoyon qiladi. Ayni kayfiyatdagи misralar tatar ma’rifatparvar shoiri Zokir Rameev (Dardmand)da ham uchraydi:

*Ayttilar kim, bir baxtsiz  
Elga oshiqsan, faqir  
Bir qizardim, boz bo‘zardim...  
Qandoq tonay?...tonolmadim!  
Qandoq tonay?...tonolmadim!!!*<sup>97</sup>

<sup>96</sup> Фитрат А. Оила ёки оила бошқариш тартиблари. – Т.: Маънавият, 2000. – Б. 140.

<sup>97</sup> Нигматуллина Ю. Национальное своеобразие эстетического идеала. Изд-во Казанского университета, 1970. – С. 189. 79

She’rning lirik qahramoni Farhod singari ishq yo‘lida, ya’ni vatanga, millatga ishqqi yo‘lida mashaqqatlar chekishga, xuddi Majnun kabi sahrolarni darbadar kezishga tayyor. “Men ham sevaman” she’rida ko‘kka iltijo qilayotgan lirik qahramon oydin kechalarda yolg‘iz qolib, yorug‘ yuduzlardan sevgi kutadi. Barcha go‘zallikni sevgi deb o‘ylar ekan, lirik qahramon aldanganini ham yashirmaydi. Lekin nima bo‘lsa ham, sevgidek buyuk tuyg‘udan tonmaydi, aniqrog‘i, Dardmand yozganidek, tona olmaydi:

*Endi har nafasda yana kuyaman,  
Faqat Majnun bo‘lib elni sevaman.*

Cho‘lpon o‘z orzu-istikclarini satrlar qatiga yashirar ekan, xotin-qizlarning tor va biqiq jamiyatdan kuni kelib ozodlikka, erkinlikka erishishiga ishongan edi. Vadud Mahmud go‘zal ta’rif etganidek, Cho‘lpon “ko‘nglida yig‘lagan malaklarning sharqning onalari, juvonlaridan iborat ekanini qancha ochiq, muassir va e’joz bilan tasvir etadir”. Shoir “elining bu kungi ruhi, holi”ni sezgan edi, yurtining “badanini asramoq, qo‘rumoq uchun” qo‘liga qalam olib kurashga otlangan edi.

Buyuk nemis faylasufi I.Kant har bir davrning o‘ziga xos qiyofasi borligini yozganida haqli edi. Uning ahamiyati shundaki, davr taraqqiyoti ayollarning intellektual darajasi bilan belgilanishidadir. Uning fikricha, ayol kishi har qanday taraqqiyot shakli mavjudligining mezoni va asosidir.

Aslida, ilm-ma’rifatli, o‘qimishli, dunyoqarashi keng, erkin fikrli o‘zbek qizlari barcha zamonlarda, jumladan XX asr avvalida ham oz bo‘lмаган. Lekin ularning kamdan-kami jamiyat hayotida faol ishtirok etgan. Aksar xotin-qizlarga o‘z iste’dodini, ijodiy salohiyatini namoyon etish uchun imkoniyat mavjud emas edi. Jadidlar ana shu holatni o‘nglash, millat onalari va qizlarining barchasi o‘qimishli, ma’rifatli, jamiyat hayotida faol bo‘lishi uchun kurashdi. Filologiya fanlari doktori A.Davlatova: “Gasprinskiy asarlarida estetik ideal qahramon hisoblangan ayollar obrazi o‘zbek adabiyotidagi shu kabi qahramonlardan farq qiladi. Gasprinskiy orzusidagi qizlar o‘qimishli bo‘lish bilan bir qatorda erkin fikrli, o‘z taqdirini o‘zlari belgilay oladigan mustaqil, bir oz yevropalashgan

bo‘lsa, o‘zbek adabiyotida esa bu holat kuzatilmaydi”<sup>98</sup>, - degan so‘zlarni keltiradi.

Gasprinskiy orzulagan qizlar Turkiston o‘lkasida sekinlik bilan bo‘lsa-da, orta borgan. Qo‘qonlik Tojiya ismli ayol 1906 yilda xotin-qizlar jurnali bosh muharriri Shafiqa xonimga o‘zbek ayollari nomidan arzu shikoyat maktubini yozgani haqida ma’lumotlar mulohazalarimizni tasdiqlaydi (qarang: *6-ilova*).

Bu maktub nihoyatda noyob manbalardan biridir. Xat muallifi Tojiya turkistonlik o‘zbek ayoli. Murojaatda yozilishiga ko‘ra, u o‘zbek xotin-qizlarining zamonaviy ta’lim olishini talab qilyapti. U Rossiyadagi musulmon ayollari deganda tatar millatiga mansub ayollarni nazarda tutgan. Chunki Tojiya o‘zbek xotin-qizlari zamonaviy ta’limni musulmon ayollaridan olishini har jihatdan to‘g‘ri, deb hisoblagan. Darhaqiqat, shunday bo‘ldi ham. Turkiston xotin-qizlari uchun ko‘plab maktablar ochildi. U yerda, asosan, tatar ayollari ta’lim berishdi. Lekin buni qarangki, bir qarashda “xolis yordam” bo‘lib tuyulgan bu “imkoniyat” zamirida ham chor Rossiyasining g‘arazli manfaati yotganini tadqiqotchi D.Nasretdinova zukkolik bilan ilg‘agan: “Turkiston Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingach, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohalarda tub islohotlar o‘tkazildi. Mustamlakachilar o‘lkada hokimiyatni yanada mustahkamlash, o‘z hukmronliklarini uzoq vaqt saqlab turish sa’y-harakati bilan bog‘liq siyosatni olib borganlar. Bu mahalliy aholini uzoq vaqt qaramlikda ushlab turishning yagona yo‘li edi. Mustamlaka ma’muriyati mazkur siyosatni amalga oshirishni, avvalo, maorif tizimida islohotlar olib borish, rus-tuzem maktablarini tashkil etishdan boshladi. “Sodiq” fuqarolar faqatgina erkaklardan iborat bo‘lmay, ayollarni ham bu jarayonga jalb etish ustuvor vazifa sifatida qaraldi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad imperiya manfaatlariga “sadoqat” ruhini shakllantirish hamda hukumat tarafdarlarini ko‘paytirishdan iborat edi. Shunday maqsadlarda turli yo‘nalishdagi qizlar maktablari tashkil etildi. Mazkur maktablarga mahalliy millat ayollarini jalb etishda hukumat tomonidan tili, dini va madaniyati bir-biriga yaqin bo‘lgan tatar ayollaridan vositachi

<sup>98</sup> Давлатова А.Р. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиётида эстетик идеал муаммоси. Филол.фундаменталистика ... дисс. – Т., 2011. – Б. 137.

sifatida foydalanildi”<sup>99</sup>. Tatar muallimalarini Turkistonga yollashdan asosiy maqsad – imperiya manfaatlariga sadoqat ruhini shakllantirish va hukumat tarafdoqlarini ko‘paytirish bo‘lgani shak-shubhasiz.

Bu o‘rinda tadqiqotchi mazkur hodisaning xayrli tarafi bor edi, deb hisoblaydi: “...arxiv ma’lumotlariga qaraganda, turli xil yo‘llar bilan bo‘lsa ham tatarlar mahalliy millatlar vakillari bilan hamkorlik qilishga intilgan. Bundan maqsad ruslashtirish siyosatining salbiy oqibatlaridan mahalliy millatlarni saqlab qolishdan iborat bo‘lgan. Shu maqsadlar yo‘lida ular Turkistonga xizmat vazifalarini o‘tash uchun oilaviy tarzda yoki yakka tartibda tashrif buyurib, erkaklar tomonidan o‘g‘il bolalarni, tatar ayollari esa mahalliy millatlar qizlarini o‘qitish ishlarini olib borganlar”<sup>100</sup>.

Markaziy Osiyo mahalliy ayollariga rus xalqining qiziqishi ortganini va ilmiy yo‘sinda o‘rganilganini XIX asrning oxirgi choragida eru xotin V.Nalivkin va M.Nalivkinalarning “Farg‘ona vodiysida o‘troqlashgan mahalliy ayollar turmushi ocherki” (Qozon, 1888) tadqiqotida ko‘rishimiz mumkin.

Millat tarbiyasida ma’rifatli onaning zarurati, ya’ni xotin-qizlar savodxonligi masalasi she’riyatga olib kirildi. Xotin-qizlar ozodligi el-yurt ozodligi, erkinligi g‘oyalariga parallel ravishda tasvirlandi. Bu masalalarning dolzarblik kasb etishida matbuot hal qiluvchi maydon bo‘lib xizmat qilgan. Boshqacha aytganda, ijtimoiy hayotda faol ayol timsoli adabiy asarga matbuot daryosi bilan sizib bordi. Urg‘u beriladigan jihat shuki, o‘sha davrda yashagan onalar, opasingillar savodxonlikka oid targ‘ibot ishlarini va o‘z g‘oyalarini davriy matbuotda nashr etilishida tashabbuskor bo‘lishdi. Bu hodisa qardosh o‘lkalarda yuz berdi. Xususan, qozoq tilida “Ayal tandigi” (1929), ozarbayjon tilida “Sharq qodini” (1924-1927), tatar tilida “Ozod xotin” (1927-1929) kabi jurnallar faoliyati ayollarning sa’y-harakatlari bilan yo‘lga qo‘yilgan. Ularning tamaddun sari qo‘ygan sobit qadamlari tahsinga sazovor edi.

O‘zbek tilidagi ilk xotin-qizlarga bag‘ishlangan jurnal dastlab “Yangi yo‘l” (1925) deb atalgan bo‘lib, 1930 yilga kelib “Yorqin

<sup>99</sup> Насретдинова Д. Туркистон маданий ҳаётида татар аёллари. – Т.: Yangi nashr, 2015. – Б. 14.

<sup>100</sup> O‘sha asar. – Б. 22.

turmush”, 1941 yildan esa “Saodat” deb nomlana boshlagan<sup>101</sup>. XX asr boshida o’zbek matbuoti anchayin rang-barang, dolzarb mavzudagi maqolalar, boz ustiga, rangin suratlarga boy bo’lganini birgina mazkur oynomadan bilib olsa bo’ladi. Avvalo, unda e’lon qilingan maqola, e’lon, xabarlar rukni xilma-xilligi bilan diqqatni tortadi: “Siyosat”, “Maorif”, “Ta’lim-tarbiya”, “Kooperatsiya”, “Ishlab chiqarish”, “Huquq”, “Adabiyot”, “Tibbiy yordam”, “Uyro’zg’or”, “Xo’jalik ishlari”, “Pochta qutisi”, “Bizning turmush”, “Chet ellarda”, “Yoshlar”, “Sog’lijni saqlash”, “Fan va texnika”, “Kitobiyot”, “Ilm-haqiqat”, “Ilmiy suhbatlar”, “Sud va maishat”, “Bizga nima haqida yozadirlar?”, “Har tomondan”, “Qurama”, “Yangi yo’l” idorasiga savollar”, “Boshqarmadan javob va maslahatlar” “Kelgan maslahatlar”, “Kelgan xatlardan”, “Aralash-quralash”, “Undan-bundan”, “E’lon va bildirishlar”.

E’lon qilingan maqolalarning ijtimoiy hayot, mavjud shart-sharoit, ehtiyojidan kelib chiqqani hisobga olinsa, eng ko’p murojaat qilingan mavzu xotin-qizlar savodxonligi va ma’rifati masalasiga taqalgan<sup>102</sup>. Aksar maqolalar deyarli bir xil mavzuda, biri ikkinchisini takrorlab, to’ldirib kelgan, shuningdek, boshqa gazeta va jurnallarda ham ayollar savodxonligi masalasi ilgari surilgan (“Ishtirokiyun” gazetasi, “Xotin-qizlar orasiga ong-bilim tarqatu” (Bibixonim, 1919, 6 dekabr), “Xotin-qizlarga nashri maorif” (Chaqmoq, 1919, 7 noyabr), “Turkiston” gazetasida “Bizga o’qigan xotin-qizlar kerak” (Anqaboy, 1924, 9 mart), “Xotin-qizlarni o’qitish kerak” (A.Niyoziy, 1924, 9 mart), “Xotin-qizlar maorifi”

<sup>101</sup> Bu haqda qarang. Xolikova N. “Yangi yo’l” jurnalı: xotin-qizlar ma’rifati // Til va adabiyot ta’limi. Elektron jurnal. – T., 2022-yil, 8-son. – B. 20-23.

<sup>102</sup> “Savodsizlikni bitirishda yangi kuchlar” (Nafisa, 1926, №5, B.15), “O’lka o’zbek xotin-qizlar bilim yurti” (Rahimova Xosiyat, 1926, № 5 , B.21-22), “Xotin-qizlar uchun hozirliq qurslari” (1926, №7-8, B.22), “Bolalar tarbiyasi to’g’risida zarur maslahatlar” (O’zbek qizi, 1926, №4, B. 26), “Xotin-qizlar klubi va uning vazifalari” (A.J., 1927, №1, B.33), “Chaqaloq tarbiyasi va onalar vazifasi” (Maryam Murod qizi, 1927, №10-11, B.30-31), “Xotin-qizlarni qaytadan tayyorlash kursi” (Maryam, 1927, №10-11, B.40), “Savodsizlar kursi: (Samarqand Eski shaharida savodsiz ayollar uchun 6 oylik “Xat-savod” kursi ochilgan)” (Mirxo’jaeva, 1927, №12, B.25), “Toshkent o’lka xotin-qizlar yurti” (R.Nosir qizi, 1927, №8, B.19-20), “Bizga sog’lom ona va bolalar kerak” (Abdullaev, 1928, №2, B.15-16), “Onalik – xotinining ijtimoiy vazifasidir” (Sayfulmuluk I., 1928, №3, B.27-29), “Xotin-qizlar o’rtasida sog’lijni saqlash bilimlarini tarqatish ishi” (Sayfulmulukov Q., 1928, №4-5, B.16-20), “Bilimlik murabbiyalar yetishtiraylik” (Qorieva Ma’suma, 1928, №7, B. 11-12), “Navbatdagi vazifalarimizning zo’ravoni” (Xotin-qizlar maorifi masalasi), (G’.R., 1928, №9, B. 2-4), “Xotinlarda uyg’onish” (Sh., 1929, №2, B.2-3) va boshqalar.

(S., 1923, 16 may), “Xotin-qizlar maorifi” (G‘ozi Yunus, 1923, 3 oktabr), “Xotinlarni maktablarga jalb qilingiz” (Rachinskaya, 1924, 4 noyabr)).

Xususan, Abdulla Avloniy 1919 yilda Toshkentda ochilgan Dor ul-muallimat munosabati bilan “Er ila xotun” deb nomlangan she’rini e’lon qilgan bo‘lsa, Hamza Hakimzoda Niyoziy esa “Muhtarama onalarima xitob”, “O‘zbek xotin-qizlariga”, “Chin ozodlik davri keldi, sizlar hamon” kabi she’rlarini, “Qalbga bilimni yo‘lini ochaylik”, “Millat – ma’rifat bilan tirik” nomli maqolalarini, Abdulhamid Cho‘lpon Andijonda “Ko‘mak” hay’ati tomonidan tashkil etilgan kurslar munosabati bilan “Savod qurslari”, “Hozirliq qurslari”, “Xotin-qizlar uchun savod kurslari” singari maqolalarini dastlab matbuotda e’lon qilishgandi. Shuningdek, muntazam maqola va she’rlar e’lon qilgan ilk jurnalist va shoira Xosiyat Tillaxonova, Maryam Sultonmurodova, Sobira Xoldorovalar ham maorif ishlariga katta ulush qo‘sishgan. 1926-yil 8-martda “Qizil O‘zbekiston” gazetasida Sobira Xoldorovaning “Xotin-qizlar maorifi”, ayni yilning 18-fevralida Oydinning “Xotin-qizlar zamon kishisi bo‘lsin” maqolalari e’lon qilingan.

M.Qorievaning “Yangi yo‘l” jurnalining 1928 yil 7-sonidagi “Bilimlik murabbiyalar yetishtiraylik” maqolasi xotin-qizlar savodxonligi va bolalar tarbiyasiga bag‘ishlangan. Uning fikricha, “Xotinlar ozodlig‘i uchun eng avvalo ularning bolalari to‘g‘risida ko‘ngillarini tinchitish zarur”. U maktab va bog‘chalarga tayyorgarlik kurslarini tamomlagan bilimli murabbiyalarni olish kerakligini alohida ta’kidlaydi: “Maktabgacha tarbiya ishlarida ilgaridan tayyorlig‘imiz yo‘q, pedogugiya fani bilan oshnolig‘imiz juda ozdir. Hozirda fan bilan qurollang‘an, o‘z ishini suyguchi murabbiyalar tayyorlash ishi eng zarur vazifamizdir”<sup>103</sup>.

1925 yildan – 1929 yilga qadar muntazam ravishda chop etilgan “Yangi yo‘l” jurnali xotin-qizlar ma’rifatini targ‘ib qilgan dastlabki xotin-qizlar jurnallaridan biri bo‘lib qoldi. Jurnal sho‘rolar tuzumi davrida chiqqani bois sobiq sovetlarning muayyan g‘oya, mafkurasini aks ettirgani tabiiy. Zero, uning mundarijasи омматан noma’lum bo‘lsa-da, o‘zbek xotin-qizlarining ilmu ma’rifati, ziyosi,

---

<sup>103</sup> Кориева М. Билимлик мураббиялар етиштирайлик // Янги йўл. – 1928. № 7. – Б. 12.

dunyoqarashi shakllanishida muhim o‘rin tutuvchi manba sifatida muhim va e’tiborga loyiqidir.

XX asr avvalida o‘zbek xotin-qizlarining paranji tashlash jarayoni judayam ziddiyatli kechgan. Mahalliy xalq erkaklari bu holatni ancha paytgacha qabul qila olmadilar. “Xotin-qizlar ozodlig‘i va hijob masalasi” maqolasida Xoji Muin shunday deydi: “*Paranji, choshband xotinlarimizni ijtimoiy, iqtisodiy ishlarga aralashishg‘a to‘squnluq qilar edi. Bu kunlarda hukumatimizning jiddiy harakatlari soyasida xotin-qizlarimizning qora pardan (paranji)dan qutulib, haqiqiy ozodliqqa chiqayotqanlarini qancha shodliqlar bilan ko‘rub turamiz. Xotin-qizlar uchun maxsus mактаб va qurslar, sanoatxona va artellar ochib berilishini so‘raydurlar. Bu esa xotin-qizlarimizning va umuman xalqimizning ko‘zi ochila boshlag‘onini ko‘rsatadir*”<sup>104</sup>.

Darhaqiqat xotin-qizlarning shu pallalardan boshlab “ko‘zi ochilishi”ni zamон talab qilayotgan edi. Balki shu sababli bu davrda e’lon qilingan ko‘plab gazeta va jurnallarda mana shu mavzu ustunlik qilganining guvohi bo‘lamiz. Mag‘zava taxallusi bilan ijod qilgan To‘agan Xo‘jamyorov 1925 yilda “Mushtum” jurnalida “Xotin-qizlar fig‘oni” she’rini e’lon qilgan. Musaddas shaklida yozilgan bu she’rda :

*Qoplag‘an bizni paranji birla choshvon alfiroq,  
Gar paranji ichra bo‘lsaq bizga vijdon alvido,  
Asrlar o‘tdi asorat qurbanimiz alfiroq,  
Daf‘bo‘ling ruhoniylar sizlarga iymon alvido,  
Bas yo‘qol endi, yo‘qol, xayr emdi, salom alfiroq,  
Biz basharmiz bo‘lsangiz tuproqqa pinhon alvido.*

*Tashlasin dunyodag‘i xotin niqobin kulgacha,  
Sayrasin, chiqsin qafas zindonidin bulbulgacha,  
G‘arb ham, Mashriqda saf tortsin yana Qobilgacha,  
Ham Parij, Lo‘ndun, Vashing‘itun va Istambulgacha,  
Sakkizinchı mart kuni sizlarga bo‘lsin alfiroq,  
Bermasinlar bir yo‘li sizlaga imkon alvido*<sup>105</sup>.

<sup>104</sup> Ҳожи Муин. Хотин-қизлар озодлиғи ва ҳижоб масаласи // Зарафшон, 1927, 9 май.

<sup>105</sup> Мағзава. Хотин-қизлар фифони: Шеър // Муштум, 1925. № 13. – Б. 15.

She’rdan anglashilmoqdaki, Tavallo xotin-qizlar tilidan “paranji birlan choshvon”ni “alfiroq” etib, “qafas zindonidin” “bulbulgacha” chiqishini da’vat etmoqda.

Ayni mana shu pallada Tavallo ijodidagi ayrim jihatlarni ziyraklik bilan kuzatgan tadqiqotchi D.Raxmonova quyidagicha izohlaydi: “Tavallo she’riyatida “Mushtum” jurnalida “Mag‘zava”, “Muxbircha” taxalluslari bilan ijod qilgan yillar o‘ziga xos bosqich bo‘ldi. Endi u uslub jihatidan ham, badiiyatiga ko‘ra ham avvalgi Tavalloni eslatmaydi. “Mushtum”dagi she’rlari salohiyatli shoirning bunday sayoz asarlar yozishiga nima sabab bo‘lgani haqidagi savollarni paydo qiladi. “Kuni kecha o‘z she’rlari bilan xalq o‘rtasida katta obro‘-e’tibor qozongan iste’dodli shoir ana shu tarzda so‘nib, so‘nibgina emas, xor bo‘lib yashadi”<sup>106</sup>. “Ayrimlar uning bu kabi holatga, jo‘n va istehzoli ijod yo‘liga tushib qolishiga farzand dog‘i sabab bo‘lgan, deya ko‘rsatishadi. Bizningcha esa, yo‘l boshida qo‘yilgan ulkan maqsadlarning yo‘qqa chiqqani, bir umr kurashilgan orzuning boshqalar tomonidan toptalgani shoir ruhiyatiga ko‘proq salbiy ta’sir qilgan”<sup>107</sup>. Tavallo ijodini atroflicha o‘rgangan tadqiqotchining so‘zleri haqiqatdir. Ijodkorning asarlarida davr bosimi borligi sezilib turadi. Xususan, yuqoridagi she’r ham biroz sayozroq bo‘lishiga qaramasdan, ijodkorning bosh niyatlaridan biri xotin-qizlar erku ozodligi bo‘lganiga shak-shubha tug‘dirmaydi.

O‘zbek qizi nomi bilan o‘z she’rlarini e’lon qilgan muallifning “Endi gal bizniki” she’ri ham yuqoridagi fikrimizni tasdiqlaydi:

*O‘z qizini sotib yegan otalar,  
Tarbiyani tushunmagan onalar,  
Yozay desam ko‘bdir sizning xatolar,  
Qilmushingiz tarixlarda so‘ylonur.*

*Eyaldoqchi barcha eshon-mullalar,  
Din nomidan to‘qudingiz yolg‘onlar,  
Xotin-qizg‘a ko‘rsatdingiz ziyonlar,  
Bir kun bo‘lg‘ay sizdan barcha el tonur.*

<sup>106</sup> Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. – Т: Ўзбекистон, 2008. – Б. 91.

<sup>107</sup> Рахмонова Д.М. Тавалло ижодида поэтик шакл, мазмун ва образ янгиланиши тамойиллари. Филол.фан.б.фалс.докт.... дисс. – Т., 2022. – Б. 11.

*Ey, ongsiz er! Baqirasankim har kun:  
“Kavshimni yuv, mahsimni tort, ey xotun!”  
Qamchi bilan savalaysan misli yun!  
Qachongacha qullug‘ingda ul qolur?*

*Xotinlarning sochi uzun, aqli kam,  
Ursa eri hargiz chiqarmasun dam,  
Er oldida bo‘yni bo‘lsun har vaqt ham!  
Degan so‘zing seni balog‘a solur.*

*Urdung, so ‘kdung bizlarni ko‘b xol etding,  
Ezdk, yanchdik, balolarg‘a yor etding,  
Ikki yilda bir ko‘ynakka zor etding,  
Bu ishingdan hayvonlar ham uyolur!*

*Mana endi ochilarmiz, yurarmiz,  
Huquq olib, yorug‘ligni ko‘rarmiz,  
Og‘zing ochsang kavsh bilan urarmiz,  
Xotin-qizlar jenotdelga suyolur<sup>108</sup>.*

Ko‘rinib turibdiki, ayrim erkaklarning ayolga “hayvon” kabi munosabatlaridan to‘lib-toshgan O‘zbek qizining va barcha o‘zbek ayollarining 20 yillarning ikkinchi yarmiga kelib yagona najotkori “jenotdel” bo‘lib qolgani haqida judayam ko‘plab manbalarda duch kelamiz. Bu haqda Hamzaning dramalaridan birida bosh qahramon erining ustidan shikoyat qilib “jenotdel”ga borishi ham yana bir isbotidir. 1925 yilda Zuvayda dallol ismli muallif “Mushtum” jurnalida bu “jenotdel” ayolni ham, erkakni ham juda qiyin savdolarga solganidan shikoyat qiladi.

*Xotinlarimiz ko‘cha sari boqmas edi,  
Er bermasa ruxsat uyiga bormas edi,  
Xotinda farosat bila aql bo‘lmas edi.  
Boshini bir ketirdi xotinlarning jenotdel,  
Xotin birla qizlarni quturtirdi jenotdel.*

Bir tarafdan ayollar, ikkinchi tarafdan erkaklar orasida bir-biriga “tosh otish”, matbuotda chiqishlar qilish, she’rlar yozish hollari ham

---

<sup>108</sup> Ўзбек қизи. Энди гал бизники // Муштум, 1925. № 4. – Б. 6.

uchrab turgan. Bularning barchasi shundan dalolat beradiki, ikkala tomonning haq-huquqlari borasida adolat bo‘lmanidan, er va ayol ilm-ma’rifatdan yiroq jaholatda qolib, bir-birini tushunib, o‘zaro hurmatda bo‘lmanidan, alaloqibat xotin-qizlarning “ko‘zi ochilib” borishiga olib kelganidandir.

Bu voqeа-hodisalarga munosabat bildirish biroz oldinroq “Al-isloh”, “Al-izoh” kabi davriy matubot jurnallari orqali boshlangan edi. Bu jurnallarda xotin-qizlar masalasiga doir juda ko‘plab bahslar, munozaralar chop etilgan edi. “Al-isloh” jurnalining o‘zbek milliy uyg‘onish matbuotida tutgan o‘rnini tadqiq etgan filologiya fanlari doktori Qo‘ldosh Pardaevning ayrim kuzatishlariga nazar solsak: “Davrning ilg‘or ma’rifatparvarlari ulamolar fikriga zid xotin-qizlarni ochiqlik, ya’ni ma’rifatli bo‘lishga, erkaklar qatori ilm-fanni egallab barkamol avlodni tarbiyalashga chorladi. Jumladan, “Al-Isloh”ning 1915-yil 24-sonida Idora nomidan “Abdulvahhob Murodiyдин “Sho‘ro”ning o‘n ikkinchi no‘miri 659-sahifasina bir nazar” sarlavhali maqola chop etilgan. Unda Murodiyning “Sho‘ro” jurnalida bosilgan xotin-qizlar masalasiga doir tanqidiy maqolasi haqida gap boradi. *Murodiy Turkiston xotin-qizlarining ma’rifatsizligi, ularning ma’rifatli bo‘lishi uchun sharoit yo‘qligi, ya’ni, ulamolar to’sqinlik qilayotganidan shikoyat qiladi. Murodiy xotin-qizlarning ziyoli bo‘lishi va farzand tarbiyasida ilmnинг nechog‘lik zarur ekanligini e’tirof etadi*<sup>109</sup>. Darhaqiqat, bu kabi maqolalar ulamolarning g‘azabini keltirishi tabiiy edi. Hatto milliy uyg‘onish davri adabiyotining yetuk vakillaridan biri Saidahmad Vasliy ham bu boradagi qarashalarini “Al-Isloh” jurnalining 1915-yil 18-sonida bosilgan “Tasattiri nisvon haqinda” she’rida shunday bayon etadi:

*Xotun-u qizlar uchundur cho ‘q go ‘zal davlat hijob,  
Or-u nomusing yuzig ‘a pardai ismat hijob,  
Daf’i oshubi zinog ‘a husni amniyyat hijob,  
Qat’i sho ‘ru fitna etmakda bilo hojat hijob.  
Tangri ko ‘ndurgan nisolar haqqig ‘a rahmat hijob,  
Muslimot hazratlarig ‘a mislsiz ne’mat hijob.*

---

<sup>109</sup> Пардаев Қ.У. Ўзбек миллий уйғониш адабиётини ўрганишда матбуотнинг ўрни. Ўкув қўлланма. – Т., 2011. – Б. 79.

Hijob masalasi o'sha davr uchun eng dolzarb masalalardan biri bo'lib qolgan edi. Alxusus, "Al-izoh" jurnali mualliflari ham bu masalaga bot-bot murojaat etishgan. Shulardan biri Ayniddin Soatboev bo'lib, uning 1918-yil 9-mart sonida "Diyonat ahlina ochiq xat" nomi bilan e'lon qilgan maqolasida hijob borasida quyidagilarni yozgan: "*Hijob. Xotunlarni pardada yurmog'i, al-iyozu billoh, Qur'onda yo'q deb zohir oyatg'a inkor etub, xotunlarini g'ayr millatlar xotuni kabi qabohat ravishda o'ramgizdurub, rus ishlarina tonushtirub, qo'lg'a-qo'l o'tquzub, dayuslikni ixtiyor edub, Allah taolo va taqaddasning qahru azobina mustahiq bo'ldilar.*

*Erlar va xotunlar uchun qurs – maktab ochub, yiroq shaharlarg'a, qishloqlarg'a, ba'zilari qizlarin va ba'zilari xotunlarin mahramsiz begona erlar va jigitlar maktabina yiborub, hayvon qadar-da hamiyyat va odamiyatları qolmay, shuluq (?) himmatsizliklarindan noshay, o'z musulmon millati qoshinda cho'q tuhmatlarga qolub, balki barcha ajnabiylar millatlar qoshinda kulgu va masxaraga qoldilar. O'zlari esa adab va insof, hayodan maslub, bariy bo'lg'onlarina orlanmaydurlar*"<sup>110</sup>.

Musulmon ayoli hijob tashlashini nafaqat ulamolar, din peshvolari, balki har qanday oddiy erkak ham tasavvur etolmagani bu tabiiy holat edi. Asrlar mobaynida singib ketgan qarashni birdaniga o'chirib yuborish aslo mumkin emas edi. Shu bois XX asr boshida jadid ziyojolarining, ulamolarning va, umuman, Turkiston xalqining "hijob" masalasiga doir fikr-qarashlari turlicha bo'ldi. Aynan **matbuot – bahs maydoni** o'chog'i bo'lganini yuqoridagi munozaralar tasdiqlaydi.

Ulkan ma'rifatparvar Mahmudxo'ja Behbudiy arab ayollari haqida shunday yozadi: "Shaharlilarini Turkistonga nisbatan "yarim satr" (yarim o'ralgan), ammo o'zlarini yaxshi tutarlar. ... jome'larida dastalar ila muslimalar kelib nomoz o'qimoqda... Masjid ravoqlarining kunjida o'z uyida tikish tikib o'tirgani ko'riladur, ammo faraji ilan"<sup>111</sup>. Ko'rinib turibdiki, Behbudiy ayolga xos ibo va hayoni faqatgina libos bilan bog'liq emasligini ta'kidlamoqchi bo'lgan. Jadid ma'rifatparvarlari bu to'g'rida hamisha yakdil fikrda bo'lishgan.

<sup>110</sup> Соатбоев А. Диёнат ахлина очиқ хат // Ал-изоҳ. 1918, 9 марта. № 24. – Б. 357.

<sup>111</sup> Яхшиликов Ж., Убайдуллаева Н. Жадидчилик ва Бехбудий. – Т.: Фан, 2004. – Б. 112. Бехбудий М. Танланган асарлар. – Т., 1997. – Б.16.

“1927 yil bahorida Toshkentda partiya kengashi juda tezlik bilan Turkiston ayollarining paranjisini yechish maqsadida o‘z oldiga 6 oylik muddat qo‘ydi. Ya’ni oktabr revolyutsiyasining 10 yilligi sharafiga Turkiston ayollarini paranjidan qutqarish harakati boshlandi, unga “Hujum” deb nom berildi. “Hujum” harakati mohiyatan eski, mog‘or bosgan illatlarga qarshi hujum va ularni bartaraf etishni nazarda tutgan bo‘lsa ham, Turkiston va Ozarbayjonda u avvalo ayollarning paranji tashlashi va ozod bo‘lib, savod chiqarishini maqsad qilgan”<sup>112</sup>. Biroq “Hujum”ning ham ijobiy, ham salbiy tomonlari bo‘lgani haqiqat<sup>113</sup>.

Cho‘lpox va Hamzaning shu yillarda yozganlarida siyosiy mafkura qolipiga moslashish kayfiyati seziladi. Hatto Sho‘ro mafkurasiغا xizmat qiluvchi shior va chaqiriqlar yo‘q emas. Shunday bo‘lsa-da, ularning asl g‘oyasi – erk va ma’rifatga undash dolzarbligicha turgan. Jumladan, Hamzaning o‘sha yili yozilgan “O‘zbek xotin-qizlariga” she’ri “Yangi Farg‘ona” gazetasining 22 fevral sonida “Chig‘iriq” bo‘limida “Tovontesha” imzosi bilan bosilib chiqqan:

*Cho‘rilikni mullolar senga qildilar takrir,  
Kel bugun bu zahmingga, ma’rifatni darmon qil.  
Onalik huquqingni hurmat etmaganlarni  
Yuzlarini qaro aylab, fe’lidan pushaymon qil.  
Oy yuzing qora chimmat zulmidan qutultirg‘il,  
Chiq qorong‘i turmushdan, nur ichida javlon qil.  
Sen qachon maorifning dargohiga yo‘l topsang,  
Nurlarin olib ko‘zga surmayi Sulaymon qil*<sup>114</sup>.

Aynan paranji tashlash kampaniyasi boshlangan paytda yozilgan mazkur she’rga ko‘plab mahalliy mutaassib dindorlar o‘ta salbiy munosabat bildirgan. Nafaqat erkaklar, hatto ayrim ayollar orasida ham paranji tashlashga tish tirnog‘i bilan qarshi kurashganlari yo‘q

<sup>112</sup> Bu haqda qarang: <https://hudud24.uz/news/paranzhi-sirlari-turkiston-ayollarining-khurriyatga-erishish-julidagi-kurashlari-khakida> // Паранжи сирлари: Туркистан аёлларининг хурриятга эришиш йўлидаги курашлари. Дилмира Матякубова ва Дуглас Нортроп тадқиқотлари асосида тайёрланган.

<sup>113</sup> Икки йилда паранжисини ташлаган 2500 аёл ўз яқинлари томонидан ўлдирилди. Илк қурбонлар Сурмахон Шерматова ва ёш актриса Нурхон Йўлдошхўжаевалар бўлди.

<sup>114</sup> Ниёзий Ҳ.Ҳ. Тўла асарлар тўплами. Иккинчи том. Шеърлар. Педагогик рисолалар. Насрий асарлар. – Т.: Фан, 1998. – Б. 169.

emas edi. Markaziy Osiyo ayollarining paranjidan qutulish tarixini o‘rgangan amerikalik olim Duglas Nortrop o‘zining mashhur “Paranjidagi imperiya: Stalin Markaziy Osiyosida gender va hokimiyat” nomli kitobida yozishicha, paranji tashlagan ayollar nafaqat erkaklar, balki o‘z jinsdoshlari tomonidan ham bosimga uchraganlar<sup>115</sup>. Biroq Hamza va boshqa jadid ma’rifatparvarlari ko‘zlagan maqsad faqatgina “shakl” bilan emas, aynan “mazmun” bilan, ilmu ma’rifat targ‘ibi bilan bog‘liq edi<sup>116</sup>.

Ikkinchidan, millat ziyyolilari xotin-qizlarga ko‘rsatilgan jabr-zulmga qarshi chiqib, ularni to‘laqonli mustaqil shaxs sifatida tan olishni targ‘ib qildilar. Mahmudxo‘ja Behbudiy ayollar ma’rifati haqida shunday degan edi: “Ayol eng hurmatga sazovor insondir. Unga erkinlik berilishi, ma ’lumot olish uchun imkoniyat yaratilishi, moddiy va ma ’naviy ne ’matlardan bahramand bo ’lishi lozim. Shariat ayolning ma ’lumot olishini ta ’qiqlamaydi, aksincha buyuradi”<sup>117</sup>. Dastlab jadidlar tomonidan targ‘ib qilingan xotin-qizlar ma’rifati, erki va hurriyati g‘oyalari keyinchalik sho‘ro mafkurasiga qo‘l kelgan. Shu bois ilm-ma’rifat g‘oyasi targ‘ibi bilan “Hujum” kampaniyasi harakatlari go‘yo uyg‘unlashib ketdi<sup>118</sup>.

“Hujum” harakatining asl mohiyati haqida tarixchi Nilufar Jo‘raeva o‘z tadqiqotida quyidagilarni keltiradi: “Hujum” dan ko ‘zlangan boshqa bir maqsad – ayollardagi, ayniqsa sharq ayollarining qonidagi isyonkorlikni, adolatsizlikka qarshi kurash tuyg‘usini so ‘ndirish edi. Mustamlakachilar qadim o ‘tmishimiz tarixida, uning ijtimoiy va siyosiy hayotida ayol shaxsining isyonkorligi, erkparvarligi, adolatparvarligi sezilarli o ‘rin egallaganini yaxshi bilganlar. Shuning uchun ham ular zo ‘r berib shunday tuyg‘ularni uyg‘otuvchi omillarni qo ‘zg ‘atmaslikka

<sup>115</sup> Qarang: <https://hudud24.uz/news/paranzhi-sirlari-turkiston-ayollarining-khurriyatga-erishish-julidagi-kurashlari-khakida> // Паранжи сирлари: Туркистон аёлларининг ҳурриятга эришиш ўйлидаги курашлари. Дилмира Матякубова ва Дуглас Нортроп тадқиқотлари асосида тайёрланган.

<sup>116</sup> Qarang: Xolikova N. Hamza she’rlarida zamondosh ayollar obrazzi (“Oymisan yo qamara...” she’ri tahlili misolida) // Jadidchilik harakati va uning turkiy xalqlar adabiyotiga ta’sirini o‘rganish muammosi. Xalqaro ilmiy konferensiya. 2023-yil 13-oktabr, 104-106 betlar.

<sup>117</sup> Жадидлар ҳаракати // <http://jadid.my1.ru/publ/1-1-0-10>

<sup>118</sup> Qarang: Xolikova N. Тарихий ва замонавий аёллар тасвирида шоир эстетик идеали (Чўлпон ва Ҳамза шеърияти мисолида) // Tafakkur ziyosi. – Jizzax, 2023. – №4. – B. 231 - 234

*harakat qilganlar. Buning uchun xalqni tarixidan, dinidan, tili va madaniyatidan ajratib, o'tmishdagi xotin-qizlar hayotini juda ayanchli va og'ir ko'rsatib, sotsialistik asosda qurilgan "yangi jamiyat" kelajagini esa nurafshon, baxt-saodatli va porloq qilib bo'rttirib tasvirlashga urindilar*<sup>119</sup>.

Bir tomondan, paranjining yechilishi xotin-qizlar haq-huquqlarining ijtimoiy himoyalanishi, erkaklar bilan bir safda bo'la olishi uchun imkon berdi va sho'rochilarning o'zbek ayollari "haloskorlari" bo'lishiga asos bo'ldi. Biroq, ikkinchidan, paranji, choshvon, hijobning yechilishi mahalliy xotin-qizlarning g'arblashishiga, milliy o'zlik va shariatdan uzoqlashishiga sabab bo'ldi. Vaholanki paranji tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, uning rus askarlari ko'payganidan keyin paydo bo'lgani tarixchi olimlar tomonidan ta'kidlanadi.

Mutaassiblik, ilmsizlik balosi Anbar Otin, Nozimaxonim, Avloniy, Hamza, Cho'lpon, Fitrat ijodida jabrdiyda va mazluma xotin-qizlar timsolida yorqin aks etgan, ayol qismati jamiyat qismati ekaniga urg'u berilgan. Jamiyat uchun har tomonlama barkamol avlodni yetishtirishda, eng avvalo, barkamol oila, barkamol ona bosh zamin bo'lishini anglab yetgan jadidlar xotin-qizlar orasida ilm-ma'rifat targ'ibi masalasiga jiddu jahd bilan kirishdilar.

Cho'lponning "O'zbek qizi uchun" she'ri ham "Sharq qizi", "Buzilgan o'lkaga", "O'zbek qizi" she'rlaridagi kabi o'zbek qizining fojeiy qiyofasi tasvirlangani bilan, shuningdek, usmonlicha tilida yozilgani bilan ahamiyatlidir. She'rda ruhiy sinqlik, qalb og'rig'i, tushkunlik, umidsizlik ustuvorlik qiladi.

*Gulshan yo'qki, kadin guli achmasun,  
Baqcha yo'qki, kadin bulbul otmesin.  
Yer yo'qki, kadin isi sachmasun,  
Gongul yo'qki, kadin maftun etmasun.  
Her milleting gulshanida gullari,  
O milleting kadinleri, kizleri:  
Her milleting haq suydigi bir yolu  
Kadinligin basmish olan izidir.*

<sup>119</sup> Жўраева Н.Д. Ўзбекистон ижтимоий-иктисодий ва маданий ҳаётида хотин-қизларнинг ўрни (XX асрнинг 20-30 йиллари): тарих фан. номз. дисс.. – Т., 2004. – Б. 152.

*Gulshan, gul, qiz, ko'ngil* kabi timsollar an'anaviy mumtoz adabiyotda ham keng qo'llangan, biroq Cho'lpon tasvirida ular o'zgacha ruh va kayfiyatda jarang beradi. Bu poetik obrazlarda erk g'oyasi mujassam.

Yangi o'zbek she'riyati shakllanishining omillaridan biri – ozarbayjon va tatar she'riyatining ta'siri. Bu o'g'uz lahjasiga xos ayrim so'zlar, grammatik va fonetik shakllarning ishlatalishida ko'rindi. Chunonchi, o'g'uz lahjasiga xos so'z: *cho'q* (ko'p); o'g'uz lahjasiga xos fonetik xususiyatlar: *ver* (ber), *dushti* (tushdi), *versun* (bersin), *emaz* (emas), *vor* (bor), *yafrog'* (yaproq); o'g'uz lahjasiga xos grammatik ko'rsatkichlar: – *a* (jo'nalish kelishigi qo'shimchasi) – xidmata, mehnata, biza; – *an* (o'tgan zamon sifatdoshi affiksi) – kechan va boshqalarda.

O'g'uz lahjasiga xos elementlar, mulammalar Hamza she'rlarida uchraydi:

*Bu kunlar furqatingda turfa holu iztirobim vor,  
Nafas ichra tuman-turlu chekarga ko'p azobim vor.*

Yoki yana bir boshqa g'azalida:

*Firoqing vahshati qildi vatandin oqibat mahrum,  
Xabarsizsan, judolig 'o'tidin cho 'x-cho 'x azobim vor.*

Bu davrda qardosh xalqlarning o'zaro lisoniy, adabiy, madaniy ta'siri kuchaygan edi. Xususan, turkiy tillarni bir-biriga yaqinlashtirish maqsadini ko'zlagan Ismoil Gaspirinskiyning xizmatlari e'tiborga molik. Binobarin, real voqelik ham shuni talab etar edi, ziyoli aholi rus, ozarbayjon, tatar va boshqa tillardagi asarmanbalar bilan tanishar ekan, o'zaro ta'sirlanmay qolmagan.

Birgina XX asr emas, ko'p asrlik tarixga ega ayollar mavzusining tadrijiy takomilini adabiyotshunos G.To'ychieva tomonidan davrlashtirilishiga nazar solsak, ushbu mavzuning nechog'li ko'lamdor ekani yanayam oydinlashadi. "Agar o'zbek xalqi tarixidagi gender tafakkur ildizlari haqida gapiradigan bo'lsak, quyidagilar o'zini yorqin namoyon etadi, ular: "Avesto", "So'g'd yozuvlari", "O'rxun-Enasoy" bitiklarida ayol, ona va onalik nufuziga oid qarashlar; Islom dini va Movarounnahr ulamolari, allomalar, ensiklopedist olimlar, tasavvuf tariqatlari ta'limotlarida komil inson, mo'min kishi va uning hayotida ayolning tutgan o'rni, onalik, bolalik, huquqqa oid fiqxiy, aqidaviy va ma'naviy-ma'rifiy

qarashlar va yondashuvlar; Temuriylar davri madaniyatida ayol kishi mavqeい va nufuzi; Ma’rifatparvarlik harakati va ayolga doir qarashlarda vujudga kelgan transformatsiyalar; Jadidlar adabiyotida va ma’rifiy qarashlarida ayolning jamiyatda tutgan o‘rniga doir qarashlar tizimi, milliy ozodlik harakatlari va ayol kishi huquqlari masalasining yangi mazmunda ko’tarilishi”<sup>120</sup>. Darvoqe, tarixiy evolyutsiya ayni shu tartibda kechdi. Har bir davr o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Biroq shuni e’tirof etish lozimki, yuqorida guvohi bo‘lganimizdek, ayollar masalasi jadidchilik davriga kelib birmuncha takomil topdi. Tahlil va talqinlar natijasi o‘laroq mazkur davr lirkasidagi xotin-qizlar obrazini mavzu-mundarijasiga ko‘ra quyidagicha tasnif qildik (bu mavzular xususida keyingi bobda bat afsil to‘xtalamiz):

**An’anaviy she’riyat:**

ishq-muhabbat;  
ilm-ma’rifat;  
ona;

**Jadid she’riyati:**

ishq-muhabbat;  
ilm-ma’rifat;  
ona;  
o‘zbek qizi;  
zamonaviy va tarixiy ayollar;  
erk va ozodlik;  
ayollar huquqining toptalishi;  
paranji-hijob

---

<sup>120</sup> Тўйчиева Г. Мовароуннаҳр маданиятида гендер тенглик тамойиллари ва амалиёти // Оиласий-хуқуқий муносабатларда гендер тенглиги. Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами – Т.: Mahalla va oila nashriyoti, 2021. – Б. 89-90.

## **II BOB. JADID SHE'RIYATIDA XOTIN-QIZLAR OBRAZINING POETIK IFODASI**

### **2.1. Jadid she'riyatida an'anaviy ayol obrazining yangilanishi**

Adabiyotga yangilik yangi mavzu va g'oya, til va uslub, real voqelik ta'sirida kirib kelishini jadid ijodkorlar boshlab bergen va tamalini qo'ygan adabiy meros yana bir karra tasdiqladi. Zero, badiiy asar poetik mukamallikka erishmog'i an'ana va yangilikni o'zaro uyg'unligida amalga oshadi. Shu bilan birga, ijodkor qaysi davrda yashamasin, uning asarlarida an'anaviylik unsurlari bilan bir qatorda tegishli davr, zamon va muhit ruhi aks etishi adabiyotshunoslikning talabidlir.

XX asr jadidlar lirkasi mavzu, ko'lam va obrazlar tizimiga ko'ra keng qamrovli bo'lib, uning aksariyat o'rinlarida Turkiston manzaralari aks etgan. Mazkur davrlarga qadar she'riyatda ko'proq insonning ruhiy olamidagi evrilishlar, kechinmalar, taassurotlar qalamga olingan bo'lsa, endi ijodkorlar real voqelik haqida yozishga yuz tutdilar. Binobarin, tarixiy vaziyat tamomila yangi o'zanga o'tib, maqsad ham, inson ham, adabiyot ham "ijtimoiylashdi". Shaxs-shoir uchun bu tabiiy ehtiyoj edi. Zero, davr shart-sharoitlari yuzaga keltirgan talabni qondirish uchun she'riyat "ro'mon va tiyotru" kitoblari bilan, to'g'rirog'i, lirika epos va drama bilan raqobatga kirishishi, ularning imkonи doirasidagi vazifalarni qisman bo'lsa ham zimmasiga olishni taqozo etgani ravshanlashadi.

Shu ma'noda XX asr milliy o'zbek she'riyatida uzoq asrlik an'analar bag'rida qat'iy qoliplashgan xotin-qizlar obrazining yangilangan ko'rinishi bo'y ko'rsatdi. Zotan, tarixan qisqa davrni o'zi ichiga oluvchi adabiy jarayonda ko'lamdor qalamkashlar silsilasi yetishib chiqqan edi. Jadidlarning yetuk namoyondalari Hamza, Fitrat, A.Avloniy, Munavvarqori, A.Qodiriy, Cho'lpon, Elbek, Tavallo, Ajziylar o'z she'rlarida o'zlari istagan davrga uyg'un zamonaviy ayol qiyofasini so'zda birin-ketin chiza boshladilar. Bu hodisani xotin-qizlar bilan aloqador lirk matnlar misoldida tekshirsak, nomlari sanalgan qalam ahli bu mavzuga nisbatan ko'proq yondashishgan va masalaning jiddiyatini tushungan holda millatga yuzlanishgani ma'lum bo'ladi.

Darvoqe, klassik Sharq adabiyotida ayol obrazi asosan, yor, ma'shuqa, gul, ona kabi obrazlar orqali talqin qilingan bo'lsa, biz tilga olgan ijodkorlarda yor ko'proq ijtimoiy mazmun kasb etdi. Hamza va Cho'lpon lirik qahramonining yori – ona-Vatan. Kuzatishlarimizda bu muqoyasa she'riyatning zohirdan o'z an'anaviy shakllarini saqlagan holda mohiyatan o'zgarib, yangilanib borganligidan dalolat beruvchi asosli dalillarni qo'lga kiritdik.

O'rganilayotgan davrga tegishli asarlarda, xususan, lirik matnlardagi ayol obrazlarini umumlashtirish, tasniflash, baholash zarur. Boz ustiga, tekshirilayotgan mavzu doirasida ijodkorning xotin-qizlar timsolini yaratish mahoratini tahliliy va qiyosiy aspektlarda yoritish talab etiladi.

Ular orasida barakali qalam tebratganlardan oldingi safdagisi Hamza Hakimzoda Niyoziydir. Uning "Devon"i aruz vaznida, g'azal, masnaviy, murabba', muxammaslardan tashkil topgan. Mavzu nuqtai nazaridan yondashsak, undagi 150 ga yaqin g'azalning bari tadqiq ob'ekti sanaladi.

*Bir ko 'rub ul kun jamoling mubtalo bo 'ldum sango,  
Andalibdek furqatingda purnavo bo 'ldum sango.  
Yosh oqub ikki ko 'zimdin Nuhni to 'fonidek,  
Nolai dilso 'z ila haddin fano bo 'ldum sango.*

She'rning lirik qahramoni uzoq asrlik a'analarga ega Sharq she'riyatida yaratilgan go'zallikda tengsiz Yor – Ma'shuqaga ko'ngil qo'ygan. Bir ko'rishda dilbar qizning ishqiga mubtalo bo'lgan, uning firoqida andalib misol xonish qilishni kasb qilib olgan Oshiq chunonam yig'laydiki, yoshlari Nuh to'foni kabi oqib, nolasi dillarni kuydiradi. She'rda mubolag'aning g'uluvv turidan istifoda etgan shoir navbatdagi baytlarda uning shu holga tushishiga sabab bo'lgan mahbubaning tengsiz chiroyiga ishora qiladi:

*Rahm qilmaysan na deb man xastai bechoraga,  
Man sani deb ming baloga oshno bo 'ldum sango.  
Zarrai insof qil, vaslingdin ehson aylagil,  
Misli Majnundek eshiklarda gado bo 'ldum sango<sup>121</sup>.*

Shoir bu yerda tashbihi mutlaqni qo'llab, oshiqning "misli Majnun" holatiga tushganini o'quvchiga yanada yorqinroq yetkazib

<sup>121</sup> Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий. Тўла асарлар тўплами. Биринчи том. Девон. – Т.: Фан, 1998. – Б. 30.

berishni maqsad qilgan. Ishq, sog‘inch, hijron mavzusi garchi an’ anaviy yondashuvda aks etgan bo‘lsa-da, Hamza yaratgan lirik qahramon o‘ziga xos yangicha talqin, yangicha uslubda namoyon bo‘lgan. Oshiq ming azobda, ahvoli tang, bir alfozda, lekin yagona umidi bor – u visoldir. Qahramon ruhiy holati real lavhalarda aks ettiriladi.

Muallif boshqa she’rlarida ham xotin-qizlarni zavq ila kuylab, bir-birini takrorlamaydigan go‘zal tashbih, epitet, sifatlash va undalmalar qo‘llaydi: *yor, dilbar, jono, jonon, mahvash, xummora, dilrabo, pari, sanam, malak, mahliqo, shohsuvor, zebo, nigoro, barno, g‘aribam, mohipaykar, sarvinoz, dilafgor, sultonim, ummonim, xandonim, gulmonim, cho‘lponim, tobonim, bo‘stonim, jononim, shohonim, diloromim, gulnorim, sumansorim, raftorim, kufforim, dilozorim, g‘amxorim va h.k.*

Tabiiyki, bular Hamzaning uslubidagi alohidalikni ko‘rsatadi hamda hamma davrlardagi asarlarda ayollar muhabbat, ta’rif-u tavsif va ulug‘lanishga munosib go‘zal yaratiq bo‘lib qolishini dalillaydi. Hamza ijodida bo‘lgani singari Cho‘lpon she’rlarining katta qismini ishqiy mavzudagi matnlar tashkil qiladi. Cho‘lponning muhabbat haqida yozganlarida yuqorida tahlillarda ko‘rib o‘tilgani singari yangilikka intilish kuzatiladi. Buning eng yorqin misoli mashhur “Go‘zal” she’ridir.

*Men yo ‘qsil na bo ‘lib uni sevibmen,  
Uning-chun yonibmen, yonib-kuyibmen,  
Boshimni zo ‘r ishg‘a berib qo ‘yibmen,  
Men suyib... men suyib kimni suyibmen?  
Men suygan “suyukli” shunchalar go ‘zal,  
Oydan-da go ‘zaldir, kundan-da go ‘zal!*

Jadid she’riyati aruz vaznidan barmoq vazniga o‘tar ekan, ijodkorning hayotga, atrof-muhitga, jamiyatga munosabat tamoyillari takomillashib bordi. Har qanday ijodkor davr bilan hamnafas yashar ekan, u xalq ichayotgan suvni ichib, xalq yeayotgan nonni yeb, xalq eshitayotgan sadoni eshitadi. “Shoirning badiiy mahoratini va ijodiy muvaffaqiyatini to‘liq anglash uchun uning estetik prinsiplarini aniqlash kerak”<sup>122</sup>.

---

<sup>122</sup> Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. – Т., 1979. – Б.7.

*Qo 'limni tegizdim... odam edi-ku,  
Ko 'zimda o 'ynagan bir nur edi-ku.  
Sezgim-da sog', tetik, bardam edi-ku,  
Bo 'ynimga qo 'l solgan bir hur edi-ku<sup>123</sup>.*

Bu she'r qahramonning besh yil sevgan va kutgan, lekin bir yilgina sevgisi uchun javob ololgan qizga bag'ishlangan. Oshiq sevgisi bitib, "shamdek o'chgan"idan, "g'uv etib o'tguvchi bir yel"dek bo'lganidan iztirob chekmoqda. Besh yil sevsang-u, oxir-oqibat hammasi bir zumda "tush"dek tugab qolsa... Ayriliq, javobsiz sevgi, albatta, birgina Cho'lponning emas, ko'pgina yoshlarning dardu hasrati ekani shabhasiz. Ishq dardiga mubtalo bo'lgan oshiq uchun mahbubasidan ayrilishdek og'ir musibat bo'lmasa kerak.

Alalxusus, muhabbat va go'zallik hamisha yonma-yon yuradigan egiz tushunchalar. Go'zallik insonni o'ziga rom etadi. Chinakam go'zallik qarshisida na bir shoir, na bir inson so'z aytmasdan ketolmaydi. Cho'lponning "Suygan choqlarda", "Xayoli", "Qalandar ishqisi", "Uyqu", "O'zbek qizi" uchun (*Usmonlichcha*), "Qizarish", "Kulmak istading", "Sendan yiroqda", "Ishq yo'li", "Ishq (*Usmonlichcha*)", "Gulsara", "Sirlardan", "Qiz qo'shig'i", "Shaftoliga", "Men ham sevamen!" kabi she'rlari ham ayni shu mavzuga bag'ishlangan.

Shu o'rinda mumtoz she'riyatda tez-tez duch kelinadigan "sabo" timsoli, aniqrog'i, lirik qahramonning saboga murojaat qilib aytgan nido usuli Hamza asarlarida ko'p uchrasa-da, so'z qo'llash, ohangda tobora yengillik, zamonaviylikka moyillik ortgani ko'rinadi:

*Arzimni aytay bodi saboga,  
Yetkur salomim gulgun qabog 'a.  
Ko 'rdum yuzini – ketdim o 'zimdin,  
Tushdim o 'shal dam domi qazoga.  
Ohim eshutub, toqat tutolmay,  
Tushdi maloyik raqsi samoga<sup>124</sup>.*

Hamzaning "Devon"ida ayrim hazilomuz she'rlarni ham uchratamiz. O'ziga xos shaklda yozilgan she'rlardan birining

<sup>123</sup> Чўлпон. Асарлар. 4 жилдлик. I жилд. Шеърлар. Мансуралар. Шеърий хатлар. - Т.: Академнашр, 2016. – Б. 138.

<sup>124</sup> Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий. Тўла асарлар тўплами. Биринчи том. Девон. – Т.: Фан, 1998. – Б. 179.

qofiyasi *tapur-tupur*, *tasur-tusur*, *shaqir-shuqur*, *dapir-dupur* singari taqlid so‘zlardan tuzilgan:

*Keldi pari ot o‘ynatib, tor ko ‘chadan tapur-tupur,*  
*Qahr ila ust-ustiga qamchi solib tasur-tusur.*  
*Egdi boshini bo‘yniga qo‘lni gireh solib, siqib,*  
*Ostki labini tishladim bir shoshilib shapur-shupur.*  
*Soldi kamoli qahr ila o‘ng yuzum uzra tarsaki,*  
*Ikki qulq jag‘imgacha ketdi qilib chasur-chusur.*  
*O‘nglab o‘zimni turg‘ucha og‘z ila bo‘g‘zima so‘kib,*  
*Qamchi berib chopub qochub bo‘ldi Nihon shatur-shutur*<sup>125</sup>.

G‘azal juda sho‘x va o‘ynoqi, o‘qilishi ham yengil. Unda qo‘llangan taqlid so‘zlar asarga emotsiyal bo‘yoqdorlik bag‘ishlagan. Asar boshdan-oyoq humor va hazil bilan sug‘orilgan bo‘lib, lirik qahramonning xatti-harakati asarning ta’sirchanligini oshirib, o‘quvchida kulgu uyg‘otishga xizmat qilgan. Bu asar ham shaklan an’anaviy aruz, mazmunan yangicha she’rlarning bir namunasi bo‘lib, o‘zbek qizlariga xos erkalik, shaddodlik sifatlari namoyon bo‘lgan.

Hamzaning xotin-qizlarga bag‘ishlangan ayrim g‘azallarida rus, ozarbayjon va boshqa tillardagi kalimalar ishlatilgan. Jumladan, uning o‘zbekcha-ruscha shiru shakar yo‘li bilan yozilgan bir hazilomuz g‘azali diqqatni tortadi:

*Dedi: Kto skazal, bo‘l, tebe menga, lyubitel,*  
*Ne nado shaltay-baltay, poshyol, budu udarit.*  
*Dedim: Teper umru, bir boqing, lyubimitsa,*  
*Ne nado tak mnogo, gospoda, meni ugovorit.*  
*Dedi: Kanishno, kovo ya xochu yemu podaryu,*  
*Bu haqda yo‘l sanga yo‘qdur, takoy mne govorit.*  
*Dedimki: Vam posylal ya skolko raz pismo,*  
*Ne otvechaete yo muddaomudur pojarit?*<sup>126</sup>

Bu she’rda mumtoz badiiyatga xos talmi’ san’atining qo‘llanilishi natijasida ikki til, ya’ni o‘zbek va rus tilidagi so‘zlar uyg‘unligi hosil bo‘lgan. Bir tomondan hazilomuz, ikkinchi

<sup>125</sup> Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий. Тўла асарлар тўплами. Биринчи том. Девон. – Т.: Фан, 1998. – Б. 72-73.

<sup>126</sup> Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий. Тўла асарлар тўплами. Биринчи том. Девон. – Т.: Фан, 1998. – Б. 52.

tomondan aruz qoidalari va vaznning buzilishi, haddan ziyod ruscha so‘zlarning ko‘p qo‘llanilishi, oxirida juda kulguli jumla “muddaomudur pojirit?”ning kelishi asarga nisbatan munosabat uyg‘otishi tabiiy. Masalan, shoir aslida “muddaoing meni o‘tingda yoqishmu?” demoqchi bo‘lib, uni ruschada to‘g‘ridan-to‘g‘ri “pojirit” deb qo‘ya qolgan. Shuning uchun bu kabi jumlalar o‘quvchining yengil tabassumiga sabab bo‘ladi. Bu priyom shoirning ayollarga xushomad qilishni yaxshi ko‘radigan, ularga qanday bo‘lsa-da shirin muomala qilishni yaxshi ko‘radigan, yumorga moyil insoniy tabiatini namoyish etadi.

Zero, ijodkor o‘z oldiga qo‘ygan maqsadini ommaga tezroq yetkazish va ta’sir ettirish yo‘llarini izladi. An’anaviy janr, ya’ni an’anaviy shakl yangi ijtimoiy mavzu bilan uyg‘unlashdi. Adabiyotshunos N.Afoqova to‘g‘ri ta’kidlaganidek: “Bu o‘tish davri she’riyatda so‘z san’atkorligining yuksak maqomlarga ko‘tarilganligi bilan emas, she’riyatga munosabatning, uning oldiga qo‘yiladigan talablarning o‘zgarishi, shaklning ichdan yangilanishi, she’riyatni jahon adabiyoti taraqqiyoti yo‘nalishlariga uyg‘unlashtiruv harakatining kuchayishi bilan xarakterlanadi”<sup>127</sup>.

Hamzaga zamondosh va ruhdosh jadidlardan yana biri Siddiqiy-Ajziydir. Masalan, adabiyotshunos Vadud Mahmud Ajziy ijodiga baho berarkan, uning kuzatishlari ortidan kelgan to‘xtamlari shoir bir davrda yashagan boshqa ijodkorlarning asarlariga ham taalluqlidek: “Bizning shoir (ya’ni Ajziy – N.X.) eski she’rning shakliy jihatlarini, ifoda tarzini aynan qabul qilib, ichiga eskiga tamom ila qarshu bo‘lg‘on o‘z ruhini, yangi ruhni kirgizgandur. Shoirimiz oshiqdur, ma’shuq esa xalqdur, millatdур. Ul ko‘z yosh to‘ksa, millati uchun to‘kadur, birovdan xafalansa, millatining holiga boqmagani uchun xafalanadur. Birovdan xursand bo‘lsa ham millati, xalqi uchun bo‘ladur”<sup>128</sup>.

*Niholi darddur hosilim ashki qatorimdur,  
Fano gulzorin obod aylamish jismi nizorimdur.  
Do ‘kar qon bag‘rimi gul yafrog‘itek chok-chokindin,  
Chamanda g‘uncha bag‘rim holidin oyinadorimdur.*

<sup>127</sup> Афокова Н. Жадид шеърияти поэтикаси (вазн ва қоғия муаммолари). – Т.: Фан, 2005. – Б. 132.

<sup>128</sup> “Инқилоб” журнали, 1924 йил, № 11-12, Б. 128.

*Chaman ra'nolarin sirridin istig'nodayam, zero,  
Sarig' ruxsora oqmish qon yoshim naxli bahorimdu<sup>129</sup>.*

Ko'rinaridiki, she'riyatdagi yangilanish avvalo uning ruhida, obraz, timsol va ramzlar zamiridagi mazmunning o'zgacha mohiyat kasb etishida namoyon bo'lган. Shoir Ajziy ham, Vadud Mahmud aytganidek: "...adabiyotni ijtimoiylashtirmak va uni jamiyat uchun foydali bir shaklga so'kmoq" istagani ko'plab she'rlarida aks etgan. "Darhaqiqat, ularning o'y-fikrini gul-bulbul tashbehi emas, mahbubasini ag'yor yo'ldan urgan oshiq kechinmalari ham emas, asr boshidagi aftodahol Turkistonning ayanchli qismati, yildan-yil emas, kundan-kun ajdodlar xotirasini, o'zligini unutib, tarixdan uzilib borayotgan avlod band qildi. Ular huquqsiz xalq baxtli bo'la olmasligini angladilar. Xuddi shu sababli Siddiqiy-Ajziy o'zining "xushta'b"lik bilan yozilgan ishqiy she'riyatidan voz kechdi, ularni kuydirib tashladi"<sup>130</sup>.

Shoir, dramaturg, kompozitor, rejissyor, jurnalist, pedagog sifatida faoliyat ko'rsatgan Hamza Hakimzoda Niyoziyning ko'p qirrali ijodida "Milliy ashuvlalar uchun milliy she'rlar" majmuasi alohida mavqega ega. U 1915-1917 yillarda yaratilgan bo'lib, yetti to'plamdan iborat: "Atir gul", "Oq gul", "Qizil gul", "Pushti gul", "Sariq gul", "Yashil gul" va "Safsar gul". Ushbu majmuadan o'rin olgan Hamzaning "Erlar va qizlar laparlari" she'ri mushoira xarakterida bo'lib, tatar hofizlaridan Muhammad Komil al-mut'iy yaratgan kuylardan biriga muvofiq yozilgan.

### *Erlar*

*O'qumaslar bizni qizlar ma'rifatsizlar,  
O'z holidin xabarsiz bir oiladirlar.  
O'zлari mahbus, qo'llari bog'lu doim g'aflatda,  
Dillari sezmas, ko'zлari ko'rmas johiladirlar.*

Muallifning "Erlar" tilidan bitganlarida kuchli tanqidiy ruh ustunlik qiladi. Qizlarning o'qimaganlaridan yozg'iradi, "ma'rifatsiz" deb ayb qo'yadi, ularni o'z ahvoldidan bexabar bir oilaga mengzaydi. Butun jahonda kuchli uyg'onish bo'lib, yangi asrda ilg'or fan

<sup>129</sup> Миллий уйғониш ва ўзбек филологияси масалалари. Илмий мақолалар. – Т.: Университет, 1993. – Б. 78.

<sup>130</sup> Қосимов Б. Миллий уйғониш даври адабиёти. 2-жилд. – Т.: Faafur Fulom, 2022. – Б. 390.

yutuqlarini qo‘lga kiritayotgan G‘arbliklarga qiyosan qaraganda o‘lka ayollari qanchalik qoloq ahvolda ekaniga achinadi va ularni doim g‘aflatda, dillaring sezmas holda, ko‘zlarining ko‘rmas – bu jaholatdan qachon uyg‘onarkinsizlar, demoqchi bo‘ladi. Shoirning ularga hayrixohligi banddagi “bizni qizlar” iborasidan seziladi. “O‘zlar mahbus”, “qo‘lari bog‘lu” iboralari bilan esa ularning ayni damdagi vaziyatlarini tushunishga urinadi.

### *Qizlar*

*Nechuk dersiz bizni qizlar ma’rifatsizlar,  
O‘z holidin xabarsiz bir johiladirlar.  
Bizni mahbus, qo‘limizi bog‘lu, ko‘zni ko‘r qilgan  
Din xoini mozorinda xok iladirlar<sup>131</sup>.*

“Erlar”ning bu achchiq hitoblariga “Qizlar” ham munosib javob beradi. Ularni mahbus etgan, ma’rifatsiz muhitda qolishlariga sabab bo‘lgan, ko‘zlarini ko‘r qilgan din xoinlari, Islom niqobi ostida riyo ila ish tutgan fosiqlar, johil amaldorlar ekanini oshkora bayon etishadi.

Bu aytishuvda millat dardi kuylangan, qizu ayollar ahvolotidan iztirob aks etgan. Uni ham badiiy, ham ijtimoiy, ham siyosiy ahamiyatga ega asar sanash mumkin. Navbatdagi bandda “Erlar” xotin-qizlarga yanada yon bosib murojaat etishsa-da, “o‘quv”, “maktab” singari oddiy tushunchalardan ham bexabarliklarini yuzlariga soladi.

### *Erlar*

*O‘quv nadir, maktab nadir besamardirlar,  
Maorifning chashmasindan xushksardirlar<sup>132</sup>.  
Tug‘mish bizni eng muqaddas onamiz, ammo  
O‘zlar onaliq sharafindan bexabardirlar.*

Muallif ayollarning eng muhim vazifasi – onalik burchini ado etib, to‘qqiz oyning mashaqqatlariga bardosh berib dunyoga keltirishlarini e’tirof etarkan, afsuski, bolani tug‘ish bilan muddao hosil bo‘lmasligi, onalikning asl sharafi ularga tarbiya va ta’lim bermoq vazifasi ekanligini eslatib qo‘yadi. Shoirning bu qarashlari hozir ham juda dolzarb bo‘lib qolmoqda.

<sup>131</sup> Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий. ТАТ. II-жилд. Шеърлар. Педагогик рисолалар. Насрий асарлар. – Т.: Фан, 1998. – Б. 31.

<sup>132</sup> Ҳуиксар бенасиб маъносида

## *Qizlar*

*O‘quv farzdir, maktab yo‘qdir, na o‘qur qizlar,  
Maktab ochub berdingizmi, kirmadik bizlar?  
Onaliqni qadrin bilmoq ilm ila erkan,  
Na deb o‘qituv chorasini qilmadingizlar?*<sup>133</sup>

She’rda “Qizlar”ning bu galgi javobi tobora keskin jaranglaydi: o‘quv farzligini anglagan Turkistonning zahmatkash onalari ilm olish uchun maktab qurib bermagan, sharoit yaratmagan erkaklardan nolishadi. “O‘qishga imkon yaratib bergen bo‘lsangiz-u, biz kirib o‘qimagan bo‘lsak, bu boshqa gap, ammo shundaymi?” deya ro‘yrost, mardona millat ziyolilariga, mas’ullariga, rahbarlari-yu er yigitlariga oyna tutishadi. Hamza onalikning qadri farzandiga ilm berish bilan yuksalar ekan, bunga chora ko‘rish vazifasini zamondoshlari tilidan ko‘ndalang qo‘yadi.

Tabiiyki, mavzuga muvofiq ohang tanlay olish shoirning iqtidorini ko‘rsatadi va Hamza she’rlariga xos alohidalik ham shunda. Adabiyotshunos Yu.Sultonovga ko‘ra, Hamza xalq bilan yaqinlashish maqsadida xalq kuylaridan foydalandi. Kuchli senzura hukmron bo‘lgan sharoitda musiqa uning g‘oyalarini tashviq etishda, ayniqsa, qo‘l keldi<sup>134</sup>. Zero, shoirning bu to‘plamlarni yaratishdan asl maqsadi milliy ashulalarga bastalangan kuylarning xalq yodida saqlanishiga erishish, millatning orzu-armonlarini ifodalash orqali uning ijtimoiy-siyosiy ongini o‘stirish, ilm-ma’rifat targ‘ibi vositasida millatni uyg‘otish edi.

Hamza ijodiga xos xarakterli belgilardan biri shuki, ularda adresatning ismi aniq bo‘ladi, she’r real bir shaxsga qaratiladi. Chunonchi, Halima ismli qizga atalgan 19 baytli, Xalchaxonga bag‘ishlangan 22 baytli she’rlarni sanash mumkin. Birinchi she’rda radif “Halimam” so‘zi bo‘lib, unda shoir talmih san’atiga vositasida oshiqni Majnun va Layli, Tohir va Zuhro, Bahrom va Gulandom, Farhod va Shirin kabi ishq va vafo timsollari bilan qiyoslaydi. Xalchaxonga bag‘ishlangan g‘azaldagi yakto zamonim, sudu ziyanim, xushxiromim, g‘uncha dahonim, g‘ulomim, shohi jahonim, xush imtihonim, nozuk nigorim, mehribonim, murodim, ixtiyorim

<sup>133</sup> Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий. Тўла асарлар тўплами. Иккинчи том. Шеърлар. Педагогик рисолалар. Насрий асарлар. – Т.: Фан, 1998. – Б. 31.

<sup>134</sup> Qarang: Султанов Ю. Ҳамза. Очерк жизни и творчества. – Ташкент: Фан, 1984. – С.20.

kabi qofiyadosh so‘zlar ketma-ketligida ob’ekt – Xalchaxon vasf etilib, tansuq as-sifat san’atining jozibali namunasi yaratilgan.

Kuzatishlarimizga ko‘ra, o‘ziga zamondosh ayollarning ismini keltirib, ularga bag‘ishlab she’rlar yozish usuli Hamza Hakimzoda Niyoziy va Cho‘lponda teng nisbatlarda uchraydi. Ulardagi mushtaraklik she’rlarning asosan barmoq vaznida yozilganidadir. Chunonchi, zamonaviy qahramon qiyofasini aruzdan ko‘ra barmoq vaznida vasf etish birmuncha qulay.

Faqatgina o‘zbek jadid she’riyatida emas, balki qator turkiy tilli xalqlarning shu davrdagi lirk merosida “Sharq qizi”, “O‘zbek qizi” obrazi juda keng istifoda etilgani diqqatni tortadi. Ular orasida Fitrat, Cho‘lpon xotin-qizlar mavzusiga doir masalalarning deyarli bariga faol yondashgan. Fitratning “Sharq” she’ridagi badiiy tasvir nihoyatda o‘tkir, ziddiyatl, keskinki, shoirning badiiy tafakkur quvvati so‘ng darajada baland pardalarda kitobxonning sezimlariga kirib boradi:

*...Xotinlarning pardasi,  
Bolalarning yuragi,  
Qarilarning gavdasi –  
Yirtilgan,  
Yorilgan,  
Ezilgan! –*

Sharq timsoli pardasi yirtilgan xotinlar, yuragi yorilgan bolalar, gavdasi ezilgan qarilarni o‘zida mujassam etgan ahvolda. Achchiq qismat sohibi bo‘lgan Sharq qachongacha mazlum bo‘lishi, ezilib-toptalishi, bunday nohaqlikka qaysi paytgacha mustahiq bo‘lishi shorni mahzunlantirar edi. Elu yurtini sevgan inson borki bunday manzaralarni ko‘rar ekan, qalbini hazinlik chulg‘ab olishi tayin edi. Lekin mustamlaka olib kirgan sovuq shamol shabadasi yana ko‘p yillar yurt ustiga o‘zining sovuq taftini taratib esdi. Uning zahmidan deyarli hech kim omonda qolmadi. Xususan, so‘z ayollar haqida borar ekan, ular bu paytga kelib ummatning tarbiyachisi bo‘lish maqomidan jamiatning xizmatchisi maqomiga tushirib yuborilgan edi.

Cho‘lpon “Sharq qizi” (“Singlimga”) she’rida Sharq qizining bahor kelganini ko‘rmay qolishi, “uzun, qora qishning izi ketmasdan uning do‘sti – kuzni kutib ol”ishi, uning “qora ko‘zi kiyik ko‘zidek

belgisiz ovchining o‘qin ko‘r”ishi, “Sharqda bog‘liq xotinlar” “erkin nafas” olib, “shodlanib”, “yayrab” yashaydigan “ul yorug” dunyoga na zamon kir”ishidan iztirob chekadi. Sharq qizining butun tanasi, jonini “xayol uyasi”ga o‘xshatib, “har kimda bir shodlik, har kimda bir ruh, har kim kulib qarar emish dunyoga” deb aytadigan kunlarni orzularga cho‘milib, xayollarga ko‘milib kutishini tasvirlaydi:

*Faqat men bir o‘zim, Sharqning bir qizi,  
Bahor kelganini ko‘rmay qolamen.  
Uzun, qora qishning ketmasdan izi  
Uning do‘sti – kuzni kutib qolamen.  
Aytalarkim, yozda har bir joni bor  
Erkin nafas olar, shodlanar, yayrar.  
Aytalarkim, Sharqda bog‘liq xotinlar  
Ul yorug ‘dunyoga na zamon kirar?...<sup>135</sup>*

Shoir Sharq qizi timsolida Turkiston xotin-qizlarining erksiz, qo‘l-oyoqlari, ko‘zlari bog‘liq, yorug‘ kunlarga zor qiyofasini jlonlantiradi. Ezilgan ayol faqat qish va kuzni ko‘rib, bahor va yozni ko‘rmay qolishidan hasrat chekadi. Kitobxon she’rda tasvirlangan ayol obrazida Vatan, xalq, millat tushunchasi mujassamligiga ishonadi. “XX asr boshlaridagi millatimiz taqdirini, uning boshiga tushgan fojialarni, ozodlik va erkinlik qadrini hech kim bu mumtoz shoirimiz kabi yuksak pardalarda kuylagan emas”<sup>136</sup>, - deb Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning Cho‘lpon ijodiga bergen yuksak bahosi bejiz emas. Cho‘lpon ijodini, xususan, uning ijodida xotin-qizlar taqdiri masalasi borasidagi qarashlarini yaxlit va tadrijiy tarzda o‘rganish, ilmiy-amaliy jihatdan foydalanish bugungi kun uchun dolzarb ahamiyatga ega<sup>137</sup>.

<sup>135</sup> Чўлпон. Асарлар. 4 жилдлик. I жилд. Шеърлар. Мансуралар. Шеърий хатлар. – Т.: Академнашр, 2016. – Б. 50.

<sup>136</sup> Мирзиёев Ш. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – Б. 9.

<sup>137</sup> Cho‘lpon ijodiy faoliyati yuzasidan O.Sharafiddinov, Z.Eshonova, N.Karimov, U.Sultonov, G.Ernazarova, S.Yo‘ldoshbekova, X.Lutfiddinova, D.Quronov, Sh.Hojieva, D.Matqurbanova kabi olimlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar: Шарафиддинов О. Чўлпонни англаш. – Т.: Ёзувчи. 1994; Эшонова З. Чўлпон поэзиясининг ғоявий-бадиий хусусиятлари. – Т.: Фан. 1993; Каримов Н. Чўлпон. – Т.: Фан, 1991; Султонов У. Чўлпоннинг адабий-эстетик қарашлари. – Т.: НДА, 1995; Эрназарова Г. XX аср ўзбек поэзиясида миллий тафаккур ва унинг бадиий талқини (Чўлпон, Ф.Гулом, А.Орипов шеърияти мисолида. – Т.: НДА, 2001; Йўлдошбекова С. Чўлпоннинг публицистик ва муҳаррирлик фаолияти. – Т.: НДА, 2002; Лутфиддина X. Зеби, Зебона... – Т.: Фан, 1993; Куронов Д. Чўлпон насли поэтикаси. –

Bunday mavzudagi asarlar ozarbayjon adabiyotining yorqin namoyandasasi Husayn Jovid (1884-1944) ijodida ham uchraydi. Cho‘lponning “Sharq qizi” she’ridagi mung va qayg‘u ohangi uning “Sharq ayoli” she’rida yanada kuchliroq ifodalangan:

*Bən nə idim? Şərqiñ əzilmiş qadını!*

*(Bir az sükut...)*

*Bən nə idim? Uf, onu heç sormayıñız  
Varlığım bir quru heç!*

*Keçmişin ən qaba, ən vicdansız,  
Kirli dirnaqları qəhr etdi bəni.*

*Görmədim gün işığı;  
Doğduğum gündən əvət tarixin  
Paslı zəncirləri inlətdi bəni;*

*(Men qanday edim? Sharqning ezilgan ayoli!  
(Bir oz sukut...)*

*Men qanday edim? Uhh, hech so ‘ramang uni  
Borligim shunchaki bo ‘shlik, hech!*

*O‘tmishning eng qo ‘pol, eng vijdonsız,  
Kirli tirnoqları qahr etdi meni.*

*Ko ‘rmadim kun shu ’lasini;  
Ha, tug ‘ilganimdanoq tarixning*

*Zanglagan zanjirları ingratdi meni) (she’r tarjimasi – N.X.).*

Ravshanlashmoqdaki, ayollarning ahvoli Turkistondagina emas, boshqa turkiy va Sharq xalqlarida ham g‘oyat achinarli, abgor bo‘lgan. Husayn Jovidning xotin-qizlarning erksiz, huquqsiz, “qonxo‘r sultonlar” qo‘lida “vaqtichog‘lik” uchun “eng nafis, ishvali bir yaratiq”ligi, istashsa “Nilga” yoxud “gulxanga” otishi mumkin bo‘lgan “bebaxt umr” sohibasi ekani haqidagi tasvirlari adabiy jarayondagi umumiylilikni ko‘rsatadi. Uning birgina she’ri ham xotin-qizlar mavzusi nihoyatda dolzarb bo‘lganiga dalolat qila olgan. Demak, yolg‘iz o‘z vatanida emas, butun Sharq ayollarning huquqsizligi, savodsizligi, oyoq osti qilinishi va zulm ostida qolayotgani yurt oydinlarini qattiq o‘yga toldirgan. Har ikki ijodkor ham tom ma’noda millatparvar bo‘lganliklari uchun ham el ravnaqi ma’rifatli,

T.: Шарқ, 2004. – 360 б. Ҳожиева Ш. Чўлпон ва миллий шеъриятнинг янгиланиши. – Т.: Muhamarrir. 2019: Matqurbanova D. Cho‘lponning “Gavharoy” hikoyasida ayol taqdiri tasviri // O‘zbek tili va adabiyoti, 2021, 2-son. – B. 94-98.

huquqlari ta'minlangan va hur ayollarga bog'liqligini bexato anglashib, ham qalami bilan, ham amaliy kurashishgan.

Cho'lponning ham, Husayn Jovidning<sup>138</sup> ham Sharqdagi mazluma ayol taqdiriga bag'ishlab yozgan dard va tug'yonli asarlaridagi uyg'unlikning boshqa omillarini ham aytib o'tish lozim. Har ikkisi turkiy millat vakili, musulmon e'tiqodli, boz ustiga, bir zamonda yashashgan, mustamlakachisi bir bo'lganidan ijtimoiy-siyosiy muhiti ham ayni bir ijodkorlarning maqsadu matlabi yagona bo'lgani shubhasiz.

Nemis olimalari Ingeborg Baldauf va Zigid Klaynmixellarning keltirishicha, xotin-qizlar ozodligi uchun kurash harakatlari XIX asrning oxirida Qrim, Misr, Usmonlilar hududida boshlanib, keyinchalik Turkiston o'lkasiga yetib kelgan va bu yerda jadid ma'rifa parvarlari ijodida Sharq ayoli timsoli yurt, vatan ma'nosini ifodalagan<sup>139</sup>. Darhaqiqat, ezilgan Sharq ayoli timsolini turk, arab, usmonli, hind, xitoy kabi xalqlarning adabiyotida ko'plab uchratishimiz mumkin. Shulardan biri turk shoiri Mehmet Emin (1869-1944) bo'lib, uning "Isyon va duo" (1919) she'riy to'plamida g'amdan cho'g' kabi kuygan ayol haqidagi she'r berilgan:

*Soruyorum senden de shu genç kadin neden mahzun?*

*Neden alni yildirim vurmuş taşları gibi yanık?*

*Neden kolu, kanadi kuru dallar gibi kirik?*

*Unuttun mu bu kimdir? Sharkin büyük melikesi;*

*Peygamberler, hakanlar yetiştirmiş aziz kadin!...*<sup>140</sup>

*Tarjimasi:*

*Sizdan ham so 'rayman, bu yosh ayol nega g'amgin?*

*Nega uning peshonasi yashin urgan toshdek kuyib ketgan?*

*Nega uning qo'llari va qanotlari quruq shoxlar kabi singan?*

<sup>138</sup> Jovid fojia janrida ayollarning huquqsizligi mavzusini adabiyotga kiritgan birinchi ijodkor edi. Uning "Kiyik" (1912) dramasi Ozarbayjon ayoli fojiasini aks ettirgan. Shuning uchun asarning ilk nomlanishi "Bechora ayol" bo'lgan (<https://manera.az/index.php?newsid=9638> Sevinc Qəmbərli, Hüseyin Cavid: ortaq türk dili və feminizm məsələləri). U xurofot va jaholat hukmronlik qilgan, eskirgan urf-odatlar va an'analar yashagan jamiyatda sharq ayoli ko'rgan azob-uqubatlarni aks ettirdi. Husayn Javid ayollarni o'z huquqlari uchun faol kurashishga chaqirdi va ayollarga ta'lim, madaniy taraqqiyot orqali o'z huquqlariga erishish yo'lini ko'rsatdi. U ayolning go'zalligini zargarlik buyumlarida emas, boylikda emas, balki ma'rifat, bilim, ta'limda ko'rди [https://nuhcixan.az/news/cemiyet/8402-huseyn-cavid-yaradiciliginda-qadin Səbinə Dünyamaliyeva. Hüseyin Cavid yaradicılığında qadın](https://nuhcixan.az/news/cemiyet/8402-huseyn-cavid-yaradiciliginda-qadin-Səbinə Dünyamaliyeva. Hüseyin Cavid yaradicılığında qadın)).

<sup>139</sup> Qarang: Baldauf I. Orient und Frau in der frühen usbekischen Lyrik. – Berlin, 2008. – S. 176.

<sup>140</sup> Baldauf I. Orient und Frau in der frühen usbekischen Lyrik. – Berlin, 2008. – S. 177.

*Bu kimligini unutdingizmi? Sharqning buyuk malikasi;  
Payg‘ambarlar va podshohlarni tarbiyalagan aziz ayol!..<sup>141</sup>*

Sharq ayoli timsoli orqali bir necha tarixiy shaxslar, afsonaviy shaxslar, shuningdek, zamondosh qahramonlarga murojaat etish an’ anasi Cho‘lpon va Hamza ijodida uyg‘unlik kasb etgan. Xususan, nafaqat Misr tarixida, balki jahon tarixida o‘ziga xos mavqega ega Kleopatra (qarang: *7-ilova*) obraziga Cho‘lponning “Kleupatra uyqusi”, “Ketganingda” (Kleupatraga) she’rlarida murojaat qilingan:

*Ortiq sen undagi bog‘da,  
Ortiq men yakkami qoldim?  
Faryod yo ‘q... barcha jahon jim,  
Yer yutsa yaxshi shu choqda!..  
Ketdingmi sen meni tashlab?  
Qoldimmi qayg‘umni boshlab?*<sup>142</sup>

Aslida Kleupatra Cho‘lpon ko‘ngil qo‘ygan Mohiro‘y ismli tatar qizning laqabi. She’r ishqiy mavzuda yozilgan. Biroq shoir hukmdor ayol Kleopatra siymosida erk va ozodlikning g‘alabasini ko‘rgan bo‘lsa, u orqali halqda hurriyat, istiqlol tuyg‘usini uyg‘otishni maqsad qilgan bo‘lsa ajab emas.

Shoir ijodida uchraydigan bag‘ishlovlар meditativ lirikaning bir turi ekani, shuningdek, “Cho‘lpon she’riyatida ijroviy va personajli lirikaning yuksak namunalari yaratilganligi, lirik kechinmaning o‘zga shaxs va personaj tilidan ifoda etilishi ijodkor g‘oyaviy-estetik maqsadini yoritishga, she’rning ta’sir kuchini oshirishga xizmat qilganligi, bu esa ijodkorning prozadagi muvaffaqiyatlari uchun ilk tajriba, tramplin vazifasini o‘taganligi”<sup>143</sup> haqida adabiyotshunos N.Yo‘ldoshev atroflicha xulosalar bergen. Darhaqiqat, shoirning ijroviy lirikaga oid “Men va boshqalar”, “Sharq qizi”, “Qiz qo‘shig‘i”, personajli lirikaga oid Chimmat qo‘shig‘i”, “Kampirning To‘ychisi”, “Chechak”, “Kelinchak” va meditativ lirikaga oid (bag‘ishlovlар) “Sharq qizi” (singlimga), “Ketganingda” (Kleupatraga) kabi she’rlari lirika bilan proza, lirika bilan dramaning sintezlashgan

<sup>141</sup> Tarjimon: N.Xolikova

<sup>142</sup> Чўлпон. Асарлар. 4 жилдлик. I жилд. Шеърлар. Мансуралар. Шеърий хатлар. – Т.: Академнашр, 2016. – Б. 117.

<sup>143</sup> Yuldashev N.T. Cho‘lpon she’riyati poetikasi. Filol.fan.d-ri...diss.avtoref. – Andijon, 2024. – B. 11.

ko‘rinishidir. Bunday she’rlar Hamza, Avloniy, Fitrat kabi shoirlarda ham uchraydi.

Cho‘lpon tarixiy shaxslar barobarida afsonaviy obrazlarga ham murojaat etgan. Jumladan, afsonaviy qush-ayol obrazi Semiramidaga qarata yozilgan she’r diqqatga loyiq (qarang: *8-ilova*). Shoир mashhur afsona qahramoni Semiramidaga ixlos qo‘yadi. U orqali o‘lkadagi onalarni uyg‘otishni xohlaydi. Ayol ekaniga qaramasdan, erkaklardek jasorat ko‘rsatib, mo‘jizalar yaratgan Semiramida kabi qahramonlarga millat muhtoj ekaniga ishora qiladi:

*Sen erkaklar kiyimida zo ‘r qal’alar ochganda,  
Otlaringning changlarini Sind bo ‘yiga sochganda,  
Yo ‘llaringda qon dengizi ko ‘pirganda, toshganda,  
Sening kabi istagiga ega bo ‘lgan onalar  
Nega bugun turmushdagi har tilakdan tonalar?...  
Ey dengizning tublariga qochib kirgan kaptar qiz,  
Kel, mundog ‘i onalarni uyg‘otaylik ikkimiz!...<sup>144</sup>*

Hatto dastlabki savodini chiqarishga ham imkonni bo‘lmagan o‘zbek ayolidan Cho‘lponning umidi, ishonchi katta bo‘lganini keltirilgan satrlar ochiq ko‘rsatmoqda. Shoир o‘zbek ayoli afsonaviy qiz Semiramidaga xos kuch, viqor va yaratuvchanlik qudratiga egaligini eslatishni istagan.

Ana shunday kuch va matonatga, salohiyat va iqtidorga ega onalar, qizlar, xonimlar bor edi va ular asta-asta o‘zlarini ko‘rsata boshlagandilar. O‘sha nomlari tarixga muhrlangan o‘zbek ayollari jadidlar nazmida bor<sup>145</sup>. Masalan, Cho‘lponning “Sharafli xizmat” she’ri ijod, san’atda va ilmda peshqadam, “o‘zbek sahnasining qimmatli san’atkori M.Sa’diya Tutashga” bag‘ishlangan<sup>146</sup>. M.Sa’diya-Tutash o‘tgan asrning 20-40 yillarida mashhur bo‘lgan o‘zbek drama teatri artisti M.Qoriyeva (1902-1946)<sup>147</sup> edi. She’r

<sup>144</sup> O‘sha asar. – Б. 145.

<sup>145</sup> Qarang: Xolikova N. Cho‘lpon she’riyatida zamondosh ayollar taqdiri // Til va adabiyot ta’limi. – Toshkent, 2023. – №10. – В. 66 -68

<sup>146</sup> Чўлпон А.С. Асарлар. 4 жилдлик. 1 жилд. Шеърлар, мансуралар. Шеърий хатлар. – Т.: Akademnashr, 2016. – Б. 343.

<sup>147</sup> <https://yuz.uz/news/--kulgan-boshqalardir-yiglagan-menman> // Prezident Sh.Mirziyoevning 2021 yil 9 mayda G‘alaba bog‘ida so‘zlagan nutqidan: “Yurtga yov bostirib kelgan og‘ir kunlarda Ma’suma Qorieva o‘z boshiga tushgan fojiani unutib, ikki farzandi – Shavkat va Botir Qorievlarni fashizmga qarshi jangga yuboradi. O‘zi esa hozirgi O‘zbek milliy teatrda kasaba uyushmasiga rahbarlik qilib, g‘oyat og‘ir davrda xodimlarni moddiy ta’minlash uchun jonbozlik

1922 yili M.Qoriyevaning o‘zbek sahna san’ati ravnaqi yo‘lidagi o‘n yillik xizmati sharafiga yasalgan benefis kuni o‘qilgan.

*O‘zbek qizi o‘z og‘zi-la aytolmagan so‘zini  
Sening o‘tkir tiling bilan eshittirdi eliga.  
O‘zbek qizi sil oqartgan, so‘lg‘in, g‘amli yuzini  
Sen orqali ko‘rsatdi-da qutultirish yo‘liga.  
O‘zbek qizi yana ko‘p yil kishanlardan qutulmas,  
Ko‘z yoshlari yana ko‘p yil o‘z yurtiga to‘kilur...  
Ko‘z yoshlari yana ko‘p yil shodlik ko‘rmas, ochilmas,  
Yana ko‘p yil tovushlari qorong‘ida yo‘q bo‘lur...  
Shuning uchun mendan senga eng samimi olqishlar,  
Ey yo‘qsillar sahnasida eng qimmatli san’atkor!...*<sup>148</sup>

Darhaqiqat, katta sahnada xalqqa yuzlangan so‘zlovchini tinglaydiganlar ko‘proq bo‘ladi, yuqorida turib aytilganda, jaranglab chiqadi, mahoratli adib yaratgan nutq oddiy odamnikiga qaraganda ta’sirchan bo‘ladi. Cho‘lpon mana shu va yana sahnaning biz bilmagan qirralarini tafakkur ko‘zi bilan ko‘rib yuqoridagi she’rini bitgan bo‘lsa, ajabmas. Shuning uchun u o‘zbek qizlari tortinchoqligi, andisha tufayli so‘ray olmaganlarini “Sen sahnada o‘tkir tiling bilan eshittira olding!” deya ifoda etadi. Ayollarning sildan oqargan, so‘lg‘in, g‘amli yuzlariga boqib, qayg‘uga tushgan shoир Ma’sumaning jasoratli chiqishini qutulish yo‘li deb baholaydi. Shoирning nazarida, agar o‘zbek ayol-qizlari o‘zlari ham qutulish yo‘lini qidirmas ekan, asrlardan buyon bog‘langan “kishan”larni

---

ko‘rsatadi. Urush tugaydi, lekin Ma’suma ayaning farzandlaridan darak bo‘lmaydi. Mushtipar ona ularning izlarini izlab Moskvaga boradi. U yerda ikkala o‘g‘li ham janglarda halok bo‘lganini aniqlaydi. Ma’lum bo‘lishicha, urushda ko‘rsatgan jasorati uchun Shavkat Qoriev “Qizil bayroq” ordeni, Botir Qoriev esa “Qizil yulduz” ordeni bilan taqdirlangan ekan. Ming afsuski, Ma’suma Qorieva u paytda bundan bexabar edi. Onaizor farzandlari dog‘ini ko‘tarolmasdan, 1946 yili Moskvada vafot etadi”. M.Qorieva haqida “Ma’suma” romanini yozgan nosir Isajon Sulton 2021 yil Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan G‘alaba bog‘ida yurtboshimiz ham eslab o‘tgan qahramonini shunday tanishtiradi: “*Prezident tilga olgan Ma’suma Qoriyeva – ana shunday fidoyi, o‘zbek teatrining ilk qaldirg‘ochlaridan biri. Uning hayoti nafaqat roman, balki spektakl, badiiy film yoki serial uchun ibratlari mavzu ekanini barcha ijodkorlarimiz e’tirof etishdi. Qatag‘onga duchor bo‘lgan yuzlab ma’rifatparvarlar, juvonmarg bo‘lgan minglab oilalar qatorida xalqqa teatr vositasida ma’rifat ulashish qismatini bo‘yniga olgan va oxir-oqibat, avlod-ajdodi bilan kuli ko‘klarga sovurilganlar qismati kishini seskantiradi, fidoyi zotlarning qutlug‘ orzusi bo‘lmish milliy davlatimizni ko‘z qorachig‘iday asrab-avaylashga undaydi*”.

<sup>148</sup> Чўлпон А.С. Асарлар. 4-жилдлик. 1-жилд. Шеърлар, мансуралар. Шеърий хатлар. – Т.: Akademnashr, 2016. – Б. 113.

yechishga urinmas ekan, shodlik ko‘rmaydi, ko‘zyoshlari yurtiga to‘kilaveradi. She’rning so‘nggi misralarida Cho‘lpon unga samimiyl olqish yo‘llab, “*Ey yo ‘qsillar sahnasida eng qimmatli san’atkor!*” deya san’atkoring jur’atiga tahsinlar o‘qiydi.

Haqiqatan, Ma’suma xonim barcha zamondoshlariga ibrat bo‘lgulik umr yo‘lini bosib o‘tgan edi. Sahnadagi ijrolari xalq mehrini qozongan Ma’suma Qoriyeva<sup>149</sup> tom ma’nodagi ziyoli, ma’rifatparvar o‘laroq “Yangi yo‘l” jurnalida e’lon qilgan “Bilimlik murabbiyalar yetishtiraylik” nomli maqolasida ham barcha xotin-qizlarni ilm olishga chorlagan. Unda xotin-qizlar savodxonligi va bolalar tarbiyasi masalasi ko‘tarilgan. Qoriyevaning nazaricha, “Xotinlar ozodlig‘i uchun, eng avvalo, ularning bolalari to‘g‘risida ko‘ngillarini tinchitish zarur”. M.Qorieva maktab va bog‘chalarga tayyorgarlik kurslarini tamomlagan bilimli murabbiyalarni olish kerakligini alohida ta’kidlaydi: “Maktabgacha tarbiya ishlarida ilgaridan tayyorlig‘imiz yo‘q, pedogugiya fani bilan oshnolig‘imiz juda ozdir. Hozirda fan bilan qurollang‘an, o‘z ishini suyguchi murabbiyalar tayyorlash ishi eng zarur vazifamizdir”<sup>150</sup>.

Chindan ham, bu xil murabbiyalarni yetishtiradigan bilim yurtlari vaqt kelib paydo bo‘ldi va ular kun sayin ko‘payib bordi. Cho‘lponning ham yonib-kuyishlari bejiz emasdi, chunki u bilardiki, o‘zbek ayollari orasida zehni o‘tkir, zukko va iste’dodli, ilmu fasohatli ayollar talaygina. Shoir orzu qilgan kunlar ko‘p o‘tmay amalga oshdi. Xotin-qizlar uchun ochilgan savodxonlik kurslari va ta’lim muassasalari haqidagi “Irfon keladir!” she’ri o‘zbek bilim yurtining ilk besh qaldirg‘ochiga bag‘ishlangan:

*Toza qonlarga ishtaha saqlab  
Kutadir yo ‘lda och, haris dushman;  
U ulug‘ yo ‘lni nur bilan tozalab  
Yetasan istagingga, ey irfon!  
Chunki sen yangi, toza bir kuchsan,  
Bilaging bir temir, po ‘lat kabidir.*

<sup>149</sup> Ilk o‘zbek teatrshunos olimi Miyon Buzruk Salihov keltirgan ma’lumotga ko‘ra, o‘zbek sahnasiga birinchi bo‘lib chiqqan ayol tatar aktrisasi Ma’suma xonim bo‘lib, u dastlab “Layli va Majnun” operasida rol ijro etgan.

<sup>150</sup> Кориева М. Билимлик мураббиялар етиштирайлик // Янги йўл. – 1928. № 7. – Б. 12.

*Chunki sen yog ‘du-nurga ko ‘p o ‘chsan,  
Tilaging bir olov, bir o ‘t kabidir<sup>151</sup>.*

Bilim yurtida ta’lim oluvchi yoshlarning “yangi, toza” kuchga, bilagini “temir, po‘lat”ga, tilagini “олов, о‘т”га qiyos qilinishi Cho‘lponning nihoyatda optimist, kelajakka ishonchi baland, g‘ayratli jadid bo‘lganini ko‘rsatib turibdi. Istiqlolga chiqajak ulug‘ yo‘lni ma’rifat nuri tozalashiga ishonib, ilmi tolib qizlarni “Irfon”ga tashbehlaydi. Muallifning bu o‘xshatishi albatta jadid she’riyatida original topilma edi.

Cho‘lponning o‘z zamondoshlari haqidagi asarlaridan 1925-yili chop etilgan “Lolalar ko‘nglini anglagan Lola...” she’ri Lola (Lidiya) Seyfullinaga atalgan. Bu xonim bilan Cho‘lpon Moskvada tanishib, uning “Ichkari” – o‘zbek xotin-qizlari hayotidan olingan sochma she’rlardan tashkil topgan kitobini tarjima qilgan va shu kitob debochasiga “Mutarjimdan” sarlavhasi ostida yuqorida nomi keltirilgan she’rni e’lon qilgan.

*Lolalar ko‘nglini anglagan Lola,  
Lolalar tilidan qilibsan nola.  
Lolalar nolasি achchiq bo ‘lsa ham,  
To qalbdan kelguvchi sanchiq bo ‘lsa ham,  
Tinglab kelgan edi karquloq devor;  
Erkakning o‘zidek bir no ‘noq devor...*

Jahon poeziyasida Lola eng ko‘p murojaat qilingan simvolik timsol. Avvalo, lola gulining tuzilishi ko‘ngilga o‘xhashi, rangining qizilligi, bahorda tog‘ning eng baland yerlarida ochilishi e’tiborni tortadi. Qolaversa, kosacha bargidagi qora dog‘lar inson yuragidagi dard-alamlarning ramziy belgisidir (qarang: **9-ilova**).

Mavzu doirasidagi she’rlar tahlili ularning turli munosabat bilan yozilganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, xotin-qizlardagi faollik, tashabbuskorlik, ularning taqdiri, musibatlari ijodkorlarni befarq qoldirmagan. Aktrisa Tursunoy Saidazimova<sup>152</sup> 1928-yil may oyida

<sup>151</sup> Чўлпон А.С. Асарлар. 4 жилдлик. 1 жилд. Шеърлар, мансуралар. Шеърий хатлар. – Т.: Akademnashr, 2016. – Б. 160.

<sup>152</sup> Tursunoy Saidazimova (1909-1928, Toshkent) ilk o‘zbek aktrisalaridan biri edi. 1925-1927 yillarda Moskvada o‘zbek drama studiyasida o‘qib, 1927-1928 yillarda O‘zbek Davlat drama truppasi (hozirgi Milliy teatr)da aktrisa bo‘lib ishlagan. U o‘zining qisqa umri mobaynida Mariya Antonovna («Revizor»), Turandot («Malikai Turandot», 1927), Klariche («Ikki boyga bir

teatrchilar bilan Buxoroga gastrolga borgan vaqtida eri tomonidan vhshiyona o‘ldirilgan. Yosh bo‘lsa-da, o‘sha davr ayollari uchun ancha xatarli kasbni tanlagan va shu tanlovi sabab hayotdan bemahal ko‘z yumgan Tursunoy jaholat qurboni bo‘ldi. Rashkdan rafiqasini o‘ldirgan Hojiqul kabi ko‘zi ojiz, qalbi ko‘r, johillar bir emas, ko‘plab bo‘lganini tegishli davrga oid manbalar tasdiqlaydi.

Bu hodisadan qalbi larzaga kelgan Hamza bir marsiya bitib, uni dafn qilish marosimida o‘zi o‘qib beradi.

*Qurimasdan dorga yoygan ko ‘ylagim,  
Yozmay shimarilgan nozik bilagim,  
Vafosiz yor ekan, qonimni to ‘kdi,  
Shul erdimi, do ‘stlar, sevgan tilagim?  
Menga motam tutib, qora bog ‘lamang,  
Tengu to ‘shim nozik bag ‘rin dog ‘lamang,  
Tursunoydek yovuq seving, singillar,  
To ‘kis bilim ko ‘rmay, turmush chog ‘lamang!*

Shoir “Qurimasdan dorga yoygan ko ‘ylagim” satrlarida inson fojiasining dahshatini, umuman, davr og‘riqlarining ko‘lamini ko‘rsatishga erishgan. Hech bir o‘quvchi “Yozmay shimarilgan nozik bilagim” misrasini shunchaki o‘qib keta olmaydi. Tursunoy tilidan aytilgan “Menga motam tutib, qora bog‘lamang” murojaati bilan shoir boshqalarni tushkunlikka tushmaslikka, ortga chekinmaslikka da’vat etadi.

Hamzaning yana bir “Oymisan yo qamara...” she’ri benazir o‘zbek san’atkori Tamaraxonim haqida. Ilk bor “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnalining 1971-yil 1-sonida e’lon qilingan bu she’rning yozilish tarixi haqida Tamaraxonim bunday yozadi: “Farg‘ona shahridagi binolardan biri bizga repetitsiya o‘tkazish uchun berilgan edi. Tez kunda konsert programmasi tayyor bo‘ldi va avvalo Farg‘ona, so‘ng Marg‘ilon, keyin Qo‘qonga borib, tomosha ko‘rsatdik. Biz yo‘lda ketar ekanmiz, Hamza poezdda unda-munda menga ko‘z tashlab, miyig‘ida kulib, uzun qog‘ozga she’r yozar edi. Ertasi konsert vaqtida Hamza mening o‘yinimdan keyin sahnaga chiqib, boshimga tillaqosh taqdi-da, bu she’rni xalqqa o‘qidi...”<sup>153</sup>.

---

malay») va boshqa obrazlarni yaratgan. G‘ulom Zafariyning «Halima» musiqali dramasida Halima rolini o‘ynab, o‘zbek musiqali sahna ijrochiligidagi yangi sahifa ochdi.

<sup>153</sup> Ҳамза замондошлари хотирасида. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1979. – Б. 152.

*Oymisan yo qamara,  
Beling nozik kamara,  
Nomining ekan Tamara,  
Jahonga kulib qara.  
Shon-shavkat keltirding san  
Elimizdan Parijga,  
Yasha, endi ko ‘rma g ‘am,  
Yasha, singlim Tamara<sup>154</sup>.*

Xuddi Cho‘lpon ham fikr qilganidek, sahnaning imkoniyatlari cheksiz edi. Nafsilmamrini aytganda, ayol kishining sahnaga chiqishi Turkiston hayotida aql bovar qilmaydigan ish edi. Lekin olti yoshli qizalog‘ining go‘zal harakatlarini ko‘rib, katta iste’dod ulg‘ayotganini ilg‘agan Tamaraning onasi “Mana, ko‘rasiz, u hali Parijda raqsga tushadi!” – deya g‘ururlanib aytgan, biroq bu gapni eshitganlar onaning ustidan kulishgan. Vaqtlar o‘tib Parijdagi tantanali chiqish yosh raqqosa Tamaraning kelajakdagi zafarlariga debocha bo‘ldi. Uning san’atga cheksiz ishtiyoqi va havasi kun sayin ortib borar edi. Ayni damda o‘ziga va hatto ota-onasiga yomon ko‘z bilan qarovchi kimsalar ham ko‘payib borar edi. Otaga, qizini tiyib olmasa, ta’zirini berishlarini aytib, tahdid qilishgan (afsuski, shunday bo‘lgan ham, Tamaraning otasini o‘ldirib ketishgan). Ammo bir voqeя Tamaraning taqdirini o‘zgartirib yuborgan. Xalq orasida ma’naviyatni kuchaytirish ishlari yuzasidan mas’ul etilgan Hamza boshchiligidagi “Sharq” tashviqot poezdi ularning shaharchasiga kelib to‘xtaydi. Kimdir Hamzaga juda iste’dodli yosh raqqosaning xabarini beradi. Shu asnoda yoshgina Tamara 1918-yili ilk marta sahnaga chiqib, atigi 26 yoshida ayol san’atkorlar ichida birinchi bo‘lib O‘zbekiston xalq artisti unvonini qozonadi.

Tamaraxonimga bag‘ishlangan bu she’rda aslida xalqimizning barcha iqtidorli, qobiliyatli, san’atkor xotin-qizlari madh etilgan. Ularning iste’dodini bo‘g‘ayotgan, chimmatlarga burkab dunyonni ko‘rsatmayotgan ayrim mutaassiblar Hamzaning o‘tkir tig‘li so‘zlariga nishon bo‘lishgandi. She’r ommaga, “qora el”ga qarata aytilgan bo‘lib, unda xalqning muayyan vakillariga murojaat, arz, shikoyat va nido ham bor edi. Buni prof. U.Hamdam juda yaxshi

<sup>154</sup> Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий. Тўла асарлар тўплами. Иккинчи том. Шеърлар. Педагогик рисолалар. Насрий асарлар. – Т.: Фан, 1998. – Б. 304.

izohlaydi: “*Hamza aytmoqchi “qora el”ning tushunishi oson bo‘lishi uchun jadid shoirlari ongli ravishda obrazlilikni keyingi o‘ringa qo‘yadilar – narsalar o‘z nomi bilan ataladi*. Negaki, sirasini aytsak, jadid shoirlarining aksariyat she’rlari mohiyatan keng ommaga qaratilgan nutq – va’zdir. Shu sababli ham jadid she’riyatida obrazli ifodadan ko‘ra ritorik priyomlar muhim ahamiyat kasb etadi”<sup>155</sup>.

*Bas, shuncha qizg‘onding  
Bizga ilm ila fanni.  
Ol o‘zing yop bu kundan  
Bizga ilgan kafanni.*

Paranji tashlash kampaniyasi davrida Hamzaning yozgan she’rlaridan biri “Xotin-qizlar ovozi” (1927) matbuotda e’lon qilibgina qolmay, ashula sifatida aytilgan va ommalashgan. “1927 yili”, - deb eslagan edi xonanda va aktrisa Lutfixonim Sarimsoqova<sup>156</sup>, “Hamza “Xotin-qizlar ovozi” she’rini menga taqdim etib, ashula qilib aytishimni iltimos qildi. Ashula ohangiga mast bo‘lgan Hamza menda talant borligini qayd qildi...”<sup>157</sup>.

Darvoqe’, jadid she’riyatidagi xotin-qizlar obrazi bilan bog‘liq asarlar ijtimoiy asosga ega. Real voqeа-hodisalar tasviri ijodkorning g‘oyaviy-emotsional, sub’ektiv munosabatiga asoslangan bo‘lib, tarixiy va zamondosh ayollarga munosabat orqali shoirning estetik ideallari haqidagi tasavvuri namoyon bo‘lganki, bular milliy adabiyotimizda realistik badiiy talqinning takomiliga xizmat qildi.

Jadid adabiyotida onalar madhi, ularning sifatlari, fazilatlari kuylangan she’rlar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Onalarga bag‘ishlangan she’rlar deyarli barcha shu davr ijodkorlarining lirk merosida mavjudligi ishda muayyan xulosalarga kelishimizga yo‘l ochdi.

<sup>155</sup> Ҳамза ва XX asр ўзбек адабиёти: мақолалар тўплами. Нацрга тайёрловчи З.Қобилова. – Т.: Фарғона, 2019. – Б. 99-100.

<sup>156</sup> Lutfixonim Sarimsoqova keyinchalik Hamzaning «Maysaraning ishi» komediyasidagi Maysapa timsolida ayol erki va qadr-qimmatini himoya qilish, «Paranji sirlari»da esa Mastura satang obrazi orqali, aksincha, xotin-qizlarning huquqlari va tuyg‘ularini yakson qilishni aks ettirishga muvaffaq bo‘lgan. U xonanda sifatida «Quling», «O‘zgancha», «Yor-yor», «Hakkalakam o‘ynasam man», «Jambilxon», «Yorginam», «Omon bo‘laylik», «Qilpillama» kabi o‘zbek xotin-qizlarining xalq ashula, qo‘sinq va laparlarini mahorat bilan ijro etgan. Aktrisaning hayoti va ijodiga bag‘ishlangan «Aya» (1976), «Lutfixon aya» hujjatli filmlari ishlangan. Vafotidan so‘ng «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan mukofotlangan (2001).

<sup>157</sup> Ҳамза замондошлари хотирасида. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1979. – Б. 150.

Ularning eng boshida yana Hamza, Cho‘lpon, Fitrat, Avloniy, Tavallolarning turishi endi unchalik ajablanarli emas. Zero, ular chinakam ziyoli edi, millatimiz vakillarining tashqi va ichki quvvatlarini, qobiliyatlarini yuzaga chiqarishlarini istashar ekan, shunga da’vat qilishar ekan, bo‘sh yerda emas, shu xalqni ichdan taniganlarini ham isbot qilishdi. Masalan, Hamzaning “O‘qish kitobi”da kiritilgan “Ul aqllik bolaning mushfiqa onasi uchun-da qilgan tashakkurlari” lirik hikoyasi g‘oyat ibratlari. Muallif bola tilidan onalarimizni muqaddas der ekan, nega ularning otalardan ham ko‘ra muqaddasligini aniq aytadi: ona – farzandi uchun qurban bo‘lar darajada fidoyi.

*Otamizdan ham muqaddas onamiz,  
Biz uchun chin bo ‘lg ‘uchi qurbanamiz...*

Satr ortida yo‘l-yo‘lakay otaning muqaddasligi ham ta’kiblab ketilishi shoirning axloqiy-estetik fikrlash tarzi baland insonligini namoyon etadi. Navbatdagi misralarda onalardagi cheksiz mehribonlik, kuyunchaklikning so‘zdagi ifodasi ham sodda va ishonarli, mubolag‘alardan holi:

*...Og ‘risa bir joyimiz yig ‘lab yurub,  
Har eshikni kezdi doru oxtarub.  
Ya ‘ni, yo ‘q bizga anodek mehribon,  
Siynaga qalqon, bosh uzra soyabon.*

O‘z navbatida millat farzandlarining ham zakoli, g‘ururli, shu jonsarak onaga munosib avlod ekani keyingi qismda ma’lum bo‘ladi:

*Bizga ham lozim ani shod aylasak,  
Bizga qilgan xizmatin yod aylasak.  
Kim ato ham onoga xizmat qilur,  
O ‘lmasidan joyini jannat qilur<sup>158</sup>.*

Muqaddas Islom dinining ko‘rsatmalari onalarni e’zozlashga qayta-qayta undaydi. Payg‘ambarimiz Muhammad s.a.v.dan bu haqda bir qancha hadislar rivoyat qilinadi<sup>159</sup>. Bir hadisda Rasulullohdan sahabalari eng birinchi kimga yaxshilik qilish lozimligini so‘rashganda, “Avval onangga, onangga, yana onangga, so‘ng otangga” tarzidagi javoblari yoki “Jannat onalarning ostidadir” deb

<sup>158</sup> Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий. Тўла асарлар тўплами. Иккинчи том. Шеърлар. Педагогик рисолалар. Насрий асарлар. – Т.: Фан, 1998. – Б. 346.

<sup>159</sup> Bu haqda qarang: Одоблар хазинаси. Имом ал-Бухорий.

marhamat qilingan. Hamza komil bir muslim sifatida ota-onaga xizmatning mukofoti kishi o‘lmasidan burunoq joyini jannatdan qilishi mumkinligiga ishonadi va o‘quvchilarni ham o‘z e’tiqod qilgan hukmlar izidan yurishga chorlaydi.

Endi Cho‘lponning dialog shaklidagi “Kampirning To‘ychisi” she’riga razm solinsa, uning syujetida ham onalarning cheksiz fidoyiligiga urg‘u berilgan. Qishning qahraton kunlaridan birida kun bo‘yi ishlab, charchab kelgan va uyquga yotgan cholni kampirning so‘zлari uyg‘otib yuboradi.

*So ‘ngra kampir chidolmadi: choliga  
Achchig ‘lanib ko ‘zlarini yugurtdi;  
- Shu sovuqda To ‘ychi bolam qaerda:  
Muzlagandir, o ‘ylamaysiz siz, - dedi.*

Bu gapni eshitgan chol o‘rnidan irg‘ib turib, ostonadan hatlab chiqadi, tashqarida esa sovuq:

*Eshik sovuq... bir to ‘xtamay sovuq yel,  
Qarg ‘a yanglig ‘uchcha-uchcha o ‘ynaydi;  
Biroq cholning yuragida zo ‘r qo ‘rquv,  
Zo ‘r oshiquv tuyg ‘ulari qaynaydi.*

...Nihoyat, chol yuzlari anordek qizarib ketgan To‘ychi bilan uyga qaytadi. Shundagina kampirning ko‘ngli tinch bo‘ladi:

*Chol qaltirab, titrab keldi, oldida  
Qizil anor yuzlar bilan To ‘ychisi;  
Shundan keyin tindi kampir, yo ‘qolgach  
Yuragini tirnab turgan qayg ‘isi...<sup>160</sup>*

Shu kichik she’riy parcha orqali dunyoda hech kimsa farzandini mushtipar onachalik kutmasligi, o‘z bolasini ko‘rmaguncha onaning tunlari bedor va oromsiz bo‘lishi go‘zal badiiyat bilan ifodalangan. To‘g‘ri, onaning bu kabi fazilatlari barcha davrlarda ham bot-bot e’tirof etilgan. Biroq syujeti ham, obrazlari ham, semantik maydoni ham ozaro uyg‘un, lekin bir-birini takrorlamagan sirli ruh tajassum etgan she’rlar yaratilgani zamonaviy she’riyatdagi noyob estetik hodisalardir. Xususan, Cho‘lponning “Kampirning To‘ychisi” bilan Abdulla Oripovning “Oila” she’ri va ulardagi ona obrazi fikrimiz tasdig‘idir.

<sup>160</sup> Чўлпон. Асарлар. 4 жилдлик. I жилд. Шеърлар. Мансуралар. Шеърий хатлар. - Т.: Академнашр, 2016. – Б. 69.

*Kattasi ketgandi baliq oviga,  
 Cho ‘milib-netmasin, ishqilib.  
 Turli tasavvurlar olar doviga,  
 Kampirning nafasi kelar tiqilib.*  
 — Hoy, siz ham bolani o ‘ylang-da bundoq...-  
*Kampir erk bergancha puch xayoliga,  
 Kapgirni qaygadir ilib o ‘sha choq  
 Tanbeh bera boshlar choliga.*

Cho‘lpon va Abdulla Oripovning she’rlarida farzandini kutib, xavotir olgan ikkala ona ham cholini koyishi, jonsarakligi ta’sirli ifodalangan. Otalar ham xavotirda, lekin ona yuragining bezovtalanishi, nafasi tiqilishi holatlari har ikki she’rda uyg‘un tasvirlangan. Farqi shundaki, Cho‘lponda bitta, Oripovda bir nechta farzndlarni kutish lahzasi aks etgan.

Ma’rifatparvar jadid Abdulla Avloniyning onalarga qarata aytgan she’rida esa boshqa kayfiyatni kuzatamiz:

*Ey modarim, cho ‘juqlaring iflos, beziyo,  
 Ostingdan usting o ‘ldi biza tariqa fuqaro.  
 Sandin umid shulmidi, jondan aziz ano?*<sup>161</sup>

“Ey modarim!” deya jondan aziz onalarga xitoban aytildi bu misralarda ulardan farzand oldidagi burchlarini unutmaslikni so‘raydi, ziyodan yiroq “cho‘juq”lar yutqazishga mahkum ekanligini eslatadi.

Shu taxlit cheksiz og‘riq bilan bitilgan asarlardan biri yana taniqli jadidchi M.So‘fizodaning “O‘qing, onalar” she’ridir. Muallif xotin-qizlarning ilm-ma’rifatli bo‘lishini astoydil istaydi, ularning taqdiridan qattiq iztirob chekayotganini “Muncha yomon sho ‘rladi peshonalar” deya ifoda etadi. Jonlarga jon yo‘ldosh bo‘luvchi jonkuyar ayol zotining qadrini bilmaganlarni “debona(devona)” deb ataydi:

*Muncha yomon sho ‘rladi peshonalar,  
 Qizlarimiz – joriyayi xonalar.  
 Siz edingiz jonlara jononalar,  
 Qadringizni bilmadi debonalar.  
 Qumri bilan bulbulu bedonalar,  
 Yaxshi o ‘qur, siz ham o ‘qing, onalar*<sup>162</sup>.

<sup>161</sup> Jadidlar. Abdulla Avloniy: risola. Olim Oltinbek. – T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – B. 33.

<sup>162</sup> Қосимов Б. Миллий уйғониш даври адабиёти. 2-жилд. – Т.: Faafur Fulom, 2022. - Б. 431.

Shaklan musaddasni eslatuvchi lirik murojaatning so‘nggi ikki qatori, ayniqsa, diqqatni tortadi. Xotin-qizlarimizni o‘qishga rag‘batlarini oshirish niyatida ijodkor bedana, bulbul va qumrilarning taqlidchilik, yoqimli xonish qiluvchi xususiyatlariga urg‘u beradi.

She’rda har to‘rt misra orasida ikkilik shaklidagi bandlar naqarot tariqasida takrorlanishi refren sanaladi. Adabiyotshunos olimlar O.Safarov va N.Ro‘zievalarning refren hodisasi munosabati bilan yozgan mulohazalari “O‘qing, onalar!” tipidagi asarlarga xos belgilarni nazariy umumlashtirishga yo‘l ochadi: “... refren yozma she’riyatga xos hodisa bo‘lib, kuylashga mo‘ljallab bitilgan muayyan turg‘un she’riy janrlar tarkibida band yoki bayt boshi yoki oxirida, bandda misralar osha aynan yoki ma’lum o‘zgarishlar bilan takrorlanuvchi misra yoki misralardan iborat poetik takror bo‘lsa, naqarot xalq e’tiqodi ta’sirida paydo bo‘lgan va qo‘sinqning har bir bandi yoki bayti oldi yoxud oxirida, ... shuningdek, bandlarda misralar osha aynan yoki ma’lum bir o‘zgarishlar bilan qaytariluvchi qo‘sinqning butun matni ijrosiga ohangdorlik, musiqiylik bag‘ishlab, hissiy ta’sirni kuchaytirgan holda goh yakka, goh xor ijrosiga mo‘ljallangan poetik takror namunasidir”<sup>163</sup>.

Qofiyani tashkil etgan “*peshona*”, “*xona*”, “*jonona*”, “*debona*”, “*bedona*”, “*ona*” lafzlari bir-birini taqozo etuvchi, mantiqqa mos tanlangan.

Eng muhim nuqta shuki, Hamza So‘fizodaning mazkur she’ridan qattiq ilhomlanib, “Muhtarama onalarima xitob” nomli nazira asar bitgan<sup>164</sup>.

*Muncha uyqu bosdi sizi, onalar,  
Fikr etingiz o‘ylab u peshonalar,  
Ilm, maorif bila begonalar,  
Bo ‘ldingiz olamga siz afsonalar.  
Mazlumalar, jonlara jononalar,  
Qizlaringizni o‘qiting, onalar!*

<sup>163</sup> Сафаров О., Рўзиева Н. Накарот ва унинг ўзбек халқ қўшиқларида ритмик-композицион вазифалари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 2007. - № 6. – Б. 28.

<sup>164</sup> Afsuski, she’rning qachon yozilgani va bosma manbalari ma’lum emas. Yu.Sultonov uni muallifning 1914 yilda yozgan asarlari sirasiga kiritsa, L.Qayumov uning ijodiy tarixini 1917 yilga oid deb biladi. Hamza ijodining bilimdoni Miyon Buzruk Solihov she’r inqilobga qadar bo‘lgan davrda yaratilgan, deydi. Bu fikrlarni na tasdiqlovchi, na rad etuvchi dalillar topilmagan.

Qofiya va radif, mazmun va g‘oya Hamzadagi adabiy ta’sir darajasini baholashga imkon beradi. Xususan, nutq qaratilgan ob’ekt ayni: onalar! Shoir onalarni g‘aflatdan uyg‘onishga chaqiradi, ta’limga begona bo‘lish bilan olamga afsona bo‘lganlari uchun malomat qiladi. Naqarotda esa “mazlumalar” deya ularning qismatidan kuyinadi, xuddi So‘fizoda singari “jonlara jononalar” deya suyadi.

So‘nggi satrda Hamza o‘zbek mentalitetiga xoslashib qolgan illatlardan biriga ishora ham qilishning uddasidan chiqqan. Odatda, oilada o‘g‘il farzandga merosxo‘r deb qarab, ustun qo‘yiladi, uning ilm olishi, kasb egallashiga, kiyinishi, hatto yejish-ichishiga ko‘proq g‘amxo‘rlik qilinadi. Balki shu uchun bo‘lsa kerak qiz bolalar ko‘pincha e’tibordan chetda qolib, o‘ksinib ulg‘ayadi. Bolalikdagi bu kemtiklik ulg‘ayganda yaxshi natijaga olib kelmasligini bugungi zamon tibbiyoti tasdiqlab turibdi. Milliy an’analarga asoslangan o‘zbek oilasida ulg‘aygan shoir ana shu og‘riqli nuqtani ham nazarda tutgan bo‘lsa kerak, onalarga qizlarini o‘qitishni uqtirmoqda. Buni “*Qizlaringizni o‘qiting, onalar!*” misrasi she’rning oxirigacha o‘zgarishsiz saqlanganidan ham bilsa bo‘ladi.

Zotan, tarix asrlar bo‘yicha isbotlab kelayotgan haqiqat shuki, haqiqiy er yigitlarni, olim-u yo‘lboshchilarni irodasi baquvvat, tafakkuri kuchli, tahsil ko‘rgan ayollargina voyaga yetkazadi.

Navbatdagi bandda esa onalarning qudrati, zakovati, ularning nelarga qodir ekanligini yodga soladi:

*Siz edingiz millati chin rahbari,  
Tur mushu insonni butun sarvari.  
Koni hidoyat biza Siz edingiz  
Tarbiya dunyosini payg‘ambari, -*

Boshqa bir o‘rinda shoir xotin-qizlarga “Hamshiralari” deya murojaat qiladi, ularga “Tarixi nisvon, ya’ni ayollar tarixiga oid “Mashohiri nisvon” va “Tazkirai xavotin” kabi asarlarni o‘qishni tavsiya etadi. Bu bilan millatparvar yurtdoshimiz ularning tarjimayi holini o‘qib, balki uyalishganidan harakatga tushar, deya umid qiladi.

Eng so‘nggi banddagisi lirik ifodalar Hamzaning nechog‘li orzumand, ishtiyoqi baland, ko‘tarinki ruhiyatli shaxs bo‘lganiga dalolat qiladi:

*Oh qani, qizlarimiz saf-saf bo‘lib,  
Maktaba ketsa edi ko‘cha to‘lib,*

*Yurganini ko ‘rsa edi bu ko ‘zim,  
Qolmagay armon edi ketsam o ‘lib.*

Hamzaning eng katta maqsadi ayollar erksizligiga qarshi kurash, ularni ilm-ma’rifatli qilish edi. U xotin-qizlarni jamiyatdagi hukm surayotgan “johillik” kishanlaridan qutulishga da’vat etadi. Zero, jaholat nechog‘li ayanchli fofia va kulfatlarga olib kelgani jadid ziylilarining qator asarlarida yoritib berilgan. Shoirning “Chin ozodlik davri keldi, sizlar hamon...” deb boshlanuvchi she’ri ham yuqorida bahs etilgan adabiy asarga uzviy aloqador. U “munglug‘ hamshiralari”ni, “singil”larini “ilm, irfon” egallashga chaqiradi.

*Chin tarbiya ko ‘rmay, munglug‘ hamshiralari,  
Chin turmushda mangu yashab o ‘tolmaysiz.  
Sizdan ko ‘proq bizga lozim ilm, urfon,  
Biz tarbiya ko ‘rmay siz hech yasholmaysiz.  
Bizlar qo ‘ldan kelganicha ochdik maktab,  
Sizlar hamon azo-to ‘ydan bo ‘sholmaysiz.  
Musovotuadolatni davri keldi,  
Hamon haqqu asoratdan, hoy singlim, bo ‘sholmaysiz<sup>165</sup>.*

Zotan, Hamzaga zamondosh barcha qalam ahli millatning ilmu ma’rifati, ziyosi, erki va istiqboli muammosining yechimini, eng birlamchi, xotin-qizlarni ma’rifatli qilishda, deb bilgan va uning in’ikosini matbuot materiallarida ko‘rish mumkin. Umuman olganda, ilm olishga chaqiriq mazmunidagi asarlar jadid adabiyotida keng o‘rin tutadi. “Muhtarama onalarima xitob” she’rida quyidagilarni o‘qiymiz:

*Sizdan umidim emdi oyim, ochalar,  
Tashlab uzuku, boldog‘u tillochalar,  
Ilm o ‘qing, bir kuni shoyad bo ‘ling  
Murda badanlarg ‘a masihochalar.*

Endi Hamza xotin-qizlarimizga “oyim”, “acha – katta ona” deb yuzlanadi. Tilla uzuk, oltin baldog‘larni tashlang, deydi. Ilm o‘qib, zora, bir kun kelib o‘lgan tanaga Masih singari jon bag‘ishlovchi najotkor bo‘lsangiz, deya umidlanadi. Ko‘pincha insoniyatni moddiy boyliklar ko‘zini ko‘r qilib, Haq yo‘ldan adashishiga sabab bo‘ladi. Yaltiroq, zarli, qimmatbaho buyumlarga o‘chlik, ayniqsa,

---

<sup>165</sup> Ko‘rsatilgan kitob. II-жилд. – Б. 271.

ayollarda ustuvor tabiat. Hamzaning alohida ta'kidlovlari boshqa qalamkashlarda ham mavjudki, bu aynan o'sha davrdagi xotin-qizlarning ham fojiasini ko'rsatuvchi omil bo'lgan ekan. Shu ma'noda Abdulla Avloniy ham ma'rifatli bo'lishni yoqlab yozadi:

*Ilm-u donish yaxshi ziynatdur xotin-qiz ahlina,*

*Qo'y qadam ilm uyina, tumor-u marjonni unut.*

Ayni damlarga qadar oltin, kumushdan yasalgan bezak, taqinchoqlarga burkangan holda tasvirlangan ayollar uchun endi ilm egallash, o'qish, o'rganish, dunyoga chiqish eng a'lo zeb-ziynatdir, deb uqtiradi, ma'rifat uylariga borishga da'vat etadi, har turli marjonlarni unutishlarini istaydi. Avloniy ikki misraga millat fojiasini ham, inqiroziga sabab bo'lgan omillarni ham, to'g'ri yo'lni ham, tashabbusni ham sig'dirgan millatparvar edi. Ta'kidlash o'rinliki, Munavvarqori, Vasliy Samarqandiy, Avloniy, Hamza kabi ziylilar tashkil etgan maktablarda o'g'il bolalar bilan birga qizlar ham birdek tahsil olishgan.

Toshkentlik jadid shoiri Mirmuhsin Shermuhammedovning quyidagi misralariga diqqat qaratsak:

*Ey, go'zal mahbub – fan, qilma yuzing bizdan nihon,*

*Barchamiz oshiqlig 'imiz sanga e'lon ayladuk.*

Shoirning "go'zal mahbub" deya ta'riflayotgani – "fan". Ya'ni ijodkor ma'rifatga muhabbat qo'yan, sevgisi ham, firoqi ham, dardi ham, alami ham – ilm. Shuning uchun "fan"dan yuzini berkitib, yo'qolib qolmaslikni o'tinadi. Oshkora shaklda unga oshiq bo'lganini bildirib qo'yadi.

Nima bo'lган taqdirda ham, bosh maqsad – ilm-ma'rifat sari qadam otila boshlagan edi. Har holda, Tavalloning qizlar tilidan aytgan quyidagi nidolari shunga umid uyg'otar edi:

*Duo aylang, onalar, emdi bid'atlar qurib ketsin,*

*Biz uchun sizni qilg'on mol sanduqda chirub ketsun,*

*Otalar rahm etub, maktab solub bizlarni o'qutsun,*

*Agar o'qitmasa, Lut qavmidek bizlarni yer yutsun,*

*O'lum bizlarga ortuq ilmsiz dunyoda rohatdan<sup>166</sup>.*

Lut qavmini tilga olish bilan Tavallo shu o'rinda talmehdan o'rinli istifoda etgan. Chunki Lut alayhissalom payg'ambar qilib

<sup>166</sup> Тавалло. Равнақул – ислом. Нашрга тайёрловчи ва сўз боши муаллифи Қосимов Б. Т.: Фан, 1993.

yuborilgan jamoaning sharmandali halokati jaholat, zinokorlik, ayol-qizlarni izzatlamaslik ortidan yuz bergan edi. She’rda tasvirlangan qahramon – onalaridan duo so‘rayotgan, otalari to‘yga deb yiqqan sandiqdagi sarpolardan voz kecha olgan, maktabga o‘qish uchun yuborsin deb otalarga insof tilayotgan qizlar obrazi, albatta, adabiyotda yangilikdir. Lekin sekinlik bilan bo‘lsa-da uyg‘ongan xalqimiz vakillari ko‘p asrlik zabardast adabiyotimiz davomchilari sifatida badiiy-estetik didlari oldingi pog‘onalarda bo‘lganini dalillaydi.

Sharq xotin-qizlarining zabun ahvoli Anbar Otin, Dilshodi Barro kabi ayol shoirlar ijodiga ham ko‘chgan edi. Kelajakni ayol taqdiri bilan uyg‘un ko‘rgan bu qalamkashlar ma’rifatli, ziyoli ayollar obrazini yaratdi. Ayollar qadr-qimmat topgan yurt va zamon kelishini Anbar Otin cheksiz orzu qiladi. Uning fikricha, xotin-qizlarning baxtu saodatini ta’milagan mamlakat – taraqqiy etgan davlatdir. Shoira ayollarning olajanob onalik vazifalarini quyidagicha ta’riflaydi: “Bu farq egasini man inson onasi har nechuk donishmand enagasi deb bilurman, ul ona shundoq onadur, mohiri donodurki, Aflatun va Arastuni, Abu Ali ibn Sino va Ulug‘bekni, Jomiy va Sa’diyni, Navoiyni, Firdavsiyni, Bedil va Hayyomni, Nodira va Uvaysiyni... meni va seni o‘z qornida o’n oy ko‘tarib, turli ofatlardan saqlab, yegan g‘izosidan rasamat berib, ... tug‘ib, olamni ko‘rish qobiliyatiga davru mohir qilibdur”<sup>167</sup>.

*Jahon og‘uga kelgan Anbar Otinman,  
G‘ami qayg‘uga kelgan Anbar Otinman.*

Shoiraning ruhiyatida og‘ir iz qoldirgan kechinmalar psixobiografik usulda talqin etilgan. Bu hodisani prof. Q.Yo‘ldoshev ta’biri bilan quyidagicha izohlash to‘g‘ri bo‘ladi: “She’r ko‘pincha dard ifodasidir. U kamdan-kam hollarda quvonchdan tug‘iladi”<sup>168</sup>. Shunday bo‘lsa-da, shoira najotni ilm olishda deb ishongan va kitobxonni ham shunga ishontiradi:

*Jahon ravshan ziyyoyi ilmdandur,  
Ko‘ngil sofi safoyi ilmdandir.*

Shuningdek, Anbar Otin ijodini tadqiq qilgan N.Pardaeva ilmiy ishning bir bobini “Ayol obrazi tasvirida ijodiy niyatning voqelanishi”

<sup>167</sup> Анбар Отин. Қаролар фалсафаси. 8-бет.

<sup>168</sup> Йўлдош Қ. Сўз ёлқини. – Т.:Faafur Fулом номидаги НМИУ, 2018. – Б. 245.

deb nomlab, Anbar Otin va boshqa zamondosh shoiralar she’rlari misolida xotin-qizlarning Vatan va millat taraqqiyotida tutgan o‘rn – shoira ijodiy konsepsiyasining adabiy-estetik asosi ekanini misollar bilan dalillagan.

Anbar Otinning birga tahsil olgan dugonalari bilan aytishuvlari shoiraning shaxsiy arxiv materiallarida saqlanib qolgan. O‘sha mushoiralardan birida Bibi Hamidaning tilidan aytilgan satrlar e’tiborga loyiq:

*Hamida To ‘ti birla bu qafaslardan bo ‘shay deyman,  
Bari ozoda baxt o ‘lg ‘ang ‘a o ‘zimni qo ‘shay deyman,  
G ‘azalning bo ‘yi anbar hidin ufursa hayotimda,  
Desangiz ofarin bir yo ‘l, buloqmisan jo ‘shay deyman*<sup>169</sup>.

Bu so‘zlar musulmon Sharq ayoli murakkab taqdirining haqqoniy badiiy lavhalaridir. Lekin ayol qanchalar mazlum, notavon, g‘arib va zaif bo‘lmisin, unda umid va ishonch borligini, ichki kuch va shijoat borligini Nozimaxonimning “Ayo, mahkumalar” she’ridan anglash mumkin:

*Yetar, baskim biza behad balo sangi nasib o ‘ldi,  
“Zaifau notavonlar” deb biza qulliq nasib o ‘ldi,  
Ki ul zulmatni timsoli chodir-chimmat nasib o ‘ldi,  
Asrlar eltg ‘on ul bid’at uyqusidan uyg ‘oning!*<sup>170</sup>

Shoira Nozimaxonim ayollarga “balo sangi”, ya’ni “balo toshi”, “zaifu notavon”likdan qullik, “zulmat timsoli” “chodir-chimmat” nasib bo‘lganidan shunchalar ozurdahol va aftodaholki, buning chorasini ko‘rmoqqa, “bid’at uyqusidan uyg ‘on”moqqa da’vat etadi.

Ular orasida XIX asrda Qo‘qonda ijod qilgan shoira, tarixchi, maktabdor bo‘lib faoliyat yuritgan Dilshodi Barnoning o‘z faoliyati haqida yozganlari muhimdir: “Mening suhbatdoshlarim va dugonalarim aqli qizlar va iste’dodli shoiralar edi. 51 yil davomida men maktabdorlik qildim va yiliga o‘rtacha 20 nafardan 30 nafargacha o‘quvchilarim bo‘lib, 890 nafar qizning savodini chiqardim. Bulardan deyarli to‘rtadan bir qismi she’riyatga qobiliyatli bo‘lib,

<sup>169</sup> Пардаева Н.К. Анбар Отин асарларида муаллиф ижодий нияти ва бадиий-эстетик идеалининг поэтик ифодаси. Филол.фан. ... (PhD) дисс. – Т., 2022. – Б. 87.

<sup>170</sup> Жалолов Т. Ўзбек шоиралари. – Т.: F.Фулом, 1980. – Б 218.

shoira va o‘z davrining aqlli hamda dono odamlari edilar”<sup>171</sup>. Shu qisqagina axborot butun boshli Turkiston xotin-qizlarining iqtidorlariga ochiq dalildir.

O‘rganilayotgan ob’ektlar orasida Tavalloning xotin-qizlar ayanchli qismatiga holdoshlik tuyg‘ulari bilan yaratilgan “Mazluma qizlar ashulasi” muxammasi diqqatni tortadi. Unda xotin-qizlar nutqiga, shuningdek, folklorizmga xos bo‘lgan qarg‘ish birikma – “ajal kelsun” radif qilib olingan.

*Qiz olg‘on qo‘shxotin ustiga chollarga ajal kelsun,  
Oqarg‘on sochlari, pahmoq soqollarg‘a ajal kelsun,  
Oqizg‘on yoshimiz, hardamxayollarg‘a ajal kelsun,  
Topilib umri, darz o‘lg‘on sapollarg‘a ajal kelsun,  
Semirgan cho‘chqadek, ul qora mollarg‘a ajal kelsun*<sup>172</sup>.

Buni qarangki, she‘r mumtoz janrda bitilgani bilan undagi kayfiyat, ruh va mazmun mutlaqo yangicha. Shunga o‘xhash manzarani ayol shoiralarimiz ijodida ham uchratamiz. Qo‘qonlik shoir Mira’zam Ibrohim Davron 1914-yilda “Ash’ori nisvon” (“Xotinlarning she’rlari”) kitobida 23 shoiraning 44 she’rini keltirgan bo‘lib, u yerda Osima xonim ismli shoiraning eridan zorlanib, aytgan “achchiq” so‘zları ham uchraydi:

*Iloho darbadar yurgan vatansiz jonne yer yutsun,  
Hamisha uyda yotgan behunar hayvонни yer yutsun*<sup>173</sup>.

Zikr etilgan to‘plamdagи Bibi Hamida ismli ijodkorning “Dog‘li yurak” she’rida ham hasrat, mung, alamlı hissiyot kuchli aks etgan:

*Biz, xotun bechoralar, nohaq oqar ko‘z yoshimiz,  
Ne jafolar ko‘rmadi, erlar qo‘lida boshimiz?!  
Bir guli pajmurda o‘ldik, dog‘i hasratda so‘lib.  
Bulbul erdik, zog‘lar o‘lmish bizim yo‘ldoshimiz!  
Odat o‘lmishdur asorat biz xotunlar xaylig‘a,  
Bir qora hayvondan ortiq bog‘lu qolnish boshimiz!*<sup>174</sup>

<sup>171</sup> Баймухамбетова Р. Аёл хотиржамлиги тараққиёт калити // Международный научный журнал №9(100), часть 3, «Новости образования: исследование в XXI веке» апрель, 2023 г. – Б. 1339.

<sup>172</sup> Тавалло. Миллата жонлар фидо. – Т.: Адабиёт учқунлари, 2013.

<sup>173</sup> Жалолов Т. Ўзбек шоиралари. – Т.: F.Фулом, 1980. – Б. 141.

<sup>174</sup> O‘scha asar. – Б. 153.

Ko‘z yoshlar ichida qolgan, “pajmurda” holiga tushgan ayol ahvolini tasavvur etish mushkul emas. “Zog‘lar” “Bulbul”larga yo‘ldosh bo‘ldi, deya shoira tengsizlik,adolatsizlik, ayol qadri toptalishini nazarda tutgan.

“Zolim erkaklardan faryod!” she’rida esa fojianing ko‘lamini shoira Saida Bibi nihoyatda mahorat bilan ifoda eta olgan:

*Yona-yona hasratda bus-butun ado bo ‘ldim,  
Ochsangiz yurak-bag ‘rim qonluqib qaro bo ‘ldim.  
Zolim er jazosidin qutulur zamon yo ‘qmi?  
Hasrat ila kun ko ‘rmak yoki bir amon yo ‘qmi?  
Farqi yo ‘q xotinlarni to ‘rt oyoqli hayvondin,  
Hurriyat topar edik, gar sanalsa... insondin*<sup>175</sup>.

Hasratda yongan ayol ko‘nglining og‘riqlari, qora qon bilan to‘lgan yuragi, johil erlar zulmidan panoh istashi, ularning to‘rt oyoqli hayvonlardan farqlari qolmaganini iztirob ila qog‘ozga tushirgan muallif davr yuziga oyna tutgan edi. Xotin-qizlardan yetishgan iste’dodlardan yana biri Sobira Bibi “Xotinlar munojoti” she’rida ayollar qismatidan Allohga nido qiladi, faryod chekadi:

*Xotin biz suratan, siyratda hayvondek sotunlarmiz,  
Birimiz qo ‘y, birimiz echku, nisvon nomimiz, yo Rab...  
Asiri dardu g ‘amdur qiz tug ‘ulsa to abad bad, bad,  
Taassubdur qafas inbota, jaholat domimiz, yo Rab...*<sup>176</sup>

Yana shunday ta’b nazmlardan biri Saida Bibi toqatli bo‘lishga undaydi, baxt so‘zi bilan ovunishni afzal ko‘radi.

*Yig ‘lama qaro kundin, ey Saida mazluma,  
Baxt degan yolg ‘on so ‘zning kori bizga ma ‘lumat*<sup>177</sup>.

Ayollik qismati nechog‘li og‘ir bo‘lganini yuqoridagi so‘zlar ham aniq-ravshan ko‘rsatib turibdi. Xotin-qizlar bunday tuban, pastkash, chirkin va johil muhitda yashashdan bo‘g‘ilib, yorug‘likka, ziyoga, insondek bo‘lib yashashga intilgani bejiz emas. Ma’lum bo‘ladiki, XX asr boshlaridagi ijod qilgan ayol shoiralarning she’rlarida umidsizlik, shikoyat ohanglari, og‘ir turmushga isyon ruhi yetakchilik qilgan. Demak, ular zulmatli, irfondan yiroq kunlar hech bitmasligidan qo‘rqishgan. Shu tipdagи asarlar talqinidan ham

<sup>175</sup> O‘sha asar. – Б. 151.

<sup>176</sup> O‘sha asar. – Б. 153.

<sup>177</sup> O‘sha asar. – Б. 153.

ravshan bo‘ladiki, jadid ijodkorlar bong urib ilgari surgan muammolar o‘lkada chuqur ildiz yoygandi.

Shu yerda ta’kidlashni istardikki, asarlardan asarlarga o‘tib borgan sari Husayn Jovid yaratgan ayollar obrazining takomillashib borgani tadqiqotchilar e’tiborini tortgan. Jumladan, ozarbayjonlik adabiyotshunos S.Asadova yozadi: “*Husayn Javidning ayollar masalasiga munosabati, uning ayollar haqidagi qarashlari har doim bir xil davom etmadi, vaqt o‘tishi bilan uning qarashlarida o‘zgarishlar paydo bo‘ldi. Ijodining birinchi davrida u ayolni asosan zaif, kuchsiz, kamsitilgan, haqoratlangan inson sifatida tasvirlagan bo‘lsa, keyingi davrda esa ayolni o‘z huquqlari uchun kurashishga qodir shaxs sifatida tasvirlaydi*”<sup>178</sup>. Tahlillarimiz natijasi ayni shu jarayon o‘zbek jadid ahllarida ham u yoki bu darajada o‘zgarishlar bilan yuz bergenini ko‘rsatadi. Zamon talablariga ko‘ra ish tutish, fikrlash, o‘zlarining ko‘ngil rozlarini emas, millatning og‘riqli kechinmalarini yozish zarurligini anglagan holda ijod qilgan jadid qalamkashlari o‘z davrining haqiqiy mahoratli shaxsiyatlaridir.

## 2.2. Xotin-qizlar obrazi – erk va ozodlik talqinining badiiy-estetik asosi

XX asr boshlari jadid she’riyatida, avvalo, aniq voqelik va tarixiy shaxslarga nisbatan real yondashuv tamoyili amal qilgan. Tadqiq etilayotgan asarlarda o‘zbek xotin-qizlarining boshiga kelgan turli sinovli kunlar, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy voqelikka munosabati masalasi orqali millatning ilmu ma’rifati, ziyosi, erkinligi va istiqboli mavzusi tasvirlandi. Zero, munis ayol siyemosida mujassam bo‘lgan fidoyi qalb, mehr-muhabbat, vafo va sadoqat, sabru matonat, shukronalik va insoniylik xislatlari hayotning mazmunini tashkil etuvchi asos omillardir.

Ma’lumki, 1914-1918 yillardagi Birinchi jahon muhorabasi, avvalo, xotin-qizlarning ahvolini og‘irlashtirgan edi. Biroq qaddi egilsa-da, ularning irodasi, shijoati bukilmadi. Ular erkaklar bilan bir safda turib kurashdi va she’rlarida “yov ziddig‘a” chiqishga da’vat etdi:

<sup>178</sup> <https://525.az/news/3196-huseyn-cavid-yaradiciliginde-qadin-problemi> Sevinc Əsədova. Hüseyin Cavid yaradıcılığında qadın problemi

*Jarchi bo'l, Anbar, xotunlar birla chiq yov ziddig'a!  
Bu nechuk mudhish baloyu obi to 'fondur urush.*

Shoira Anbar Otin “Urush”<sup>179</sup> radifli she’rini mana shunday misralar bilan yakunlaydi. Aslida, ayollarning yov qarshisiga chiqishi – eng so‘nggi vaziyatlardagina ro‘y berishi mumkin bo‘lgan hol. Bu xalq boshiga tushgan musibatning nechog‘lik og‘ir bo‘lgani tasdig‘idir. Anbar Otin To‘maris singari jasur ayollar, “er qizlar” (Shavkat Rahmon ta’biri) hali Turonzaminda barhayotligini nazarda tutadi. Boshqa bir she’rida esa kurashdan asl maqsad «tinchlik»ka erishish, deb biladi:

*Anbaro, ul bahri Ummondin ariq och dunyog'a!  
Tinchlik bahrin ketursin suv kabi ul jo 'yi sulh*<sup>180</sup>.

Dunyoga tinchlik degan totli suvi bor ummondan ariq ochishdek ezgu niyatli shoiraning e’tiroficha, tinchlikning ilk talabi “jo‘yi sulh” – islohotlar arig‘ini ochmoqdir. Urush tinchlik, erk va ozodlik uchun kurash tuyg‘usini, asosiysi, vatanparvarlik hissini kuchaytirdi.

Dard ustiga chipqon bo‘lgandek, mardikorlikka olish haqidagi podsho farmoni qariyb yarim asr mobaynida tahqirlanib kelgan, mustamlakachilik, tinimsiz mehnat, ochlik, qashshoqlik azobida ezilgan xalqning qo‘zg‘olon ko‘tarishiga sabab bo‘ldi. Bu ozodlik harakati xalqning qudratini, uning nimalarga qodir ekanini namoyish etdi. 1916 yilgi milliy ozodlik harakatining muhim tomoni shundaki, unda bosh ko‘targan omma, avvalo, o‘zbek ayollar edi. Masalan, Toshkent qo‘zg‘olonini o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek o‘sha kunlarni xotirlab, «Bolalik»da jo‘rasi Turg‘unning quyidagi so‘zlarini keltiradi: “...Lakin xotinlar bo‘sh kelmadi. Ikkita ayolga o‘q tegib, qonga belanib qolishdi. Ha, o‘zim aniq ko‘rdim. Xalq majaqlandi, ko‘plari otlarning tuyoqlari ostida mayib bo‘ldi. O‘qqa uchganlar ozmunchami!..”<sup>181</sup>.

Asr fojiasiga aylangan mazkur hodisalarga bag‘ishlab yaratilgan she’rlarning aksariyatida psixologik ifoda yetakchilik qiladi. Jumladan, xayrlashuv mazmunidagi she’rlar (“Onasining o‘g‘liga aytgan so‘zlari”, “O‘g‘lining onasiga aytgan so‘zlari”, “Xotuniga aytgan so‘zi”, “Toshkanddin jo‘nagan mardikorlarning ashulasi”,

<sup>179</sup> Анбар Отин. Шеърлар. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1970. – Б. 49.

<sup>180</sup> O‘sha manba: – Б. 53.

<sup>181</sup> Ойбек. Болалик хотираларим. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1995. – Б. 168.

“Anosidin rizolik so‘rab yo‘lga tushgani”, “Xotuniga rozi bo‘l, yaxshi qol, deb aytgan so‘zi”), lirik qahramonning kayfiyatini tasvirlovchi she’rlar (“Hoy, pahlavon”, “Sog‘inib”, “Salom ayting”, “Sitamdiyda rabotchilar kelishi”), ota, aka, er va farzandlarning yurtga qaytishi munosabati bilan ayol va onalarning quvonchini va, aksincha, farzandidan ayrilgan onalarning g‘am-anduhini tasvirlovchi she’rlar (“Sizlarg‘a mujda”, “Bu kun baxti qaroman...”), shuningdek, Allohga munojotlar va boshqa mavzulardagi ayrim she’rlarda ruhiy holat tasviri yaqqol ko‘zga tashlanib turadi.

Toshkentlik shoir Akbariyning bu voqealarga bag‘ishlangan “Anosi rozi bo‘lib bolasiga javob bergani” va “Anosidin rizolik so‘rab yo‘lga tushgani” she’rlari murabba’ning (**a a a a, b b b a, v v v a**) qofiyalanish tizimini olgani bilan barmoq vaznida yozilgan. Bularda har to‘rtinchchi misradagi jumlalar to‘lig‘icha takrorlanib keladi:

*Ado bo‘ldum, bolam, sandin ayrilub,  
Sindi mani qanotlarim qayrilub.  
Qolurmu yo‘lingda yuzum sarg‘ayub,  
Bor yolg‘uzim, bir Allohga tobshurdim.*

“Anosi rozi bo‘lib bolasiga javob bergani”da farzandidan ayrilayotgan onaning “qanotlari sin”ishi haqidagi mubolag‘ali hamda yuzning sarg‘ayishiga oid istiorali tasvir o‘rganilayotgan mavzudagi she’rlarda juda ko‘p uchraydi.

Abdurahmon hoji Akbarovning “Anosi rozi bo‘lub bolasiga javob bergani”, “Anosidin rizolik so‘rab yo‘lga tushgani”, “Xotiniga rozi bo‘l, yaxshi qol, deb aytgan so‘zi” singari she’rlari ham mazmunan yuqoridagi fikrlarga hamohang. Albatta, jonkuyar onaning xayrlashuv so‘zlari bilan farzandning so‘zlari bir-biridan farqlanadi. Bunda ona hasrati, iztirobi va nochorligini so‘z bilan ifodalash qiyin. Avloniyning “Mardikorlar ashu(v)lasi” to‘plamiga kiritilgan she’rida ham ayni shunday holat kuzatiladi:

*Hech qayg‘u yo‘q jahonda bu judolig ‘din yamon,  
San kulub o‘ynab yurursan, man bo‘lub rangi somon.  
Naylayin man mushtipar, bechora baxti qoraman,  
Kecha-kunduz o‘z g‘amim birlan o‘zim ovoraman.*

“Rangi somon”, “bechora” “baxti qora”, “mushtipar” kabi sifatlashlar iztirobning nechog‘lik cho‘ng ekanini ko‘rsatishi bilan ham she’rda o‘ziga xos poetik vazifani bajargan. “Qayg‘u”,

“judolig”, “g‘am” so‘zlaridagi tanosub she’rning badiiy quvvatini oshirishga xizmat qilgan. Onaning alamli so‘zlari farzandining to‘lib-toshgan ko‘nglini yanada mahzun etadi. “O‘g‘lining onasiga aytgan so‘zi” esa quyidagicha boshlanadi:

*Volidam, Makkam, Madinam – mehribonim sen eding,*

*G‘amgusorim, mushfiqim, oromijonim sen eding.*

She’rdagi “volidam, Makkam, Madinam” undalmalariga aniq badiiy-estetik vazifa yuklangan. “Mehribonim, g‘amgusorim, mushfiqim, oromijonim” sifatlashlari esa bu poetik yuk salmog‘ini yanada oshiradi. “Mushfiq onam, jovidonim, marhami jonim, muhibbi xonadonim, sham’i shabonim, kayfu shodmonim, posbonim, sirri nihonim, oshyonim” singari tashbehlar esa, onaning nechog‘lik ulug‘ siymo ekanini tasdiqlash barobarida she’rning badiiy quvvatini yuksaltirishga xizmat qilgan. Murojaatning o‘tgan zamon shakli shoir tomonidan maxsus tanlangan. Negaki, bu usul misralar zamiridagi dardni kuchaytirishga xizmat qilgan.

Juda yupun va yengil ust-bosh kiyib borgan ko‘pchilik yurtdoshlarimiz Rossianing izg‘irin o‘rmonzorlari va to‘qayzorlaridan o‘z vataniga qaytib kelolmadi. Mulla Murtazoning “Ayrilib qoldim” radifli she’ri farzandidan ajralgan onaning ohu zori ifodasiga bag‘ishlangan. Shoir o‘z fikrini ramziy bir tilda tasvirlaydi:

*Hama maqsuda yetdi, benishon ketsa, na mushkuldur,*

*Ko‘korgan vaqt yetgonda xazon ursa, na mushkuldur,*

*Uchodigan qanoti qayrilib qolsa, na mushkuldur,*

*Ki davlat shishasi to‘lg‘onida sinsa, na mushkuldur,*

*Qurudi bog‘u bargim, navbarimdin ayrilib qoldim.*

Lirik qahramon – onani bolasidan ayrilish azobi qiynaydi. Shoir qahramonning ma’yus qiyofasini tasvirlashda “gul”, “qush”, “shisha”, “barg” kabi timsollarni qo‘llaydi. Shoir (gulning) “ko‘korgan vaqt” deganda, yosh yigitning voyaga yetgan pallasi, (qushning) “uchodigan qanoti”da navqiron farzandlarning so‘nmas shijoati va yengilmas irodasini nazarda tutsa, “davlat shishasi to‘lg‘onida” tashbehida farzandlarning jisman va ma’nana kamol topib, oila posboni, najotkoriga aylangan bir paytda, onaning “bog‘u bargi qurib, navbaridan ayrilib qolgan”ini ta’sirchan ifodalaydi.

Bu davr adabiyoti nafaqat ma’rifatli shaxs, balki xotin-qizlar erkinligi orqali jamiyatning ozodligi orzusini talqin etdi. Milliy

uyg‘onish davri shoiri o‘zbek ayoli o‘z ozodligi, yurt hurriyati uchun kurasha oladigan kuchga ega ekanini bilardi. Davr va muhit ta’siri ijodkorning yuqoridagi kabi ta’sirli ifodalarni keltirishiga, yangicha janrlarda ijod etishiga sabab bo‘ldi. Xotin-qizlar ozodligi g‘oyasi, ayniqsa, Fitrat, Cho‘lponlar ijodida yanada takomillashdi. Masalan, Cho‘lponning “Satang” she’rida, avvalo, shakliy o‘zgarishni ko‘rish mumkin. Ohang, tanlangan qofiyalar esa shoir ko‘zda tutgan maqsadlarni yuzaga chiqarishda hal qiluvchi rol o‘ynagan:

*Ko ‘zlari kulishdan boshqani bilmas,  
Har doim og ‘zidan shakar to ‘kilur.  
Sevgidan boshqaga bo ‘yin egilmas,  
Oldida so ‘fining ahdi buzilur...  
Ixcham barmoqlari qilda yugursa,  
Jonsiz qillar-da qush kabi sayrar.  
Yengil oyoqlari yo ‘rg ‘alab ketsa,  
Sil bo ‘lgan ko ‘ngil ham ochilar, yayrar*<sup>182</sup>.

She’rda “gajak”lari yuziga tushgan, yuzlarida “boshqa qizlardek ketsiz qayg‘ularning izlari yo‘q”, “erkinlikda o‘sgan erka qizlardek to‘lg‘in yuzlarida doim sho‘xlik” bo‘lgan “satang” qiz ta’riflanmoqda. Bu dilbar shunchalar yosh, go‘zal va beg‘uborki, uning oldida hatto “so‘fining ahdi buzilar”. Muallif kinoya qilayotgan “satang qiz” timsoli aslida o‘tgan asrlardagi xotin-qizlarning jarohatlangan obrazi deyishimizga asoslar bor. Satrlarda o‘z vaqtida Islom arkonlari, shariat ahkomlariga qat’iy rioya etishi bilan dunyoga dovruq solgan, ko‘pdan-ko‘p din olimlarini yetishtirgan millatning tushib qolgan holini haqqoniyat ila tasvirlagan Cho‘lponning izardorlarini his etish mumkin. Yoshlik bu go‘zallik, insonning zavqu shavqqa, go‘zal histuyg‘ularga to‘la davridir. Afsuski, bu “satang” oddiy qiz emas, u “islovotxona” (fohishaxona)dagi qiz<sup>183</sup>.

Bunday ayanchli manzara qardosh o‘lkalarda ham turfa ko‘rinishlarda davom etayotgandi. Chunonchi, ozarlarning yolqinli shoiri Husayn Jovid ijodida ham o‘zbek zamondoshlari singari

<sup>182</sup> Чўлпон. Асарлар. 4 жилдлик. I жилд. Шеърлар. Мансуралар. Шеърий хатлар. - Т.: Академнашр, 2016. – Б. 120.

<sup>183</sup> Hamzaning “Paranji sirlaridan bir lavha yoki yallachilar ishi” nomli dramasida ham Mastura ismli yallachi ayolning qo‘lidagi, fohishalik bilan shug‘ullanuvchi qizlar “satang” deb aytilgan.

qo‘liga qalam tutib, yozishga undagan dardlarida mushtarakliklar ko‘rinadi:

*Yoq, yalan söylədim, aldanmayınız;  
Vardı bir çoq tapınanlar da bana.  
Çünkü pək dilbər idim,  
Süslü kaşanələrin qoynunda,  
Bəni sarmışdı ipəklər, tüllər...  
Ağlayırdım gülərək,  
Alışib məhbəsə, altın qəfəsə,  
Söndürürdüm qaba şəhvətləri bən...  
“Pək gözəlsin” qaniçən sultanlar  
Bəni əyləncə yapar,  
Çoq zamanlar da bağışlar birinə,  
“Ən nəfis işvəli bir qüvvə” deyə,  
Oh, nə miskincə həyat!?  
Yeri gəldikdə atarlar Nilə,  
Yaxud atəşkədəyə...*

*Tarjimasi:*

*Yo ‘q, yolg‘on aytdim, aldanmang;  
Ishtiyoyqlilarim ko ‘p edi mening.  
Chunki xo ‘p dilbar edim,  
Hashamdar saroylar bag ‘rida  
Meni quchgan edi ipak, mo ‘ynalar...  
Kulib turib yig ‘lardim  
Ko ‘nikib mahbuslik, oltin qafasga,  
So ‘ndirar edim jirkanch nafslarni men.  
"Juda go ‘zalsan!" deya qonxo ‘r sultonlar  
Men bilan vaqtichog ‘lik etardi  
“Eng nafis, ishvali bir yaratiq” deya  
Ko ‘p marta tortiq etardi bir kimga.  
O ‘rni kelsa Nilga otishar,  
Yoxud olovli gulxanga.  
Oh, naqadar bebaxt umr!?*

She’rning har misrasida Sharq ayolining og‘ir qismatiga ishora bor. Ayolning erksiz, huquqsiz, “qonxo‘r sultonlar” qo‘lida “vaqtichog‘lik” uchun “eng nafis, ishvali bir yaratiq”ligi, istashsa “Nilga” yoxud “gulxanga” otishi mumkin bo‘lgan “bebaxt umr”

sohibasi ekani haqidagi tasvirlar ikkala asardagi o‘xshashlik, yaqinlikni kuzatishga imkon beradi.

Qizig‘i shundaki, o‘tgan asrning millatparvar adibi Fitratning «Yurt qayg‘usi» deb nomlangan 3 ta sochma va bir she’rida kuylangan erk va hurriyat uchun kurash g‘oyalari ham Husayn Jovid she’rlariga hamohang. Fitrat endi Turkistonni xo‘rlangan va xorlangan “mungli xotun” obrazida taqdim etadi.

*Onam! Seni qutqarmoq uchun jonmi kerakdir?*

*Nomusmi, vijdon bila imonmi kerakdir?*

*Temur bila Chingiz qoni toshdi tomrimizdan,*

*Aytgil! Seni qutqarmoq uchun qonmi kerakdir?*

Lirik qahramon millatning oriyatli yigitlari: Temur va Chingizzxonlarni esga oladi, ulardan meros bo‘lib o‘tib qonida jo‘sh urayotgan shijoatga tayanadi. Kitobxon Fitratning chorasiz holga tushib qolgan onalarni qutqarish uchun jonini berishga tayyorligiga hech bir ishtibohsiz ishonadi. She’rning navbatdagi bandidagi Onalar yuragiga qilich suqishga shaylangan yovlarga “...ol ko‘ksumi – qalqonmi kerakdir?” tarzidagi satrlar muallifning Vatanga munosib haqiqiy jonkuyar o‘g‘lon sifatidagi qirralarini ko‘rsatadi.

*Boq, boq, mana turk tengizi toshqun qila qoldi,*

*Turon yovini quvg‘ali to‘fonmi kerakdir?*

misralarida kerak bo‘lsa, dengiz, toshqinga aylanib kurashga otlangan qo‘rqmas yigitlarning chinakam jonli holatini his etadi kishi.

Fitratning “Kim deyay seni?” nomli she’ri Turkiston diyorini tom ma’noda hur ko‘rishni istagan qomusiy alloma shoir haqida bir butun tasavvur uyg‘otadi.

*Oppog‘im, Xudoy asrag‘ay seni,*

*Ko‘z balosidan saqlag‘ay seni,*

*Sen jahonning eng nozaninisen,*

*Qayg‘ularg‘a hech solmag‘ay seni.*

O‘zi tug‘ilib o‘sgan jonajon go‘shani “Oppog‘im” deya erkalayotgan lirik qahramonning tuyg‘ulari naqadar samimi. Yurak qo‘ri bilan sevgan insongina suyuklisi uchun “Xudoy asrag‘ay seni”, “Ko‘z balosidan saqlag‘ay seni” deya astoydil tilanadi. Vatan “nozanin yor”ga qiyoslanmoqda. Demak, Vatan jonu dildan

asralishga munosib. Vatan shaydolari bor ekan, Vatanning qayg‘u chekishga haqqi yo‘q.

*Qip-qizil gulim, yop-yorug‘ oyim,  
Ketmay tur, bir oz men ko‘ray seni.  
Dardi jonimning sen davosimi?  
Mungli ko‘nglumning podishosimi?*

Darhaqiqat, ushbu lirik matn ko‘p jihatlari, jumladan, “nozanin”, “gulim”, “oy” singari an’anaviy timsollarni yangi, ya’ni ma’shuqa emas, Vatanni nazarda tutib tasvirlash, muallifning g‘oyaviy maqsadlari uchun mahorat bilan tanlangan shakl hamda vazn, o‘sha davrni real bo‘yoqlarda manzaralashtirgani bilan adabiyotshunoslikda yuqori bahoga munosibdir. Shuningdek, she’rdagi:

*Gulmi sen, ko‘zim, jonmi sen, ko‘zim?  
Ko‘nglimning buti yo Xudosimi?  
Bilmadim, gulim, ayt o‘zing kulib,  
Oshiqing nechuk atag‘ay seni?*

singari ritorik so‘roq uslubi ijodkor ko‘zda tutgan masalaning dolzarbligini yanada oshirishga xizmat qilmoqda. Zero, Vatanni ko‘z qorachig‘i qadar yaxshi ko‘rish, e’tiqod qilib qalbga joylash yuksak insoniylikning belgilaridir.

Ko‘rinadiki, Vatan tasvirida qo‘llanilgan tashbehlar silsilasi tiyrak o‘quvchini zavqlantiradi. Xolis duo etayotgan duolar albat qabul bo‘ladi, pok ishq murodga yetkazadi, bir so‘z bilan aytganda, she’rda qadim Turonning yana oyoqqa turishiga inongan va unga bor imkoniyatlari bilan maydonda saf tortgan Fitratning insoniy va ijodiy qiyofasi bo‘rtib ko‘rinadi. Adibning “Bir oz kul” nomli she’rida ham Vatanini chin farzandlik tuyg‘ulari bilan sevgan inson qiyofasi bilan yuzlashiladi.

*Ko‘z yoshlarim bukun tag‘in oqadimi?  
Qizil gulim boshqalarg‘a kular-da.  
Qizil gulim, borlig‘imning sulton!  
Jonim, sening xayolingda kuchaydi.  
Yuragimning eng qimmatli armoni,  
Nechuk menga marhamating ozaydi?  
Ikki ko‘zim, malak yuzim, sevdigim,  
Jonlar sening yuzginangdan aylansun,*

*Qizil gulim, qora ko‘zim, tilagim,  
 Dunyo sening boqishingdan o‘rgulsun.  
 Yovuz yorim, yuzingga hech boqolmam,  
 Ko‘ngil dardin oyog‘ingga to‘kolmam,  
 Tuproq kabi yiql misham yo‘lingda deya olmam.*

Muallifning Vatanni qizil gulga, malak yuzli suluvgaga, borliqning sultoniga, ikki ko‘rar qora ko‘ziga mengzashi ham tabiiy bo‘lib, farzandining kelajagidan qayg‘urgan otaning xavotirlari misol hadiklarga qorishib ketgan. Hatto she‘r so‘ngida “Yovuz yorim” deya murojaat etsa-da, kitobxon lirik qahramondan ranjimaydi. Musulmon kishining umid va tilak orasida yashab o‘tadigan butun umri yurtining mustaqilligi, shavkati, gullab-yashnashiga uzviy aloqadordir. “*Yuragimning eng qimmatli armoni, Nechuk menga marhamating ozaydi?*” misralarida endilikda millat dardi, o‘z bolalarining kamoli uchun qayg‘ura olmaydigan holga kelib qolgan Turkiston mamlakatining aftoda holiga achinish, cheksiz armon, miltillagan umidni ilg‘ash mumkin.

Shubhasiz, Fitratning bu she‘rlari o‘zini inson bilgan hech bir ko‘ngilni befarq qoldirmaydi, shunchaki o‘qimaydi, balki endi ona tuproqqa samimi sevgi uyg‘otishi bilan ham san’at asaridir.

Millatni tafakkur qilishga undaydigan, tezroq g‘aflatdan uyg‘onib, taraqqiy yo‘liga chiqishni istagan jadid namoyondasi Fitratning lirik asarlarida ilgari surilgan mazmun uning kichik zamondoshi Cho‘lpon she‘rlarida bir muncha boshqacha yo‘sinda jarangladi. Uning she‘rlari orasidan yolg‘iz xotin-qizlarga qaratilganlarini tanlab olib tekshirilganda, erk, ozodlikka da’vat, hur yashashga talpinish barcha-barcha asarlarining mag‘ziga o‘rnashib ketganiga ishonch hosil qilinadi. Uning, ayniqsa, “Men va boshqalar” (“O‘zbek qizi og‘zidan”) she‘ri o‘zbek poeziyasining eng sara namunalari qatorida turadi. Ustoz adabiyotshunoslar mazkur she‘rga ko‘p marta murojaat etib, teran talqinlarini bayon etishgan<sup>184</sup>. Nihoyatda dard-hasrat ila to‘la satrlar “moziyning eng kirli” kunlarini ko‘zgudek namoyish etadi.

---

<sup>184</sup> Bu haqda qarang: Афоқова Н. Жадид шеърияти поэтикаси. – Т.: Фан, 2005. – 140 б.; Ҳамдам У. Янги ўзбек шеърияти (адабий-танқидий мақолалар). – Т., 2012. – 250 б.; Назарова Ш. XX аср бошлари ўзбек шеъриятининг янгиланиш тамойиллари. – Т.: Akademnashr, 2022. – 256 б.

*Kulgan boshqalardir, yig‘lagan menman,  
O‘ynagan boshqalar, big‘lagan menman.  
Erk ertaklarin eshitgan boshqa,  
Qullik qo‘shig‘ini tinglagan menman...<sup>185</sup>*

Birinchi qatordagi “kulgan-yig‘lagan”, “boshqalar-men” tazodiy juftliklari asarning kompozitsion qurilishini belgilagan zaruriy unsur vazifasini bajargan. Shoирга xuddi shu narsa – yayrab-yashnab kula olmasligi, haqsiz kimsalarning tabassum qilishi, kulishga kuchi, qudrati, salohiyati bo‘la turib, bundan mahrum ekanligi turtki bergen. Tengsizlik,adolatsizlik, o‘z haqini talab qila olmayotgan bemor millatning onalari o‘ynamoq o‘rniga big‘illab yig‘laydi, erkin hayotda sururlanish qolib, qullik kuyini tinglashga majbur qilinadi. Banddagи birgina big‘illab, bo‘g‘ilib yig‘lamoq ma’nosini anglatuvchi “big‘lagan” lafziga yuklangan badiiy “yuk” tasavvur qilinganidan-da zalvorli. Bu esa Cho‘lponning o‘z ona tilining imkoniyatlarini juda yaxshi bilgan va uni mahorat bilan qo‘llashni uddalagan cho‘ng shoirligini tasdiqlaydi.

*Boshqada qanot bor, ko‘kka uchadir,  
Shoxlarga qo‘nadir, bog‘da yayrardir.  
So‘zlari sadafdek, tovushi naydek,  
Kuyini har yerda elga sayraydir.*

O‘zbek qizining “qanoti bor-u, lekin bog‘langan”i, “so‘zlari sadafdek, tovushi naydek kuyi bor-u... uni-da devorlar tingla”shi Cho‘lponning nomusli qalbini timmay azoblaydi. Darhaqiqat, qalbga eng og‘ir botadigani, “o‘zbek qizining” inson o‘rnida ko‘rilmasdan, “hayvon qatorida sanal”ishidir. Garchi ijtimoiy mazmunni qamrab olgan bo‘lsa-da, she’rda poetik ifodaviylik baland saviyaga ko‘tarilgan.

*Erkin boshqalardir, qamalgan menman,  
Hayvon qatorida sanalgan menman.*

Asar kitobxonda juda og‘ir va mungli taassurot qoldiradi. Shoirk va ozodlik tuyg‘usini shu darajada teran his etgani, uni umrbod orzu qilib yashagani har bir misra qatiga singdirilgan. Qalbi yoniq, so‘zi yoniq Cho‘lpon millat dardini she’rlariga singdirdi.

*Menda-da qanot bor, lekin bog‘langan...  
Bog‘yo‘qdir, shox yo‘qdir, qalin devor bor<sup>186</sup>.*

<sup>185</sup> Чўлпон. Асарлар. 4 жилдлик. I жилд. Шеърлар. Мансуралар. Шеърий хатлар. - Т.: Академнашр, 2016. – Б. 75.

<sup>186</sup> Ko‘rsatilgan asar. Чўлпон. Асарлар. 4 жилдлик. I жилд. – Б. 75.

“Yig‘lagan”, “big‘lagan”, “qullik qo‘shig‘ini eshitgan”, “qamalgan” ayolning “hayvon qatorida” sanalishi ko‘plab she’rlarda uchrashi judayam achinarli holat. Ammo masalaning nechog‘li jiddiy bo‘lganini ko‘rsatuvchi dalil ham ayni shu kalimalarning tez-tez takrori bilan bog‘liqdir.

Biz shunga qo‘srimcha qilib ayta olamizki, she’rda Cho‘lponning yorqin iste’dodi bilan yaratilgan tutqun qiz obrazi tegishli jamiyatdagi barcha xotin-qizlarga qismatdoshdir. Turkiston ayollarining real voqelikdagi turmush tarzini, ehtiyojlari, armonlari, orzularini hech bir mubolag‘asiz, sodda va zamonaviy uslubda ifoda etishga erishgan. Shubhasiz, she’rning tiliga quloq solgan kitobxonda moziyning kirli kunlaridan tragik ertak tinglagandek taassurot uyg‘onadi.

Shoirning “Navro‘z kunida” she’ri mazmunan “Men va boshqalar”ga juda yaqin. She’rdagi mana bu misralarga diqqat qarataylik:

*Necha yuz yil kishanlarda entikkan  
Qashshoq, yo ‘qsil, tutqunlarga erk berar;  
O‘zbek qizi: “Boshqalarga erk bergen,  
Menga qani erking?...” – desa, na deyar?*

O‘z armonlarini, olovli xayqiriqlarini qizlar tilidan aytayotgan Cho‘lpon qanday bo‘lmasin ozodlikni qo‘lga kiritish yo‘llarini qidiradi. Sirdan qaraganda, 3-4 misralardan go‘yo shunday tasavvur uyg‘onadi: o‘zbek qizi jur’at bilan “Boshqalarga erk bergen, Menga erking qani?” deya jamiyatni so‘roqqa tutmoqda. Koshkiydi shunday bo‘lsa! Shoir xotin-qizlar nomidan berayotgan savollarini o‘zbek qiziga shunday shaklda haqingni talab qilsang bo‘ladi, erking uchun kurashish imkoning bor, demoqchi bo‘ladi.

Shu maqsadda bo‘lsa kerak, Temur, Chingiz singari tarixiy shaxslar qatorida turkiy xalqlarni shonli o‘tmishidagi an’analarni vosita qilmoqchi bo‘ladi.

Shoirning ta’kidlashicha, tarixi eramizdan avvalgi asrlarga tutashadigan Navro‘zning bir xususiyati – bu kun erksizlarga ham erk beradigan kun. Bizning o‘zbek qizi esa ana shunday qutlug‘ erkli kunda ham kishandan bo‘shay olmagani, zindondan-da tor uylardan chiqa olmasligi alamlı manzara. Obrazlilik bilan chizilgan bu voqelik yuraklarni titroqqa solmasligi mumkin emas.

*Navro'z kuni erksizlarga erk berar,  
O'zbek qizi erkli kunda bo'sholmay,  
Zindon kabi tor uyidan chiqolmay,  
Qalin, og'ir devorlarni yiqolmay,  
Borlig'ini keng dunyoga otolmay,  
Chin erk kunini kuta-kuta telmirar...<sup>187</sup>*

Shoir boshqa ko‘p she’rlarida erk va ozodlik g‘oyasini xotin-qizlar tilidan bayon qiladi. Bundan anglashiladiki, tutqunlikda yashagan ayol jamiyat uchun o‘zi kabi tutqun farzandlar berishdan xavotirda bo‘lgan. Xalqning eng sevimli bayramlaridan biri hatto Navro‘z kunida ham “Guloy, To‘ti, Qumri, Oyxon, Yorqin”lar faqat “devorlarga qaraydilar”, deya nadomat chekadi. Ostona hatlab ko‘chaga chiqmagan qiz go‘zallikni ko‘ra olarmidi?!

“Ko‘klam qayg‘isi” she’ri “da esa ko‘klam, ya’ni bahor ramziy ma’noda erk, ozodlik, hurriyat va istiqlol ma’nosida, xususan, yana bir bor xotin-qizlar ozodligi nazarda tutilgan.

*Ko‘klam chog‘i... sayroq bulbul sayramas,  
Na uchunkim tanburimning tili yo‘q.  
Ul go‘zal qiz chin qarash-la qaramas,  
Na uchunkim umidimning guli yo‘q<sup>188</sup>.*

Cho‘lponning deyarli barcha she’rlarida bo‘lgani singari ushbu she’rning lirik qahramonida ham ruhiy siniqlik bor. Uning qalbi nechog‘li iztirobda yonganini har bir so‘zi, har misrasi aytib turadi.

Cho‘lpon “Qiz qo‘shig‘i” she’rida endi yengil o‘qiladigan va ta’sirchan so‘zlar ila vatandoshlariga xitob qiladi.

*O‘ksuk ko‘ngil qushi  
Tushdi qafasga,  
Sira yetolmaydir  
Erkin nafasga.  
Qora kunlar tushdi menim boshimga.  
Qip-qizil qon bo‘lib  
Kunlar botadir...  
Yomon hidga to‘lib  
Tonglar otadir...*

<sup>187</sup> Чўлпон. Ко‘rsatilgan asar. 1-жилд. Б. 74.

<sup>188</sup> Ко‘rsatilgan asar. Чўлпон. Асарлар. 4 жилдлик. I жилд. – Б. 109.

*Og‘ir kunlar tushdi menim boshimga.  
 Qafaslarni buzib  
 Uchsam osmonga!  
 Kishanlarni uzib  
 Yetsam jononga!...  
 Yorsiz kunlar tushdi menim boshimga<sup>189</sup>.*

Shoir bu she’rida yana bir bor erksiz, o’ksuk, hasratli, armonli, kishanli qiz tilidan erk va ozodlikni kuylaydi. Cho‘lpon juda ko‘plab she’rlarida xalqimizni yo‘qsul va kishan kiygan etib tasvirlaydi, erksizlikni qahraton qishga o‘xshatib, hurlikni bahorga qiyoslaydi. Bu she’rda esa erksizlik qafasdagi qushga mengzatilgan. “Jannat bog‘lar bor” bo‘lsa-da, sayray olmasligidan, “sinq qafaslarda yayray olmas”ligidan nola qiladi. Kunlar “qip-qizil qon bo‘lib” botishi, “yomon hidga to‘lib tonglar otishi” – bular hammasi qatag‘on isini esga soladi. Shu kunlar yaqinlashayotganidan darak beradi. Yettita beshlikdan iborat bu she’rning har so‘nggi misrasi o‘xhash va takror keladi. Unda kunlar “qora, yomon, og‘ir, qiyin, qonli, o‘qli, yorsiz” kabi sifatlashlar bilan qo‘llanilgan.

Ayni shu fikrimiz tasdig‘ini Temir Xo‘ja o‘g‘li ham keltirib, “qafasdagi qush”, “kapalak” 1920-1930 yillar terror dahshati ta’sirida paydo bo‘lgan katta bir umidsizlikdan tug‘ilgan hurriyat va o‘zlik orzusini ifoda etuvchi ramzidir, deb izohlaydi<sup>190</sup>.

Cho‘lponning “O‘zbek qizi” she’ri o‘z nomi bilan o‘z millatiga mansub qiz - “baxti yiroq, ko‘ngli to‘la qonlig” “Sharqning tutqin qizi”ga bag‘ishlangan bo‘lib, uning oila a’zolaridan nechog‘li qo‘rqib-hadiksirab yashashining badiiy ifodasini o‘qiyimiz:

*Kirgan edim bir kun bog‘chaga  
 Yaproq yanglig‘ titrab-qaltirab.  
 Qarar edi ko‘zim to‘rt yog‘imga  
 Qo‘rqa-pisa, o‘tday yaltirab.  
 Allaqanday, deyman, yanglishgina  
 Yirtqich erim kelib chiqmasin.  
 Yoxud sezib qolib qayin ona  
 Ustlarimga tog‘lar yiqlmasin.*

<sup>189</sup> Ko‘rsatilgan asar. Чўлпон. Асарлар. 4 жилдлик. I жилд. – Б. 163.

<sup>190</sup> Kocaoğlu T. Çağdaş özbek şiiri // Türk dünyası dil ve edebiyat dergisi. – Ankara: Türk dil kurumi, 1996. Sayı 1. – S. 3-53.

*Yo ‘q... ul kuni Tangrim saqladi-da,  
Ular meni sezmay qoldilar.  
Menga qarab chechak-gullar unda  
Sevinib ko ‘zni soldilar.*

*Mening baxtim qullar baxti yanglig‘  
Yorug‘ o ‘lkalarda yashaydir.  
Baxti yiroq, ko ‘ngli to ‘la qonlig‘  
Erkin Sharqning tutqin qizidir<sup>191</sup>.*

Shoir “o‘zbek qizi” obrazi orqali Turkistonning fojeiy qiyofasini tasvirlaydi. Uning jismu jonini erksiz qizlarning ahvoli qiyagananini his qilasiz. Chin ozodlik timsolini xotin-qizlarning saodatli, shodon qiyofasida tasavvur qilganiga amin bo‘lasiz. Shoir bot-bot murojaat etgan obraz Sharq qizi lirk qahramon. U tipik o‘zbek xonadonining kelini. Uning boshida “yirtqich eri”, ustiga tog‘larni yiqitadigan “qayin ona”si bor. U “erkin Sharqning tutqin qizi” ekani, uning baxti “qullar baxti yanglig“ yiroq o‘lkalarda yashashini anglaydiyu, dardu hasrati ichida qolib ketaveradi. Cho‘lponning yuragida to‘lib-toshgan qon aralash zardob satrlar osha qalam uchidan tomib turganini o‘quvchi beixtiyor his qiladi.

Cho‘lponning “Yer asirlari” she’ri bu muammolarni tugal poetik shakl va mazmunda manzaralashtirgani bilan qimmatlidir.

*Yer asiralari, yer asiralari!  
Oltin bilaguzuklar, yoqut marjonlar,  
Sadaf donalarmi tasallilari,  
Qo ‘rg ‘onmi, devormi nasibalari,  
Kun sanab o ‘tarmi oyu yillari,  
Tilga kelmaslarmi shu qadar jonlar?  
Yer asiralari, go ‘zal tonglarning  
Sochidan ko ‘ngilga quvvat olingiz!  
O ‘zingiz tirishib bevijdonlarning  
Ko ‘ngliga erk uchun ilhom solingiz!  
Yer asiralari, yer asiralari,  
Yosh to ‘kib yig ‘lashmi nasibalari?!*<sup>192</sup>

Shoir bu she’rda mahalliy xotin-qizlarga nisbatan yangicha o‘xshatish va sifatlovchi qo‘llagan. “Yer asiralari” o‘zida ko‘p

<sup>191</sup> Ko‘rsatilgan asar. Чўлпон. Асарлар. 4 жилдлик. I жилд. – Б. 176.

<sup>192</sup> Ko‘rsatilgan asar. Чўлпон. Асарлар. 4 жилдлик. I жилд. – Б. 212.

ma’noni ifodalaydi. Avvalo, u kim bo‘lsayam, qaerda bo‘lsayam, “asira”, ikkinchidan “yer”ning asirasi. Binobarin, “yer” joy, makon, hudud ma’nosini bersa, shoirning “asira”si o‘zi yashayotgan joyning asirasi. U oila yoki mahalla bo‘ladimi, yoki butun boshli Turkiston yo Sharq mamlakati bo‘ladimi, u shu yerning mahkumasi. U tutqunlikdan na bir joyga qocha oladi, na qarshilik qila oladi. Uning ko‘ziga “oltin bilaguzuklar”u “yoqut marjonlar” ham ko‘rinmaydi. U erksiz, chorasziz, nasibasi “yosh to‘kib yig‘lash”dan iborat “yer asirasi”dir.

Hamza, Cho‘lpon va yana boshqa ko‘plab jadid shoirlari ijodiga nazar solar ekanmiz, ularda o‘zbek ayolini jaholat botqog‘iga botirgan yana bir unsur “paranji” haqida ko‘plab satrlar bitilganining guvohi bo‘lamiz. Cho‘lponning mana shu nomdagi she’rini o‘qiymiz:

*Hoy qiz!  
Hoy qizga o‘xshagan juvon,  
Yur!  
Kim seni o‘rasa,  
Borligimni yiqib  
Yerlarga ko‘milsin!..  
Yondiring chimmattni,  
Bo ‘g‘masin  
To ‘smasin  
Tabiiy ziynatni!  
Yo ‘q bo ‘lsin,  
Yo ‘q bo ‘lsin  
Paranji!  
Ochilsin.  
Gullasin,  
Yashnasin  
Paranji ostiga berkingan,  
“Menga ham erk!” – degan  
Inju! Inju!!!<sup>193</sup>*

Cho‘lpon ham Hamza singari xotin-qizlarning paranji-chimmatlarda yurishiga qarshi bo‘lganini o‘z asarlarida ifodalagan. Hamza ijodining xotin-qizlarga doir qismini, ko‘p hollarda, shu

---

<sup>193</sup> Чўлпон. Асарлар. 4 жилдлик. I жилд. – Б. 215.

mavzu egallaydi. Biroq, ko‘rib turganimizdek, Cho‘lpon ham bunga astoydil qarshi ekanini bildirgan. Chunki “Paranji ostida berkingan “Menga ham erk!” – degan inju”dir deydi. Cho‘lpon she’riyatining asosiy motivi esa “erk va ozodlik”dir.

Jadid she’riyatida xotin-qizlarning erki masalasi haqida so‘z yuritilganda ko‘plab ijodkorlar bot-bot ramzlarga yuzlaganining guvohi bo‘lamiz. Ramzlar orqali ifodalangan niyat va maqsadlar ijodkorlarning bosh maslagiga aylandi. Chor senzurasidan qutuldik deya qaddini rostlashga ulgurmagan ijodkor Sho‘ro hukumatining tazyiqi va nazoratidan xavfda yashashga mahkum edi va bu hadik yil sayin oshib borgan edi. Cho‘lpon millatdoshlarining qulligini mengzagan narsa bolalar sevib o‘ynaydigan va oyog‘iga ip bog‘lab uchiradigan “oltinli qo‘ng‘iz” – tillaqo‘ng‘iz. Bu qo‘ng‘iz aslida istagan joyida uchib-qo‘nadigan, buning ustiga ko‘zlarni yashnatadigan “oltin” rangli hasharot bo‘lgani bilan bolalarning qo‘lida u qul kabi chorasiz va madorsizdir. Uning erki o‘z qo‘lida emas:

*Oltinli qo‘ng‘izni bolalar ushlashib  
Ip bilan ko‘klarga uchirib o‘ynaylar.  
Qullikni sevmagana yo‘qsilni quchlashib  
Nimaga o‘zining erkiga qo‘ymaylar?*

“Barg” she’ri ramziy ma’noga ega. Barg himoyaga, parvarishga, mehrga muhtoj millat timsoli. Shoir farishta-yu malakdan ko‘ra “butoqda titragan bir bargni” o‘pishni afzal biladi.

*O‘pmaymen shu chog‘da farishta-malakni,  
O‘pamen butoqda titragan bir bargni...<sup>194</sup>*

“Chechak” (Bir kechaning esdaligi) she’ri yangi ochilgan chechak tilidan yozilgan. Bu chechak “yerga tushgach” “so‘lg‘inlanib” qolgani uchun ham “cho‘lda, biyobonda” yovvoyi va hidsiz bo‘lib o‘sishini afzal ko‘radi. O‘shanda balki “har xoin”ning qo‘li uni yerga urmas, “har bir oyoq” “ko‘kragidan yurmas edi”. She’rda ramziylik bor, bu chechak, aslida, pok va beg‘ubor o‘zbek qizi. She’r mavzusi ostida “bir kechaning esdaligi” deb yozilgan. Bu biz uchun bir ishora. O‘sha paytlarda ayrim erkaklar 17-18 yoshli qizlarga uylanib, 4-5 yil o‘tar-o‘tmas birinchisining ustiga ikkinchisini, ikkinchisining ustiga

---

<sup>194</sup> Ko‘rsatilgan asar. Чўлпон. Асарлар. – Б. 110.

uchinchisini va har safar eng yoshini tanlab, o‘ziga nikohlab olishi oddiy holga aylangani shu davrda yaratilgan ko‘plab badiiy asarlar va tarixiy faktlarda keltirilgan.

*Yangigina yaproq yorib chiqqan chechak  
Besh-olti kun har kim uchun tansiq bo ‘lur.  
“Bitdi isi”, - deb tashlasa biror tentak.  
Har kim tepsa, har kim ezsa, u haqlidir!  
  
Besh-olti kun ko ‘kraklarda ulug ‘lanib,  
“Men go ‘zalman, chiroylikman!” – degan gulni,  
Yerga tushgach, olib ko ‘ring... so ‘lg ‘inlanib,  
O ‘lim tusli rangi bilan istar cho ‘lni.  
  
Va aytari: “Agar cho ‘lda, biyobonda  
Bir yovvoyi, hidsiz chechak bo ‘lsa edim,  
Uzib olib yerga urmas har inson-da,  
Keng sahroda o ‘zim yashnab sarg ‘ayardim!  
  
Har xoin qo ‘l meni yerga urmas edi.  
Har bir oyoq ko ‘kragimdan yurmas edi!....<sup>195</sup>”*

Chechak timsolida aks etgan erk va ozodlik g‘oyasi o‘zbek xotin-qizlarining toptalgan huquqi, poymol bo‘lgan iffati, armonga aylangan orzulari ifodasidir. Cho‘lponning “Yanglishasiz” she’ri ham ayni mavzuga daxldor dardli so‘zlari in’ikosidir:

*Siz deysizkim, men ko ‘klarni o ‘ylaymen,  
Yer betiga sira nazar solmaymen!  
Yanglishasiz: men ko ‘klarga berkingan  
Yer qizidan xayolimni olmaymen...<sup>196</sup>*

To‘rt misradangina iborat bu ajoyib she’rda shoirning ne-ne orzu va armonlari mujassam! Birgina “Yanglishasiz” deb atalgan mavzuning o‘ziyoq insonni o‘ylantirib qo‘yadi. Shoir o‘zini “ko‘klarni” o‘ylaydigan, yerga sira “nazar solmaydigan”, yo‘jni madh qiladigan deb o‘ylovchilarga “yanglishasiz” deydi. Chunki u aslida o‘sha “ko‘klarga berkingan” “yer qizidan” xayolini olmasligini aytmoqchi bo‘ladi. U umrbod o‘z yeri, o‘z vatani, o‘z millati dardida yashaganini aytmoqchi bo‘ladi. Millatni esa “yer qizi” obrazida tasvirlaydi.

<sup>195</sup> Ko‘rsatilgan asar. Чўлпон. Асарлар. Б. 155.

<sup>196</sup> Ko‘rsatilgan asar. Чўлпон. Асарлар. 4 жилдлик. I жилд. Б. 214.

“Kelinchak” she’ri “O‘zbek qizi” she’riga mavzu va obrazlari jihatidan yaqin. Bu yerda ham o‘zbek xonadonining kelinchagi, uning eri, qaynonasi va yana bir qo‘sishimcha obraz bo‘lib qo‘sning kelini qatnashadi.

*“Shu erga tegdim,  
Qaddimni egdim,  
O‘lganim ortiq!”  
Har kun ertalab  
Bir talay g‘azab  
Er o‘lguridan...  
Kunduz nag‘masi –  
Qaynonasi  
Ko‘milguridan...  
Qayg‘usi to ‘lsa,  
O‘zi jim bo ‘lsa...  
Dutor sayraydir!...<sup>197</sup>*

“Kelinchak” she’rida shoir ayrim o‘zbek xonadonlarida uchraydigan holat – kelinga sovuq,adolatsiz va past nazar bilan munosabatda bo‘lishni obrazli ko‘rsatib bergan.

Cho‘lpon va Hamzaning keyingi yillarda yozilgan she’rlarida biroz bo‘lsa-da siyosiy mafkura qolipiga moslashish hollari uchraydi. Shu sababli ularning ko‘plab she’rlarda Sho‘ro mafkurasiga xizmat qiluvchi shior va chaqiriqlar uchraydi. Lekin shunday bo‘lsa-da, mazkur asarlarda ijodkorlarning asl g‘oyasi – erk va ma’rifat masalasi hech qachon nazardan chetda qolmagan. “Ozod xotin-qizlar qo‘sning‘i” she’ri 1927 yilda yozilgan:

*Ey suyukli xotin-qizlar, kel, o‘rtoqlashamiz,  
Biz ham ozod o‘lkamizda erk bilan o‘ynashamiz<sup>198</sup>.  
Qo‘l, oyog‘imizdan uzdik vahshiy qullik zanjirin,  
Eski turmushga o‘qub nafrat, tabiatlashamiz.  
O‘tga yoqib chimmatu chachvon, falokat rasmini,  
Yangidan chiqdik yorug‘ dunyoga, insonlashamiz<sup>199</sup>.*

Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag‘ishlangan “Bu kun 8 mart” she’ri ham 1927 yilda yozilgan bo‘lib, “Yangi Farg‘ona” gazetasining

<sup>197</sup> Чўлпон. Асарлар. 4 жилдлик. I жилд. – Б. 225.

<sup>198</sup> *Erk bilan o‘ylashamiz* paranjini tashlash yillaridagi fojiali voqealar ko‘zda tutilmoxda.

<sup>199</sup> Ko‘rsatilgan kitob. Hamza Hakimzoda Niyoziy. TAT. 2-jild. – B. 196.

8 mart sonida (“Chig‘iriq” bo‘limida) bosilib chiqqan. She’r qo‘lyozmasi saqlanmagan. Ushbu she’r Hamzaning o‘zbek klassik she’riy sistemasini isloh qilish yo‘lidagi muhim tajribalaridan biri bo‘lib, o‘zbek she’riyati tarixidagi dastlabki sochma (sarbast she’r) namunalaridan biri sifatida katta ahamiyatga egadir:

*Hay, hay paranji degan yot narsa, qo‘ling iflos, o‘zbek xotin-qizlariga yaqin kelma, o‘zingni chetga tort!*

*O‘n uch asrdan beri bechora xotinlarni nafsi ammora<sup>200</sup>ng uchun yem qilib kelgan mulla, bu yenglik kafanlar<sup>201</sup>ni bu kun bo‘g‘chalab yelkangga ort!*

*Burningni yerga qadab kuchan... kuchan, ha ha, dakadang tort... E kallasi xum. Bad nafsiga dum, vujudi nahm, qadami shum, yo‘li yo‘q, umidi uzuq, bu kungi chinakam nurlar xijolatidan teskari borgan bum!...*

Judayam kuchli kinoya, istehzo va nafratga to‘la bu so‘zlar hech bir vaznga va shaklga tusha olmasligi aniq. Ijodkorning emotсional-ruhiy holati shu qadar kuchliki, u bor dardini sochma tarzda, erkin shaklda berishni istagan.

Cho‘lponning “Tun” she’ri alohida ahamiyatga ega asarlardan biridir. Bunda shoир ustiga kelayotgan qora bulutlar, zulmat to‘la tunlar, qatag‘on shabadasi esayotgani, hayot intihosi sari yaqinlashayotganini sezgandek bo‘ladi:

*...Oh, tunning qalin pardasi  
Qanday gunohlarni yashirmas.  
Oh, tunning tovushsiz na’rasi  
Hech jonni qo‘rquitmay qolmas.  
Tunning yashirin quchoqlarida  
O‘limlar, qonlar to‘lgandir.  
Uning aldamchi bog‘larida  
Qancha yosh gullar so‘lgandir<sup>202</sup>.*

Bu she’rda shoир sevikli yoridan najot kutib, uni qop-qorong‘u tundan qutqarishni so‘raydi. Chunki tun juda qo‘rquinchli, unda hamma narsa: “gunohlarni yashir”ish, “yashirin quchoqlarida o‘limlar, qonlar to‘l”ishi, “yosh gullar so‘l”ishi, “tomchi suv” ham

<sup>200</sup> Nafsi ammora yomon yo‘lga undovchi nafs.

<sup>201</sup> Yenglik kafanlar paranjilar ma’nosida.

<sup>202</sup> Ko‘rsatilgan asar. Чўлпон. Асарлар. 4 жилдлик. – Б. 135-136.

“og‘u bo‘l”ishi mumkin... Bu she’rni Cho‘lpon 1922 yilda yozgan. Shoir uni kutayotgan xavfni oldindan sezgandek. Uning tundan, sevikli yoridan uzoqda bo‘lishdan qo‘rqishi bejiz emas edi.

“Uyqu (“Bormayman” dedi” kuyiga)” deb nomlangan she’r uyqu ichidagi pari haqida bo‘lib, muallif unga “ko‘zлari to‘ymay qarar”, butun borliqni ham “ko‘rinma, tur nari” deydi. Shoirning “charchagan, tolgan umidsiz ko‘zлari” unga to‘ymay qaraydi va har qarashda turli o‘ylarga cho‘madi. Shirin va go‘zal uyqudagi pariga razm solar ekan:

*Bu yotish, uyqu na yerda, na xayoliy ko‘kda bor,*

*Bu go‘zal sirli tomosha menda, men o‘ksukda bor,*

deydi. Shoir o‘zini “o‘ksuk” deya ataydi. Uning qalbi o‘ksuk. O‘ksuklik parining shirin uyqusi, yoxud u pariga yetisholmaganining emas, osoyishta va farovon, uyqudek shirin va totli kunlar sog‘inchining ifodasi edi.

*Jim turing, shovqunlamang! Uyqu ichida ul pari,*

*Ko‘zларим to‘ymay qarar, borliq ko‘rinma, tur nari...<sup>203</sup>*

She’r so‘nggi misralarida lirk qahramon shu darajada xotirjamlikni istayaptiki, butun borliqni “ko‘rinma”, “tur nari” deb, faqat uyqudagi “pari”ni tomosha qilishni afzal biladi.

Cho‘lponning “Qizlarning daftariga” deb nomlangan uch misralik she’ri ezilgan, zulm ko‘rgan qizlarga nasihat kabi yozilgan:

*Ko‘ngil, tinmas ko‘ngil, endi yetar, ko‘z tikma gullarga,*

*Go‘zaldır, yoshdir ul gullar... faqat aldanma unlarga*

*Ki, qizg‘onmas, ko‘ngil qo‘ymas seningdek oqko‘ngillarga<sup>204</sup>.*

Cho‘lponning ishqiy mazmunni ifodalovchi bu she’ri ko‘ngil-gul timsollarida yaratilgan. Shoir “O‘zbek qizi uchun”, “Sharq qizi”, “Buzilgan o‘lkaga”, “O‘zbek qizi”, “Navro‘z kunida” she’rlarida o‘zbek qizining fojeiy qiyofasini tasvirlasa, “Qiz qo‘shig‘i”, “Chimmat qo‘shig‘i” she’rlarida o‘zbek qizlarining holatini qafasdagi qush holati bilan ifodalaydi, “Barg”, “Chechak” obrazlari orqali himoyaga muhtoj millat timsolini ifodalasa, “Go‘zal” she’rida esa ham ilohiy, ham majoziy mazmundagi yorni, go‘zallik siy wholemosini tasvirlaydi. Cho‘lponning lirk merosi poetik obrazlar olamini o‘zida tajassum etgani bilan ayricha.

<sup>203</sup> Ko‘rsatilgan asar. Чўлпон. Асарлар. 4 жилдлик. I жилд. – Б. 68.

<sup>204</sup> Чўлпон. Кўрсатилган асар. 1-жилд. Б. 134.

### **III BOB. JADID NASRIDA XOTIN-QIZLAR OBRAZI EVOLYUTSIYASI**

#### **3.1. Xotin-qizlar obrazi – milliy ruh talqini vositasi sifatida**

Ayollik sultanatining biz bilmagan sinoatlari ko‘p. Buni har bir millat o‘zicha kashf etadi. Har bir ayol o‘zida milliylik, milliy ruhiyat, milliy xarakterni tajassum etadi. Har kim o‘z millati bilan faxrlangani kabi ayollari bilan faxr etmog‘i lozim. XX asrga kelib asrlar davomida sayqallanib kelayotgan ayollik sultanati har jihatdan takomillashish sari qadam otdi. “Ayollik sultanati – bu nazokat, nafosat va sabru qanoat sultanatidir”<sup>205</sup>, - deydi J.J.Russo. Ayollik sultanati erkaklik sultanatiga qaraganda shunchalar serfayz va mukammalki, eng kuchli erkaklar ham unga na ma’naviy, na jismoniyligi tazyiq o‘tkaza olmaydi. Zaif, ilmsiz, johil va mutaassib insonlargina zo‘ravonlik ko‘rsatishi mumkin. O‘zbek ayolining milliy o‘ziga xos xarakteri jadid ziyyolilari yaratgan xotin-qizlar obrazi va ulardagi milliylik xususiyatlarida turli rakurslarda bo‘rtib ko‘ringan.

Ming yillarning jamiyati belgilab bergen axloqiy me’yorlarga amal qilishda erkak va ayollarda yetishmaydigan barqarorlik biz o‘rganayotgan davrda ham, keyin ham eng katta muammolardan biri bo‘lib qoldi. XX asr boshida yaratilgan xotin-qizlar obrazidagi milliy ruhni his qilmoq uchun, avvalo, ayollardagi eng yetakchi jihatlarni tasnif qildik. Ta’kidlash kerakki, millatimiz ayollari har vaqt farishtadek beg‘ubor, ibo-hayoli, latofatu nazokatli, go‘zal axloqli va iffatli degani emas. Jadid nasri namunalari tahlili bu sultanatda ayyorlik, makr-hiyla, nayranglar ham bisyor ekanini ko‘rsatadi.

Jadid nasri yangi zamon ayoli obrazi yaratilgani jihatidan o‘tmish adabiyotidan alohida ajralib turadi. Yangi zamon ayoli obrazida xotin-qizlarning zohiriyligi go‘zalligi va botiniy olami uyg‘un tasvirlangan. Ikki jins o‘rtasidagi muhabbat jadid nasrida Vatan va millat sevgisi bilan mutanosiblik kasb etdi, ayol oila bekasi bo‘lishi barobarida ilm-u ma’rifatni egallab, jamiyatda munosib o‘rin egallashi zarurati talqiniga urg‘u berildi. Yangi zamon ayoli onalik

---

<sup>205</sup> “Царство женщины – это царство нежности, тонкости и терпимости” – Ж.Ж.Руссо.

va xotinlik vazifalarini ado etish bilan birga tadrijiy ravishda siyosat va hokimiyatga ham aralashuvi mumkin bo‘la bordi. Biroq bir vaqtning o‘zida, ayol kundoshlik balosi va baxtsizlik qurbaniga aylangan holatlar ham kuzatildi. Bu kabi zulmlarga isyon ruhi kuchaydi. Afsuski, ulardan ayrimlarida makr-hiyla, xudbinlik singari illatlar ham kuzatildi.

Barcha asarlarida xotin-qizlarni ulug‘lagan Hamza ilm-u ma’rifat targ‘ibida sobit bo‘ldi: “Har bir boylik va taraqqiy ilm va ma’rifatning soyasindadur. Ko‘rasizmi, boshqa millatlardagi xalq ilm uchun yoshgina o‘g‘ul va qizlarni Ovro‘podan Amriqoga, Osiyodan Ovro‘pog‘a, demak, to‘rt-besh yil musofur qilib yuboralar. Loaqal siz ko‘z oldingizda bo‘lgan tuzemnicheskiy mакtablarina bering! Shoyad kelajakdagi og‘irliklardan sizning tarbiyangiz soyasinda salomat qutqorulsun”, degoningda lablarni burub, ajablar qilurlar...”<sup>206</sup>. Darhaqiqat, ayni shu zamonda xalqimiz ilmu ma’rifatli, millatparvar yoshlarga har doimgidan ham ko‘ra ko‘proq ehtiyojmand edi.

Yurt ravnaqi va oila saodati bevosita tarbiyadan boshlanadi. Oilada er va xotinning maqsadi-yu matlabi bir bo‘lgan taqdirdagina jamiyat rivoj topadi. Aks holda Fitratning “Oila munozarasi”dagi kabi er va xotin o‘rtasidagi munozaralar, asrlar o‘tsa-da, muammoligicha qolaveradi. Ustoz H.Boltaboev: “Ayollarning haq-huquqlarini erkaklarnikidan kam emasligini, shundan kelib chiqib, ularning jamiyatdagi mavqeい ham erkaklarning ijtimoiy darajasida ekanini, bizningcha, Fitrat jadidlar ichida nisbatan birinchilardan bo‘lib e’tirof etdigina emas, balki isbot etdi ham”<sup>207</sup>, - deb aytgani bejiz emas. Fitratning “Oila”, “Rahbari najot” kabi risolalari buning yorqin dalilidir. Fitratning “Munozara”<sup>208</sup> asarida ham har tomonlama yetuk avlod tarbiyasida ayollarning o‘rni tengsiz ekani qayta va qayta ta’kidlangan.

<sup>206</sup> Каримов Н. Ҳамза Ҳакимзода Ниёзийнинг XX аср ўзбек адабиёти тараққиётидаги ўрни ва аҳамияти // Ҳамза ва XX аср ўзбек адабиёти. Мақолалар тўплами. Нашрга тайёрловчи З.Қобилова. – Фарғона, 2019. – Б. 38.

<sup>207</sup> Болтабоев X. Фитрат ва жадидчилик. – Т.: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2007. – Б. 149.

<sup>208</sup> Qarang: Eshmurodova G. Abdurauf Fitratning “Munozara” asarida ma’rifatparvarlik g‘oyalri / Educational Research in Universal Sciences. Volume 2 | Issue 2 | February, 2023. – P. 184-188.

Mazkur faslda jadid nasridan o‘rin olgan ayollar obrazi va ulardagi milliy ruh talqini masalasini tadqiq etishda o‘rni bilan xronologik, janr jihatidan (hikoyadan boshlab romangacha) va tematik jihatdan yondashamiz. Ma’lumki, XX asr yangi o‘zbek adabiyoti shakllanishi Yevropadan realizm tendensiyalari, roman, drama singari yangi janrlarning kirib kelishi bilan chambarchas bog‘liq. Mulohazalarmizni ham she’riyat, ham nasr, ham drama janrida sermahsul ijod qilgan Hamza Hakimzoda Niyoziy asarlari bilan boshlashni mantiqli topdik. “*Jisman va ruhan millatparvar jadid*” (N.Jabborov) Hamza o‘z ijodi bilan yangi o‘zbek adabiyotining shakllanishiga katta hissa qo‘sghan va jadidchilik g‘oyalarini ilgari surishda jonbozlik ko‘rsatgan adiblardan biri bo‘lib, ilk milliy roman chiligimizga (Hamza asarlari roman janri talablariga javob bermagani uchun ularni roman emas, roman yozish uchun ilk urinish sifatida e’tirof etiladi) tamal toshi qo‘yganlardan edi.

Ammo ilmni targ‘ib qilgan va jaholatni qoralagan Hamza davr, siyosat, mafkura tazyiqiga uchrab, jaholat qurboni bo‘ldi. Hamza shaxsiga xolisona ta’rif bergen prof. N.Jabborov shunday deydi: “...sho‘rolarning qatag‘on qilichi millatning ne-ne zakiy farzandlari joniga xatar solgan murakkab va ziddiyatli davrlarda Hamza ijodida murosaga moyillik, komfirqa mafkurasi ta’siriga yon berish tendensiyasi sezilib turadi. Biroq u jisman va ruhan millatparvar jadidlar safida turgani, ona-Vatanini dunyoning rivojlangan davlatlari, jondan aziz millatini jahonning mutaraqqiy xalqlari qatorida ko‘rish orzusida yashagani ham haq rost”<sup>209</sup>.

Hamzaning «Uchrashuv» (1916), Mirmuhsin Shermuhammedovning «Befarzand Ochילדiboy» (1914) singari asarlari to‘liq yetib kelmagan. Faqat «Uchrashuv»dan (ikkinchi nomi “To‘rt ishq”) atigi 15 beti bizgacha yetib kelgan. Muallif Salima, Shirin kabi obrazlar bayonida xotin-qizlardagi ibo, hayo hamda oilaparvarlik xususiyatlariga yuqori baho beradi, bu orqali mukammal turmush uchun ayol ham mukammal bo‘lmog‘i zarurligini isbotlaydi. “Uchrashuv” orqali oila, jamiyat taraqqiyoti uchun ayolning barkamol bo‘lishi lozimligi haqidagi xulosa anglashiladi. Zero, asar nomidayoq ramziylik bor. 16 yoshga kirgan

<sup>209</sup> Жабборов Н. Ҳамза ва жадидчилик // Ҳамза ва XX аср ўзбек адабиёти. Мақолалар тўплами. Нашрга тайёрловчи Зебо Қобилова. – Фарғона, 2019. – 117 б.

yosh, beg‘ubor, ma’suma qiz Shirin avval Abror, so‘ngra Yusuf bilan ilk bor uchrashganida ikki yigitning ikki xil tabiatи, dunyoqarashi, ma’naviy-ruhiy olamiga duch keladi. Uchala qahramonning uchrashuvida yoshlarning ilmu ma’rifat bilan uchrashuvi nazarda tutilgani ehtimoldan holi emas.

Bu ikki yigit timsolida yozuvchi ma’rifatning foydasi, jaholatning zararini ko‘rsatib bergan. An’anaviy mumtoz adabiyotda ko‘ngildoshlar noma yozib, u orqali kechinmalarini bildirishgan. Abror yozish ilmidan bexabarligi, savodsizligi sababli Shirin uchun maktubni birovga yozdirmoqchi bo‘ladi. Yusuf esa dil izhori bitilgan shunday go‘zal maktub yo‘llaydiki, Shirin beixtiyor Yusufga oshiqa boshlaydi.

Abror xotini bo‘la turib, Shirindan umidlanishi, xotini Solihaga: “Seni menga avvaldan-da keraging yo‘q edi, hozirda ham shundog‘, men sendan ajralsam, hech o‘kunmayman, balki shodlanaman. Shul kunni hamisha kutarman!”, deganda xotini unga: “Jonim Abror, men senga umrlik ipdosh, sirdoshmen. Men seni sendan ortuq suyam. Suyuvchiga suyukluni qottiq so‘zi o‘tmiydir. Balki shakar kabi totlandurur. Sen bo‘sh xayol qilma. Men hech vaqt sendan ajralmam. Mayli, seni mendan boshqa suyukluving bo‘lsa, men oni bir-da qizg‘onmiyman. Xohlasang keltur. Men xizmatdan-da qo‘l tortmiyem”, deyishlari Hoji Muinning “Mazluma xotin” dramasidagi Tansuqoyning so‘zлari bilan aynan o‘xhash bo‘lib, o‘quvchida umr yo‘ldoshi oldida qadr-qimmati bo‘lmagan ayollarga nisbatan achinish hissini uyg‘otadi.

Asarda Yusuf, Shirin kabi tarixiy-badiiy shaxslarning nomi kelishi bejiz emas. Yusuf diniy-tarixiy shaxs va go‘zallik ramzi<sup>210</sup>. “Uchrashuv”dagi Yusuf ham go‘zal axloqli va ilmlи shaxs. Buning boisi uning tarbiyasida edi. Yusufning onasi Salima mehribon ona va itoatgo‘y rafiqqa timsoli. Otasi Abdurahmon ikkinchi turmush

<sup>210</sup> “Qur‘oni Karim” nozil bo‘lishi bilan Yusuf obraqi musulmon xalqlari orasida, xalq og‘zaki ijodida va adabiyotida bir necha talqinlarda ishlanib, sayqallanib bordi. IX asrdan boshlab Sharqda 150 dan ortiq “Yusuf va Zulayxo” doston va qissalari vujudga kelgani ma'lum. Faqat turkiy adabiyotda “Yusuf va Zulayxo” haqida 50 ga yaqin asar yaratilgan. Jumladan, Qul Ali, Nosiriddin Rabg‘uziy, Durbek, Haydar Xorazmiy, Mulla Yusuf Yorkandiy, Nozim Hiraviy, Sayqaliy, Xiromiy, Salohiy, Andalib, Hoziq kabi ijodkorlar qissa va dostonlar bitganlar // Шодмонов Н. “Илоҳийнома”да Юсуф образи / <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/nafas-shodmonov-ilohiynoma-da-yusuf-obraqi/>

o‘rtog‘i Soraga aytgan so‘zlaridan shu narsa anglashiladiki, Yusufning xushtabiat, muloyim, xushxo‘yligi hamda qizi Halimaning go‘zal xulqli va har qanday ishni o‘gay onasidan ko‘ra yaxshi eplashi onasi Salima tufayli edi. Yozuvchi bu o‘rinda farzandlar tarbiyasida onaning nechog‘li muhim o‘rin tutishiga ham urg‘u beradi.

Shu o‘rinda Shirin obrazi ham xalq og‘zaki ijodi va mumtoz adabiyotda keng o‘rin olgan an’anaviy obraz. Alisher Navoiy yaratgan Shirin timsolida o‘rta asrlar Sharq ayoliga xos bo‘lgan barcha go‘zal fazilatlar mujassam. “Uchrashuv”dagi Shirin ham, o‘z o‘rnida, jasur, axloqli, ziyoli va ilmlilarni xush ko‘rvuchi obraz sifatida tasvirlangan.

Demak, Hamza asrlardan buyon xalqimizga tanish Yusuf va Shirin obrazlari bilan o‘z qahramonlari o‘rtasida ma’naviy va ruhiy uyg‘unlikni ism vositasida ham ta’min etgan. Ijodkor barcha yoshlarga Yusuf va Shirinni ibrat qilib ko‘rsatishni, xalqning “ko‘zini ochish”ni istagani shubhasiz. Asarning birgina fasli orqali ilm-ma’rifat targ‘ibi, pok muhabbat, sevgida vafo, oilaga sadoqat, erlik va ayollik burchi, farzand tarbiyasida onaning muhim o‘rin egallashi, qolaversa, yoshlarning hoyu-havaslarga, his-tuyg‘ularga berilgan “uchrashuv”lari umri juda qisqa bo‘lishi, nafs va hirsni tiyib, oqibatni o‘ylab o‘rnatilgan munosabatlargina kelajakda xayrli natijalar berishi haqidagi fikr anglashiladi.

Ilm-ma’rifat bilan erk, ozodlikka erishish – jadid ijodkorlarining bosh mavzusi bo‘ldi. Ular orasida Cho‘lpon “tong yulduzi” bo‘lsa, uning dunyosi ona zamindan to yuksak gumbazga qadar katta olam. U ozodlik va erkinlikni faqat yurtdagi er yigitlar ozodligi bilan o‘lchamay, mazkur so‘z zamirida ayollar erkinligini ko‘rganidan asarlarini shu mavzuga bag‘ishlagan.

Cho‘lpon asarlarining ko‘pchiligida orzu-istiklari ko‘kkasovurilgan, erkaklar tomonidan qadr-qimmati yerga urilgan ayollar taqdiri qalamga olingan. Yozuvchi Cho‘lpon shoir Cho‘lpon bilan uyg‘un badiiy tasvirlar yaratadi. “Oydin kechalarda” (1922) hikoyasida qaynona va kelin taqdiri aynan o‘xhash, ikkisi ham turmush o‘rtog‘idan mehr ko‘rmagan, ikkisi ham erini kutib, tunlarini bedor o‘tkazgan ayollar. Hikoyaning boshida kampirning cho‘chib uyg‘onishi o‘quvchi qalbiga g‘ashlik soladi. Yozuvchi o‘z g‘oyasini ilk so‘zlardayoq ifodalaydi: “*Go ‘riston va mozorlardag‘ina*

*bo‘laturg‘an chuqur bir jimjitlik... ”.* Hamma uyquga tolgan yarim tunni boshqa o‘xshatish va sifatlashlar bilan ham ifodalash mumkin edi. Lekin mazkur tasvir bilan yozuvchi hikoya qahramonlarining “go‘riston” kabi sukunatlari, zimiston hayotini ko‘z oldimizga keltirishni maqsad qilgan. Adabiyotshunos D.Quvvatova bu qiyoslashni adibning “badiiy topilmasi”<sup>211</sup> deydi. “*Ko‘ngul buzaturg‘on yig‘i tovushi*” o‘z kelininig yig‘isi ekanidan bexabar Zaynab kampir: “*Hamma tinch, rohat uyquga tolg‘on bir zamonda qalbini yaralab yig‘laguvchi qanday baxtsizdir?*”, deb o‘ylaydi. Vaholanki, o‘sha baxtsiz xuddi o‘zi kabi qismatdosh kelini edi... Kelinchak bilan kampirning tundek zulmat qoplagan qalblarini birgina oy shu’iasi taratgan “oydin kechalar” yoritar edi, xolos. Ayollik qismatining qorong‘u ko‘chalarida yashayotgan kampir va kelinchak taqdiri millat ayollariga xos mute’lik, erksizlikka ishora edi.

Bu kabi fojialarning sabablari va yechimini Abdurauf Fitratning “Oila” asarida o‘qiymiz: “... biz turkistonliklar orasida haqiqiy baxtiyor va saodatli oilalar juda kam, balki yo‘qdir. Agarda g‘ayrat qilib ahvolimizni birma-bir tadqiq qilsangiz, men arz qilgan badbaxtliklarni o‘zingiz ko‘rasiz, aksar oilalarimizning ahvoli shunday ekan, ya’ni oilalarimiz orasida intizomsizlik, muhabbatsizlik va baxtsizlik so‘nggi darajaga yetgan ekan, millatimiz ham intizom, birlik va ittifoqlik yuzini ko‘rmaydi. Shunday ekan nima qilish kerak? Javob shunday: uylanish bir erkak va bir ayolning ittifoqidir. Alalxusus, muhabbat va mehr bilan hayotda sherik bo‘lish demakdir... Xotin erkak holidan va yigit qiz ahvoldidan yaxshigina xabardor bo‘lib, keyin turmush qurishlari lozim”<sup>212</sup>.

Cho‘lponning “Qor qo‘ynida lola” (1923) hikoyasi dugonalari bilan to‘p o‘ynab yurgan, yosh, go‘zal, sho‘x va shaddod qizaloq Sharofatxon hamda uning johil otasining hoyu havasi bilan xazon kabisovurilgan taqdiriga bag‘ishlangan. O‘tgan asr boshida din ulamo va amaldorlari, xususan, eshon va to‘ralarni “boshga ko‘tarish” yanada avj olgan edi. Hikoya qahramoni Samandar

<sup>211</sup> Кувватова Д. Чўлпоннинг “Ойдин кечаларда” хикояси ва тизимли таҳлил имкониятлари // Чўлпон ижоди ва замонавий адабий жараён. Конференция материаллари. – Т., 2018. – Б. 182-187.

<sup>212</sup> Fitrat Abdurauf. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – Toshkent: Cho‘lpon, 2019. – B. 26-27.

akaning “qarib quyulmag‘an, achib suyulmag‘an” eshondan ikkita xotini ustiga Sharofatxonni so‘rab kelgan sovchilarni eshitishi zahotiyoy suyunchi ichiga sig‘may: “*Bitta qizimiz bo‘lsa, hazrat eshonimizg‘a tutdik, sadag‘alari ketsun!*”, deyishi fikrimiz isbotidir. Ona Qumribush Samandar akaning javobini eshitgach, oqarib, ko‘karib, suvratdek qotib qoladi. Biroq o‘zbek xonardonida erkak kishining gapi gap, so‘zi so‘z. Ona biror so‘z aytishga ojiz. Ichini it tirmab yotgan ona o‘z gapini eriga o‘tkaza olmasligini yaxshi biladi. Uning o‘z farzandi taqdiriga aralashishga haqqi yo‘q. Bunday manzaraga adibning “Kecha va kunduz” romanida ham duch kelamiz. Qumribushning ruhiy olamida ro‘y bergen “oqarish, ko‘karish, suvratdek qotib devorga suyanib qolish” holati Qurvonbibida isyon shaklida namoyon bo‘ldi. Biroq zamon oqimiga qarshi bora omaslik, er va xotin munosabatlaridagi nosamimiylilik, iztiroblarini to‘rt devor osha oshkor etmaslik va imkoniyatlarning cheklanganligi Qurvonbibini aqldan ozdiradi.

O‘z dardini ayta olmagan ona singari qiz ham ojiz. Mahalla-ko‘yda “Bu qiz qaysi Xudo yarlaqaganniki bo‘lar ekan? Kimning uyini obod qilar ekan?” deb bosh og‘ritgan odamlar endi Sharofatxonning taqdiriga achinishadi, xolos. “Hali bolaligi bilan xo‘splashib ulgurmagan go‘zal Sharofatxon izzat-nafsi qondirishu piriga yaxshi ko‘rinishdan boshqasini o‘ylamagan otaning xudbinligi tufayli, vadavang to‘ylar bilan qo‘sh xotinli qari eshonga uchinchi xotin bo‘lib turmushga chiqdi”. To‘y kuni eshonning nevarasi qatori qizni aravadan tushirishini ko‘rgan Mamat ismli qorovulning so‘zlari asarning butun mohiyatini ochib beradi: “*Lolaning ustiga qor yog‘di!*...”.

Yuqorida ham ta’kidlaganimizdek, “Qor qo‘ynida lola” hikoyasi mazmun-mohiyati va bosh qahramon taqdiri nuqtai nazaridan “Kecha va kunduz” romanidagi Zebi obrazini yodga soladi. Cho‘lponning 1923 yildagi hikoyasi bilan 1936 yildagi romani o‘rtasidagi mushtarakliklarni boshqa olimlar ham o‘z tadqiqotlarida keltirishgan<sup>213</sup>. Xuddi shu o‘rinda Cho‘lponning Zebi va Sharofatxoni bilan Qodiriyning Kumushi taqdiri o‘rtasida ham yaqinlik bor. Ular taqdirini bog‘lab turuvchi vosita – milliy urf-

<sup>213</sup> Улугов А. Чўлпон насида ҳаёт ҳақиқати фалсафаси // Чўлпон ижоди ва замонавий адабий жараён. Конференция материаллари. – Т., 2018. – Б. 139-168.

odatlarimiz. “O‘tkan kunlar” romanida Kumushbibi ilk ko‘rishdayoq ko‘ngil qo‘ygani – Otabekka turmushga chiqadi. Lekin Kumush ota-onasiga kimnidir sevishini aytmaydi. U ota-onasiga bo‘ysunib, nikohga rozi bo‘ladi. Kuyovning kimligini tasavvur ham qilolmagan Kumush nikoh kechasida “Siz o‘shami?” deya savol beradi va “kutilmagan baxt”ga muyassar bo‘ladi. Demak, Kumush, Zebi yoxud Sharofatxon singari qizlarning o‘zлari tanimagan-bilmagan insonga uzatilishi oddiy holat bo‘lib, asrlar davomida ursfa aylanib qolgani rost. To‘g‘ri, Kumushning baxti chopdi. Biroq bu baxt uzoqqa cho‘zilmadi. Mazkur asarlar va qahramonlar taqdiri biri ikkinchisiga o‘xhashi bejiz emas. Chunki real hayot shuni taqozo etardi.

Jaholat asoratidan qocholmagan yana bir ojiza qiz taqdiri Cho‘lponning “Novvoy qiz” (1927) hikoyasidan o‘rin olgan. Ikki ojiza ayol – ona va bola abgorligi O‘lmasboydek noplak kimsalar tahqiriga sabab bo‘ladi. “Dengiz shu qadar buyukligi bilan hamma vaqt qirg‘oqlardan yengiladi. Achchig‘i kelganda, g‘azabi qaynaganda zo‘r-zo‘r to‘lqinlar, kichik-kichik mavjlarni qirg‘oqning tosh-metin gavdasiga qarab otadi. Qirg‘oq, yuqorilarga ko‘tarilib ketgan marmar qirg‘oq koshki pinagini buzsa! Bechora to‘lqinlar, mavjlar sinib mayda-mayda bo‘lub, yana dengizning ko‘ksiga tushadi. Dengiz ularni yana silab-siypab boshini bir yerga qovushtirib, to‘plab, yana qirg‘oqqa otadi. Yana bo‘linish, yana parchalanish. Tuganmas olishish!”. Tabiatning betakror poetik tasviri qahramonlarning ichki ruhiy olamini his etish uchun muhim detal hisoblanadi. Adib shu parchanining o‘zigayoq hikoyaning butun syujetini sig‘dirgandek. Novvoy qizning O‘lmasboyga qarshi nafrati qanchalik ustun bo‘lmasin, biroq uni yengishga ojiz. Adib “*sher*”, “*qilich*”, “*ajdar*”, “*xanjar*”, “*chayon*” kabi ramzlarni keltirar ekan, ulardan nafaqat mazluma xotinlar, balki butun insoniyat qutulmog‘ini istaydi. Cho‘lponning tenglik,adolat va yaxshilik g‘alabasi muqarrarligi haqidagi orzusi hikoya oxiridagi sud jarayoni lavhalarida ifoda etilgan. O‘lmasboy novvoy qiz nomusini poymol qilishda ayblanishiga qaramasdan, sud zalida kibru havo bilan o‘tiribdi. Chunki uning davlati “oqlag‘uvchilarining vaysashi”yu, “sudning tinch o‘tishi”ga asos hozirlagan edi. Adib hikoya so‘ngida kutilmagan vaziyatni kitobxonga taqdim etadi. “Papka” ko‘targan paranjisiz yosh ayol sud

zalida paydo bo‘lar ekan, bundan nafaqat sud ishtirokchilari, hatto o‘quvchi ham hayratga tushadi. Xotin-qizlar sho‘basi raisasi darajasiga yetgan bu ayol hikoyaning boshida nomusi poymol etilgan novvoy qiz edi. O‘zbek ayoliga xos sabr va qanoati tufayli oddiygina novvoy qiz jamiyatda o‘z o‘rnini, ijtimoiy-siyosiy mavqeini topgani kitobxonni quvontiradi. Dengiz – qizning g‘alabasi, qirg‘oq – O‘lmasning mag‘lubiyati. Adib shunga ishora qiladi. Hikoya O‘lmasboyning yengilishi bilan yakunlansa-da, biroq muallif hayotda hali o‘lmasboylar mavjudligidan, ularning g‘alamis niyatlari u yoki bu shaklda davom etishidan ogohlantirgandek bo‘ladi. Cho‘lpon bu qahramonga O‘lmas degan ism tanlagani bejiz emas edi.

Cho‘lpon “Asarlar”iga kiritilmagan hikoyalardan biri “Gavharoy” (1929) bo‘lib, uning bosh qahramoni bizga tanish bo‘lgan Sharofatxon va Zebi obrazlari bilan qismatdosh. Vahimali tun tasviridan boshlangan ushbu hikoya Gavharoy bilan O‘roqboyning ushalmagan orzulari, toptalgan sevgisi va sevishganlar fojasiga bag‘ishlangan<sup>214</sup>. O’n olti yoshli Gavharoy bilan podachi yigit O‘roqboy bir-birini sevishar edi. Adib qiz portretini chizish orqali uning ichki va tashqi dunyosi go‘zalligiga ishora qiladi: “Gavharoy kelishkan gavdali, xipcha bel, anor yuzli, oppoq bo‘rukday to‘la, do‘nduqqina bir qiz edi”; “Hali uning yonbag‘rida besh barmoq singari tizilgan qalin, quyuk ko‘k to‘qayning qalbida “tilsiz”, “illi” hayvonlar tomonidan gunohli-gunohsiz qurbon bo‘lgan mazlumlarning ohi, zori chegarasiz...”<sup>215</sup>. Adib bu yerda xuddi “Novvoy qiz” hikoyasidagi singari tabiat detallaridan unumli foydalangan.

Mullo Bozor ismli davlatmand bir kishining olti nafar xotini bo‘lishiga qaramay, Gavharoya oshiq bo‘lib yuradi. Hukumat ma’murlarining O‘roqboyni bir yilga badarg‘a qilganidan foydalanib Mullo Bozor otasidan biroz hayiqqani uchun ukasi Xudoyorxon nomidan Gavharoyning uyiga sovchi jo‘natadi. To‘y bo‘ladi. To‘ydan keyin o‘n oy o‘tgach, Xudoyorxon otdan yiqilib o‘ladi. O‘z ukasiga mehri “bo‘lakcha” Mullo Bozor bu hodisadan boshi osmonga yetadi. Ana endi u Gavharoyni o‘ziga xotin qilib olish

<sup>214</sup> “Gavharoy” hikoyasiining to‘liq matni hozirga qadar biror joyda e’lon qilinmagan. Hikoya haqidagi ma’lumotlarni akademik Naim Karimov va tadqiqotchi Dilfuza Matqurbanova larning maqolalari orqali aniqladik.

<sup>215</sup> Matqurbanova D. Cho‘lponning “Gavharoy” hikoyasida ayol taqdiri tasviri // O‘zbek tili va adabiyoti, 2021, 2-son. – B. 94-98.

payiga tushadi. To‘yi bo‘lgandan beri kun sayin so‘lib borayotgan Gavharoyning ko‘nglida endigina sevgilisi O‘roqboyga yetishish umidi kurtak ochgan bir paytda, qozi Zulpon hukmni: “Gavharoy binti Pirimqul qizi, Mullo Bozorning shar’iy xotini bo‘lg‘onlig‘idan erining butun xashtiyaklari bilan barobar uning uyida qoladi...”, deya boshlashi bilan “Hukmning boshlang‘ichinigina eshita olg‘on bemor va kasal Gavharning badani toshdek sovidi, qalbi to‘xtadi, ko‘zlar mangu yumuldilar...”<sup>216</sup>. Bu va yuqoridagi hikoyalar orqali Cho‘lpon XX asr boshlarida Turkistonda ro‘y bergan adolatsizliklar, xotin-qizlarning boshiga tushgan azob-uqubatlar, o‘nlab-yuzlab Gavharoylar taqdiri oyoqosti bo‘lganini ko‘rsatmoqchi bo‘ladi. Lekin xalqning “ko‘zlar uzoq ufqqa tikilgan”i, tadqiqotchi D.Matqurbanova ta’kidlaganidek, “ertaga yana tong otishi muqarrarligini tasvirlab, Cho‘lponning ertangi kun yorug‘ bo‘lishidan katta umid qilganini anglash mumkin”<sup>217</sup>.

Xotin-qizlarning haq-huquqlarini toptaydigan ko‘pxotinlilik muammosi juda ko‘p qizlarni baxtsiz qilgan edi. Ayollarning ko‘pxotinlilik qurboni bo‘layotgani, tubanlik va qoloqlik ichida qolayotgani Hamza, Cho‘lponlar ijodida ko‘p murojaat qilingan mavzulardan biri. Bu **millat muammosi** edi. Bu muammo bilan bot-bot to‘qnash kelgan boshqa musulmon xalqlari tarixiga nazar tashlansa, ularda ham xotin-qizlar ozodligi muammosi ko‘tarilgan<sup>218</sup>.

---

<sup>216</sup> Matqurbanova D. Cho‘lponning “Gavharoy” hikoyasida ayol taqdiri tasviri // O‘zbek tili va adabiyoti, 2021, 2-son. – B. 94-98.

<sup>217</sup> Matqurbanova D. Cho‘lponning “Gavharoy” hikoyasida ayol taqdiri tasviri // O‘zbek tili va adabiyoti, 2021, 2-son. – B. 94-98.

<sup>218</sup> Qarang: <https://cyberleninka.ru/article/n/arabskoe-vozrozhdenie-i-zhenskiy-vopros-v-egipte-v-kontse-xix-nachale-xx-v/viewer> // Turk Svetlana Nalbievna “Арабское возрождение” и женский вопрос в Египте в конце XIX - начале XX в. “Misr feminizmining otasi” yurist, yozuvchi, publisist (kelib chiqishi kurd) Qosim Amin (1865-1908), bo‘lgan. U o‘z asarlarida arab ayollariga teng huquqlar berishni targ‘ib qilgan. 1899 yilda Q.Amin “Ayollarni ozod qilish” kitobini chop etgan, unda u ko‘pxotinlilikni (poligamiyani) taqiqlash, erkaklarning ajralish huquqini cheklash, ayollarga ta’lim olish imkoniyatini berish, ishslash huquqini kafolatlash va hijob (chodra)ni yo‘q qilish talablarini qo‘ydi. Ayollarga zohidlik buyurilgan Qur’on matnlariga (33-sura, 32 va 53-oyatlar) tayanib, u asosli ravishda zohidlik faqat payg‘ambarning xotinlariga xos ekanligini aytadi. Kitob, shubhasiz, Arab dunyosida ommaviy norozilikka va shiddatli bahsmunozaralarga sabab bo‘ldi. Qosim Aminning hijob va zohidlikni yo‘q qilishga qaratilgan radikal da’vatlari uning g‘arbparastlikda ayblanishiga sabab bo‘ldi, musulmon ulamosi uni zindiq (asosan, moniylik, mazdakiylik va xurramiylar ta’limoti vakillarini anglatuvchi istiloh; keng ma’noda “Allohga ishonmovchi”, mo‘minning ziddi) deb e’lon qildi. Ko‘pchilik Qosim Aminni musulmonlar axloqini buzishda va jamiyat tizimini zaiflashtirishda aybladi.

Misr malikasi Kleopatraga bag‘ishlangan hikoya (1923) Cho‘lponning iste’dodini yana bir bor namoyon etgan. Bu obrazda Cho‘lpon ikki qarama-qarshi qutbni tasvirlaydi. Biri cheksiz qudratga ega mamlakat qirolichasi, ikkinchisi – oddiy ayollilik baxtini topolmagan ojiza. Musofir Misr Kleo‘patrasining navbatdagi qurbaniga aylanmaydi, u Nil timsohlariga yem bo‘lmaydi. U sevgisiga sadoqatli oshiq sifatida o‘z vataniga yo‘l oladi. Biroq Amudaryoning to‘lib-toshgan suvlari musofirning sevgisiga yetishishiga to‘sinqilik qiladi. Musofir va Amudaryo Kleo‘patrasi birga bo‘lolmaydi. Misr malikasi Kleo‘patra ham mutlaq hokimiyat sohibasi bo‘la turib, ayol sifatida baxtsiz edi. Shu bois hikoya xotimasi ham havas qilarli emas. Na u niyatiga yeta oldi, na musofir Amudaryolik Kleo‘patraga yetishdi. Kleo‘patra Turkiston va Turkiston ayollarini kabi baxtsiz edi. Hikoyadagi “Sharq adabiyotiga xos romantik tuyg‘u-kechinmalar”, “sevgini xayolot qadar mutlaqlashtirgan”lik<sup>219</sup> kabi jihatlar asarning ishqiy-romantik mavzuda yozilganidan dalolat bersa-da, biroq unda jahon tarixida o‘ziga xos o‘rin tutgan tarxiy shaxs Kleopatra vasfi kelishi beziz emas. Cho‘lponning bu tarxiy shaxsga murojaat etishining boisi, mustamlaka kishanlaridan ozod bo‘lish uchun Kleopatra singari jasur va oqila ayollar millatimiz uchun zarur ekanini ta’kidlash edi.

Cho‘lpon hikoyalari ichida eng yengil va tabassum bilan mutolaa qilinadigan asar bu “Nonushta”. Hikoyani o‘qigan kitobxon beixtiyor samimiyligi va beg‘ubor o‘zbek oilasi muhitiga tushadi. Oddiy o‘zbek xonadoni – qizlar, ularning onasi va kelini. Ayollar timsolidangina iborat hikoya kichik epizod – nonushtaga bag‘ishlangan. Nonushtaga tayyorgarlik ko‘rayotgan Fotima ismli qiz bilan singlisi Soliha o‘rtasidagi dialog diqqatga molik:

- *Potishxon, qumg‘oningiz qaynadimi?*
- *Salaybush, yaqinlashib qoldi.*
- *Hali endi yoqalashib kelayotibdir deng.*
- *Endiyoq mushlashib ketadir shu deganingizga!*

An’anaviylik tarafdarlari G‘arb turmush tarziga moslashish Misr ayolining o‘ziga xosligini yo‘q qiladi, deya ta’kid etishdi.

<sup>219</sup> Матёкубова Т. Чўлпоннинг “Килемпатра” ҳикоясида мумтоз адабиёт анъаналари // Чўлпон ижоди ва замонавий адабий жараён. Конференция материаллари. – Т., 2018. – Б. 217-221.

Mana shu savol-javoblar bilan boshlangan asar o‘quvchiga boshdanoq xush kayfiyat, yengil tabassum xadya etadi. Qumg‘onning qaynashi “yoqalashish” yoki “mushtlashish” bilan jonzantirilishi va o‘xshatilishi milliy xonadonning jonli surati. Hikoyani o‘qish juda maroqli. Ikki beg‘ubor qizning suhbat qalbni yorishtiradi. Hatto ona Saodatbuning qizlarini koyib “qarg‘ash”larida ham beg‘uborlik va samimiylilik bor. Hikoyada o‘zbek xonadoni, o‘zbek qizlari va o‘zbek onalariga xos jihatlar o‘ziga xos badiiyat bilan ochib berilgan. Har bir obraz hayotiy epizodlarda va real chizgilarda tasvirlangan. Birgina nonushta lavhasi orqali Cho‘lpon milliy kolorit, xarakter va o‘zlikni ko‘rsatib berishga muvaffaq bo‘lgan. Adabiyotshunos N.Vladimirova ham “Nonushta”ning tasvir planidan kelib chiqib, adib “milliy turmushning botiniy poeziysi”<sup>220</sup>ni yaratganini ta’kidlaydi. Cho‘lponning ko‘pgina asarlarida uchraydigan g‘am, alam va tashvishni bu asarda uchratmaymiz. Dasturxon atrofida egachi-singil, onayu bola va kelinning suhbatи insonga bag‘ishlagan kayfiyat “o‘zbegimning oilasidan aylanay” deyishingizga sabab bo‘lsa ajab emas. Garchi yeishga choy bilan nonidan boshqa hech narsasi bo‘lmasa-da, oila a’zolari baxtiyor. Ulardagi baxtiyorlik hissi kitobxonga ko‘chadi va betakror estetik zavq uyg‘otadi. Tabiiyki, bu xushvaqtlikning tamalini sabrli, matonatli onalarimiz, opa-singillarimiz qo‘yganini yozuvchi ishonarli tasvirlaydi.

XX asr boshi – eng og‘ir zamonlardan biri bo‘lishiga qaramasdan, dilbar o‘zbek qizi va o‘zbek onasi timsolini yaratgan adib Qodiriyydir. Adabiyotshunos B.Karimov e’tirof etganidek, Abdulla Qodiri inson ruhiyatining musavviri, xalq hayoti va urfatlarining bilimdoni ekaniga bot-bot iqror bo‘lasiz<sup>221</sup>. Yozuvchi yaratgan har bir qahramon millatning o‘ziga xosligini, hech kimga o‘xshamas mentalitetini aniq va ravshan aks ettiradi. Yana bir xaraterli tomoni, Qodiri bosh qahramonlari o‘ziga to‘q xonadonda o‘sigan, savodli va ma’rifatli, sevgisi uchun kurashishga qodir ayollar obrazidan iborat bo‘lsa, Cho‘lpon qahramonlari nisbatan

<sup>220</sup> Владимирова Н. Чўлпон – ҳикоянавис // Чўлпоннинг бадий олами. – Т., 1994. – Б. 109-112.

<sup>221</sup> Bu haqda qarang: Карим Б. Абдулла Қодирий феномени. – Тошкент: Info kapital group, 2019. – Б. 115

oddiy, savodi chiqmagan xonodon ayollari bo‘lib, ular tabiatida mutelik va itoatkorlik ustunlik qiladi. Obrazlar biri ikkinchisini mutlaqo takrorlamaydi. Kumush, Ra’no va Zebida ham romantik kayfiyat, his-tuyg‘ular, ichki kechinmalar juda go‘zal ta’rif va tavsifga ega. Ayol kishi uchun eng avvalo, oilada totuvlik va xotirjamlik yaratish eng asosiy vazifa va matlab sanaladi. Lekin bu faqatgina ro‘zg‘or yumushlarini bajarish yoki ertayu kech to‘rt devor ichidan chiqmaslikni bildirmaydi. Xususan, Qodiriy yaratgan Kumushni biz biror marta uy yumushlarini bajargan holatda ko‘rmaymiz. To‘g‘ri, u yashayotgan xonadonda xizmatkor-cho‘risi bor. Lekin uning ma’naviy kamoloti, tarbiyasi, adabi va axloqi oiladagi barqaror va farovon hayot uchun zamin bo‘ladigan asosiy jihatlar. Erga sadoqat, oilani muqaddas sanash – bular o‘zbek ayoliga singib ketgan xususiyatlar bo‘lib, ular har bir qahramonda o‘ziga xos syujet chiziqlarida aks etgan.

Asarda ishtirok etgan har bir ayol obrazi asar mohiyatini mukammal ochib berishda o‘z o‘rniga ega. Biroq, shuni alohida ta’kidlash joizki, ijodkor Otabek va Kumush o‘rtasidagi sevgi-muhabbat munosabatlariga Anvar va Ra’nodan ko‘ra ko‘proq romantik ruh bag‘ishlagan.

Kumush – oshiq edi. U o‘z kechinmalari, his-tuyg‘ularini hech kimga bildirmaydi. Chunki odad shu, sevgi ishi – murakkab. Bildirsa, to‘sinqqa uchrab, el ko‘zida odobsiz yoki hayosiz sanalishidan qo‘rqadi, ehtiyyotsizlik tufayli sha’niga gard yuqishidan or qiladi. Agar Kumushbibi “malak” bo‘lmaganida shuncha e’zozu, uyning to‘ri, atlas ko‘rpachalar quchog‘i-yu, par yostiqlarga munosib ko‘rilmidi? Ming-minglab o‘quvchilar qalbini asir qilgan malak – Kumush o‘z zamonusi, o‘z ijodkorininggina ezgu armoni bo‘lib qolmay, bugungi kitobxonni ham o‘ziga maftun etib keladi. Ustoz M.Qo‘shjonov e’tiroficha, “Kumushbibi – chin insoniy muhabbat egasi, shu bilan barobar, u tashqi ko‘rinishda ham, o‘zining nafis harakat va qiliqlari bilan ham o‘sha davr sharq qizlari ichida go‘zallikning namunasi bo‘larlikdir”<sup>222</sup>.

Buyuk tatar olimi Rizouddin Faxriddin “Oila” asarida “Xotunning umumiyl vazifasi” haqida gapirar ekan, “Lekin sevishing hayo bilan

<sup>222</sup> Кўшжонов М. Абдулла Қодирийнинг тасвирлаш санъати (“Ўтган кунлар” романни мисолида). Т., Фан, 1966. – Б. 43.

birlikda bo‘lsin, tarbiyali erlarning aqllarini rom qiluvchi narsa hayodir”<sup>223</sup>, deydi. Darhaqiqat, Kumush Otabekni ana shunday ***hayo*** bilan sevadi. Bu uning milliy, sharqona libosidir. Prof. N.Jabborov ta’kidlaganidek, “Milliy ruhning asosini milliy axloq tashkil qiladi”<sup>224</sup>. Olim “O’tkan kunlar” romanida milliy ruh masalasini tadqiq etib, uni uch yo‘nalishda tasnif etadi: 1) *millat ruhini mujassam etgan o‘ziga xos urf-udumlar, an'analar, qadriyatlar, millatning orzu-armonlari talqini*; 2) *millatning o‘z-o‘ziga tanqidiy ruhda qaray olish salohiyati ifodasi*; 3) *milliy shaxsiyatlarga xos sobit e’tiqodning poetik suvratlanishi*<sup>225</sup>. Tadqiqotimiz ob’ekti bo‘lgan ayollar obrazi xususida so‘z ketganda, uchala tasnifdan birinchisi, ya’ni millat axloqi aynan xotin-qizlar timsolida yorqin namoyon bo‘lganini ta’kidlash mumkin. Urf-udumlar, orzu-armonlar ayollar obrazini har jihatdan ochuvchi omil bo‘lib xizmat qilgan.

Insonda muhabbat paydo bo‘lishining o‘zi baxt va go‘zallik. Muhabbat oddiy emas, oliy tuyg‘u. Asarning “Qutlug“ bo‘lsin” deb nomlangan bobida “*Muhabbat degan narsa juda oz kishilarga nasib bo‘ladigan bir durri bebahodir*”, degan so‘zlar keltiriladi. Shu muhabbat asosida qurilgan asar syujeti insoniylikning barcha go‘zal fazilatlarini ochib beradi. Ma’naviy va ruhiy dunyosi go‘zal insonning sevgiyu sadoqati o‘zi kabi go‘zal bo‘ladi.

Ijodkor orzu va armoniga aylangan olijanob ayol timsolida behad go‘zallikdan tashqari zakovatu shijoatni ham ko‘ramiz. Kumush bilimli va uquvli, zukko bo‘lganligi bois uning barcha xatti-harakatlarida erkinlik, shijoat seziladi. Bu uning oilada o‘zini tutishida, xatni olib xon o‘rdasiga borishdagi jasoratida, Zaynabga nisbatan kundoshlikka sirtdan ko‘ngan bo‘lsa-da, ich-ichidan noroziligida ko‘rinadi. Yana Otabek bilan bo‘lgan suhbat, bahs va munozaralarda ham his qilamiz. H.Lutfiddinovaning fikricha, “o‘shanday daqiqalarda Kumushdagi ma’naviy boylik uning tashqi go‘zalligidan ham ustuvorroq, ulug‘vorroq ko‘rinadi”<sup>226</sup>. Zero, inson

---

<sup>223</sup> Ризоуддин ибн Фахруддин. Оила. Таржимон Зиёев Т. – Т.: Мехнат, 1991. – Б. 20.

<sup>224</sup> Жабборов Н. “Ўткан кунлар”да миллий рух ифодаси // Филология масалалари, 2020. № 2. - Б. 5.

<sup>225</sup> O’sha yerda.

<sup>226</sup> Лутфиддина Х. Ёзувчининг эстетик идеали ва аёллар образи (“Ўтган кунлар” ва “Кеча ва кундуз” романлари мисолида). Филол.фанл.номз. ..... дисс-яси. Т., 1994. Б. 42-43.

tafakkuri va taxayyuli uning maksadi va niyatini belgilaydigan birlamchi asos.

“O’tkan kunlar” romanidagi ayollar obrazini umumlashtirib, ularni quyidagicha tasnifladik: *1-sajiyasi go’zal va ilmli ayollar* (Oftob oyim, Kumushbibi, Oyshabibi, Saodat); *2-ko’ngli toza, biroq fe’li o’zgaruvchan ayollar* (O’zbek oyim, Oybodoq, To’ybeka, Karima otin, Sharofat chevar, Mahinabonu, Mohira oyim); *3-badfe’l va johila ayollar* (Jannat opa, Xushro’ybibi, Zaynab).

### **Ona timsolida tasvir etilgan ayollar:**

**Oftob oyim** – (35 yoshda) yuzidan muloyimlik, eriga itoat, to‘g‘riliq ma’nolari tomib turg‘an;

**O’zbek oyim** – (55 yoshda) chala-dumbul tabi’atlik bir xotin, ammo eriga o’tkir. O’zga xotinlar uning soyasiga salom berib to‘ylarida, azalarida, qisqasi, tiq etgan yig‘inlaridag‘i uylarining to‘rini O’zbek oyimg‘a atag‘an edilar, o‘z xohishiga teskari kelgan haqiqatni ko‘rmaydirgan qiziq bir tabi’atka molik;

**Oyshabibi** – (70 yoshda) Mirzakarim qutidorning onasi, Oftob oyimning qaynonasi, Kubushbibining buvisi;

**Saodatning onasi**, katta o‘g‘li va turmush o‘rtog‘idan juda vaqtli ajralgan ayol;

**Mohira oyim** – Zaynabning onasi.

### **Qizlar obrazi:**

**Kumushbibi** – (17-18 yoshda) qora zulfi, quyuq jinggila kiprak ostidag‘i timqora ko‘zlari, qop-qora kamon, o‘tib ketkan nafis, qiyig‘ qoshlari, to‘lg‘an oydek g‘uborsiz oq yuzi, oq nozik qo‘llari, latif burnining o‘ng tomonida, tabi’atning nihoyatda usta qo‘li bilan qo‘ndirilg‘an qora xoli, qiz suratida ko‘ringan malak, Otabekning sevikli xotini;

**Zaynab** – (17 yoshda) o‘n yetti yoshlar chamaliq, kulchalik yuzlik, oppoqqina, o‘rtacha husnlik, Otabekning ikkinich xotini;

**Saodat** – ilk uchrashuvda 13-14 yoshda, turmushga chiqqanda 16 yoshda, vafot etganda 20 yoshlarda, Usta Alim sevgan va uylangan qiz;

### **Salbiy obrazdagi ayollar:**

**Jannat opa, Puchuq xotin, Sodiqning onasi** – (45 yoshda) yerdan bichib olg‘andek pak-pakana, burni yuzi bilan barobar deyarlik tep-tekis, ko‘zi qoqqan qoziq o‘rnidek chup-chuqur, og‘zi

qulog‘i bilan qoshiq solishar darajada juda katta, yuzi qirq yillik og‘riqlarnikidek sap-sariq, qirq besh yoshlar chamasida bir xotin;

**Xushro‘ybibi** – Zaynabning opasi;

**Xizmatkor ayol (cho‘ri)lar:**

**To‘ybeka** – (45 yoshda) Mirzakarim qutidor xonadoni cho‘risi;

**Oybodoq** – Yusufbek hoji xonadonining xizmatkori, Hasanaling xotini;

**Epizodik obrazlar:**

**Hanifaniso** – Zaynabning yangasi;

**Karima otin, Sharofat chevar va Mahinabonu** – O‘zbek oyimning ko‘ngil tortar qo‘shnilari...

Inson xoh ayol bo‘lsin, xoh erkak bo‘lsin, asl fitrati bilan ajralib turadi. Besh qo‘l barobar bo‘lmas, degan azaliy naql-iborada cheksiz haqiqat mujassam. Qodiriy romanlaridagi xotin-qizlarning hammasi ham ibo-hayoli, mushfiq, oqila va mehru muravvatli personajlarni tashkil etmaydi. Ular orasida xudbin, shafqatsiz va ilmsiz ayollar obrazi ham bor. Ko‘rib chiqilayotgan asarlarda jabrzulm ko‘rgan ayollar orasida jabr va zulm o‘tkazgan ayollar ham uchraydi. Bu tip ayollar Qur’oni karimda ham tilga olingan<sup>227</sup>.

Asarda Kumush obrazi nechog‘lik go‘zal ta’rifu tavsif bilan berilgan bo‘lsa, Xushro‘ybibi obrazi tasvirida mutlaqo o‘zgacha portretni ko‘ramiz. Uning “vahshiy ko‘zlari”, “zolim ko‘zi” ichki dunyosidagi vahshiylik va zolimlik bilan uyg‘un chizilgan. Yoxud Jannat opa obraz “ko‘zi qoqqan qoziqning o‘rnidek chup-chuqur” deya tasvirlangan. Bu detallar qahramon portretini ko‘z oldimizda gavdalantirib, ularga nisbatan o‘z-o‘zidan negativ munosabat uyg‘otishadi. Salbiy qahramonlar suratini chizishda Qodiriyning “Mushtum” jurnalida charxlangan qalami kuchi sezilib turadi.

---

<sup>227</sup>“Qur’onda tilga olingan ayollar ichida asosan bitta salbiy ayol siymosi bor. U III sura, ya’ni «Masad» surasining oyatlarida «o‘tin orqalagan ayol» deb tasvirlangan Ummu Jamildir. Bu ayol Payg‘ambar alayhissalomning amakisi va ashaddiy dushmanlaridan biri Abu Lahabning xotini bo‘lib, Muhammad (s.a.v.) to‘g‘risida turli bo‘htonlar tarqatib yurgan. Kufr ishlarda «do‘zax olovining otasi» laqabini olgan (Abu Lahab) eridan sirayam qolishmagani uchun Qur’oni karimda uning «o‘tin orqalagan, xurmo po‘stlog‘ining pishiq tolasidan eshilgan arqon bilan bo‘ynidan bog‘langan holda alangali do‘zaxga kirishi» aytilgan” // <https://kh-davron.uz/kutubxona/islomiy-adabiyot/tasavvuf/annamarie-shimmel-annemarie-schimmel-jonon-mening-jonimda-1.html> // Аннемари Шиммел. Жонон менинг жонимда (Олмон тилидан Йўлдош Парда таржимаси)

Zaynab va Xushro‘ybibi obrazlari maromiga yetkazib qalamga olingan: “Xushro‘y uzun bo‘ylik, qotmaroq va zarcha tanlik edi. Zaynab qisqa bo‘y, go‘shtdor va oq tanlik edi. Xushro‘yning harakati yengil va lavzi tez edi. Zaynab loppos va o‘nta so‘zga arang bitta javob qaytaradirg‘an edi. Xushro‘yning ko‘zi o‘ynab, har sekundda o‘n yoqqa alang‘lar edi. Singlisi bo‘lsa birav bilan betmabet kelib so‘zlashqanida ham ko‘zini hamisha bir nuqtadan uzmas edi. Xushro‘yga bolaliq chog‘idayoq uy ichi va qo‘ni-qo‘shni «shaddod» deb ism bergenlar, chunki ul kimdan bo‘lsa-bo‘lsin, aytkanini qildirmay qo‘ymas, agar birarta ish uning tilagiga teskari ketsa shovqin-suronni xuddi boshig‘a kiyib olar edi. Shuning uchun Xushro‘yning ra'yini bilmasdan qozon osilmas, unga yoqmagan gapka og‘iz ochilmas, ul bor joyda qadam ham sanalib bosilur edi. Zaynab egachisining aksicha o‘z yaqinlaridan «pismiq» deb ism olg‘an, onasi bo‘lsa achchig‘i chiqg‘anda «ming‘aymas o‘lgur» deb uni qarg‘ar edi”. Tashqi ko‘rinishi ham, tabiat ham bir-biriga zid opa va singil portreti. Yozuvchi ikki xil tabiatli inson tasvirida birini ikkinchisidan ustun yoki past qo‘ymagan holda ular haqida negativ taassurot uyg‘ota olgan.

Adib Zaynab xarakteriga xos injiqlikni real voqeal-hodisalar bilan ochib bergan: “Xulosa, Zaynabning bolaliq vaqt bilan hozirgi holini chaqishdirib qarasaq ko‘ramiz; yosh Zaynab bir oy ilgari tikilib qo‘yilgan kiyimning o‘ziga yoqmag‘anini faqat arafa kuni aytib, yig‘laydir, bu kungi Zaynab o‘zining muhabbatini eriga faqat kundashi kelib yetar oldida e’lon qiladir”. Odamzot tabiatidagi har xil illatlar ildizi bolalik kezlaridayoq nish urib, o‘zini u yoki bu yo‘l bilan namoyon etadi. Ziyrak inson bolaning qobiliyati nimada-yu, kamchiligi nimada ekanini payqab olishi qiyin emas. Qodiriy inson psixologiyasi, xarakterining mohir bilimdoni sifatida qahramonlar portertini yuksak poetik mahorat bilan tasvirlab bergan.

Xushro‘ybibining kundoshiga yetkazgan zahmati hech bir qolipga sig‘mas edi. Uning bolalikdagi shaddodligi yillar sayin yanada sayqal topgan edi: “*Xushro ‘y chodirdan chiqmasdanoq choy tashib, xizmat qilib yurgan kundashiga kesatuq bilan hujum boshlaydir. Ikkinci va uchunchi kunlarda to‘ppa-to‘g‘ri kundash ustiga sapchiydir. Hafta, o‘n kun o‘tmasdan erini o‘z tomonig‘a og‘ishdirib kundashi yonig‘a kirgizmayoq qo‘yadir. Ikkinci va*

*uchunchi haftalarda o‘choqboshini o‘z qo‘lig‘a olib kundashini ikkita yosh bolasi bilan tomoq vajidan ham siqa boshlaydir. Nusratbek bo‘lsa ko‘chaga chiqg‘anda beklik da’vosini qilib, uyiga kirganda Xushro ‘ybekka mute’. Bechora katta xotin Xushro ‘yning doimiy hujumiga mahkum qolib, eridan loaqal ikkita go‘daklari yuzi uchun bo‘lsin marhamat ko‘rmay azoblanadir. Ikkinci oylardan boshlab Xushro ‘y kundashini bo‘g‘ib urish odatini chiqaradir va o‘rim-o‘rim kundash sochini alafdek yulib olishdan ham tortinmaydir”<sup>228</sup>. Inson bolasi shuncha vahshiylikka qodir ekani, buning ustiga ayol zotining bu qadar tubanlikka borishi inson aqlini shoshiradi. Buning birgina sababi – kundoshlik edi.*

Jonidan to‘yan kundosh eridan talog‘ini oladi. Ikki norasida bolani ham Xushro ‘yning «Itdan bo‘lg‘an qurbanliqqa yaramas! Bolalaringdan umidingni uzgan bo‘lsang, itbachchalarining bu uyda qoldir!», degan tahdididan keyin aslo u yerda qoldirolmashdi. Endi Xushro ‘yning baxtli turmush qurishi uchun hech kim halaqit bermashdi, biroq u baribir baxtsiz. Chunki Alloh unga farzand ne’matini bermagan edi. Bir kun eri Nusratbek unga: «Olti yildan beri tug‘maysan, ko‘rsatmagan tovuping qolmadi. Endi nima qilamiz?» deb kulgan edi, Xushro ‘y erining maqsadi nima ekanini payqab: «Bolasiz kishi dunyoda turolmaydirg‘an bo‘lsa, bir oz zaharni boshlab sizga beraman, undan keyin o‘zim yeyman!» dedi. Shundan keyin Nusratbek mundog‘ gapni ikkinchi gapirmay qo‘ydi. Darhaqiqat, Xushro ‘yning bu so‘zini hazil deb bo‘lmas edi”<sup>229</sup>. Xushro ‘yda na ayollik, na onalik siyrati yo‘q edi. Uning xudbinligi, shafqatsizligi bir ma’suma ayolning beva qolishiga, begunoh farzndlarning yetim qolishiga sabab bo‘ldi.

Xushro ‘ybibining fe’l-sajiyasi Hamzaning “Boy ila xizmatchi” dramasidagi Boyning ikkinchi xotini Xonzodaxon bilan bir xil ekanini uning so‘zlaridan bilib olishimiz mumkin: “Men, kim, Miyon buzruk hazratining qizi, qamchisidan qon tomgan Qodirqul doddxohning singlisi Xonzoda bo‘laman! Kundoshning biridan zo‘rg‘a qutuldim! Jondan kechaman, moldan kechaman, ustimga xotin keltirmayman. Kimki boyga xotin bo‘lib tepamga kelar ekan,

<sup>228</sup> Қодирий А. Ўткан кунлар. – Тошкент: Ғафур Гулом, 1972. – Б.197.

<sup>229</sup> O’sha asar. – Б.198.

*uning holiga voy! Ilgariroq go'r, kapanini hozirlasin. Azroil bo'lib joniga chang solaman".*

Shu o'rinda ustoz U.Normatovning quyidagi so'zlarini keltirish o'rinli: "... garchi adib shaxs xarakteri va qismatini muhit, sharoit bilan chambarchas aloqadorlikda tasvir va tahlil etsa-da, inson shaxsining muhit va sharoitiga bog'liq bo'limgan tug'ma, sirli-sehrli g'aroyib shevalariga ham e'tiborni tortadi. Bu jihatdan bir oila, bir xil sharoitda tug'ilib, voyaga yetgan sajiya-xarakter, surat va siymo vajidan ikki olam – egachi-singil Zaynab va Xushro'ybibi obrazlarining talqini g'oyat ibratli. Biri – mute, itoatkor, nuqul o'zgalar izni bilan ish ko'radi; ikkinchisi esa – dadil, mustaqil, o'z baxti va taqdiri uchun faol kurash olib boradi"<sup>230</sup>. Darvoqe', inson asliyati va fitratini u yashagan muhit shakllantirib beradi. Aslida Zaynab bilan Xushro'ybibi tabiatini jihatidan bir-biridan farq qilsa-da, lekin fitrati, fikru sajiyasi juda o'xshash. Ularni birlashtirib turuvchi opa-singillik rishtasi, ya'ni ularning xudbinlikda o'xshashligi oxir-oqibatda ro'y bergen fojialar manzarasida yaqqol namoyon bo'lgan. Opa va singilning kundoshlik vajidan qilgan tuban ishlari na o'zlariga va na o'zgalarga xayr keltirmadi.

Fojianing asl o'zagi haqida o'ylaganimizda, bir qarashdan, juda o'tkir, cho'rtkesar, aytgani aytgan, degani degan, Yusufbek hojidek davlat miqyosida yuqori mansab-martabaga ega odamni ham o'ziga bo'ysundirgan O'zbek oyimdek ayolning Otobek va Kumush fojeiy qismatida hissasi bordek tuyuladi. Biroq taqdiri azal, qismat, tole' insonning ixtiyorida emas. Kumush va Zaynab yoxud Cho'lponning Zebisi ham, avvalo, taqdir hukmi oldida ojiz qolgan ayollar.

Olim B.Karimov "Abdulla Qodiriy fenomeni" monografiyasida keltirganidek: "Modomiki, badiiy adabiyotda markaziy o'rinni inson egallab, uning his-tuyg'ulari, ruhi, umr mazmuni, hayot va o'limga qarashlari ifoda etilar ekan, taqdir yoki taqdiri azal degan bir jumboq ham adabiyotning azaliy va abadiy mavzusi bo'lib qolaveradi"<sup>231</sup>.

Abdulla Qodiriyning mahorati shundaki, u kelgusida ro'y berishi mumkin bo'lgan fojialarni turli epizodlar, badiiy detallar

<sup>230</sup> Норматов У. Қодирий мўъжизаси. Тадқиқот, қайд, сухбат ва мулоҳазалар. – Тошкент: O'zbekiston, 2010. – Б. 197.

<sup>231</sup> Карим Б. Абдулла Қодирий феномени. – Т.: Info kapital group, 2019. – Б. 122

bilan bashorat qilgandek bo‘ladi. Shu o‘rinda Hasanali tomonidan Ziyo shohichiga Otabekning ishqisini qutidorning qiziga tushgani, muhabbat dardida “go‘shanishin” bo‘lib qolgani va 25 kundan beri hech narsa bilan ishi bo‘lmay, xayol surib yurgani ma’lum qilingach, ularning qutidor uyiga borishini eslaylik. Urf-odatlarimizni bilgani holda Qodiriy sovchilik uchun nega xufton paytini tanlagan, degan savol tug‘iladi. Axir xayrli ishga sovchilar odatda kunning birinchi qismida, ya’ni shom kirgunga qadar borishi yaxshi ma’lum. Asar xotimasini Kumushbibi xonadoniga sovchilik vaqtini uchun tanlangan vaqtning o‘zi ham aytib turgandek go‘yo.

Ikkinchidan, Otabek musofir bo‘lgani uchun Oftob oyim sovchilarga rozilik berishga yuragi dov bermaydi. U boshdanoq bu nikohga qarshi bo‘ladi. Onaizorning ko‘ngli g‘ash bo‘lib, nimanidir sezadi. Biroq barcha ayollar singari u ham o‘z turmush o‘rtog‘i – qutidorning ra‘yiga qaraydi.

Oftob oyim qizi Kumushdan kundoshi Zaynab uchun juda xavotirda bo‘ladi. U qizining kundoshi bilan bir joyda bo‘lishini, uning Toshkentda qolishini sira-sira xohlamaydi. Lekin hamma unga qarshi edi: “Oftob oyim shu yo‘sun har tarafdan ham umidsizlanib, mengravsib qoldi. Kumushni ko‘rgan sayin allanuchuk yuragi achir, judoliq kunlarini aslo tasavvur qilolmas edi”<sup>232</sup>. Oftob oyim ketish oldidan Kumushga aytgan so‘zлari ayni haqiqat edi. U Zaynab ko‘rinishidan “bayov” bo‘lgani bilan “pismiq” ekanini sezgan edi. Bunday odamdan doimo ehtiyyotkorlik lozimligini qiziga uqtirmoqchi bo‘ladi: “*Kundashingning ko‘rinishi bayovg‘a o‘xshasa ham, ammo o‘zi pismiq ekan... Bunday odamdan albatta hazar kerak. Agar oralaringga savuqchiliq tushadirg‘an bo‘lsa, sen o‘chakishib yurma, yaxshisi qayin otangg‘a uzringni aytib, bu uydan ketish harakatini qil. Men bu to‘g‘rida ering bilan ham so‘zlashib qo‘ydim, tuzikmi?*”<sup>233</sup> Boyaqish ona yolg‘iz farzandini kundosh zulmidan asrab qolishni istaydi.

Zaynab baxtsiz ayol. Garchi Otabek yaxshi inson bo‘lsa-da, u Zaynabni sevmasdi. Erkak o‘z ayolini sevmasligi esa fofia. Yuqorida tahlilga tortilgan Cho‘lpon hikoyalarida ham, Qodiriy, Cho‘lpon,

<sup>232</sup> Кодирий А. Ўткан кунлар. – Тошкент: Фафур Гулом, 1972. – Б.194.

<sup>233</sup> Кодирий А. Ўткан кунлар. – Тошкент: Фафур Гулом, 1972. – Б.195.

Hamza romanlari va dramalarida ham ko‘tarilgan bosh mavzulardan biri – kundoshlik balosi edi.

Har bir ma’rifatparvar jadid bu illatni yo‘q qilish tarafdoi bo‘lgani shubhasiz. Bu borada Abdurauf Fitrat o‘z noroziligini bildirib, “... ko‘pxotinlik, ya’ni ikki xotinga uylanish bevafolik, adovat, vayronalik, fasodu zulm va insofsizlikka olib kelishi ma’lum”<sup>234</sup>, deb hisoblagan. Bu masalaga munosabat islom ahli orasida ham turlichaydi. Ko‘pchilik erkagu xotinlar tan olishni istamaydigan haqiqat shuki, *Allah taolo bergan buyuk ne’mat – mehr-muhabbat ko‘ngil mulki, uni birovga berish yoki bermaslik yoxud teng taqsimlash inson ixtiyoridan tashqarida*. Adolatning buzilish nuqtasi ayni shu joyda. Lekin oqil mushohadaga qodir har bir inson islom va shariat unga nechog‘li imkoniyatlar bergenini yaxshi anglaydi va shunga muvofiq amallar qiladi. “Ayolga munosabat islom ta’limoti tufayli yumshatilgan bo‘lsa ham, Sharqqa xos mentalitet ta’sirida hamda ko‘plab urushlarning iqtisodiy oqibati va erkaklarning kamayib, tul xotinlarning ko‘payib ketishi natijasida ko‘pxotinlik tabiiy, hatto zaruriy hol hisoblangan. Hozirgi kunga kelib globallashuv natijasida dunyoviy qarashlarning keng tarqalishi, ayol huquqlari masalasining ko‘tarilishi, ayol huquqlariga inson huquqlari sifatida qarash va ularning teng huquqligiga urg‘u berilganligi sababli bu masalaga yangicha yondashuvni davr taqozo etadi”<sup>235</sup>. Ayollarning jamiyatdagi o‘rni, haq-huquqlari masalasining tarixiy ildizlarini o‘rgansak, ayollarning himoyachisi va haloskori islom dini bo‘lib, go‘yo zulmatdan keyin chiqib kelgan nur kabi bo‘ldi. Islomdan oldingi johiliya davrida ayollarning huquqi, erki va ozodligigina emas, ularning qadr-qiymati poymol etilgandi. Islom dini yer yuzi bo‘ylab yoyilar ekan, ayollarning jamiyatdagi o‘rni va maqomi yuksalib bordi.

Jadid nasri va dramaturgiyasida yaratilgan ayollar obrazini o‘rganarkanmiz, xotin-qizlarni eng ko‘p qiynagan narsa kundoshlik bo‘lgani ravshanlashadi. Kundoshlik balosi bir kulfat olib kelishini Kumushbibi ham sezaga boshlagan edi. Ko‘zi yorishidan bir oy oldin onasi Oftob oyimga yozgan xatida shunday so‘zlar bitadi: “*Kelasi oydan juda yuragim uyushadir.. Kechalari ko‘kka qarab kelasi oy*

<sup>234</sup> Фитрат А. Оила ёки оила бошқариш тартиблари. - Т.: Маънавият, 2000. Б.20.

<sup>235</sup> Исломов З., Тўйчиева Г., Юсупова Н. Демократия, ислом ва аёл. – Т., 2006. Б. 34.

*shu kunlarda yorug‘ dunyoda bormanmi, yo‘qmanmi deyman... Oysha buvim marhum bo‘lmag‘anda shu oy ichi o‘zingiz Toshkandga yetib kelar edingiz. Aza hamma vaqt topiladi desangiz, qizingizning ko‘ngli uchun hali ham kelganingiz yaxshi. Dadamga manim arzimni aytsangiz, albatta qaytarmas. Menden dadamga behad salom. Kelasi oydan qo‘rqaman... Ko‘rishalmasak menden rozi bo‘ling, dadam va boshqa yoru do ‘stlar ham”<sup>236</sup>.*

Asar xotimasida Kumushning zaharlanishi, uning hatto o‘lim chog‘ida ham qaynotasiga ko‘rsatgan hayosi, Otabekning Zaynabga qarata “taloqsan” degan so‘zni eshitgandagi ko‘z ochib-yumishlari – har qanday o‘qirmanni iztirobga soladi va xuddi Yusufbek hojidek duv-duv ko‘z yoshlari to‘kishiga sabab bo‘ladi. Olim B.Karimov e’tirof etganidek, “mujmal tasavvurlar mujmal ifodalanadi; yig‘lab yozilgan sahifalar yig‘lab o‘qiladi”<sup>237</sup>.

Islom, shariat va ayol huquqi masalasida cheklanganlik, muammolarni bir tomonlama ko‘rish va hal etish – jamiyatdagi ziddiyatlar in’ikosidir. Har bir ota-onada Otabekning validaynlari kabi “orzu” qilishga haqli. O‘zbek xonadonlarida O‘zbek oyimlar ham bo‘lishi shubhasiz. Ziddiyatli qarashlar va nihoyasi o‘ylab ko‘rilmagan orzular esa inson taqdirini u yoki bu tomonga o‘zgartirishi ham haqiqat. Asar konfliktidagi kundoshlik munosabatlari Kumushbibi va Zaynab obrazlarini bor ichki dunyosi bilan ochib berar ekan, asl go‘zallik hayot bilan vidolashayotgan eng so‘nggi damda ham o‘z malohatiyu tarovatini saqlab qolishini ko‘rasan. Qomusiy olim Ibn Sino shunday degan edi: “*Vujud – ruh amriga vojibdir*”. Ruhiy olami go‘zal insonning vujudi ham go‘zal bo‘lishi bejiz emas. Oliy tuyg‘ularidan, armonlaridan tug‘ilgan o‘z idealini bevaqt o‘limga mahkum qilishdek og‘ir yukni zimmasiga olgan adib o‘sha davr muhitining achchiq haqiqatini ko‘rsatib berdi.

Qodiriy nomini abadiylikka muhrlagan yana bir asar “Mehrobdan chayon” romanidir. Asarning ilk sahifasidayoq muallif “Ro‘monning mavzu’i to‘g‘risida” to‘xtalgan. U yerda “Turkiston feodallarining keyingi vakili bo‘lg‘an Xudoyorning o‘z xohishi yo‘lida dehqon ommasi va mayda hunarmand-kosib sinfini qurbon qilishi, mamlakat xotin-qizlarini istagancha tasarruf etishi, bunga

<sup>236</sup> Қодирий А. Ўткан кунлар. – Т: Фафур Ғулом, 1972. – Б. 202.

<sup>237</sup> Karim B. O‘tkan kunlar ibrati. – Т.: Mashhur press, 2019. – Б. 140.

qarshi kelguchilar tilasa kim bo‘lmasin, rahmsiz jazo berishi ro‘monning mavzu’idir”, deb belgilangan. Adib Xudoyorxonning eng birinchi “istinodgohi” (suyanchig‘i, tayanchi) bo‘lgan ulamolar, ikkinchi tarafda mazkur qora kuchlarga qarshi “tuban” sinf – kambag‘allar o‘rtasidagi kurashini tasvirlash orqali “*xon harami, xotinlari, qirq qizlar, o‘zbek xotin-qizlari orasidag‘i iste’dod, shoiralalar*” kabi ko‘p mavzular qamrab olingani haqida aytar ekan, shu so‘zlarning o‘ziyoq “Mehrobdan chayon” romanida xotin-qizlar masalasi nechog‘li muhim o‘rin tutganini ko‘rsatib turadi. Qodiriy xotin-qizlar obraziga urg‘u bergenining yana bir ifodasi sifatida asarning ilk bobiniyoq Ra’no ismi bilan “Ra’nuning egasi” deb boshlaganidir.

Sohibqiron Amir Temur hazratlari uchun Bibixonim nafaqat go‘zal va sadoqatli yor, balki eng qadrli inson va donishmand maslahatchi sifatida beqiyos o‘ringa ega bo‘lgan. Biz tadqiq etayotgan xotin-qizlar obrazida ham buyuk momolarimizga xos shijoatu jasorat, mardlik va tantilik, donishmandlik va zukkolik tajassumlashgan. Qahramonlar orasida Ra’noda shu xislatlarni ko‘proq ko‘ramiz. Uning dovyurakligi tahsinga loyiq. Millat va Vatan tarixiga oid asarni yozishga qo‘l urgan adib hamma davrlar va zamonlar uchun o‘zbek qiziga ibrat bo‘lgulik ideal obrazni yaratdi.

Romanning boshlanishidayoq ijodkor *retrospektiv* yo‘ldan boradi va bizni yana bir tarixiy ayol obrazi – Amir Umarxonning kanizi bilan tanishtiradi. Ushbu obraz, aslida, Abdulla Qodiriyning navbatdagi yozilajak yana bir buyuk romani debochasi bo‘lishi mo‘ljallangani ko‘pchilikka ma’lum. Ushbu kanizak (ismi Xonposhsha) atrofida yana ko‘plab biz bilmagan qiziqarli voqealar, tarixiy shaxslar, oshiqlar tarixi-yu yana kimlarningdir fojeiy qismati ochib berilgan bo‘larmidi. Ushbu faslda aslida Solih maxdumning kelib chiqishi, uning ota-bobolari haqida ma’lumot berishni maqsad qilgan adib aynan amirning kaniziga urg‘u berib, faslni shu nom bilan nomlagani bejiz emas. Qodiriy Qo‘qon xonligining yana bir mashhur hukmdori amir Umarxon, uning zavjasি Nodirai Davron, ularning farzandlari, nevaralari, kanizaklari, shuningdek, Buxoro amiri Nasrulloxon hamda ularning o‘rtasidagi mashhur tarixiy fojianing hech kim bilmas noma’lum sirlari haqida kitobxonni voqif qilishni niyat qilgan bo‘lsa ajab emas. Bu asar qahramoni tarixiy

shaxs bo‘lgan ayollarga murojaat etilishi bilan yanada qimmatli bo‘lar edi.

Yozuvchining o‘z qahramoniga muhabbatni Ra’noning portretini go‘zal chizgilarda tasvirlashida ko‘rinadi. Qodiriy bosh qahramonni tavsiflash uchun go‘yo munosib so‘z topolmagandek: “...*har holda bu qiz yolg‘iz Qo‘qonningg‘ina emas, umuman Farg‘onanining kuylariga qo‘shilib maxtaladiring‘an go‘zallaridan edi*”<sup>238</sup>, - deydi.

Ra’noning har zamon qizlariga o‘rnak bo‘ladigan jihatlari ko‘p. Uning tashqi va ichki olami go‘zalligi hamohang ekanini fazlu kamolidan – diniy va dunyoviy ilmi, she’r va manzumalar yozishi, qizlarga saboq berishi kabilarda ko‘ramiz: “*Ra’no Nigor oyimning to‘ng‘uchi, bu yil o‘n yetti yoshni to‘lduradir. Savodni otasidan o‘qub, o‘n to‘rt yoshida ibtidoiy maktab pro‘g‘ramida bo‘lg‘an barcha darslarni bitirgan, masalan: diniy qismdan – “Haftiyak”, “Qur‘on”, “Chahor kitob”, “So‘fi Olloyor”, “Maslaki muttaqin”, adabiyotdan – Navoiyning barcha asarlari, devoni Fuzuliy ma‘a Layli Majnun; Amiriyl, Fazliy va shulardek chig‘atoy-o‘zbek katta shoirlarining asarlari; forsiydan – Xoja Hofiz Sheroyev va Mirzo Bedil, xusni xat, insho va boshqalar. Bu kunlarda bo‘lsa bir tomonidan qizlarg‘a saboq berib onasig‘a ko‘maklashsa, ikkinchi tarafdan otasidan qofiya (arab nahv va sarfi) hamda Shayxi Sa‘diyning “Guliston”idan dars oladir va shuning qatorida o‘zi yaxshi ko‘rgan chig‘atoy-o‘zbek shoirlarining badi‘a asarlaridan alohida bir majmu‘a tuzib yuriydir*”<sup>239</sup>. Nafaqat o‘tgan asrda, hatto hozir ham yurt va millat kelajagi uchun Ra’no kabi ilmu zakovatli, fozilayu komila qizlar kerak.

Solih maxdum qanchalar xasis va nuqsoni ko‘p odam bo‘lmisin, u farzandi Ra’no oldidagi burchini bajargan – uni xat-savodli qilgan, din, adabiyot, qofiya, nahv va sarfdan xabardor qilgan, ijod qilishi uchun sharoit yaratgan.

Ra’no shu qadar nozik didli, nazokatli, zukko shoira bo‘lmanida xonning sarmunshiysi bo‘lgan mirzo Anvardek yigit u bitgan misralar oldida yengilganini tan olmagan bo‘lardi. Ular o‘zaro nazmda bir-birlarini sinamoqchi bo‘lib ijod qilishga

<sup>238</sup> Кодирий А. Мехробдан чаён. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1997. – Б. 10-11.

<sup>239</sup> Кодирий А. Мехробдан чаён. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1997. – Б. 10.

tushganlarida Anvar boshlab bergen baytni Ra’no xuddi o’sha qofiya bilan davom etar ekan:

“— *Qalamni bering*, — dedi Ra’no o‘pkalagan qiyofatda qo‘l uzatib, —o ‘ylag‘ali ham fursat bermaysiz. Yozdi:

*Muhabbat jomidin no ‘sh aylagan ahli zako bo ‘lmish,*

*Fununi tibda majnundir kishining kuysa safrosi.*

— *Yengding, Ra’no, yengding*, — dedi Anvar, — *lekin keyingi misra’da bir xato qilding...*

— *Masalan?*

— *Tibning aytishicha, safro emas, qon kuysa, kishi jinni bo ‘ladir...*

— *Qonning buzulishig‘a avvalo safroning kuyishi kerak, safro kuymay turib qon buzulmaydir... Xo‘sh, yana yozasizmi yoki yengildingizmi?*

— *Yengildim...*<sup>240</sup>

Yoshgina qizda shuncha ilm, zako va hozirjavoblik. Ra’noning, yosh bo‘lishiga qaramasdan, zukkoligi, fikri teran ijodkorligi, nafaqat mushoira, balki tabobat borasidagi ilmi ham shakllangani tahsinga loyiq.

Ra’noning e’tirof etiladigan jihat, professor Ibrohim Haqqul ta’kidlaganidek, shundaki, “*Boshqalarini bir chetga qo‘yib, “Navoiyning barcha asarlari”, “Sabot ul-ojizin”, Sa’diyning “Guliston” kitoblarini tushunib, sevib o‘qigan mushohadali har bir kishi o‘z-o‘zidan tasavvufshunos bo‘ladi*”. Shu o‘rinda olim “*Anvarga nisbatan Ra’no hayot odami edi*”<sup>241</sup> deb yozadi. Ra’noga “*tasavvufshunos*” va “*hayot odami*” nisbatlarini berayotgan olimning so‘zlari ayni haqiqat.

Ra’noning xatiga, uning keyingi harakatlariga tahsin aytging keladi. U Sultonaling ayoli orqali Anvarga yo‘llagan ikkinchi yashirin xatida payshanba kechga uyga kelishini so‘ragan edi. Anvar hayrat va taajjubda qolib, “Jasur qiz”, deya xayolga toladi. “*Chindan ham bu jasurona isyon xotin-qizlar tomonidan Xudoyorning hayvoniy istagiga qarshi birinchi ko‘tarilish edi*”<sup>242</sup>. Bundan bir necha kun avval Anvar Ra’noga qarab: “*Ishq davosi avom o‘ylag‘ancha vasl emas – hajrdir. Zero, vasl ishq o‘tini so‘ndirg‘uchi, hajr esa*

<sup>240</sup> Қодирий А. Мехробдан чаён. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1997. – Б. 55-56.

<sup>241</sup> Ҳаққул И. Талант – жасорат жавхари. – Т.: Muharrir nashriyoti, 2018. – Б. 189, 191.

<sup>242</sup> Қодирий А. Мехробдан чаён. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1997. – Б.123.

*kamolatka erishdirguchidir... Sen shu ikkidan qaysi birisini tanlaysan, Ra’no?”, deganda, “Men keyingisini... Biroq, xonning iflos to ‘shagida yotmayman”, deb javob qaytargan Ra’no sevgisi uchun kurashni lozim bildi. Anvar allaqachon taqdiriga tan bergen paytda Ra’no o‘z sevgilisi bilan “qochish” rejasini o‘ylab qo‘ygan edi. Ra’no, chinakam jasur qiz timsoli. Vatani va millati uchun jonini tikkani, o‘z qilichi bilan xalq sha’nini himoya qilgan qahramon ayollar millatimiz tarixida bisyor. O‘rni kelganda Anvar ko‘rsata olmagan jasorat va qat’iyatni Ra’no ko‘rsatdi. Yozuvchi o‘zi aytganidek, “Ra’noning jasorati, xonga qarshi isyon... o‘z zamonasi uchungina emas, bizning hozirgi asrimiz uchun ham loyiqi tahsin va Ra’no yoshlik qizlarimizga ibratdir”.*

Ra’no va Anvar bir-birlariga mos mahbub va mahbuba edi. Ularning ishq qissasini o‘qib, beixtiyor Otabek va Kumush yodingizga tushadi. To‘g‘ri, ular shoir yoki munshiy emas edi, lekin o‘qimishli va savodxon, tafakkuri va dunyoqarashi keng oshiqlarning suhbatlari ishqiy-falsafiy mavzuda bo‘ladi. Anvar bilan Ra’noda esa bu xislat yanada takomil topgan. Ularning ikkisi ham ijodkor. Ikkisi ham shoirona fikrlar, she’riy lafzlar bilan bir-birini to‘ldirib turadi. Ma’shuq va oshiqqa ilhom baxsh etuvchi, ma’naviy kamolotga eltuvchi narsa – ularning ma’sum va beg‘ubor ishqidir. Shu o‘rinda adibning Ra’no obrazidagi shoiralik qobiliyatini berishida ham realizmga asoslanganini ta’kidlash joiz. Qo‘qon xonligida Nodirayu Uvaysiyalar qatorida ko‘plab shoiralar yetishib chiqqanini A.Qayumov<sup>243</sup>, M.Qodirova<sup>244</sup>, A.Erkinov<sup>245</sup> kabi adabiyotshunos va manbashunos olimlarimizning tadqiqotlari ham tasdiqlaydi<sup>246</sup>.

---

<sup>243</sup> Қаюмов А. Қўқон адабий мухити. – Т., 1961.

<sup>244</sup> Қодирова М. Нодира ҳаёти ва ижоди. – Т., 1965; Надира. – Т., 1990; Дилшод. – Т., 1971; Зебуннисо. – Т., 1982; Шоира Анбар. – Т., 1991; Шоира Муаззамхон. – Т., 1992; Шеърият ва муҳаббат маликаси. – Т., 1998.

<sup>245</sup> Aftandil Erkinov. Livres manuscrits et milieu féminin en Asie Centrale: contenu et audience des recueils poétiques copiés par des femmes à Kokand du XIXe au début du XXe siècle // Istituto per l’orientale-roma – orientalisches institut der martin-luther-universität hallewittenberg journal for balkan, eastern mediterranean, anatolian, caucasian, middle eastern, Iranian and Central Asian studies XII (2014). lecteurs et copistes dans les traditions manuscrites Iraniennes, Indiennes et centrasiatiques – scribes and readers in Iranian, Indian and Central Asian manuscript traditions Textes réunis par. Edited by Nalini Balbir – Maria Szuppe. –P.393 – 416.

<sup>246</sup> Хидирова Н. Аёллар масаласига оид манбалар ва уларнинг таҳлили (XVI-XX аср бошлари Ўрта Осиё мисолида) / JCAR Journal of Central Asian Renaissance, Volume 2, Issue 1, 2021. - P. 40.

Xon haramidagi yuzlab qizlar taqdiri adibni bee’tibor qoldirmaydi. U yerdagi kanizlar soni 155 nafar bo‘lgan, deb yozadi muallif. Asarda keltirilgan Og‘ocha oyim xonning ikkinchi podsholik davridagi eng ishonchli xotini bo‘lgan. Roziya oyim esa xonning uchinchi podsholik davridagi xotini bo‘lib, haramdagi ma’lumotlarni muallif mana shu ayol tilidan eshitgani ma’lum qilingan. Gulshan xonning haramiga kanizlar yetkazib beruvchi ayol. Bundan tashqari “*qirq qizlar*” ham xonga xushomad tariqasida beklar tomonidan tortiq qilingan, bir-ikki marta xonning “iltifotiga” loyiq ko‘rilgach, raqs, qo‘sish, soz kabilardan saboq oluvchi va bazmlar uyushtiruvchi san’atkor qizlardan iborat bo‘lgan. Ular “*erkaklar dunyosidan aloqasi kesilgan mazluma, oila hayotidan mahrum bechoralar*” edi, “*ularning ovinchog‘i – kunduzlari o‘yun, kechalari bazm va tunlari uyqu ham tush edi*”<sup>247</sup>. Bir-biridan go‘zal qizlarning aybi go‘zalligidami, deysan kishi. Gulshan kabi ayollar esa o‘zlarining baxtsizligi yetmagandek, boshqalarni ham baxtsiz qilishni o‘ziga kasb qilib olgani esa ayol xilqatining turfligini ko‘rsatadi. Qodiriy bu mavzuni qalamga olgani bejiz emas edi.

“Mehrobdan chayon” qahramonlarining murodlariga yetganiga ko‘ngil taskin topadi. Chunki Otabek va Kumush, Zebilar qismati fojeiy tugagan bir paytda Anvar va Ra’nolarning taqdiri xayrli yechim topdi.

Habibulla Qodiriyning yozishicha, “Shuni ham unutmaslik kerakki, roman yozilgan vaqtida bizda xotin-qizlar ozodligi uchun kurash, paranji tashlash kampaniyasi qizg‘in borar edi. Ra’no obrazi (hatto, umuman, asarning) yaratilishida ana shu kampaniya qisman bo‘lsa-da, muallifga o‘z ta’sirini ko‘rsatmaganmikin?”<sup>248</sup>. Albatta, “Hujum” kampaniyasining harakatlari adib ijodiga ozmi-ko‘pmi ta’sir etgani tabiiy. Biroq, nima bo‘lganda ham, Ra’no yozuvchining estetik idealini o‘zida mujassam qilgan obraz. *Jadid ziyolilarining oliv orzularidan biri – millat istiqbolini yaratishga qodir ilmu ma’rifatli, ma’naviy yetuk, g‘ayrat va shijoatga to‘la xotin-qizlar obrazi Kumushbibi va Ra’no timsollarida aks etdi.*

<sup>247</sup> Кодирий А. Мехробдан чаён. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1997. – Б. 71.

<sup>248</sup> Адабни хотирлаб: Хотира роман. Абдулла Кодирий. – Т.: Info Capital Group, 2017. – Б. 206.

Qodiriy yaratgan obrazlar, xususan, *ayollar obrazi milliy ruh bilan sug‘orilgan, milliylikni o‘zida ifoda etgan*. Qodiriy Sharqu G‘arb adabiyoti, matbuoti, ilmidan boxabar bo‘lgani holda qalb tug‘yonlarini milliy yo‘sinda ifoda etishga erishgan ijodkor.

1936-yilda bosilib chiqqan romanini Cho‘lpon “Kecha” deb nomlashida katta ramziylik bor edi. Aslida o‘sha payti yurtda, Fitrat aytganidek, KEChA (“Mening kecham”) hukm surayotgandi. Xalq, avom “tun va zulmat” qo‘ynida yashayotgan edi. Bu davr o‘zbek xalqining ikki tomonlama zulm ostida ezilgan payti edi. Mahalliy boylarning deyarli barchasi rus mustamlakachilari bilan og‘iz-burun o‘pishib, o‘z xalqining tarixiy taraqqiyoti haqida emas, uni iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy qoloqlikdan xalos etish to‘g‘risida emas, balki o‘zlarining rohat-farog‘atlari, moddiy farovonliklari haqidagina jon kuyuntirishar edi. Yozuvchi ana shu tarixiy davrni badiiy tasvir va tahlil etishni maqsad qilgan. Bu voqeа Zebi va boshqalar timsolida ochib berilgan. Zebi obrazining yaratilishiga mashhur san’atkor Halima Nosirovaning ijodiy yo‘li asos qilib olingani haqida ma’lumotlar bor (Halima Nosirova bilan shaxsiy suhbat materialiga asoslanilgan). Asar yozilayotgan paytda Halima Nosirova, hali yosh bo‘lishiga qaramasdan, halq mehrini qozongan san’atkor sifatida tanilib qolgan edi. Adibning xayolida shu san’atkorning badiiy qiyofasini yaratish niyati tug‘iladi<sup>249</sup>. Romanda qishloqqa borishga ruxsat so‘rash uchun Zebi otasini kutib, beixtiyor o‘yinga berilgan paytlarida o‘yin ustiga kelib qolgan Razzoq so‘fining osiqqliq qovog‘ini ko‘rgan qizning ko‘nglidagi kechinma shunday: “...qafas darchasining ochilishini kutgan vaqtida darichaga kattakon bir qufl urilayotganini ko‘rgan bir qushning iztirobi”<sup>250</sup>. Bunday tasvir kamdan-kam uchraydi. Mazkur epizodda yuz berayotgan jarayon e’tiborga molik. Bu holat ro‘y bergenida Zebi tor uydan chiqib ko‘nglidagi qishning zahliklarini ketkazishga umid bog‘layotgan edi. Shu sababdan ham adib o‘z qiyoslashiga “qafas darchasining ochilishini kutayotgan vaqtida” deb to‘ldirish kiritib ketadi. Yana bir jihat shundaki, adib qafasiga qufl osilgan qush demayapti, “darichaga kattakon bir qufl urilayotgan”

<sup>249</sup> Лутфиддинова Х. Ёзувчининг эстетик идеали ва аёллар образи (“Ўтган кунлар” ва “Кеча ва кундуз” романлари мисолида). Филол.фанл.номз. .... дисс-я. Т., 1994. – Б. 73.

<sup>250</sup> Чўлпон. Кеча ва кундуз. - Т.: Фан, 2018. – Б. 33.

deb ta'kidlayapti. Mana badiiyat. Bu so‘zlar bilan Cho‘lpon hali Zebi oldida imkoniyat borligiga ishora qiladi.

Qurvonbibi Razzoq so‘fini ko‘ndirgan paytda ikki yosh qiz – Zebi va Saltining shodligi, sho‘x qiyqirishlarini adib nimaga qiyos etganini o‘qiyimiz: “...*tobiga kelgan choydishdek sharaqlashib...*”<sup>251</sup>. Darhaqiqat, bu juda noyob tashbeh. O‘zbekning choydishini sharaqlab qaynashini boshqa millat vakillari bilmasligi tayin. Bu tashbeh faqat bizning xalq uchungina xos. Qolaversa, inson xursandchiligini bunday fizik hodisa bilan qiyoslash hammaning ham xayoliga kelmaydi.

Cho‘lpon “Kecha va kunduz” romanida asarning biror joyida Zebi portretini chizmaydi. Zebining qanday qiz ekanini uning xattiharakati, gap-so‘zlari, his-tuyg‘usi va ko‘ngil tasviridan bilib olamiz. Asarning ilk sahifasidayoq adib yozadi: “*Zebi (Zebinisa)ning qish ichi siqilib, zanglab chiqqan ko‘ngli bahorning ilik hovuri bilan ochila tushgan, endi, ustiga poxol to‘shalgan aravada bo‘lsa ham, allaqaylarga – tola-qirlarga chiqib yayrashni tusay boshlagan edi*”<sup>252</sup>. Insonning ko‘ngli “zanglashi” mumkinmi? Ko‘ngil temirdan bo‘lsa ekan, u zanglasa. Unutib qoldirilgan, bir chekkada qarovsiz yotgan, issig‘u sovuqlarni, yomg‘iru qorlarda qolgan temir qanday zanglasa, insonning ko‘ngli ham shu kabi zanglashiga mengzaydi adib. Zebining “*andishali ko‘zlari*”, yuzlari dugonasi Saltiniki kabi “*charaqlagan yulduzday, sernash'a, quvnoq*” emas edi. Biroq endigina 15 ga kirgan “*go‘dak ko‘ngil*”li Zebi o‘yin-kulguni, dugonalari bilan sayohatga chiqishni, tabiat bag‘rida yayrashni tusaydi... Uning erki, barcha xohish-istiklarini o‘z jilovida ushlab turadigan shunday inson borki, u bir qarashdan dindor va taqvodor, lekin “*halol-haromni ko‘p ham farq qilmayturgan*” Razzoq so‘fi ismli johil ota. Bu ota qizini o‘ynab-kulib yurishiga qo‘yib beradiganlardan emas.

Zebining Saltidan tashqari yana bir qaqaqjon dugonasi Qumri, aravakash O‘lmasjon, poyloqchi kampir va yana bir nechta qiz birga qishloqqa, Enaxonlarnikiga qarab yo‘l olishar ekan, ota tomonidan ta’kidlangan nasihatlar unutilib, qizlarning yor-yorini eshitgan Zebi

<sup>251</sup> Чўлпон. Кеча ва кундуз. – Т.: Фан, 2018. – Б. 36.

<sup>252</sup> Чўлпон. Асарлар. 4 жилдлик. II жилд. Биринчи китоб. Кеча. – Т.: Akademnashr, 2016. – Б. 4.

bor ovozi bilan yo‘l bo‘yi qo‘sinq kuylab ketadi. Zebidek itoatkor qiz nomahram yigit oldida kuylashi – qo‘sinq uning yagona yupanchi va suyanchi bo‘lganidan edi. Bir yoqdan O‘lmasjon, ikkinchi yoqdan Zebi bir-birlariga yashirincha ko‘ngil qo‘yadilar. O‘lmasjon Zebinisaning ovoziga shu qadar mahliyo ediki, oraga kimdir Qora botir kabi suqilib, bularni bir-biridan ajratmasa, ikki yosh bir-biridan ajralishni istamaydi. Zebinisa “ko‘kdagi oyga qarab yerdagi “toy”ni o‘ylar va yuzlari anorday qizarardi”. Xuddi shuningdek O‘lmas ham “ko‘kdagi oyga qarab yerdagi oyni o‘ylar”<sup>253</sup> edi. Zebi sevib qolgan edi: “Yosh qiz o‘z ko‘nglining birinchi marta o‘ziga begonalashganini, o‘zidan boshqa bir kuchning ko‘ngliga egalik qilganini sezardi”<sup>254</sup>. Zebi ham, O‘lmas ham umrlarida ilk bor sevgi degan tuyg‘u bilan ro‘baro‘ kelgan, musbat va manfiy qutblar singari bir-biriga ohanrabo misol intilar, nimadir ularni bir-biriga itarar edi. Lekin shirin xayollar og‘ushida bo‘lgan Zebi “shu topda o‘zining yaqin kelajakdagi qora kunlarini, qay rangda ko‘rinishi, ma’lum bo‘lмаган baxti, tole’ini o‘ylardi. Uning butun baxti Razzoq so‘fining johil vujudiga bog‘liq emasmi? O‘sha sovuq so‘fi shu quvnoq jonni va sayroq qushchani istagan vaqtida baxtli yo baxtsiz eta olmaydimi?”, deya hadikka tushar edi.

Enaxonning oilasi o‘ziga to‘q deb bo‘lmaydigan, yeng uchida kun ko‘radigan, kambag‘algina, yo‘qsul oila edi, shu bois ularnikiga bir arava bo‘lib kelgan mehmonlarni bitta-yarim qishloqdoshlari chaqirishidan manfaatdor edi. Suyuq osh pishirilgan, oshqovoq somsa qilingan, palov ham qilib bo‘lingan edi. “Bundan ortig‘iga mana bu kambag‘allik o‘lgur yo‘l qo‘ymas” edi. Yozuvchi Enaxon oilasi misolida kambag‘alligiga qaramay, o‘zbek oilasi hamisha mehmondo‘st bo‘lishini ko‘rsatib bergen. Enaxon kelinbibisi bilan maslahat qilar ekan, mingboshining qizi Fazilat va uning kichik xotini Sultonxonlarni xayollaridan o‘tkazishib, ularni mehmonga chaqirishga qaror qilishadi. Zebinisa qismatining ayovsiz zarbasi mana shu beozor rejadan boshlandi. Rejadagi mehmonlar kelgach, Zebining tovushiga mast bo‘lgan, bunday mehmonlarni uyga taklif etmasak, ayb ish bo‘lar, deb, qizlarni mehmondorchilikka taklif

---

<sup>253</sup> Чўлпон. Асарлар. 4 жилдлик. II жилд. Биринчи китоб. Кеча. – Т.: Akademnashr, 2016. – Б. 30.

<sup>254</sup> O‘sha asar. – Б. 40.

qilgan Sultonxon, o‘zi bilmagan holda boshiga kundosh olib kelayotganini hali anglab yetmagan edi.

“Zanglagan” ko‘ngil shu darajada bearmon kuy va qo‘shiqlar kuylaydiki, bu quvonch va shodlik kayfiyati hech qachon tugamasa edi, degan bo‘lardi Zebining o‘rnidagi har qanday qiz. Bu kayfiyat mingboshining uyida ham davom etdi. Xizmatkor ayol Umrinisabibi aytgandek “o‘z tomiriga bolta chopish”ni istamagan Sultonxon bu yig‘inga qarshilik qilib, xushovoz Zebinisani mingboshi xotinlikka olaman deb qolishi xavfidan qutulaman, deb ne harakatlar qilmasin, ikki katta kundosh Xadichaxon va Poshshaxon bu rejani to‘la-to‘kis amalga oshirishga muvaffaq bo‘lishdi. Zebining mingboshi xonardonida mehmon bo‘lishi uning taqdiriga bitilgan edi... Axir Akbarali mingboshi uchun xotinlikka yangi nomzodni tavsiya etish vazifasini nafaqat ikki kundosh, uning ishongan “tog”<sup>255</sup>i, hisob-kitob ishlari yurituvchisi, maslahatchisi va har ishni uddasidan chiqadigan, har muammomni yecha oladigan Miryoqub “epaqa” ham astoydil amalga oshirgan edi.

Ikki katta kundosh Xadichaxon va Poshshaxonni kundoshlik shunchalar tubanlik va razillikka olib kelgan ediki, ular qanday yo‘l bilan bo‘lmisin, o‘zlaridan keyingi kundosh Sultonxondan bor alamini olish maqsadida Zebini qo‘squo’llab mingboshining quchog‘iga solishga tayyor edi.

Bir kam dunyo deganlari shu ekan-da... Ikki kundosh hasratlashib o‘tirar ekan, mingboshiga tegib, yegani oldida, yemagani ketida bo‘lgan katta xotin ham, ikkinchi xotin ham rohat ko‘rmaganini aytishar, na yeyishga osh-non, na kiyishga ust-boshi tayin bo‘lmagan Enaxonning kelinbibisiga Poshshaxonning havasi kelib: “Davlati qursin, davlati!.. Enaxonning kelinbibisiga rashkim keladi... Davlat asari yo‘q. Ro‘zg‘orlari zo‘rg‘a o‘tadi. Qo‘zichoqday ikki bolasi bor. Eri hamisha yonida... Kundosh alami yo‘q...”<sup>255</sup> - deydi. Darhaqiqat, inson qalbida xotirjamlik bo‘lmash ekan, unga qasr uylar ham, tog‘ uyumichalik tilloyu zarlar ham tatimaydi. Ayniqsa kundoshlik balosi insonni insoniylik qiyofasidan nechog‘li chiqarib yuborishini Poshshaxon timsolida ko‘ramiz. *Poshshaxonning kundoshlik psixologiyasi Zaynabning kundoshlik psixologiyasidan*

<sup>255</sup> O‘sha asar. – Б. 50.

*ancha o‘zgan edi. Chunki Poshshaxonda alamzadalikdan tashqari mingboshining davlatidan umidvorlik bor edi.*

Asar haqida gapirar ekan, prof. O.Sharafiddinov muallif nigohi “o‘zbek xonadonining ichkarisi”ga qaratilganligini ta’kidlaydiki, undagi ayollar “*katta hayotdan ajralgan holda, to‘rt devor ichida, faqat bir-birlarining diydorlariga termulib, bu dunyoning huzur-xalovatidan, rohat-farog‘atidan mahrum holda umrguzaronlik qilishga majbur. Shu bo‘g‘iq, diqqinafa s muhit ulardagи fazilatlarning ro‘yobga chiqishiga yo‘l qo‘ymaydi, aksincha, ularni bir-birlarining tagiga suv quyishdan toymaydigan, bajonidil g‘iybat qilish bilan shug‘ullanadigan bachkana kimsalarga aylantiradi*”. Olim haq. Aslida ayollarning makr-hiyasiyu tubanligi va johilaligi sababi to‘rt devor ichida botqoqqa botib, ziyodan mosuvo muhitda yashaganida edi.

Ularning manfur rejasi amalga oshdi. Na Zebining istagi, na Qurvonbibining qarshiligi, na O‘lmasjonning sevgisi Zebinisani mingboshiga to‘rtinchи xotin bo‘lish balosidan qutqaza olmadi. Abgor va himoyasiz Zebining hamma xursandchiliklari poyoniga yetdi. “... qizning ko‘ngli dam O‘lmasjonni, dam Saltanatxonni erkalatib o‘ynardi”. *Ko‘ngil kimnidir “erkalatib o‘ynashi” faqat Cho‘lponga xos bo‘lgan betakror poetik ifoda – tengsiz metafora.*

“Suratday jonsizgina sudralib yur”gan Zebinisa axiyri ilonlar makoni bo‘lmish mingboshi xonadoniga uzatilib kelindi. Uni bu yergacha olib kelishga muvaffaq bo‘lgan ikki katta kundoshdan tashqari uchinchi kundosh Sultonxon ham bir chekkada jimgina qarab tura olmadi. Unga har ishda dastyor bo‘lgan Umrinisabibi yordamida Zebining o‘rtog‘i Enaxonni ishga solib, “tengi yo‘q, beabajo” maslahatni taklif qiladi. Zebi “har kun – yolg‘ondan bo‘lsa ham – bir soat, yarim soat o‘zidan ketib tur”sa, ajab emas, mingboshi javobini berar emish...

Zebi xuddi shunday qildi, har namozshom paytida tutqalog‘i tutadigan bo‘ldi. Oqibatda hech narsa o‘zgarmadi. Mingboshi Miryoqubning maslahatiga kirib, hamma “itlik”ni yig‘ishtirib, Zebining faqat xushovoz kuy va qo‘shiqlarini tinglab orom olar edi. Tabiiyki, Zebi ham hech yomonlik ko‘rmagan erdan qochish emas, bora-bora unga yaqinlashish va taqdiriga tan berishdan boshqa iloji yo‘q edi.

Asar o‘rtasida syujet chizig‘i Miryoqub hayoti bilan bog‘lanar ekan, bu yerda eng katta rollardan birini “*yoshlik va juvonlikning kuchi bilan berishmay*”, “*yoz osmoni kabi tiniq va toza moviy ko‘zli*” *Petrograd go‘zali Mariya* o‘ynaydi. Bu orada adib buyuk chor imperiyasining ichdan yemirilib, chirib, botib ketayotganini ma’naviy-axloqiy yengiltak hukumat ahli va ularning ahliyalari misolida tasvirlaydi. Xususan, noyib to‘raning xotini oshpaz va xizmatkor Zunnun bilan oshiq-moshiq bo‘lgani, noyib to‘raning ko‘chadagi boshqa ayollar bilan dong olishib yurgani va hokazolar.

Asarda yana bir mute’, eriga sodiq va vafodor ayol obrazi bor, bu – Miryoqubning xotini. U erini sadoqat bilan yaxshi ko‘radi, uning boshida parvona bo‘ladi, uni intazorlik bilan kutib yashaydi, farzandlarini mehr berib parvarish qiladi. Lekin bevafo er kuniga bir ayolning quchog‘ida. Bir Mariyaga nisbatan “itlik” qilmagan Miryoqub u bilan Qrim sari yo‘l olar ekan, poezdda uchratgan bir yo‘lovchi uning hayotini, dunyoqarashini, maqsad-matlabini butkul o‘zgartirib yuboradi. U jadid Sharafiddin Xo‘jaev edi. Miryoqubda ilmiyu amali bilan cheksiz havas uyg‘otgan bu jadid Mariya Miryoqubning xotini – ahliyasi ekani haqidagi tasdiqni olgach, shunday so‘zlab ketadiki, bundan keyin Miryoqub mutlaqo yangi tug‘ilgan jadidga aylanib qolgandek bo‘ladi: “Siz unda haqiqiy onalarni ko‘rajaksiz. Millat bolalarining baxti haqiqiy madaniy onalar qo‘lida bo‘lmasa, bizning oqibatimiz yomon! Siz undan ko‘p narsa ola bilasiz. Singillaringiz, qizlaringizni shularga o‘xshab tarbiya qilsangiz, shundagina vazifangizni bajargan bo‘lasiz! Eskilarning tili bilan: “Qo‘shoq qaringiz” – deyman.. Qo‘shoq qaringiz millatning, millat onalarining saodati uchun!...”<sup>256</sup>.

Ha, millatning o‘qimishli, ilmlli, ziyoli xotin-qizlari XX asr boshida maydonga otilib chiqdi. Ular chet ellarda o‘qishga ham muvaffaq bo‘lishdi. Sharafiddin Xo‘jaevning millat onalari saodati uchun baxt tilab, o‘ris qiz bilan qo‘sha qaring, deyishi biroz g‘alizroq eshitiladi, nazarimizda. Jadid Miryoqubning qishloqda tashlab kelgan shar’iy xotini va bola-chaqasidan boxabar bo‘lganida edi, balki Miryoqubga “xotiningizni o‘qiting, unga erk bering, uni sevib-ardoqlang” degan bo‘larmidi. Uning tilidan aytilgan yana bir

---

<sup>256</sup> O‘sha asar. – Б. 193.

gap milliy g‘urur va sha’ningizga tegib ketadi: “Tarbiyasiz, ongsiz va nodon musulmon xotin bilan tarbiyalik madaniy ovro‘palini solishtirib ko‘rasiz. Farq osmon bilan yer qadar! Darhol bilinadi”<sup>257</sup>, - deydi. “Tarbiyasiz, ongsiz va nodon musulmon xotin” – bu so‘zlar achchiq haqiqat ekanini Poshshaxon singari ayollar timsolida ko‘ramiz.

Dilbar qiz Mariya Miryoqub bilan shar’iy eru xotin bo‘ladi. Aynan mana shunga o‘xhash holatni Ismoil Gaspralining “Farangiston maktublari”da ham uchratamiz. Miryoqub rus go‘zali Mariyaga ko‘ngil qo‘ygan bo‘lsa, Gasprali qahramoni Mulla Abbas fransuz go‘zali Jozefinaga ko‘ngil qo‘yadi. Bu g‘ayridin qizlar nafaqat o‘zlarining husnu malohati, balki dunyoqarashi, til bilishi va dunyoviy bilimlari bilan Miryoqub va Mulla Abbasni maftun etadilar. Ayol go‘zalligi ilmu fasohat bilan uyg‘un bo‘lishi zarurligining yana bir dalili.

Mingboshi xonadonida esa kundoshlar mojarosi va xiyonatlar davom etadi. Sultonxon va Poshshaxonga mingboshi ajrashish uchun ruxsat bermagan edi. Qarabsizki, Poshshaxon har hafta Miryoqub bilan ko‘ngil xushlashib yurgan bo‘lsa, Sultonxon ham uzoqqa borib o‘tirmasdan, mingboshining mirzasi Hakimjon bilan birga tunlarni o‘tkazib, vaqtichog‘lik qilib yura boshlaydi.

Zebi ham mingboshiga “taslim bo‘lgach”, uchala kundosh baxtsizligining alamini bir-biridan olish bilan ovora. Razolat bobida hammasidan oshib tushgani Poshshaxon bo‘ldi. Zebining boshiga tushajak fojia uning kallasida pishgan reja asosida sodir bo‘ldi. “Tabarruk” suvga zahar solindi. Endi natijani kutish uchun hammaning ko‘zidan holi uyda kasal bo‘lib yotvolish ham rejaga asosan edi. Nihoyat “o‘q otildi”. Lekin “o‘q mo‘ljalga tegmagan edi”. Poshshaxonning o‘qi mingboshiga tegib, Zebini og‘ir yarador qilgan edi.

Asarning kulminatsion nuqtasi Zebining sud “tomosha”siga bag‘ishlangan bo‘lib, bu yerda ham istagancha haqsizlik, zulm va tuhmatni kuzatamiz. Odam nechog‘li sodda, omi, haq-huquqini bilmaydigan, xat-savodsiz kimsa bo‘lsa, shu qadar ayanchli qismatga ro‘baro‘ bo‘lishiga Zebining taqdiri misol. Asar xotimasi

---

<sup>257</sup> O‘sha asar. – Б. 197.

juda ayanchli, ma'yus va beshafqat. Yumaloq-yostiq qilib o'tkazilgan sud Zebini yetti yilga Sibirga surgun qilishga hukm qiladi. Alam o'tida yongan Razzoq so'fi eshonni o'ldirib, daraksiz yo'qoladi. Zebi kabi jabrdiyda onaizor Qurvonbibi esa aqldan ozib qoladi.

Darhaqiqat, o'tgan asr boshida surgun va qatag'on xalqning boshiga tushgan eng og'ir kulfatlar edi. Bu kulfat erkagu ayolning qismatidagi qora yozuq bo'ldi<sup>258</sup>. "Kecha va kunduz"da Zebining surgun qilinishi, ya'ni ayol kishining surgunga uchrashi kutilmagan holat edi. Lekin surgun masalasi XIX asr oxirlaridayoq Rossiyada avj olgan edi. Sho'ro tuzumiga qadar rus yurtida hukmronlik qilgan Romanovlar sulolası davrida surgunga uchragan dekabristlar haqida ko'plab ma'lumotlar bor. Dekabristlarning nafaqat o'zları, ularning ayollari ham surgunda bo'lishgan<sup>259</sup>. Hukumatga qarshi bosh ko'targan o'nlab dekabristlar Sibir o'lkalariga surgun qilinar ekan, ularning ayollari, rafiqalari barcha musibatlarni erlari bilan birgalikda yengishga azmu shijoat qilib, surgun davrini ular bilan birga o'tkazadilar.

Mustamlaka xalqning zulmini ich-ichidan his qilgan Cho'lpon vaqtı kelib Maryam Sultonmurodova kabi millatimizning ziyoli qizlari xuddi Zebi kabi surgun qilinishini sezgandek ushbu asar va xotimani taqdim etgan.

---

<sup>258</sup> O'tgan asrning 30-yillarda sobiq Sovet Ittifoqi bo'ylab keng avj olgan quloqlashtirish siyosati ko'plab xotin-qizlarning surgun qilinishiga sabab bo'lgan. Rus yozuvchisi Guzel Yaxinaning "Zulayho ko'zlarini ochdi" asari (2015) shu haqda. "Zulayho ko'zlarini ochdi" romanidagi voqe-hodisalar rivoji 1930 yilda tatar qishlog'ida boshlanadi. 1930 yil qishda quloq qilingan Zulayxoning eri qizil armiyaga hujum qilgani uchun o'ldiriladi. Uning o'zini esa yuzlab surgunga uchraganlar qatori Sibirga yuboriladi. Romanning ikkinchi qismida Angara daryosi bo'yidagi olis taygada oziq-ovqat, boshpana va issiq kiyimsiz tashlab ketilgan, surgun qilinganlarning omon qolishi haqida hikoya qilinadi. Turli millat, e'tiqod va taqdirga mansub odamlar sovuq havo sharoitida va yangi tartiblar ichida omon qolish uchun birgalikda kurashishlari kerak edi. Asar markazida qattiqko'l er va sovuqqon qaynona bilan qishloqda qullarcha mehnat va doimiy xo'rlikda yashayotgan yosh tatar ayoli Zulayho Valievaning taqdiri mujassam. Kommunist Ivan Ignatov boshchiligidagi yangi hukumat vakillari uning erini o'ldirgach, homilador Zulayxo boshqa "quloqlashtirilganlar", qishloq aholisi, Sankt-Peterburg ziyyolilari va boshqa "xalq dushmanlari" bilan birga qoramol uchun mo'ljallangan vagonlarda Sibirga jo'natiladi. Noziknihol ayolning bu yangi hayotda bor ishonch-umidi o'g'li Yusuf edi, onaning o'g'liga bo'lgan cheksiz muhabbat yashash uchun kuch bag'ishlaydi.

<sup>259</sup> См.: Снитовский А. Судьба жен декабристов: романтическая история любви или трагедия всей жизни? / <https://dzen.ru/a/Y7ap-ttsdHkURjZJ>; И навеки веков: история жён декабристов / <https://diletant.media/articles/27081257/?ysclid=ltsmoa4kd6163460920>; Последнюю за тобой на край света: истории жён декабристов / <https://www.culture.ru/materials/255588/posleduyu-za-toboi-na-krai-sveta-istorii-zhen-dekabristov?ysclid=ltsmqw1186847399504>

Birgina Zebi timsolida o'sha davr ayollarining mash'um taqdiri, o'zgalar tomonidan bo'g'ilayotgan kelajagi, toptalayotgan sha'ni va g'ururi, ko'rayotgan jabr-sitamlari tasvirlangan. Ayol kishi ta'lim olishi shunchaki xayol, orzu edi. Ularni jaholatga yetaklayotgan qoloq va ko'zlarini parda qoplagan jamiyatga mazkur asarlar bilan oyna tutilgan. Muallifning asosiy maqsadi mavjud tuzumni tagtomiri bilan o'zgartirish edi. Zebi faqat ayollik latofati va oljanob insoniy fazilatlari bilangina emas, ayni paytda xush ovozi bilan barchaning e'tiborini tortadi. Ammo ijtimoiy tengsizlik hukmron bo'lgan va ayollar qadr-qimmati oyoqosti qilingan jamiyatda Zebining orzu-havaslari yanchiladi. Cho'lpon Zebi va unga o'xshagan jabrlangan ayollarning ozod bo'lishini, o'z taqdirini o'zi hal qilishini, hur-erkin, ilm-ma'rifikatli bo'lishni istaydi.

Zebi hayotida YO'L motivi hamma narsani o'zgartirib yuborgan edi<sup>260</sup>. Bu TAQDIR YO'LI edi, aynan ana shu yo'lda u ilk bor O'lmasni sevib qoldi, shu yo'lda u oxirgi bor tengdosh dugonalari bilan o'ynab-yayrab qoldi, shu yo'l sababli uning fojeiy qismatiga zamin yaratildi va shu yo'l oxiri uni Sibirga surgun qildi.

Zebidagi soddalik, tobelik, katta inqilob qila olmaslik butun xalqqa xos illatlar edi. Cho'lpon asarda xalqning milliy ruhiyatidan kelib chiqib tipik voqelikni badiiylashtiradi. Bu hodisa xotin ustiga xotin olish voqeasi orqali tasvirlanadi. Asardagi baxtsiz birgina Zebining o'zi emas, uning kundoshlari ham baxtsiz. Ular o'z qavmlari (ayol zoti)ni o'zlari xo'rlaydilar. Ular bir-birlariga ayol deb emas, kundoshlar sifatida qaraydilar. Aynan mana shu ularning baxtsizligi nishonasidir. Ulardagi baxtga zorlikning yagona sababi esa ayol qadr-qimmatining e'tibordan chetda qoldirilayotgani, ayolga qarata "*Sen ham baxtlimisan?*" deya biror bora savol berilmagani, zamona ilm-fanidan bebahralik va johillik ortidan ko'r-ko'rona ergashib borishdir. Xotin ustiga xotin olaveradigan Akbaralida esa men nima qilyapman-u nima qilishim kerak qabilidagi o'ylovning o'zi yo'q edi.

Jadid adabiyotida ayollar timsoli o'ziga xos real tasvirlangan. Bunda o'sha davr tuzumi qattiq qoralanib, ayollarni ilm-ma'rifikatga, jaholat botqog'idan chiqarishga da'vat etiladi. Xususan,

<sup>260</sup> Yo'l motivining Cho'lpon nasrida va she'riyatida nechog'li o'rin egallashi haqida prof. D.Quronov, f.f.d. N.Yo'ldoshevlar o'z tadqiqotlarida atroflicha tahlil va talqin etishgan.

Cho‘lponning “Kecha va kunduz” asarida Zebi timsolida o‘sha davr ayollari erksizligi ochib beriladi. Romandagi xotin-qizlar obrazini bir necha turlarga bo‘lib tasnif qilish mumkin. Avvalo *o‘zbek ayollari va rus ayoli*. Ikkinchidan, *onalar va qizlar obrazi*. Uchinchidan, *rafiqalar va kundoshlar obrazi*. Bular orasida ayolligini ham, insonligini ham unutgan ayollar kundoshlar edi. Aynan kundoshlik hamma razolat uchog‘ini yoqqani kuzatiladi.

Xususan, Mariya haqida gapiradigan bo‘lsak, u mahalliy xotin-qizlardan har tomonlama tubdan farq qiladi. Uning islovoxonaga tushib qolishiga yetimligi sabab bo‘lgan bo‘lsa, u yerdan tez fursatda chiqib ketishiga uning pok va beg‘uborligi, dilbar va go‘zalligi sabab bo‘lib, Miryoqubni maftun qilgan edi. Mariyadagi tabiiylik, beg‘uborlik va samimiylilik Zebining xarakteri bilan o‘xshash. Ikkisi ham pokdomon ayollar. Bu qahramonlarda psixologik va tipologik o‘xshashlik mavjud. Biroq ularning o‘rtasidagi asosiy farq ilm-ma’rifatda. Biri savodli, ikkinchisi savodsiz. Mariyada yevropacha erkin fikrlash, his-tuyg‘ularini ochiqcha aytish kabi jihatlar bor. Zebiga esa sharqona ibo, hayo va mutelik xos.

Boshqa xotin-qizlar obrazlarining deyarli barchasi botqoqqa botib, u yerdan chiqsa olmayotgan, dardini hech kimsaga ayta olmayotgan, mehrga, e’tiborga, erk va ozodlikka zor ayollar siymosining umumiyligi ko‘rinishi. Ular orasida ayollik baxtidan masrur birorta obraz bormi, deyilsa, hech ikkilanmasdan, “yo‘q” deb javob bera olamiz. Birgina Zebi emas, Sultonxon, Poshshaxon, Hadichaxon ham baxtli bo‘lishga haqli edi. Lekin qay biri baxtli bo‘ldi. Zebining onasi yoxud Miryoqubning xotinini olsak, ularning aybi sadoqati va vafosidami, deydi kitobxon. Ular pokiza muhabbat evaziga zug‘um va xiyonat bilan taqdirlandilar, xolos.

Cho‘lpon ayollar obrazini xuddi Qodiriy kabi ipidan-ignasigacha, nafosatidan razolatigacha, soddaligidan makkorligigacha, vafodorligidan xiyonatkorligigacha, ilmlisidan johilasigacha – hamma qirralarni turli qahramonlar timsolida ochib bergen. Bir xil ijtimoiy muhit yetishtirgan xotin-qizlardagi umumiylilik shunda ediki, ularning go‘zal va dilrabosi yoxud eng beo‘xshovi ham, siposi va sher kabi yulg‘ichi ham, tarbiya ko‘rgan ziyolisi va soddako‘ngillisi ham erkaklarga birdek qaram va mute’ edi. Ular na

o‘z erkiga, na huquqiga, na o‘z taqdiriga ega edi. Ona, rafiqqa, qiz farzand – hammasi bir xil maqomda turuvchi ayollar. Ularning tili, hayoti, taqdiri, his-tuyg‘usi, orzu-armonlari – hammasi yo er, yo otaning ixtiyorida.

“Kecha va kunduz” romanidagi ayollarni quyidagicha tasnif qilish mumkin: **1-erksizligi bois insoniyligini yo‘qotgan ayollar** (Xadichaxon, Poshshaxon, Sultonxon); **2-erksiz bo‘lsa-da, qalbida ziyozi bor ayollar** (Zebi, Saltanatxon, Enaxon, Qumri, Fazilat, Bahri, Qurvonbibi, Umrinisabibi, Enaxonning onasi, Enaxonning kelinbibisi, Miryoqubning xotini, Xolmatning xotini); **3-ma’rifatli va erkin ayol** (Mariya).

Adabiyotshunos Erik Karimov Cho‘lpon ijodiga rus (Lev Tolstoy), ingliz (Valter Skott), fransuz (Viktor Gyugo), arab (Jo‘rji Zaydon) adabiyotlarining ta’siri haqida yozgan<sup>261</sup>. Adib Zebini tasvirlashda xuddi Tolstoy Natasha Rostovani tasvirlaganchalik nazokat bilan yondashgan. Zebi bilan sodir bo‘lgan fofia uni sudlanuvchilar kursisigacha olib keladi. Sud jarayonida yozuvchi Zebi ustidan o‘zining his-tuyg‘ularini boricha to‘kib sochadi va yosh qizning soddaligi, himoyasizligini qonun xizmatchilarining ayyorligi va xiyonati bilan qarama-qarshi qo‘yadi. Tolstoyning “Tirilish” romani qahramoni Yekaterina va “Kecha va kunduz”dagi Zebi o‘rtasidagi o‘xshashlik sud majlisi misolida D.Quronov tomonidan keltirilgan. Tolstoyning “Tirilish” va Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanida ham sud hujjatlarining batafsil tavsifi; ikkala qahramon ham o‘zлari bilmaydigan ayblov – odamni zaharlab o‘ldirganlikda ayblanishi; ikkala qahramon ham Sibirga surgun qilinishi; guvohlar faqat ayblanuvchilarga qarshi guvohlik berishi; ikkala prokuror ham ayblanuvchilarni jamiyat uchun xavfli deb atashi kabi o‘xshashliklar Cho‘lponning Tolstoy ijodidan ta’sirlanganidan dalolat berishi haqida olim gapirar ekan, shunga o‘xshash yana ko‘plab analoglar keltirib o‘tgan<sup>262</sup>.

Cho‘lpon “Kecha va kunduz” romaniga Yevropa ayoli obrazini bejiz kiritmagan. U Yevropa ayolida ko‘p ijobiy jihatlarni ko‘rgan. Lekin Yevropa va rus ayollarining taqdiri havas qiladigan

<sup>261</sup> Qarang bu haqda. Каримов Э. XX аср бошида Туркистонда адабий муштараклик // Ўзбек тили ва адабиёти, 1994 йил, № 4-5-6. – Б. 21.

<sup>262</sup> Куронов Д. Чўлпон насли поэтикаси. – Т.: Шарқ, 2004. – Б. 234.

ahvoldamidi, degan savol tug‘iladi. Ushbu faslda xotin-qizlar obrazidagi milliy ruh masalasini tadqiq etar ekanmiz, jadid ijodkorlarining boshqa millat adiblari bilan o‘zaro adabiy ta’siri ular yaratgan asarlarda nechog‘li aks etganini e’tibordan chetda qoldira olmaymiz.

Jadid ziyolilari xotin-qizlar ma’rifati haqida qanchalar kuyunchaklik bilan murojaat qilgan bo‘lsalar, ingliz ma’rifatparvar adibi Daniel Defo ham XVIII asrda bu masalaga xuddi shunday iztirob bilan yondashadi: “*Yaxshi tarbiya ko‘rgan va ma’rifatli ayol beqiyos mavjudotdir... Ma’rifatli ayol sevgi, aql va barcha ezgu istaklar timsolidir*”<sup>263</sup>. **Xoh Yevropa ayoli bo‘lsin, xoh Turkiston ayoli bo‘lsin – har ikkisi ham ma’rifat libosiga muhtoj edilar.** “Yevropa ayollarining azob-uqubatlari, ularning sinfiy tabaqalanishlari va jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik kabi masalalar ana shu davr adabiyotida ham o‘z aksini topgan. Ayollar olamini, ularning ruhiy kechinmalarini yoritish milliy uyg‘onish davri adabiyotining ma’rifatparvar vakillari Daniel Defo, Samuel Richardson, Genri Filding asarlarida yaqqol namoyon bo‘lgan. Ilk milliy uyg‘onish davri vakili D.Defoning “An essay upon projects” pamfletida xotin-qizlarni ma’rifatli qilish g‘oyalari ilgari surilgan”<sup>264</sup>. Samuel Richardson va Cho‘lpon ijodidagi ayollar, ya’ni Pamela va Zebo obrazlarini qiyosiy tadqiq qilgan S.Usmanovaning ushbu xulosasi ijodkorning o‘zaro ijodidan ta’sirlanish va ilhom olish haqidagi fikrimizni yana bir bor tasdiqlaydi: “Zebidagi hayo, iffat, or-nomus, ota-onaga itoatkorlik Pamelada ham namoyon bo‘ladi”<sup>265</sup>.

*Kumush, Ra’no, Zebi kabi qahramonlarimizni birlashtirib turuvchi shunday bir jihat bor – bu ularning pok va beg‘ubor sevgisi.* Shu o‘rinda ularning ota yoki onasini ham birlashtirib turuvchi jihatlar yo‘q emas. Bu haqda fikr yuritish uchun XVIII asrning oxiri va XIX asrning boshida yashab ijod etgan ingliz

<sup>263</sup> <https://www.gutenberg.org/files/4087/4087-h/4087-h.htm> // Daniel Defoe. An Essay upon Projects. Cassell & Company, limited: London, Paris, New York & Melbourne, 1887. Дата выпуска: 10 августа 2014 г. [электронная книга № 4087]

<sup>264</sup> Усманова С. Ўзбек ва инглиз романларида аёл руҳияти тасвири (Абдулҳамид Чўлпон ва Самуэль Ричардсон ижоди мисолида). Филол.фан. ... (PhD) дисс. – Фарғона, 2021. – Б. 26.

<sup>265</sup> O‘sha manba. – Б. 42.

adibasi Djeyn Ostinning “Andisha va g‘urur” asari qahramonlariga to‘xtalib, o‘zaro qiyoslab ko‘ramiz. Besh nafar qiz farzanddan biri Elizabet Bennet ismli go‘zal va oqila qiz chin sevgini kutib yashaydi. Biroq uning onasi missis Bennetning xayolida kechayu kunduz bitta tashvish – qanday bo‘lmisin qizlarini tagli-tugli kuyovlarga uzatish. Kunlardan bir kuni ular yashaydigan shaharchaga mister Bingli ismli badavlat kishi ko‘chib kelgani haqida Bennet xonim xabar topishi bilan turmush o‘rtog‘iga yuzlanib, shunday deydi: “*Bo ‘ydoq, azizim, hamma gap shunda-da, bo ‘ydoq! Yiliga to ‘rt yoki besh ming daromad topadigan bo ‘ydoq! Bizning qizlarimiz uchun juda qulay imkoniyat-a?*”<sup>266</sup>. Ko‘rib turganimizdek, Missis Bennet, ko‘pchilik qatori, xususan, bizning Razzoq so‘fi yoki Solih Maxdum singari, boy kuyovni, foydali nikohni orzu qiladi. E’tibor beraylik, qizning onasi Bennet xonim boy kuyovni orzu qilyapti, “Kecha va kunduz” yoxud “Mehrobdan chayon”da esa, aksincha, onalarning emas, otalarning “orzusi” shunday edi. Afsuski, o‘sha payt va hozir ham, Yevropa va Sharqda ham hisob-kitob bilan quriladigan oila – nikohlar ko‘plab uchragan va uchraydi. Eng qizig‘i, hisob-kitobli nikohni na Kumush, na Ra’no, na Zebi xohlamagan. Ularning onalari Oftob oyim va Nigorxonim ham, Qurvonbibi ham boy kuyovga qiz uzatishni o‘ylash tugul, bunga mutlaqo qarshi bo‘lishgan. Mol-davlatdan ko‘ra farzandi baxtini ustun qo‘ygan o‘zbek onasining maqomi bir pog‘ona baland turishining yorqin dalili bu. Missis Bennetning qizi Elizabet tabiatan onasiga zid, u qadr-qimmatini hech qachon pulga sotmaydi. Uning uchun oila qurishda eng avvalo mehr-muhabbat zarur. U chin sevgi tarafdori. Boylik, mansab, obro‘-e’tibor – uning uchun yot narsalar edi. Bizning qahramonimiz Ra’no uchun ham xonning boyligi zarracha qiyamatga ega emas. Axir uning suyuklisi – qalbi go‘zal, dunyoqarashi keng, iste’dodli Anvari bor edi.

Jadid ijodkorlari yaratgan ayollardagi milliy o‘ziga xoslik boshqa millatlarning ayollari bilan o‘zaro qiyosda yanada ochiq ko‘rinadi. L.Tolstoyning “Anna Karenina” asari bosh qahramoni taqdiri fojiali tugashi bejiz emas edi. U hayotini mehr-muhabbat bilan emas, majburiyat bilan boshlagan edi. Xolasining siquvi bilan

---

<sup>266</sup> Остин Ж. Андиша ва ғурур. – Т.: Янги аср авлоди, 2019. – Б. 9.

o‘zidan 20 yosh katta bo‘lgan erkakka turmushga chiqqan, sevgi-muhabbat tuyg‘usidan mutlaqo bexabar Anna toki Vronskiyni uchratgan kuniga qadar shu zaylda yashashni davom etar edi. Vronskiy bilan ilk uchrashuvdan e’tiboran Anna o‘zini sevib-sevilib yashayotgan baxtli ayol sifatida his qila boshlaydi. XIX asrga kelib Yevropa bo‘ylab emansipatsiya, nikohda xotin-qizlar teng huquqliligi kabi masalalar bo‘yicha bahslar ketayotgan bir pallada Tolstoy ayol va erkakning na sevgi-muhabbatda (*Anna Karenina*), na oilada (Konstantin Lyovin) hayotning asl mazmunini, ya’ni chinakam baxtini topa olmagan qahramonlarni yaratdi. Vaholanki, inson baxtli hayotga erishmog‘i uchun baxtli oila qurishi lozim. O‘z oilasidan baxt topa olmagan Poshshaxon va Sultonxon ma’shuq orttirish yo‘li bilan baxtli bo‘la olmadilar. Shu o‘rinda Lev Tolstoysa singlisi tomonidan yozilgan xatni keltirish ayni muddao: “*Yo Tangrim, qaniydi hamma Anna Kareninalar o‘zini nimalar kutayotganini bilsalar edi, ular soniyalik lazzat zavqidan voz kechgan bo‘lar edilar, chunki qonuniy bo‘lmagan hech narsa na baxt, na lazzat keltira olmaydi. Biz o‘zimizni-o‘zimiz “men baxtliman, men sevaman, men sevilyapman”, deb aldaymiz, xolos*”<sup>267</sup> – (tarjima – N.X.). Tolstoyning *Anna Kareninasini* ham, Hamzaning Maryami yoxud Jamilasini ham suiqasdga olib kelgan sabab bitta – sevgi.

### **3.2. Jadid nasrida ona obrazining badiiy tasviri**

Ona – eng qadim zamonlardan boshlab adabiyotning buyuk va abadiy mavzularidan biri. Ona siy whole siga yuksak ehtirom bilan munosabatda bo‘lish adabiyot an’analaridan biri. Xalq ertaklari, qo‘sishqlari, dostonlari va yozma asarlarida ona siy whole hamisha yorqin ranglarda aks ettiriladi. Ona siy whole nafaqat nazokat, mehribonlik, balki buyuk iroda kuchi, har qanday muammo va tashvishlarga qarshi turishi bilan betakror. Onalik qiyofasi onalik sevgisi bilan bog‘liq holda tasvirlanar ekan, onaning farzandiga bo‘lgan samimiy mehr-muhabbati ochib beriladi, farzandlar ona hayotining mazmuni ekanligi ko‘rsatiladi.

---

<sup>267</sup> Тришкина Э.Р., Вдовых В.В., Холопова М.И. «Анна Каренина»: нарциссические замки и реальность // Журнал практической психологии и психоанализа. 2022, №1 <https://psyjournal.ru/articles/anna-karenina-narcissicheskie-zamki-i-realnost>

Ona obrazi har bir asarda betakror tasvirga, o‘ziga xos detallarga ega. Ayol-Oila-Ona tushunchalari bir-biri bilan shunchalar uzbek bog‘langanki, oiladek buyuk maskanni ayol-onasiz tasavvur qilolmaymiz. Oiladagi muhit, milliy qadriyatlar, an’analar, mehmondorchilik, va eng asosiysi, bolalar tarbiyasi, shak-shubhasiz, ayollarga bog‘liq. Erni hurmat qilish va oilani saqlab qolish ayol baxtining eng oliy pog‘onasidir. Oilaning qo‘rg‘oni sifatida tan olinadigan ayol, aslida, jamiyatni va davlatni boshqarishga ham qodir inson ekani barchaga ayon haqiqat.

“Bizning onalar” (G‘afur G‘ulom) maqolasida Oloy malikasi deb nom olgan Qurbonjon dodxohning o‘g‘li Qamchinbek yovga qarshi kurashib, qo‘lga olingan paytida dor ostiga kelar ekan, ot minib kelgan ona o‘g‘liga qarab shu so‘zlarni aytadi: “Xayr, o‘g‘lim, bizning avlodga shahid o‘lmoq – otameros. Bergan sutimga roziman!”. Qamchinbekdek jasur yigitlarning ortida yuragida o‘ti bor mard onalar turgani bu yurt, bu xalqning yovdan qo‘rqmas vatanparvar momolari borligi isbotidir. Odamzotdan bu dunyoda qolajak narsa – yaxshi nom va yaxshi nasl. Vatanparvarlik, matonat va jasorat yaxshilikning oliy ko‘rinishi. Yurti, millati va xalqi uchun o‘z halovatidan voz kechgan farzand ortida, shak-shubhasiz, mehri daryo onalar turadi.

Shijoatli va jasoratli millat farzandlari, avvalo, fidoyi onalar tarbiyasi mahsuli. Momolarimiz Qurbonjon dodhohdek mard, Saroymulkxonimdek zakovatli, Nodirai Davron kabi benazir qalb sohibalari bo‘lganidan faxrlanish barobarida ularga munosib avlod bo‘lish hissi tark etmasligi lozim. Millat taraqqiy etmog‘i uchun qanday onalar zarur? O‘zbek oyimlarmi, Oftob oyimlarmi yoxud Kumushlarmi, Ra’nolarmi? Bu savolga mana shu kabi qahramonlar hayoti, taqdir yo‘llari va umr sahifalari javob bo‘ladi.

Badiiy asarda Ona obrazi takomili bevosita ona va farzand, ona va oila, ona va umr yo‘ldoshi, ona va jamiyat, ona va qarindoshlar, quda-andalar munosabatida oydinlashadi. Xususan, so‘z o‘zbek onasi haqida ketar ekan, tadqiqotimiz ob‘ekti bo‘lgan har bir adib ijodida betakror Ona obrazini ko‘rishga muvaffaq bo‘ldik. Mualliflar asar syujetini, voqeа-hodisalarni shunday mohirlilik bilan rivojlantiradiki, ona obrazining eng nafis, eng nozik va mehribon zot ekaniligi o‘z tasdig‘ini topadi.

Qodiriyning “O’tkan kunlar” romani qahramonlari Oftob oyim va O’zbek oyim kabi ikkita ona obrazini tahlilga tortsak. Ular o’zlarida o’zbekning benazir onalari obrazini mujassam etgan. Oftob oyim obrazi o’ta iffatli, ziyoli, go’zal xulqli, fasohatli ayol. O’zbekona ibo-hayosi bor ayol. U farzandiga nisbatan cheksiz mehr va muhabbat sohibasi. Farzandining baxtu saodati uchun har narsaga tayyor inson. U har qanday holatda ham qiziga ma’nan va ruhan malham bo‘lishni, unga tirkak va dastak bo‘lishni uddasidan chiqadigan ona. U yolg‘iz qizining beminnat maslahatgo‘yi, dardiga malhami va suyanchig‘i. U nimaiki qilsa, faqat qizining baxti uchun qiladi. U turmush o’rtog‘i Mirzakarim quridor bilan bamaslahat ish ko‘radigan sadoqatli, vafodor ayol timsoli. Uning go’zal sabru qanoati, andishayu hayosi oldida har qanday o’zbek ayoli havas qilsa arzigelik.

Abdulla Qodiri ayollar obrazini yaratishda ko‘p jihatdan an’anaviylikka ergashgan va hatto qahramonlarga ismlar tanlashda ham ularning ma’nosi va genezisiga katta e’tibor qaratgan. Xususan, Oftob oyim, O’zbek oyim, Kumushbibi ismlar buni tasdiqlaydi. Shu o’rinda ta’kidlash joizki, nom masalasida ijodkorlarning turlicha yondashuvi kuzatiladi. Masalan, Qodiri “O’tkan kunlar”da Oftob oyim, Kumush obrazlariga ezgulik kategoriyasi nuqtayi nazaridan yondashsa, asardagi Jannat, Xushro‘ybibi obrazlarida esa ismiga muvofiq bo‘lmagan ayollar timsoli yaratilgan. Yoki Cho‘lpon ijodida O’lmasboy ismi “Kecha va kunduz”da ijobiy, “Novvoy qiz”da salbiy qahramon uchun tanlangan.

Oftob so‘zi quyoshni anglatadi. Quyosh esa tiriklik manbai. U Yer yuzida insoniyat va barcha tiriklik mansha’i. Yozuvchi azal-azaldan turkiy xalqlar e’zozlagan Quyosh ismini Oftob oyimga bergani bejiz emas. Oftob oyim obrazida mujassam bo‘lgan barcha fazilatlar zako, hayo, adab, andisha, mehr-muruvvat va munislikdadir. Har bir o’zbek farzandi sevib mutolaa qiladigan “Alpomish” dostoni bosh qahramoni onasining ismi ham Kuntug‘mish ekani o’zbek adabiyotida quyoshga mengzalgan onalar obrazi ko‘plab uchrashi isbotidir.

Xuddi shu o’rinda Qur’oni karim, Hadisi sharif g‘oyalari bilan sug‘orilgan o’zbek mumtoz adabiyotiga nazar solsak, mana bunday misralarni o‘qishimiz mumkin:

*Yaxshi xotunlar safoyi zuhdidin  
 Olam ichra gar yorug ‘luq bo ‘lsa fosh,  
 Yo ‘q ajab, chunkim arab alfozida  
 Istiloh ichra muannasdur quyosh.*

Alisher Navoiyning “Badoe’ ul-vasat” devonida “*Yaxshi xotunlar safoyi ro ‘zgori quyosh nurig‘a misoldur va shamsning muannas ekani munga dol*” deb boshlangan yuqoridagi qit’ada hazrat Navoiy xotin-qizlarni quyoshga mengzab, buning isboti sifatida “quyosh” so‘zining muannasda kelishini ta’kidlab o‘tmoqda<sup>268</sup>.

Dunyoda ona muhabbatidek pok va sof tuyg‘u hech qaerda yo‘q. Xoh O‘zbek oyim, xoh Oftob oyim, xoh Nigorxonim, xoh Qurvonbibi bo‘lsin, har birlari ona rolida muqaddas va tengsiz. O‘zbek oyim chinakam xarakter darajasiga ko‘tarilgan obraz. Unda o‘zbek ayoliga xos fazilatlar jamlangan. Uchta zo‘ravonni bir o‘zi yenggan Otabekdek jasur yigitning ortida ham O‘zbek oyimdek jasoratli, dangalchi ona turibdi.

O‘zbek oyim ismi jismiga monand ayol. U o‘zbek ayoli va onasining tipik ko‘rinishi. O‘zbek oyim portreti juda original tasvirlarda berilgan. Otabekning Kumushga uylanishiga onasining munosabati berilgan lavhada adib mana bunday yozadi: “...otasi uchun uncha rizosizlikka mujib bo ‘lmasa ham, ammo uning o‘g‘il to ‘yisidan boshlab, Toshkand qizlarini ost-ust qilib, u “buning qizi yaxshi bo ‘lsa ham, uy-joylari yaramas ekan; buning uy-joylari tuzik bo ‘lsa ham, qizi ko‘rksiz ekan; buning qizi-da, uy-joylari-da tuzik, biroq zoti past ekan” deb qiz, quda, uy-joy, nasl va nasab tekshirib yurg‘uchi O‘zbek oyimning Otabekni uylandirib, buning orqasidan ko‘radurgan orzu-havas, to ‘yu tomoshalarini shartta kesib qo ‘yg‘an bu uylanishga nima deyishi va qanday qarashi albatta ma’lum edi”. Romandagi ana shu vaziatni tahlil etar ekan, Nurboy Jabborov quyidagicha fikr bildiradi: “Otabekning Kumushga uylanishida o‘zbek milliy axloqining negizlaridan sanalgan, har bir farzand qat’iy amal qilishi shart bo‘lgan bir udumga rioya etilmagan – bu ish ota-onas ruxsatisiz, ularning oq fotihasini olmay bajarilgan edi. Holbuki, “og‘ma” O‘zbek oyim ham Kumushni ko‘rgach, yoqtirib

---

<sup>268</sup> Жабборов Н. Маоний ахлининг соҳибқирони. – Т.: Adabiyot, 2021. – Б. 160-161.

qoladi. Otabek ota-onas rizosi bilan uylanganda, ehtimol, bu muhabbat qissasining xotimasi o‘zgacha bo‘lmog‘i ham mumkin edi”<sup>269</sup>.

O‘zbek oyimning millatimiz ayollariga xos eng nozik jihatni bu uning shirin so‘z va mehr oldida ojizligidadir. Kechagina “andi” deb atayotgan marg‘ilonlik kelinni ilk ko‘rgan zahotiyoy cheksiz mehr bilan sevib qolishi, unga parvona bo‘lishi, hatto Zaynabdan ham ko‘ra Kumushga bog‘lanib qolishi – bular hammasi uning pok va samimiyy muhabbatidan. Aslida, O‘zbek oyimning qalbi mehr-muhabbatga to‘la. U Otabekni baxtli ko‘rish uchun har narsaga tayyor...

“O‘tkan kunlar” romanidagi O‘zbek oyim obrazini uchun adib atrofida uchragan yuzlab o‘zbek onalarini prototip qilib olgani shubhasiz. Muco Toshmuhammad o‘g‘li Oybek O‘zbek oyim obraziga baho berar ekan, uni romandagi “eng jonli, realistik chiziqlar bilan ko‘rsatilgan shaxs, o‘z xohishiga teskari kelgan haqiqatni ko‘rmaydigan qiziq tabiatga molik kimsa” deb ta’riflaydi.

Asarning “Qudalarni kutib olish” bobida quyidagi jumlalarni o‘qiyimiz: “Kumush salom berdi va qo‘lidagi paranjisini yerga tashladi, yugurib kelib o‘zini O‘zbek oyimning quchog‘iga otdi. O‘zbek oyim ham uni mahkam siqib quchoqlab olgan, yuzidan shap-shap o‘pib, aylanib, o‘rgilar va tikilib-tikilib nima uchundir yig‘lar edi”. Eng hayotiy va eng jonli obraz O‘zbek oyim asarga o‘zgacha ruh bag‘ishlaydi.

“Har bir mahalla, har bir qishloqning o‘z O‘zbek oyimi bor, yozuvchi aytganday, bularsiz na to‘y o‘tadi, na aza! Hatto erkaklar ham ularning maslahatisiz ish qilishmaydi!”<sup>270</sup>, - deydi Odil Yoqubov. O‘zbek oyimning oiladagi hurmat-e’tiborini uning umr yo‘ldoshi Yusufbek hoji ham qo‘llab-quvvatlashi shubhasiz. Yusufbek hoji o‘g‘li Otabekka qarab, allaqachonlar O‘zbek oyim tomonidan pishitib qo‘yilgan ishni mana bunday yetkazadi: “O‘g‘lim, hali sen eshitdingmi, yo‘qmi, haytovur, biz sening ustingdan bir ish qilib qo‘ydiq...”<sup>271</sup> Shu bir og‘iz jumlanı Yusufbek hoji ming bir istihola bilan o‘g‘liga aytadi. Chunki Yusufbek hoji

<sup>269</sup> Жабборов Н. “Ўткан кунлар”да миллий рух ифодаси // Филология масалалари, 2020. № 2. – Б. 8.

<sup>270</sup> <https://ziyouz.uz/matbuot/soviet-matbuoti/odil-yoqubov-abdulla-qodiriyni-oqiganda-1969/> / Одил Ёкубов. Абдулла Қодирийни ўқиганда (1969)

<sup>271</sup> Қодирий А. Ўткан кунлар. – Тошкент: Faafur Fulom, 1972. – Б.137.

ham, o‘g‘li Otabek ham bu “qilingan ish” to‘g‘ri ish emasligini yaxshi bilishardi. Lekin Yusufbek hoji hamma aybni xotiniga ag‘darib qo‘yishni o‘ziga ep bilmaydi. U xotini O‘zbek oyimni ayaganini sezish mumkin. U “onang qildi”, “onangning ishi” demay, “biz qilib qo‘ydik”, deya madaniyat bilan munosabat bildiradi. Yusufbek hoji oilaboshi, shuning uchun ham ayolining izzatini saqlaydi. “Otabekning so‘zlari bunday vaziyatda aqli o‘g‘ildan kutiladigan eng oqilona javob. Unda nafaqat ota-onada xohishiga rizolik, shuning barobarida e’tiroz ham mujassam. Biroq bu e’tiroz benihoya madaniy tarzda, donishmand otani ham o‘ylantiradigan, kerak bo‘lsa, noqulay vaziyatga solib qo‘yadigan shaklda izhor etilmoqda. Yusufbek hojining “*erga qarashi va nima deb javob qilishni bilmay qolishi*” sababi shunda”<sup>272</sup>. Ta’kidlash kerakki, Otabekdagi bunday fazilatlar ham onasi O‘zbek oyimning va otasi Yusufbek hojining tarbiyasi samarasidir. Bu tasvirlar milliylik, ornomus, erkag-u ayol va oila sha’ni himoyasining yorqin namunasi. “O‘tkan kunlar” tag-tomiri bilan milliy ruh, o‘zbekona qadriyatlar bilan to‘yingan asar. Undagi har bir so‘z, har bir jumlada o‘zbekning qiyofasini ko‘rasiz. O‘zbekning o‘zbekligini ko‘rsatib turuvchi urfodat, qadriyat va muhitni ko‘rasiz.

Qodiriy yaratgan ona obrazlaridan yana biri bu Nigorxonimdir. U haqidagi fasl “Nigorxonim boshda erga yolchimadi” deb boshlanadi. U erdan yolchimagani rost, biroq ko‘pchilik ayollardek faqat fojeiy qismat emas, yorug‘ kunlarni ko‘rayotgani muallif tomonidan shunday e’tirof etiladi: “Darhaqiqat, sabrlik bu xonim hozirdanoq shu o‘z oldig‘a qo‘yg‘an bolalarining biri va to‘ng‘uchi bo‘lg‘an Ra’nosining tufaylidan bir qadar ro‘shnoliq ko‘rib boshladи va oyning o‘n beshi qorong‘i bo‘lsa, o‘n beshi yorug‘ ekaniga ishondi”.

Nigorxonimning otinbibi sifatida ko‘pchilik tanir va mahalla-kuy uni hurmat qilardi: “Xotinlar maxdum domlaning ba’zi qiliqlaridan kulishsalar ham, Nigor oyimning orqasidan g‘iybat so‘zlamaslar, oldida qanday hurmatlasalar keyinidan ham o‘shancha ehtiromlab, uning maxdumdek ziqna kishining qo‘lig‘a qaram bo‘lg‘anig‘a achinib “peshana-ya aylanay, qolu balo” deyishar

<sup>272</sup> Жабборов Н. “Ўткан кунлар”да миллий рух ифодаси // Филология масалалари, 2020. № 2. – Б. 7.

edilar”<sup>273</sup>. Nigorxonimning boshqa onalardan farqli jihatni uning ilm-ma’rifatli ona ekanida edi.

Nigorxonim ham xuddi eri Solih maxdum singari muallimlik qilar, qizlarga diniy saboq berar edi. Ikkisi ham birdek ustozlik maqomiga ega bo‘lsa-da, biroq ularning tabiatini bir xil bo‘lmaganidek, qarashlari ham qarama-qarshi edi. Xususan, Xudoyordan kelgan sovchilar oldida avvaliga esankirab qolgan Solih maxdum, keyinroq ne-ne xayollarga ko‘milmadi deysiz: “Xonga qayin ota bo‘lish el qoshida kichkina gap emas edi. Qalin to‘g‘risida podshoh-kuyavdan ko‘b mablag‘ kutilsa bo‘lar edi. Agar xudo o‘g‘ul nabira ato qilsa, Xudoyorning taxt vorisi bo‘lish ehtimoli ham bor edi...”<sup>274</sup>. Lekin bu xabarni eshitgan onaizor Nigor oyim esa mutlaqo zid kayfiyatga tushadi. U yig‘laydi, siqtaydi, ammo eriga qarshi keta olmas edi. U eriga ayta olgan gaplar mana bu ikki og‘iz so‘z edi: “O‘n yillab bizga kiydirgan, yedirgan bechora Anvarga oqibatimiz shu bo‘ldimi! Sho‘rlik Ra’no bir yuz xotin yonig‘a yuz biringchi kundash bo‘lib boradimi?!”<sup>275</sup> Bu ikki gap aslida onaning nechog‘li cho‘ng, ayanchli va iztirobli axvolini, farzandlariga bo‘lgan cheksiz mehrini, ularning kelajagi, baxtu saodati oldida chor-nochor ekanini yaqqol namoyon etgan edi. Nigor oyim chinakam mehribon ona timsoli. U bolasi uchun faqat baxt-saodat tilaydi. Lekin u ham Zebining onasi singari eriga tobe, mute va qaramligidan tashqari o‘z fikrini bildirolmaydi, bildirgan taqdirda ham, o‘z gapini o‘tkaza olmaydi, haqligini isbot qilolmaydi, chunki bunga haqqi yo‘q. Sho‘rlik ona... Farzandi uchun ming tug‘ilib, ming o‘lishga tayyor ona. Uning dodini eshitguvchi kimsaning o‘zi yo‘q. Butun umrini, hayotini, yoshligini, mehru muhabbatini, bor-yo‘g‘ini bag‘ishlagan odami – eri faqat zulm va jaholat o‘tkazishga qodir insongina, xolos.

Ona obrazi xususida so‘z ketganda, “Mehrobdan chayon” romani bosh qahramoni Anvar mirzoning kelib chiqqan oilasi haqida gapirmaslik mumkin emas. Salim bo‘yoqchi va Anorbibining faqir oilasida oltinchi farzand bo‘lib Anvar dunyoga kelganda oilaning moddiy ahvoli shu qadar tang ediki, hatto tug‘ilgan chaqaloqqa orzu-niyatlar bilan ism qo‘yish vazifasini yigirma kun

<sup>273</sup> Қодирий А. Мехробдан чаён. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1997. – Б. 9.

<sup>274</sup> O‘sha asar. – Б.110.

<sup>275</sup> O‘sha asar. – Б.110.

o‘tgach, to‘ng‘ich farzand Nodira ado qiladi. “Nodira o‘z yaqinlaridag‘i maxdumlardan birining bolasini yaxshi kiyimi, ayniqsa, yoqimliq eshitilgan “Anvar” ismiga suqlanib, havaslanib yurar edi. O‘ylab-netib turmadi-da, yangi chaqaloq ukasining otini ham “Anvar” deb ataydi va beshikda chalqancha yotib, nursiz qora ko‘zлari bilan dadasing faqir hayotig‘a “ramz qo‘yg‘an” bu chaqaloqning tevaragidan aylanib, “Anvarjon, Anvarjon!” deb suyunadi. Darvoqe, “Anvarning dunyog‘a kelishini birdan-bir tabrik etib so‘yingan shu Nodira edi. So‘ngroq yana unga onaliq martabasida bo‘lib kelguchi yana shu Nodiradir”<sup>276</sup>.

Qish qattiq kelgach, avval Salim akaning to‘rtinchi bolasi, ko‘klamga chiqib Salim akaning o‘zi hayot bilan vidolashadi. Yana bir farzand qizamiq toshib o‘ladi. Ona “Anorbibi mehnat bilan yashab, yetti-sakkizni tug‘ib, yoshi ham qirqlarg‘a borib, tusiga ajin kirib, keksaymasa ham qarimsiq bo‘lib qolg‘an, shuning uchun birartaga tegib olishi to‘g‘risida o‘ylash ham behuda. Anorbibiga o‘xhash tul xotinlarning qiladirgan ishlari har kimga ham ma’lum: mahallada dasturxonchilik, boylar eshidida oqsochliq, hunarmandroq bo‘lsa – kinnachilik va hokazo. Anorbibi shu hunarlarning hammasiga ham qobiliyat e’lon qilib, bolalarini boqish fikriga tushdi. Va bu orada qizi Nodirani bir bo‘zchi bolasig‘a uzatib, yukini ham bir oz yengillatdi”<sup>277</sup>. Bolalarni tole’ yana bir sinovdan o‘tkazdi. Birovnikida xizmat qilib yurgan ona Anorbibi birdan og‘rib qoladi va vasiyat ham qilolmay olamdan o‘tadi. Nodira turmushga chiqqan, biroq uch farzand yetim bo‘lib qolgan edi. Marhuma onasidan qolgan yodgorlarni Nodira begonalar qo‘liga berib, ularni xor qilib qo‘yishni istamasdi, biroq o‘zining oilasiga olib boray desa, erining faqirligi bunga monelik qilar edi. Oxir-oqibat u o‘g‘il farzand so‘ragan oilalarga ikki katta ukasini berib, Anvarni o‘zi bilan olib qoladi. Nodira kenja ukasiga onalik qilib, yuvib-taradi, boshini siladi. Ukasining kelajagi uchun qayg‘urib, uni Solih maxdumning maktabiga berdi. Anvar juda iste’doli yigit bo‘lgani tufayli o‘n bir yoshida savodi chiqadi. Nodiraning eri Anvardan qutulish uchun uni biror kishiga shogirdlikka berishga qistaydi. Eri bilan bu borada kelishib bo‘limgach, Nodira ukasi

<sup>276</sup> O‘sha asar. – Б. 22.

<sup>277</sup> O‘sha asar. – Б. 23.

Anvarni Solih maxdumning uyiga olib boradi. U yerda maxdumning onasi Mohlar oyimni uchratib, unga yig‘lab hasrat qiladi: “Ulug‘ dargohlaringizga shu yatim bolaning umri zoe’ bo‘lmasmikin, o‘qushi juvanmarg qilinmasmikin, deb keldim. Bir parcha nonlaringizni ayamay, yatim boshini silasalaringiz, deb keldim”<sup>278</sup>. Nodira va Anvarning baxtiga Mohlar oyim ham, Nigor oyim ham mamnuniyat bilan Anvarni qabul qiladilar. Mohlar oyim - “Xo‘b qizim, xo‘b, pochchasi boqmasa boqmasin, men o‘zim boqaman, o‘qutib katta mulla qilaman”, - deydi. Bu iliq, samimiy so‘zlardan so‘ng Nodira mamnun bo‘lib uyiga qaytadi.

Nodira Anorbibi vafot etgach, onasining o‘rnini bildirmaslikka uringani, ukalariga onalik qilishi uning fitratidagi onalik tuyg‘usidan edi. U Anvarni taqdir hukmiga tashlab qo‘ymadi: fidoyi ona singari uning savod chiqarishi, ziyoli inson bo‘lishi uchun qo‘lidan kelguncha harakat qildi. Aysniqsما، samimiy va mehribon onalar – Mohlar oyim va Nigor oyimni uchratgach, ukasi Anvardan ko‘ngli taskin topadi.

Darhaqiqat, har bir qahramon nafaqat yozuvchining, balki o‘sha davr, zamon, muhit g‘oyasini o‘zida tashuvchi ob‘ekt hisoblanadi. Xususan, O‘zbek oyim, Oftob oyim, Nodira, Mohlaroyim, Nigor oyimlar Turkiston onalarining xarakteri va taqdir-qismatini o‘zida aks ettiruvchi obrazlardir.

“Nasroniyning boshiga do‘ppi kiygizib qo‘yaningiz bilan u o‘zbek bo‘lib qolmaganidek, asar o‘zbek tilida yozilgani bilan milliy roman bo‘la qolmaydi. Asar faqat chiroyli so‘zlardan emas, jimjima bayonlardan iborat narsa emas. Asarning ham vujudi, qalbi bo‘ladi. Uning milliylik darajasini ana shu qalb belgilaydi”<sup>279</sup>. Tohir Malikning bu so‘zlari aynan Qodiriy ijodiga nisbatan aytilgan. Zar qadrini zargar bilar, deganlaridek, so‘zdagi so‘z sehrini sehr ila so‘z bitgan adibgina ilg‘ay oladi. Oddiy kitobxon o‘tkazib yuborishi mumkin bo‘lgan har bir detal uning nigohidan chetda qolmaydi. Qodiriy romanlarida millat qalbi onalar obrazida batamom mujassam bo‘lgan. Shu bois Qodiriyning har bir so‘zi va jumlesi o‘zbek ijodkori uchun ham, o‘zbek kitobxoni uchun ham milliy ibrat maktabidir.

<sup>278</sup> O‘sha asar. – Б. 23.

<sup>279</sup> Қодирий А. Диёри бакр. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. – Б. 16.

Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanidagi ona obrazi xususida so‘z ketganda, ko‘z oldimizga haq-huquqsiz, yorug‘ kun ko‘rmagan, sevib-sevilmagan, bir umr “cho‘ri-xotin” sifatida yashab o‘tgan, eri tomonidan birgina “fitna” degan nomni olishga “munosib” topilgan Qurvonbibi keladi. Lekin bu “fitna”ning onalik maqomiyu ayollik o‘rni qaerlarda qolib ketganiga hech kim javob berolmaydi. Bunday taqdir va qismatga ko‘nikib, tan berib yashashdan boshqa chorasi bo‘lmanan Qurvonbibi juda sakina, sobira, xushfe’l, chin mo‘mina ayol edi. Uning birgina aybi shuki, u barcha o‘zbek ayollar singari eriga mute, eri qanchalar johil, fosiq va zolim bo‘lmashin, unga qarshi chiqishga haqqi yo‘q. O‘sha zamonning barcha ayollar singari uning tarbiyasiga mutelik, qaramlik singib ketgan. Lekin erining tabiatini necha yillardan beri ko‘rib-bilib kelayotgan Qurvonbibi ozgina hiyla ishlatib, qizi uchun qishloqqa aylanib kelishga javob so‘ray oladi. Qurvonbibi ko‘pchilik ayollar qatori savod chiqarmagan, haq-huquqini bilmagan ayol bo‘lsa-da, uning go‘zal hunari bor edi, u Razzoq so‘fi ta’rif berganidek, “uchiga chiqqan chevar”, “do‘ppi tikishga farang” ayol edi. Bu ojiza ayol ro‘zg‘orning kamini bitirishga, oila tebratishga qodir ayol edi. Razzoqso‘fi esa “bohuzur tasbehini aylantirib”<sup>280</sup> yotsa bo‘laverardi.

Qurvonbibi er zulmidan,adolatsizligidan hech kimga shikoyat qilmaydi. U hamma narsaga sabr-bardosh qiladi. Faqat birgina musibat uning bu holatini butkul o‘zgartirib yuboradi. Yolg‘izgina qizi Zebining surgun qilinishi haqidagi xabar uni telba qiladi... Farzand dog‘idek og‘ir azobga ona chidolmaydi. Shuncha jabru sitamlarga sabr qilib kelgan ona bu ko‘rgulikni ko‘tara olmaydi. U endi bu hayotda yasholmaydi. Uning qanotlari kesilib, yuragi ko‘ksidan sug‘urib olingan, pichoqsiz so‘yilgan kabi qoladi. O‘n gulidan bir guli ochilmagan dilbandi uchun onaning faryodi kitobxonni iztirobga soladi. Shunday paytda millat onalarining tole’i nigun ne-ne “fitna”lari, ruhan, qalban, ma’nан mayib bo‘lgan ne-ne ayollar ko‘z oldimizda gavdalanadi. Ona bo‘lishdek buyuk baxt va maqomga erishgan inson o‘z farzandi uchun jonini ham fido qilishga tayyor bo‘ladi. Qurvonbibi ana shunday mo‘tabar ona obrazi.

<sup>280</sup> Чўлпон. Асарлар. 4 жилдлик. II жилд. Биринчи китоб. Кеча. – Т.: Akademnashr, 2016. – Б. 206.

Razzoq so‘fining ayol zotiga munosabatini “ichkuyov”ga o‘xshash hayoti bilan izohlash mumkin, deydi adabiyotshunos D.Quronov<sup>281</sup>. “Har xil ta’nalarning oldini olish, “boshimga chiqib olmasin” degan o‘yda boshdanoq Qurvonbibini tuproqqa teng tutgan. Boz ustiga, norozi bo‘lishga assoslari yetarli Qurvonbibi sal “haddi”dan oshsa, “Bu hovli-joy otangdan qolgani uchun o‘zimni deysanmi, yo?” deb g‘azablaydiki, bu bilan xotinining xo‘p yuragini olgan”<sup>282</sup>.

“Mehrobdan chayon” romanida Nigor oyim, “Kecha va kunduz”da Qurvonbibi ona sifatida o‘z qizining taqdiriga aralasha olmasdi. Solih maxdum xotini Nigor oyimni koyigani-koyigan, urmasa ham, bundan “besh battar siqar edi”. Razzoq so‘fi xotini Qurvonbibiga shunchalik past nazar bilan omi deb qarab, “fitna” deb chaqiradi. Bu davrga kelib Nigor oyim, Qurvonbibiga o‘xshagan minglab ayollar Turkiston uchun xos edi. Solih Mahdum, Razzoq so‘figa o‘xshagan erkaklar real hayotdan olingan edi. Bu kabi insonlarda “xotin kishida tovuqcha aql bo‘lmaydi” degan qarash shakllangan edi. Lekin “O‘tkan kunlar”dagi Mirzakarim qutidor xonadonida mutlaqo boshqacha muhitni ko‘ramiz. Qutidor turmush o‘rtog‘i Oftob oyimning ra'yiga qaraydi, uni hurmat qiladi. Yusufbek hoji ham O‘zbek oyimning oiladagi ayollik, onalik mavqeini baland tutadi. Zero, Turkistonda XX asr boshida ayollarga bo‘lgan munosabatni aynan mana shu asarlar yorqin tasvirlab bergani bilan ahamiyatlidir.

Eng sermahsul ijodkor Hamzaning “Yangi saodat” (1915) asari jadid romanchiligidagi ilk tajribalardan. “Al-isloh” jurnali idorasi ushbu asarga munosabat bildirib, “Xalqni o‘quv-yozuv tarafiga targ‘ib qilmak uchun hozirg‘acha Turkiston viloyatinda alxusus Turkiston shevasinda buningdek ta’sirli milliy ro‘mon nashr o‘linmamish desak mubolag‘a o‘lmasa kerak”<sup>283</sup>, deb yozgan so‘zlarida eskilik sarqitlari o‘rnini yangilik va saodat egallashi istagi mujassam edi.

Bir qarashdan, asarning bosh qahramoni Olimjon bo‘lsa-da, uning onasi Maryamning asardagi o‘rni beqiyos. Maryamning ilmu ma’rifatga bo‘lgan rag‘bati bo‘limganida farzandi Olimjon jadid

<sup>281</sup> Курунов Д. Чўлпон насли поэтикаси. – Т.: Шарқ, 2004. – Б. 175.

<sup>282</sup> О‘sha asar. – Б. 175.

<sup>283</sup> “Ал-ислоҳ” журнали, 1915. - № 12.

muallimi bilan tanishmas, va umuman, barkamol inson bo‘lib yetishmas edi. Oila saodati, farzandlar istiqboli uchun eng mas’ul shaxs ona ekanini yanada kengroq planda tasvir etishni maqsad qilgan Hamza ma’rifatparvar ona obrazini ilk bor nasrga olib kirgani bilan ajralib turadi.

Adib ilgari surgan g‘oya Maryam va jadid muallimi obrazlarida badiiy in’ikos etdi. Bu g‘oyaning natija va samarasi esa Olimjon obrazida aks etdi. Olimjon ilmu ma’rifat orqaligina o‘z orzulariga erishdi. Hamza Maryamning portretini chizmaydi, biroq uning eri Abduqahhor kelishidan oldin barcha gina-kudratlarni unutib, o‘ziga oro berish mahalini o‘qiganimizda ko‘z oldimizda suvratiyu siyrati go‘zal chinakam o‘zbek ayoli gavdalanadi.

Sabru matonatda tengsiz, madrasa ta’limini olgan Olimjonning otasi Abduqahhor savdogar katta meros sohibi edi. Lekin Abduqahhor o‘qimagani, xat-savodsiz bo‘lgani uchun qimorbozlikka berilib, o‘z oilasini xonavayron qiladi. Buning jabrini o‘zi, ikki farzandi, xotini va onasi tortadi. Olimjonning baxtiga atrofida uchragan oljanob insonlar uning ilm olishiga ko‘mak berishadi. Ijodkor ilgari surgan g‘oya – millat uchun o‘qimishli onalar zarurati edi. “Amin bo‘lmog‘imiz kerakdurkim, bizlar to erkak va qiz bolalarimizni birgalikda tarbiya etmaguncha bizlardan kelajakda mas’ud oilalar yetishmas. Bizlar hech vaqt g‘oyai a’molimiz bo‘lg‘on chin baxt va saodatg‘a, taraqqiy va tamaddung‘a yetolmasmiz”<sup>284</sup>.

“Yangi saodat”dagi Maryam obrazi barcha jadid ziylolarining orzu-istagidagi o‘qimishli millat onasi edi. Abdurauf Fitrat “Oila” asarida “*Qizlar ham ilm olishi kerakmi?*” deb nomlangan faslida shunday yozadi: “... xotinlarimiz va qizlarimiz – **millat onalari** (*ta’kid bizniki*) tarbiya va ilm olishlari lozim, axloq va bilimlarini kamolga yetkazishlari zarur”<sup>285</sup>.

“O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon”, “Kecha va kunduz”, “Yangi saodat” kabi asarlarda keltirilgan ona obrazlarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, ularning har biri o‘ziga xos betakror go‘zallik, sadoqat, vafo, sabru qanoat, ilmu ziyo sohibalari. Ularda millat ayoli, millat onasining ruhi mujassam. Ularda hadsiz-hududsiz mehrga to‘la qalb, otashin yurak, ummon kabi fasohat, milliy va

<sup>284</sup> “Мехнаткашлар товуши”. 1918, 9 июл

<sup>285</sup> Fitrat Abdurauf. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – T.: Cho‘lpon, 2019. – B. 128.

sharqona urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz, an'analarimiz tajassumini ko'ramiz.

Ona obrazi oila degan muqaddas qo'rg'on bilan bog'langan. Biz tadqiq qilayotgan asarlarda ona obrazi yo oila, yo farzand, yo erkak, yo xiyonat, yo jamiyat qurboni sifatida gavdalanganining guvohi bo'lamiz. Ona va ayol huquqlari poymol etilishi oqibatida qanchadan-qancha oilalarda baxtsiz farzandlar voyaga yetishini anglagan adiblar bu mavuzga bot-bot o'z asarlari orqali murojaat qildilar.

Cho'lpon ijodiga mansub "Seni ko'b ko'rmasun (Farg'ona hayotidan)" hikoyasini o'qigan har qanday inson dahshatga tushadi. Inson qalbini iztirob, o'kinch va nadomat egallaydi. Yoshgina juvon Hadichaxonga qismat hadya etgan Farg'ona fojialari ayanchli tariximizdan darak beradi.

Aslida yigirma uch yoshga kirgan Hadichani mahalla-kuy "qari juvon, o'ttiz beshlarga kirgan xotun" deyishiga sabab nima edi. Buning boisi ketma-ket yaqinlarini yo'qotish, avval eridan, keyin to'ng'ich farzandidan ayrilishi edi. Qaynonayu kelin tuni bilan mijja qoqmay kutishgan Roziqjon tong saharda uch erkakning qo'lida qora qonga bo'yalib olib kelinishini tasavvur qilish nechog'li og'ir... Beklar otib ketgan Roziqjonning qabri sovir-sovimasdan katta farzandi Sobirjonning – shaharga borib, go'sht xarid qilishga ketib, o'ligi qaytib kelishi musibat ustiga yog'ilgan yana bir musibat bo'ldi. Ham umr yo'ldoshidan, ham to'ng'ichidan ayrilgan Hadicha kichik o'g'li Is'hoqjонni sog'u salomat bo'lishini, undan ayrilib qolmaslikni kechayu kunduz Allohdan iltijo qilib so'raydi: "*Bittayu bitta, yolg'uz qo'zichog'im, Xudoyim senigina ko'b ko'rmasun!... – deydur. Va tiqilg'an, bo'g'ulg'an nafasi bilan uzulub-uzulub yig'laydur*".

XX asr boshida qiynalib kun kechirayotgan Turkiston xalqining boshiga Farg'ona fojiasi ham qo'shilgan edi. Armanilarning butun Farg'ona elini qirg'in-barot qilgan, qanchalab yosh oilalarni suyanchiqlarisiz qoldirgan, bir oiladan ketma-ket bir necha o'liklar chiqqan u mash'um kunlarni xotirlash ham og'ir. Bu xalqimiz uchun eng og'ir, eng sinovli, eng murakkab davr edi. Cho'lpon shu voeqalar olib kelgan fojeiy kulfat va musibatni bir oila misolida tasvirlab, kichik hikoyaga sig'dirishga muvaffaq bo'lgan. Hikoya

juda ta'sirli. Uni o'qish esa juda og'ir. Cho'lpon ikki-uch dialogning o'zida inson hayotining nechog'li qadrsiz va omonat ekanini ko'rsatib bergen.

Hayot qonunlari murakkab. Kim qancha yashashi-yu qanday yashashi yoxud qanday o'lim topishini hech qachon bilmaydi. Hadichaning eng og'ir damda yagona suyanchig'i faqat Alloh edi. Adib onaning qalb fojiasini Allohga iltijo qilish yo'li orqali ifodalar ekan, hissiy ta'sirchanlikni oshirishga muvaffaq bo'lgan. Yaratganga yolvorish orqali ayol obrazining yana bir beqiyos xislati – dunyoda hech kimsa onachalik cheksiz mehr-muruvvatga ega emasligi ayon bo'ladi.

Abdulla Qodiriyning “Juvonboz” hikoyasi oilaning yolg'iz farzandi Sa'dullaning tarbiyasiz, adabsiz, yengiltabiat yigit bo'lib, o'rtog'i Rahimjon besoqol bilan kechayu kunduz maishat qilib yurishi, otasining topganini ko'kka sovurishi natijasida jinoyatga qo'l urib, uzoq Sibir o'lkasiga surgun qilinishi haqida. Asarda birgina ayol obrazi – Soliha qatnashadi. U o'ziga to'q boy xonadon qizi edi. Turmush o'rtog'i ham savdogar kishi bo'ladi. Hikoya boshida Solihaning o'g'li haqida kuyinib gapirganlari, uni domлага o'qitish kerakligi haqidagi o'ylarini o'qiyimiz. Soliha obrazi boshqa joyda ishtirok etmaydi. Asarda juda qisqa so'zlarda bo'lsa-da, baxti nigh ona obrazi ko'z oldimizda gavdalanadi.

Biz tahlilga tortgan asarlarda ayollar va onalar obrazi orqali milliylik va umuminsoniylik, go'zallik va ma'rifat, hayo va andisha, qismatdan rozilik va farzand uchun isyon kabi jihatlar uyg'unligini ko'rdik. V.Belinskiy badiiy asar yetukligi undagi uch jihat – go'zallik, hikmat va ezgulikning qay darajada mujassam bo'lishi orqali belgilanadi, degan<sup>286</sup>. Darvoqe, chinakam san'at asari kitobxonni estetik qimmati, teran falsafasi, ma'naviy-axloqiy takomili bilan o'ziga ohanrabo kabi tortishi kerak.

---

<sup>286</sup> Морозов П. Белинский Виссарион Григорьевич // Энциклопедический словарь. Том 5. – СПб, 1991. – С. 191.

## **IV BOB. JADID DRAMASIDA XOTIN-QIZLAR OBRAZI TAKOMILI**

### **4.1. Xotin-qizlar obrazining dramatik talqinida badiiy nutqning o‘rni**

Drama janri paydo bo‘libdiki, ijodkor bilan xalq orasi yanada yaqin bo‘ldi. XX asr boshida ommaga kengroq miqqyosda ta’sir etish uchun “nishonga borib tegish” (Ilhom G‘aniev) vazifasini aynan teatr san’atigina, ya’ni dramatik asargina bajara oldi. Chunki keng ommaning kitob mutolaa qilish uchun savodi yetishmas edi. Teatrga borish, pyesa tomosha qilish, qahramonlar o‘ynagan rollardan estetik zavq va ma’naviy ozuqa olish, madaniy hordiq chiqarish imkoniyati yoshu qariga, savodli yoki savodsizga ham birdek qo‘l kelgan edi. Dastlabki paytlarda sahnada ayolu erkaklarning rolini bajarish faqat erkaklarning zimmasida bo‘ldi. Asta-asta sahnada tatar ayollari paydo bo‘ldi. Keyinchalik, bizga yaxshi tanish bo‘lgan, biz yuqoridagi boblarda nomlarini keltirgan o‘zbek ayol san’atkorlari ham sahna yuzini ko‘rdilar.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, o‘zbek teatri rivojida nafaqat tatar, balki ozarbayjon san’atkorlarining hissasi cheksiz bo‘lgan. Miyon Buzruk ozarbayjon teatrining o‘zbek teatriga ta’siri masalasiga to‘xtalar ekan, uning, avvalo, o‘zbek va ozar xalqi orasida bir necha asrlardan buyon davom etib kelgan madaniy aloqalar bilan bog‘liq ekaniga e’tibor qaratadi. Zero, ozarbayjon adabiyotining o‘zbek adabiyotiga ta’siri uzoq tarixga ega<sup>287</sup>. B.Abdulhayrov “Miyon Buzruk – jadid dramaturgiyasи ва театри тадқиқотчиси” monografiyasida “Oyna” jurnalining 1914-yil 15-sonida chop etilgan Behbudiyning maqolasi haqida so‘z ochib, shunday deydi: “...Behbudiy ozarbayjon teatri namoyandalari o‘zbek san’atkorlariga yaqin ekanliklari to‘g‘risida gapirib, tatarlarning sahnada tez so‘zlashlari, natijada, tomoshabinlar ular nutqini tushuna olmayotganliklari, ozariylar esa, aksincha, dona-dona qilib so‘zlashlari, bu o‘zbek tomoshabinlariga ma’qul bo‘lganligi haqida yozgan”<sup>288</sup>.

<sup>287</sup> Masalan, ozar millatiga mansub shoir Muhammad Fuzuliy (XVI asr) she’riyatining o‘zbek shoirlariga ta’siri kuchli bo‘lganligi ko‘pchilikka yaxshi ayon. Fuzuliy ijodi ta’siri shu bilangina cheklanib qolmasdan, uning devoni o‘sha davr eski maktab va madrasalari o‘quv dasturiga zaruriy o‘qish kitobi sifatida kiritilganligi ham ma'lum.

<sup>288</sup> Абдулхайров Б. Миён Бузрук – жадид драматургияси ва театри тадқиқотчиси. – Т.: Фан, 2009. – Б. 83.

Darhaqiqat, dramatik asarning tayanch nuqtasi til masalasidir. “... dramada qahramon og‘zidan chiqadigan har bir so‘z yelkasida olamcha yuk, mas’uliyat, g‘oya, ma’no yuklagan bo‘lishi shart! Har bir so‘z – xarakter, har bir so‘z – drama, har bir so‘z – fofia, so‘z – hayot, so‘z – o‘lim!”<sup>289</sup> Badiiy nutq, xoh epik, xoh dramatik personajlarning nutqi bo‘lsin, turli shakl va ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Bu jarayon asosan til xususiyatlari bilan bog‘liq holda kechadi. Bu xususiyatlar neytral va hissiy so‘zlarni ishlatalish, kichraytiruvchi va erkalovchi qo‘sishimchali so‘zlarni istifoda etish, frazeologizm, neologizm, dialektizm, istorizm, arxaizm kabilardan foydalanish orqali namoyon bo‘lishi mumkin.

So‘zlarni majoziy ma’nolarda qo‘llash natijasida allegoriyaning turli shakllari paydo bo‘ladi. Ular: metafora, metonimiya, giperbola, litota, sarkazm va boshqalar bo‘lib, sintaktik konstruksiyalar esa inversiya, takror, ritorik savollar, murojaatlar kabi ko‘rinishlarda aks etadi.

Yuqorida aytganimizdek, personajlarning nutqi, asosan, dialog shaklida bo‘lib, u yoyiq yoki replikalar ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Dialoglarning vazifasi turlicha. U ba’zida bo‘layotgan voqe-a-hodisa haqida xabar bersa, ba’zida o‘zaro fikr almashish va qahramonning o‘zini namoyon qilish usuli sifatida qo‘llanishi mumkin. Agar qahramonning boshqalar bilan muloqoti o‘sib ketsa, u monologga aylanadi.

“Dramadagi fikr bu, eng avvalo, vujudga kelgan holatda insonning nutqidir. O‘zining asosiy vazifasiga ko‘ra monolog va dialoglar bunda axborot emas, harakat bo‘lib hisoblanadi. Dramatik asar qahramonlari voqealar rivojiga javob beradilar hamda shu vaqtning o‘zida ularning kechishiga ta’sir ko‘rsatadilar”<sup>290</sup>. Monolog va dialoglardan tashkil topgan qahramonlarning nutqi dramani nechog‘li harakatga keltirishini bir necha dramatik asarlar misolida ko‘rib chiqamiz.

XX asr boshlari dramaturgiyasida ijodkorning ijtimoiy-estetik qarashlari sifatida, Turkiston zaminida hali-hanuz davom etayotgan jaholat va mutaassiblik balosi keltirgan xotin-qizlar erksizligi, tutqinligi, nikohdagi tengsizlik masalalari aks ettirildi. Hamza,

<sup>289</sup> Фаниев И. Фитрат драмалари поэтикаси. Фил.фун.докт.... дисс-я. – Т., 1998. – Б. 195.

<sup>290</sup> O’sha asar. – Б. 206.

Cho‘lpon, Fitrat, Qodiriy, Avloniy, Hoji Muin dramalarida bu fojia qurbon bo‘lgan xotin-qizlar qismati orqali yoritildi. Keyinchalik esa xotin-qizlarning ma’naviy olami, ruhiy dunyosi ortida yashiringan g‘oya asarlar mundarijasida turg‘unlashib bordi. Modomiki, har qanday jamiyat, avvalo, har tomonlama mukammal oilalar va ularda tarbiya topayotgan farzandlar hisobiga barqaror rivojlanib boradi. “Shuning uchun ham insoniyat ulug‘lari oilani nafaqat jamiyat, balki davlatchilik asoslarining qurilishida ham ilk maktab deb bilganlar”<sup>291</sup>.

Ma’lumki, 1910-yildan 1917-yil fevraligacha 40 ga yaqin dramatik asarlar yaratildi – Behbudiyning “Padarkush”, Hamzaning “Zaharli hayot”, “Ilm hidoyati”, Qodiriyning “Baxtsiz kuyov”, Xoja Muinning “Qozi ila mulla”, “Ko‘knori”, “Juvonbozlik qurboni”, “Eski maktab – yangi maktab”, “Mazluma xotin”, Avloniyning “Advokatlik osonmi?”, “Biz va Siz”, Abdulla Badriyning “Juvonmarg”, “O‘gay ona”, “Bovvachcha”, “Saodat bitdi”, “Xush kelding, xush ketding”, Nusratulla Qudratullaning “To‘y” dramalari shular jumlasidandir. Bularning barchasida ma’rifiy g‘oya, o‘z davri uchun dolzarb bo‘lgan axloqiy muammolar ilgari surildi. Behbudi, Avloniy, Hamzalar ijodida ko‘tarilgan ma’rifatparvarlik, vatanparvarlik g‘oyalarni Fitrat, Cho‘lpon va boshqa ijodkorlar davom ettirib, adabiyot mundarijasini ozodlik, istiqlol, jaholatga qarshi kurash g‘oyalari bilan boyitdilar. An’anaviy adabiyotdagagi ayol obrazidan farqli o‘laroq XX asr boshiga kelib yangi davr ayoli obrazining muayyan tipi yaratildi.

Bu janrda eng sermahsul ijod qilgan va xotin-qizlar obraziga qayta-qayta murojaat qilgan dramaturg Hamza davr muammolarini sahnada, harakat va so‘z uyg‘unligida ko‘rsatishga qaror qildi. Chunki bunday asar g‘oyaviy kurashni amaliy kurashga aylantirishda xalqqa yordam berishi, yo‘l ko‘rsatishi aniq edi. U 1915-1926 yillarda “Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari”, “Istibdod qurbonlari”, “Boy ila xizmatchi”, “Qozining sirlari”, “Paranji sirlaridan bir lavha yoxud yallachilar ishi”, “Burungi qozilar yoxud Maysaraning ishi” kabi drama va komediyalar yozgan.

---

<sup>291</sup> Болтабоев Х. Фитрат ва жадидчилик. – Т.: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – Б.143.

Behbudiyning 1911-yilda yozgan ilk “Padarkush” dramasi ta’sirida yozilgan “Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari” (1915) asarida jaholat sababli ikki oshiqning fojiasi aks etgan. Sevgilisi Maryamni eshonga nazr qilinganini eshitgan Mahmudxon juda tushkunlikka tushib qoladi. U hayotini Maryamxonsiz tasavvur etolmasdi. Mahmudxon sevgilisi yozgan maktubini olib, o‘qishni boshlaydi. Xat shunday boshlanadi: “*Quyoshi millatim, g‘unchai muhabbatim, suyuklu afandim Mahmudxon!*” Maktubdagi har bir so‘z Maryamning cheksiz muhabbatiyu chinakam millatparvarlik, vatanparvarlik hissidan darak beradi. Undagi mana bu so‘zlar millatni uyg‘onishga chorlovchi yosh avlodning ne-ne orzu-umidlari bo‘lganini ko‘rsatadi: “... *afandim, emdi tezdan ijтиҳод етиғизки, иккөвимиз қо‘лимизни турушаб, зулматда қолмиси бу миллатни, сиз қуёши бо‘лганда, ман мөхи тобони бо‘луб, қоронг‘у ватани юрутайлик; сизда ерларимизнинг холидан, банди мазлума ойларимизнинг холидан г‘азеталарга ўзишаб, бир-бirlаримизи оғоҳлантирайлик. Гарчи сиз тижоратда бо‘лсангизда, чин мақсадингиз бо‘лган қизлар мактаби очайлик, банди ма’навий, сиз моддиј xizmatda бо‘линг, қадрсиз ҳамшираларимизнинг қасод о‘лмиси бозорларини имзи нақдиги билан ко‘таришайлик*”. Mazkur kalimalar oddiy kosib qizining emas, millat fidoyisi bo‘lgan jadid ziyolisining so‘zları edi. Hamza o‘z qarashlari, orzu-istikclarini qahramonlari nutqi orqali ifoda etganini payqash qiyin emas.

Eshonga nazr qilinganini eshitgan Maryamxon Mahmudxonga yig‘lagancha: “*Afandim, man sizsiz dunyoda bir kun turmog‘imdan manga o‘lim yaxshimasmi? Man(yig‘lab) hech bir vaqt qabul qilmasman. Qo‘limdan kelgan qadar o‘zimni ul zolim qo‘lidan qutg‘aza olurman! Jonim, gap sizda. Siz-da o‘z va’dangizda qaror etsangiz, albatta, ман жон борича гарикатда бо‘лурман*”, deydi.

Hazrati eshonga unashtirilganining o‘n to‘rtinchı kunida Maryamxon ichkari xonadan tashqariga oyoq yalang yugurib chiqadi. Orqasidan eshon chiqadi. Maryamxon jon-jahdi bilan baqiradi, dod soladi, eshonni o‘ziga yaqinlashtirmaydi. Eshon yaxshi gapirsayam, yomon gapirsayam Maryamxon Allohdan o‘lim so‘raydi. Eshon Maryamxon uning xotini bo‘lishini shariat buyurganini gapirganda, Maryamxon shunday javob beradi: “*Shariat zolim emas! Xoin emas, шариат мандек бир саг‘ира мазлумани сан каби бугун-ерта о‘лим*

*egasi bo‘lgan noinsof cholga hargez buyurmas! Shariat har kimni baxtiyor qilgan! Shariatda hurriyat bor. Musovat bor,adolat bor. Shariat ham avval mani qabul qilmog‘im bila buyuradi! Shariatda jabr harom. Nikoh fosid. Nikoh tarafayanning ijob qabuli bilan nikoh halol bo‘lur! Man qabul qilmasam, nikoh fosid, nikoh harom! Shariat yuzasidan man qabul qilmasam, (qichqirib) dod, qabul qilmasman! (Yuqori qarab.) Oh, shariat! Essiz islomiyat! Shariat bitdimi? Yo Rabbiy!”*

Eshon bilan Maryam o‘rtasidagi dialog biz uchun ikki qarama-qarshi qutb – diniy ilmi yo‘q, qoloq, mutaassib “chalamulla” eshon bilan diniy va dunyoviy ilmdan boxabar jadidchi o‘rtasidagi dialog kabi yangraydi. Ko‘pchilik erkaklar to‘rttagacha ayolga uylanish huquqi borligini hech qachon yodidan chiqarmaydi-yu, lekin ayolni xo‘rlamaslik, ayol bilan murosa qilish, “Sizlarning eng yaxshingiz ayollariga yaxshi muomala qilganingizdir”, degan larni unutib qo‘yadilar. Ayollarga nisbatan shariatga qarshi mana shunday noto‘g‘ri munosabat davom etar ekan, butun dunyoda islom haqidagi tasavvur ham noto‘g‘riligicha qolaveradi.

Chorasiz qolgan ojiza Maryamxon o‘ziga-o‘zi shunday deydi: “... Endi hamon mundan xalos topganim bilan avvalda olub bermagan Mahmudjonning ota-onasi endi ikki boshdan ham olub bermaydi! Endi bir iloj bilan bu zolimdan o‘zumni qutqazmoq uchun o‘zumni o‘ldurmoqdan boshqa chora yo‘q! Yo‘q! O‘lmoq kerak! Bu zaharli hayotdan o‘lum yaxshi! (O‘ylanib) Endi bu yerda hech chora yo‘q. Uyimga qochmoq kerak va bir piyola to‘la ufo ichaman, ufo! Ikki-uch kun yotaman-da, o‘laman, qo‘yaman! Shoyad qutulurman! Hozir kechasi bo‘lsa ham qochmoq kerak!”

Maryamxon o‘z uyida o‘lim to‘shagida yotar ekan, boshida o‘tirgan onasi Soraga yanayam achchiq so‘zlarni aytadi: “Oh, johil ota, shafqatsiz onalar! (Yig‘lab) Farzand qadrini bilmagan otalar! (Sochlarni ko‘rsatib) O‘z mavsum bahorini ado qilolmagan bu qora sumbullarimni erta tuproqqa ko‘masiz. (Qo‘llarin ko‘rsatib) O‘zum kabi jaholatda qolmish hamshiralari ma endigina qalam bilan xizmat qilay degan nozik qo‘llarimni bog‘lab, (qichqiribroq) jabr, zulm bila yorug‘ dunyodan to‘ymagan yuz, ko‘zlarimni kafanga o‘raysiz-da, suyukli jonimdan ortiq Mahmudxonimdan ayirib, yolg‘uz qora yerga tirik ko‘masiz. (Hamon yig‘lab, hansirab)

*Oh, falak! Zolim falak! Man na gunoh qildim?! Dunyoda eng shirin vaqtimdan mahrum qilding! (Yiqilur).*

Bu so‘zlar hayotda ne-ne go‘zal orzulari armonga aylangan chinakam fozila qiz so‘zlari edi. Hamza Maryam obrazi orqali minglab o‘zbek qizlarining yuragidagi armon va o‘kinchlarni qalamga olgan. Maryam yetisha olmagan sevgilisi Mahmudxonga so‘nggi so‘zlarini aytib jon beradi: “*Xayr, xayr! Rozi bo‘l! Oh, jaholat! Zaharli hayot!*”

Chin sevgini ustun qo‘yib, eng og‘ir gunohga qo‘l urgan, o‘zi uchun o‘limni afzal bilgan Maryamxonning so‘zlari juda ta’sirli. Lekin shariatdan, dindan boxabar inson o‘z joniga suiqasd qilgani bizni taajjublantirishi ham tayin. Bu paytda – sevishganlar orasiga Qora botir bo‘lib suqilib kirgan eshonga qarshi kurashish uchun o‘zga chora topolmagan mazluma Maryam, deya olasan, xolos.

Darhaqiqat, Maryamxon va Mahmudxonlarning nutqida ko‘tarinki *pafos* kuchli. Eng tushkun holatda, hatto o‘lim chog‘ida Maryamxon nutqida kuchli ehtiros, hayajon bor. Dramaturgiyada ko‘proq uchraydigan pafos haqida so‘z yuritsak, uning “bir hisga qattiq berilish”, “zo‘r hayajon, ehtiros” ekani bizga yaxshi ma’lum. Xuddi shuningdek, quyidagi ta’rif ham pafosga berilgan juda sodda va lo‘nda javob bo‘lsa ajab emas: *Pafos* – “*doimo inson qalbida g‘oya kuchi bilan alanga oldirayotgan va doimo g‘oyaga intiluvchi “ehtiros”dir*”<sup>292</sup>.

Aslida Maryamxon va Mahmudxonlarning maqsadi o‘lim emas edi. Ular o‘z oldiga ko‘p ezgu maqsad va g‘oyalarni qo‘ygan edi. Lekin odamzot ba’zida o‘zini shunchalar ojiz va chorasisiz his qilar ekanki, bor kuchini qaddini tutib olishdan ko‘ra o‘zini qurban qilishni afzal bilarkan. Hamma zamonlarda ham muammolar, og‘ir vaziyatlar bo‘lgan. Lekin taqdirlar, qismatlar har xil. Kimdir yengadi, kimdir yengiladi. Yengilganlar emas, yengganlar hamma uchun ibrat bo‘ladi. Qahramonlarning g‘oyasiyu maslagi, g‘ayratiyu shijoati, sadoqatiyu muhabbatи yoshlarga ibrat. Biroq zamona zulmining ular qismatiga qo‘ygan og‘ir muhri hikmat bo‘lsa ne ajab.

---

<sup>292</sup> Абдурашид Х. Ўзбек драматургиясида Навоий образининг бадиий талқини / Истиқлол даври ўзбек навоийшунослиги. 30 жилдлик. Ж. 25. Нашрга тайёрловчилар О.Давлатов, Д.Юсупова. – Т.: Tamaddun, 2022. – Б. 133.

Bosh qahramonlar taqdiri va syujeti nuqtai nazaridan “Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari” dramasiga, shuningdek, “Mehrobdan chayon”, “Kecha va kunduz” romanlariga yaqin turuvchi yana bir asar G‘ulom Zafariy qalamiga mansub “Halima” musiqali dramasidir. 1919-yilda yozilib, 1920-yildan to 1937-yilgacha sahnadan tushmagan bu asarning bosh qahramoni Halima sevgan yigit Ne’matga emas, shaharning eng boy kishisi Ortiqboyga uzatiladi va fojianing ildizi nish uradi. Ne’mat zaharlanadi, Halima esa o‘z joniga qasd qiladi. Syujet o’sha-o’sha, lekin bu asar xalq qalbidan juda chuqur joy olgani bilan ahamiyatlidir. G‘ulom Zafariy ijodini tadqiq etgan O.Usmonovning e’tirof etishicha, “Halima” asari o‘zbek teatri uchun mutlaq yangilik edi”<sup>293</sup>. Fitrat ushbu asarga yozgan taqrizida shunday degan: “G‘ulom Zafariyda ko‘broq yozuvchilarimizda topilmag‘on yangi xususiyat bor. G‘ulom milliy kuylarimizni yaxshi biladir... Bizda operachilik yo‘lida otilg‘an birinchi odim G‘ulom Zafariyning “Halima”sidir”<sup>294</sup>. Fitratning bu e’tirofi bejiz emas edi, chunki u musiqa ilmini tadqiq etgan va shunga oid asaralar yaratgan olim edi.

Hamzaning xalqimiz sevib mutolaa va tomosha qilgan asarlaridan biri “Boy ila xizmatchi” dramasi bo‘lib, unda boyning xizmatkori G‘ofirning xotini – 16 yoshli Jamila, boyning xotinlari – Poshshaoyim, Xonzadaxon, Gulbahor, boyning onasi – Hoji ona, Jamilaning onasi – Rahima xola, Gulbahorning onasi – Oyxon, xizmatkor – Sifat buvi kabi ayollar obrazi ishtirok etadi. Asarda ko‘tarilgan xotin-qizlar muammosi – kundoshlik. Ikki katta kundosh Poshshaoyim bilan Xonzodaxon biri ikkinchisini va kenja kundosh Gulbahorni ko‘ra olmaganidan nima qilib bo‘lsayam, bir-biridan qutulish payida (“Kecha va kunduz” romanidagi 3 ta kundosh kabi). Xonzoda kenja kundoshi Gulbahordan qutulish uchun uning va yoshgina go‘dagining umriga zomin bo‘ladi va bundan behad quvonadi. Lekin quvonchi uzoqqa cho‘zilmaydi. Chunki boy uchinchi xotini vafot etgach, yangisini izlash payiga tushadi va xizmatkori G‘ofirning yaqindagina uylangan yosh va go‘zal sevgilisi Jamilani xotinlikka olish payiga tushadi. Buning uchun G‘ofirdan qutulish

<sup>293</sup> Усмонов О. Фулом Зафарийнинг ижодий йўли. Филол.фан.номз....дисс-я. – Т., 1999. – Б. 70.

<sup>294</sup> Zafariy G‘. Jadidlar. – T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – B. 97, 146.

yo‘lini ham uddalaydi. G‘ofir Sibirga surgun qilinadi, Jamila majburiy ravishda boyga nikohlanadi. Qisqa vaqt ichida kundoshlar uning boshiga ne kulfatlar solib, ne tuhmatlar qilishmaydi. Jamila boyni keskin rad qiladi: “*Men tog‘ cho‘qqisidan turib o‘zimni daryoga tashlayman! Sochlarimni yulaman! Yoqamni yirtaman! Qo‘lingizda tilka-tilka bo‘laman! Ammo o‘zimni sizga topshirmayman! Erimga bevafolik qilmayman*”.

Jamilaning so‘zlari Maryamxonning so‘zlari bilan juda o‘xhash. Ikkisi ham sevgisiga sadoqatli, vafodor ayollar timsoli. Jamila sevikli yoriga xiyonat qilmaydi. U G‘ofirsiz yashashdan va boyga xotin bo‘lib yashashdan ko‘ra o‘limni afzal bilib, zahar ichib joniga qasd qiladi<sup>295</sup>.

Ildizi uzoq tarixga borib taqaladigan “zahar ichish” detali Qodiriy, Cho‘lpon va Hamza asarlariga kiritilgani bejiz emas edi. Bunday suiqasd real hayotda ham sodir bo‘lganini davrga oid manbalar tasdiqlaydi. Tarix fanlari doktori S.Shodmonovaning keltirishicha, “Matbuotda 10-12 yashar qizlarni erga berish va, umuman, qizlarni o‘z ixtiyorlariga qaramasdan, majburlab katta yoshli odamlarga, ba’zi hollarda o‘z otasidan ham qariroq kishilarga uzatilayotgani qoralanadi. Bu zo‘ravonliklarga chiday olmagan qizlar boshqa yo‘l topa olmasdan o‘z jonlariga suiqasd qilishga majbur bo‘lishayotgani achinarli holat ekanligi yoziladi. Bu maqolada xabar berilishicha, Astraxan shahridan bo‘lgan 16 yasharlik Fotima, ota-onasi uni ixtiyoriga qo‘ymay bir mo‘ysafidga bermoqchi bo‘lgani sababli, bunday zo‘rlikka toqat qila olmay, afyun yeb, o‘z-o‘zini o‘ldirmoqchi bo‘lgan, boshqa joylardagi uning dindoshlari ota-onalarining jabr-zulmlariga nochor sabr qilib, “erkakkarga hayvondek asir qilib berilgan” (Musulmon ayolining ahvoli // Turkiston viloyatining gazeti – 1914. - № 20)<sup>296</sup>. Dramalarda

---

<sup>295</sup> O‘limidan oldin Jamilaning: “...Bolangni o‘ldirgan, xotiningni xazon qilgan boyning, butun boylarning jazosini ber. Zamonasiga o‘t qo‘y, yondir”, - deb aytgan so‘zlari, adabiyotshunos S.Meliev ta‘kidlaganidek, 17 yoki 18-yilning emas, 39-yilning dag‘dag‘asi bo‘lib, uni Hamza emas (Hamzaning Jamilasi sodda va tabiiyroq o‘ladi: “Oh, G‘ofir, san o‘ylama, Jamilam boyga qoldi, deb. Boyga men qo‘limni ham ushlatmadim. Sansiz bu hayot manga kerak emas”), Komil Yashin yozgan”. Qarang: Мелиев С. “Бой ила хизматчи” ёки тикланган нусха муаммоси // “Ёшлик” журнали, 1989 йил, 11-сон.

<sup>296</sup> Шодмонова С. Туркистон тарихи – матбуот кўзгусида (1870-1917 йиллар). – Т.: Yangi nashr, 2011. – Б. 148.

realizm tendensiyasi shakllanib borganini shu kabi misollar ham tasdiqlaydi.

Jamila ishq qurboni bo‘ldi, biroq u vafo va sadoqat timsoliga aylandi. Unga butun dunyoning boyligini oyog‘i ostiga sochishi mumkin bo‘lgan boy emas, yalangoyoq xizmatkor bo‘lsayam o‘zining G‘ofiri afzal. U sevgisiga sadoqatining isboti sifatida o‘zini o‘ldirishdek og‘ir gunohga qo‘l uradi.

Dramada ishtirok etuvchi ikkinchi plandagi ayollar ham juda faol va jonli. Ayollar obrazi orasida boyning onasi Hoji ona o‘ziga xos so‘zlash uslubi bilan ajralib turadi. Uning nutqi individuallashtirilgan so‘zlash tarziga ega. Tubanda uning so‘zlarini keltiramiz.

Boyning onasi Hoji onaning ovozi eshitilishi bilan hamma xizmatkorlar, kelinlar qarshisidan chiqib, egilib salom beradilar. Hoji ona ularga bir boshdan tanbeh berishni boshlaydi:

*- Nega hammang ish qilmay, bekor o‘tiribsanlar! Sulaymon o‘lib, devlar qutulibdi-da! Maston! Chiqargan paxtalarin ni, chuvigan g‘uzalarin ni ko‘rsat! Rahima, sen juvalarini tuyib bo‘ldingmi? G‘ofir o‘lgir qani? Nimaga haligacha qoplar bo‘shatilmabdi, o‘tinlar yorilmabdi?”*

Bulardan keyin “qarg‘ish eshitish navbat” u yerda bo‘lmagan kichkina kelin (boyning uchinchi xotini) Gulbahorga keladi. Uning yo‘qligidan taajjublangan Hoji ona dunyoning barcha qarg‘ishlarini aytib, oldiga chaqirtiradi. Gulbahor kelib, o‘zini Hoji onaning oyoqlariga tashlab, kechirim so‘raydi. Hoji ona esa hecham rahm qilmaydi, bolam kasal bo‘ldi, desa ham, qarg‘ishdan beri bo‘lmaydi. Yana har gapida “Men ikki yo‘l Haj qilgan batavfiq, xudojo‘y xotinman”, deydi. Undan keyin “navbat” G‘ofirning yangi kelinchagi Jamilaga yetadi. Uning xonardonida tekin ovqat yo‘qligini, chiqib ishlashini buyuradi, qalliqbozlik ikki-uch kun bo‘ladi, deb hammaga “tavfiq ber”ishini Allohdan so‘raydi.

Birinchi parda so‘ngida Gulbahor o‘zini osib qo‘ygani haqidagi xabar keladi. Bundan Xonzoda yana bir bor shodlanadi. Jamila esa yig‘laydi. Hoji ona esa “Tirigi ham qursin, o‘ligi ham qursin” deb, beg‘am o‘z uyiga kirib ketadi. Ha, ona degan, buning ustiga Hoji ona degan nomni olish – hali bu nomga munosib degani emas. Har so‘zida Allohni tilga olib, o‘zidan xudojo‘y va taqvoli odamni yasab, bir umr tilidan zahar-zahqum tomadigan, qarg‘ishlari

tugamaydigan, zarracha inson qadriga yetmaydigan kimsani Hoji ona deyishga aslo tiling bormaydi. Hamza ta'kid etmoqchi bo'lgan narsa shuki, garchi inson Haj amallarini bajarib Hoji ona "maqomiga" ega bo'lsa-da, dunyodagi eng manfur, eng johil insonligicha qolishi hech gap emas. Hoji ona ham bemehr ona timsoli.

Bu kabi so'zlar katta kundoshlar nutqida ham qisman uchraganini e'tirof etgan holda, Hoji ona nutqi aynan qarg'ish so'zlar va *kakofemizmlar* bilan o'ziga xos takrorlanmas obraz yaratganini urg'ulash lozim. Hamza Hoji ona obrazini va faqat unga xos nutqni berar ekan, uni xalqqa, xalq tiliga yaqinlashtirmoqchi, real ifoda uslubiga urg'u bermoqchi bo'lgani shubhasiz.

Hamzaning "Burungi qozilar yoxud Maysaraning ishi" (1926) komediysi ikki juftlik – Cho'pon va Oyxon hamda Tohir va Nodiralarning zolim va badnafs qozi, uning o'g'li va a'lamlarning changalidan Maysara ismli ayolning makru hiylasi bilan halos bo'lgani haqidagi kulgu va satiraga boy asar.

Cho'ponning xolasi Maysara so'zga chechan, xalq maqollari va naqllarining piri bo'lgan ayol ekani har bir gapidan sezilib turadi. Masalan, yig'lagan Oyxonni erkalashlarida:

- *Karnayxon, surnayxon, erkaxon, serkaxon, kulib-kulib qo'ying, o'rgilsin-a, cho'rgilsin, xamir ko'pti to'rgulsun;*

- *Yomg'irning ortidan bog'lar qandayin yashnasa, yig'inining ortidan bo'lgan kulgi shunchalik yarashgusidir. Aylanay, aylanay, moshovamiz qaynapti, qizi saqich chaynapti, Cho'pon bilan Oyxonlar yig'lab-yig'lab o'ynapti;*

- *Yosh umrga ko'histon gulistondir, qari umrga guliston ham go'riston dir<sup>297</sup>* - singari aytilan har bir so'zda go'zal ritm, ohang, qofiya, shuningdek, folklor va notiqlik san'atini his qilinadi.

Maysara jiyani Cho'ponga Oyxondan ayrilib qolish xavfi borligini aytar ekan, Cho'pon bunday ko'rgulikdan ko'ra o'limni afzal biladi:

- Nima, Oyxondan qolish? Oyxondan qolish oldida Cho'ponga bir marta o'lish farzdir, xola! Ayrilishdan so'ylamaki, yuragimning bir ohlik holi qolgandir.

---

<sup>297</sup> Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий. Тўла асарлар тўплами (Беш томлик). Тўртинчи том. Драмалар (1921-1928). Мақолалар. – Т.: Фан, 1989. – Б. 20.

Jiyanining boshini quyi solib, bunday tushkun so‘zlarini eshitgan xola shunday javob beradi:

- *Boshingni ko‘tar! Er yigitning bosh solgani o‘lganidir. Men salomat bo‘lsam, Oyxon qo‘ldan ketmas. Kichik dushmanning ham ortidan iz quvmoq aqliliklar ishidir*<sup>298</sup>.

Maysaraning javobi uning nechog‘li jasur, cho‘rtkesar, dovyurak ayol ekanini yaqqol namoyon etadi. Har qanday nomard, mug‘ombir erkakning ta’zirini bera oladigan mard va tanti ayol Maysaraxonning Oyxonga qarab:

- *Men bu badbaxtlarni qanday sharmandayu sharmisor qilishimni hali ko‘rursan..., - deganida, yoki Nodiraga qarab:*

- *Qizim, ish qilsang shunday qilki, butun dunyo kulsin yo butun dunyo yig‘lasin!* – deb aytgan so‘zlarida cheksiz ishonch, kuch, shijoat va salobat bor. Bunday nutq faqat Maysaraga xos.

Prof. U.Jo‘raqulovga ko‘ra, “Doston, ertak, qissachilik, hikoyachilikka xos epik ko‘lam, maqolga xos aforistika, latifaga xos lutf-qochirimlar, qo‘shiqqa xos lirizm drama janrini to‘ldiruvchi, boyituvchi, milliylashtiruvchi eng muhim vositalardir”<sup>299</sup>. Hamza dramaturgiyasida, ayniqsa, Maysara obrazida mana shunday “*milliylashtiruvchi*” detallarni ko‘plab uchratishimiz mumkin. Maysaraning o‘ta zakiy ayol ekani uchta tuban erkakni mot qiluvchi o‘tkir qochirimli gaplar aytganida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, Maysaraning ko‘plab xalq maqollariga murojaat qilishi dramatik muloqotning ta’sirchanligini yanada oshirgan. Nutqi qofiya va ritm bilan yo‘g‘rilgan hozirjavob Maysara obrazini yaratishda Hamza ijodining xalqonalikka, folklorizmga nechog‘li yaqin ekani seziladi. Maysaraning juda uddaburon, oqila, so‘zga chechan ayol ekanligi ko‘p muammolarni bartaraf qilishda qo‘l keladi.

Asar juda yengil o‘qiladi. Kulguli sahnalarga boyligi uchun ko‘tarinki kayfiyat beradi. Muallifda voqealarni sodda, yengil va emotsiyal yetkazib berish iqtidori mavjud. Darhaqiqat, rus missionerlari o‘z mafkurasini targ‘ib va talqin qilishda Hamza ijodini tanlashi bejiz emasdek.

<sup>298</sup> Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий. Тўла асарлар тўплами (Беш томлик). Тўртинчи том. Драмалар (1921-1928). Мақолалар. – Т.: Фан, 1989. – Б. 211.

<sup>299</sup> Жўракулов У. Назарий поэтика масалалари. Муаллиф. Жанр. Хронотоп. Илмий-назарий тадқиқотлар, адабий-танқидий мақолалар. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015. – Б. 45.

“Demak, drama o‘zbek adabiyoti an’analariga bir qadar “begona” janr bo‘lsa-da, xalq ijodiyoti, mumtoz adabiyot, zamonaviy badiiy tafakkur an’analarini o‘ziga singdirish orqali milliylik kasb etadi”<sup>300</sup>.

“Paranji sirlaridan bir lavha yoki yallachilar ishi” dramasi Qo‘qonlik mashhur yallachilardan Mastura hofizning turmushidan olingani, voqealar 1882-1919 yillar oralig‘ida bo‘lib o‘tgani yozilgan. Ushbu asar Mastura ismli 55 yoshdagi ayolning qo‘shmachilik ishlari haqida. Uning “vazifasi” bir-biridan go‘zal qizlarni bebaxt qilishdan iborat edi. Mastura ikkinchi turmush qurgach, hayoti havas qilgulik bo‘lmagan, uning turmush o‘rtog‘i Mirzaraim qora juda buzuqi va axloqsiz kishi bo‘lgan. Bu haqda u Guljonga aytgan so‘zlaridan bilishimiz mumkin:

- Shundog‘u, xola, bir boshimga shu yer yutkurni deb behisob yosh kelinchaklarni yo‘ldan chiqardim. O‘nga yetib beva-bechoralarning qizini xarob qildim va pulini shu falokatning beliga tugdim. Bir vaqtlar shunday bo‘ldiki, yonimda shuncha satanglar turib, kun bo‘yi paranji yopinib, ko‘chama-ko‘cha xotin-qiz tanlash, oylab-yillab mening ishim ularni yo‘ldan urib qo‘yniga solish. Bir oyog‘i go‘rda-yu, haliyam paranji yopinib, xotin-qiz axtaradi<sup>301</sup>.

Masturaning bu so‘zlaridan paranji sirlari asta-asta anglashilib boradi. U so‘zining davomida yana quyidagilarni aytadi:

- Hozirda yurtimizda yarmidan ko‘pi akabachchalik bo‘lsa, qolgani o‘ynashlik. Nima qilsin, yaxshi ko‘rganiga tegmaganidan keyin noiloj xilvat topib o‘ynaydi yoki satanglik, akabachchalik bilan o‘zini yupatadi...<sup>302</sup>. Mastura aytgan “satang” yoki “akabachcha” fahsh ishlар bilan shug‘ullanuvchilar.

Hojar bilan Umurzoq qizi To‘laxonni yurtning bir kazosi bo‘lgan boyning tutqanog‘i bor o‘g‘liga majburlab bermoqchi bo‘lishadi. Bunga qiz qarshi edi. Chunki u Rustambek ismli yigitga ko‘ngil qo‘ygan. Otasi, onasi, akasi Yusufjon ham To‘laxonni, to‘yga qarshilik ko‘rsatsa, pichoq bilan so‘yib o‘ldirishga tayyor ekanini aytadilar. Bunday tahdiddan keyin chorasiz qolgan To‘laxon

<sup>300</sup> O‘sha asar. – Б. 48-49.

<sup>301</sup> Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий. Тўла асарлар тўплами (Беш томлик). Тўртинчи том. Драмалар (1921-1928). Мақолалар. – Т.: Фан, 1989. – Б. 111.

<sup>302</sup> O‘sha asar. – Б. 112.

qismatidan xafa bo‘lib zorlanadi: “*Ey, Xudo, uchib yurgan parrandacha qurb-manzalat bermas ekansan, nima uchun xotin-qizlarni yaratding? Shu ham dunyoga kelishmi? Shu ham kun ko‘rishmi, ey Xudoyim?*” Bunday so‘zlarni aytish ham, o‘qish ham, eshitish ham juda og‘ir. Ikkita jumlaning o‘zidayoq To‘laxon singari necha minglab qizlarning shu ko‘yga tushgani ravshanladi.

Uchinchi pardada Mastura boshliq 9 ta qiz va bir yigit qatnashadi. Bu qizlar Masturaning yallachi qizlari. Ularning o‘tirgan joyi islovotxona. Qizlardan biri Zebo qo‘lida vino bilan ashula aytsa, biri raqsga tushadi. Xullas, pivoxo‘rlik, vinoxo‘rlik, o‘yinkulgu avjida. Bu yerga Soyibjon ismli yigit paranjida kirib keladi. Soyibjonning so‘zлari kitobxonni achinish va g‘azab hislari o‘rtasida qoldiradi: “*Gul tikansiz bo‘lmaydi, o‘rgulsin! Sizlardek parichehralar shunday yomon tikanlarning panjasiga tushmasa, bizga bunday bazmlarni go‘rda nasib qilarmidi?*” Soyibjon aytgandek, hamma “parichehralar” bu islovatxonaga o‘z xohishi va irodasi bilan kelmagan edi.

Eng qizig‘i, bu paytga kelib paranji ayollar uchun emas, ayrim erkaklar uchun juda qulay bo‘lib qolganini aynan shu asar oshkor etadi.

Yolg‘on maktublar bilan To‘laxonni aldab, Rustambek bilan uchrashish uchun islovatxonaga, Esonqulning uyiga Guljon kampir olib kelgach, Toji ismli uyning egasi qizning qo‘liga o‘rik sharbati deb vino tutqizadi. Qizning boshi qattiq aylanib, mast bo‘ladi. Shu paytda Mirzaram, Esonqul, Norboyvachcha qo‘llarida to‘pponcha yalang‘ochlab kirib kelishadi. To‘laxon esa qo‘rquvga tushib qoladi. Ikki ayol, Guljon bilan Toji atayin chiqib ketishadi. Mirzaram, Mastura, Guljon, Toji – bular hammasi kelishib, To‘laxonni qarmoqqa ildirishadi. Sahna ichida sahna asarini tomosha qilasiz. O‘z oyog‘i bilan kelgan navbatdagi “parichehra” nayrang yo‘li bilan qopqonga tushadi. Qarabsizki, fahsh, buzuqchilik yo‘li bilan pul ishlash, bokira qizlarning hayotiga chang solish davom etaveradi.

Qo‘lida to‘pponcha bilan kirib kelgan Norboyvachcha To‘laxonni mahkam tutib:

- Akang qomatingdan aylansin. Meni siz mol o‘g‘risi, deb o‘ylamang! Men jamol o‘g‘risi. Sizni bir qo‘lga tushirish uchun yillab, oylab yer quchib, qon yig‘lagan qulman.... Siz endi u oh

urgan kishingizni ko‘rolmaysiz. Faqat men bilan bo‘lasiz.... Men sizni deb kuydim, qul bo‘ldim. “Yugurgannikimas, buyurganniki”, deydilar. Mening ishqim Rustambekning ishqidan ilgari edi.

To‘laxon hech bir chorasisz, taqdirga tan berib, yig‘lab, dodfaryod cheksa ham endi hech narsani o‘zgartirolmashdi. To‘laxon Hamzaning boshqa qahramonlari Maryam yoki Jamila singari o‘zini o‘ldirmaydi, biroq uning jismi tirik edi xolos. To‘rtinchi pardada To‘laxonning ismi Xolisxon deb o‘zgaradi. Sababi shundaki, To‘laxon Mastura, Mirzaram qora, Norboyvachchalardan Yodgorga sotilganda Xolisxon oti qo‘yiladi. Tojiboy ismli yigit qizni bu yerdan olib ketish maqsadida kelib, rejasini so‘zlab beradi:

- Bu yerda gap bor-da: buning orqasi, oldi – hammasini men o‘n besh kundan baqqa ko‘rib bilib chiqdim. Izvosh, ot keltirib bo‘lmaydigan dala, so‘qmoq ko‘chalar bu. Bunga mening hisobim shuki, shanba kun birorta paranji topib yopinib kelaman. Bu yerda bizga paranji yaxshi ish berar.

Bu gapni eshitgan Xolisxon (To‘laxon):

- *Iloyim, paranji qursin, meni shunday qora kunlarga soldi!* - deb afsus chekadi.

Birgina “iloyim” so‘zi Xolisxonning nutqiga cheksiz mung, alam, o‘kinch va nafrat ohangini bergan. “Iloyim” so‘zi aslida “ilohim” shaklida qo‘llanilib, ezgu niyatlar, nekbin maqsadlar bilan birga keladi. Lekin Xolisxon aytgan “iloyim” so‘zi qarg‘ish va norozilik ma’nosini ifodalab kelyapti. Birgina harf bilan so‘zning ma’no ottenkasi o‘zgarishi, duo uchun mo‘ljallangan so‘z qarg‘ishga aylanishi xalq tiliga, jonli so‘zlashuvga xos unsurlar. Hamzaning xalqqa, uning tiliga, jonli muloqot nutqiga yaqin ijodkorligi ham shunda.

Mamat degan qari, biroq o‘ta ayyor, mug‘ombir, kallakesar kishi Xolisxonni yoqtirgani uchun uni tirik qoldirib, Yodgor bilan Tojiboyni o‘ldirib, ko‘mib yuboradi. To‘laxonning taqdiri yana bir nomard kimsa Mamatning ixtiyorida qoladi....

Qanchalar fahsh, buzuqchilik va nahs... Nafs qurboni bo‘lgan kimsalar uchun paranji degan buyum paranji bo‘lib yaratilganiga pushaymon. Necha yuzlab navnihol qizlar badnafs bandalarining qurboniga aylangan. Ana shunday badxulq odamlarni fosh qilish

uchun Hamza qo‘liga qalam olib, paranji ichidagi hamma noqisliklarni yozishni maqsad qilgan.

Bu asarni o‘qish juda og‘ir. Qaniydi tezroq tugasa, deb o‘qiysan. Bunday jirkanch sahnalarni tasvirlab, uni qalamga olish ham ijodkorga nechog‘li og‘ir bo‘lganini tasavvur qilish qiyin emas. To‘g‘ri, asardagi barcha epizodlar, detallar to‘lig‘icha realistik tasvir prinsipiga amal qilgan, deb aytolmaymiz. Ayrim joylarda savollar, e’tirozlar ham paydo bo‘ladi. Masalan, To‘laxon chanqaganda o‘rik sharbati deb vinoni ichishi juda g‘alati. Qiz umrida hech bo‘lmasa bir marta o‘rik sharbatini ichgan bo‘lishi kerak. Sharbat bilan vinoning ta’mi bir-biriga o‘xshash emas. Ich, desa, ichib ketaverish – oqil insonga xos ish emas. Ikkinchidan, To‘laxon islovatxonaga tushganini bilgandan keyin “qismatim shu ekan”, deb shahvat va nafs qullariga o‘zini osongina topshirib qo‘yishi ham ojizlik belgisi. Ayol kishi uchun oriyat va nomus masalasi hamma narsadan ustun bo‘lishi kerak. Lekin uning aybi ilmsizlikda edi. Hamzaning urg‘u bermoqchi bo‘lgani va biz jirkanch bilan o‘qigan so‘zlarning bosh o‘zagi – jaholat. Yozuvchi borini boricha tasvirlab bergen. Asosiysi, u o‘zi aytmoqchi bo‘lgan g‘oyasini juda ta’sirli, jonli, hissiyotlarga boy tarzda yetkazib berishga muvaffaq bo‘lgan. Asarda qahramonlarning nutqi jonli: ular birda nafrat, birda shafqat uyg‘otadi.

“Qozining sirlari” dramasi Teshaboyning o‘ziga-o‘zi gapirib o‘tirgan joyi bilan boshlanadi. Asar mohiyatini va ayollar qadr-qimmatini anglash uchun Teshaboyning monologini keltirish o‘rinli:

- *Ey Xudo, bu qanday zamonaki, xotin-qizlarning paranjilarini olib, yuzlaridan sharmi hayolari ketib, ko‘chalarda uyalmasdan har kimlar bilan so‘zlashib, majlislarga borarlar. Qanday kunlarga qoldim? Bizning xotin ham paranji to‘g‘risida so‘z ochay-ochay, deydi-ku, lekin mendan qo‘rqib yuradir. Agarda paranji-maranji deydurgan bo‘ladirgan ekan, to‘g‘ri kechasi kelib, “Bir pichoq sandan aylansun. Men lokin senga paranjingni oldirmayman. O‘ylamagan, sen meni so‘z bilan yengaman, o‘ylamay qo‘ya qolg‘il. Meni so‘z bilan domlalar, mullalar, eshonlar ham yengolmas. Bir xotin mulla Teshaboy, Qoraboy, Qo‘chqor, G‘anini so‘z bilan yengar emush?!*

Mana, bir erkakning fikrlari jamlangan monolog. Paranji uchun xotinini o‘ldirishga tayyor. U bilmaydiki, axloqsizlik qilaman degan odam uchun paranjisi bor yoki yo‘qligining ahamiyati yo‘q.

Saodatning esa dovyurakligi ta’sirli. U johil erini aldashdan boshqa chora topolmaydi. Besh oydan beri “onamnikiga boryapman” deb, yashirinchha “jenotdel”ga o‘qishga borib, 8 martda paranjisini tashlamoqchi bo‘ladi.

Teshaboy bu yolg‘onni sezib qolgach, Saodatni so‘roqqa tutganida u hech ikkilanmay o‘z so‘zida qat’iy turib oladi. U o‘qish tarafdori edi: - *So ‘z shulki, o‘zingizga ma’lum, meni tenglarim maktablarda o‘qiyotir. Men ham shular barobarida o‘qisam. 8 martga paranjimni tashlasam*<sup>303</sup>.

Tabiiyki, Teshaboy bunga qarshi edi. Lekin Saodatning qat’iyati kuchli, u so‘zidan qaytmaydi: - *Hozirg‘i kundan har kimni ixtiyor o‘zida. Domla, eshon, qozi degan narsalar bilan hukumatimizni hech qanday aloqasi yo‘q. Shuning uchun mening huquqim o‘zimda, deb bilaman. Sizning ixtiyorining emasman*<sup>304</sup>.

XX asr boshida mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy vaziyat nechog‘li bo‘lgani tarixiy faktlardan yaxshi ma’lum. Avvalo chor, so‘ngra sho‘ro tuzumi olib borgan mafkura va siyosat mahalliy xalq ongiga kuchli ta’sir o‘tkazgan. Yuqoridagi kabi xotin-qizlar o‘z haq-huquqlarini talab qila boshlagani, bir tomondan, ijobiy hodisa bo‘lsa-da, boshqa tomondan, milliy mentalitet, din va shariat, qadriyatlarimizga xos bo‘lmagan o‘zboshimchalik, betgachoparlik, shartakilik, odobsizlik kabi illatlar xotin-qizlarimizga yuqa boshlagani milliy inqiroz edi. To‘g‘ri, balki Teshaboyga o‘xshagan odamlarga boshqacha muomala qilib bo‘lmas edi. Shuning uchun har narsaning yaxshi tomoni bo‘lgani singari yomon taraflari ham bo‘lishi ehtimoli katta.

Saodat bilan Teshaboy tortishib-tortishib, biri qoziga, biri jenotdelga boramiz deb, oxir-oqibat qozinikiga kelishar ekan, Saodat qozining sirini ochadi, uni sharmanda qilib, kirdikorlarini va axloqsizligini fosh qiladi:

- *Imonsiz qozi, tag‘in iflos harakatlaringdan qilmoqchisanmi? Hali ham tavba qilganing yo‘qmi? Senday qoziga la’natki, seni*

<sup>303</sup> O‘sha asar. – Б. 218.

<sup>304</sup> O‘sha asar. – Б. 219.

*oldingga kelgan xotin-qizlarga shunday iflos harakatlaringni qilar ekansan, shuning uchun uch yil qamalgan ekansan. Seni yana ikkinchi siring ochildi. Sen, senday ifloslarni dunyodan yo‘q qilish kerak!*

Asar ayni bir maqsad – xotin-qizlar hurligi yo‘lida paranjini tashlashga targ‘ib qilish uchun yozilgan. Darhaqiqat, asar biroz sun’iy chiqqan. Ayniqla, eng oxirgi epizodlar. Chunki birligining qozining soxtaligi ochilishi bilan arning xotiniga qarab “hur yasha, paranjini yechishingga qarshiligidim yo‘q”, “yashasin ishchi-dehqon birligi”, deyishi juda yasama chiqqan. Ammo asar “Qozining sirlari”ga bag‘ishlangani uchun uning sirlari fosh etilgan. Eng yomoni, ayrim noplari, shahvatparast, yengiltak qozi, domla, eshon, mullalarni deb, barcha dindor ulamolarga tosh otilgan. Darhaqiqat, o‘sha paytda bunday bid’atchi, xurofotchilar ko‘payib, dinni niqob qilgani achchiq haqiqat.

Istibdod qurbanlari (“Loshmon fojiasi”dan uchinchi bo‘lim) asari bir-biriga ko‘ngil qo‘ygan yoshlarning bir-biridan ajralgani va ikkisi ikki tomonda halok bo‘lgani haqidagi fojeiy asardir. Drama Nikolay II ning farmoniga ko‘ra Rossiya o‘rmonlariga yuborilgan o‘zbek yigitlarining 40-45 daraja sovuqda mehnat qilish sahnasi tasviri bilan boshlanadi. Sayidxon sevgan yori Sanavbardan olisda. Xuddi shundayin yor sog‘inchida va ustiga-ustak pul uchun boyga sotilgan otasidan norizo Sanavbar dardu alamga to‘la. U Xalcha xolasiga qarab yig‘lab, dardini aytadi:

*- Xolajon, qaysi mazhab, qaysi dinda bor! Ko‘ra bila turib, qizini ikki xotini bor bir zolim qonxo‘rga kuchlab berish? Jon xola, insof, rahm, shafqat degan narsa hech qolmadimi? Ota-bobolarni rasmlari qursin! Menga o‘xshagan qizlarni va sultondek yigitlarni vaqtsiz ajal bila qora yerga nihon qildilar. Bu qanday shariat? Bu qanday musulmonchilik? O‘z suyganing, o‘z muhabbat qo‘yganing bo‘lmagandan keyin u tiriklikdan ming martaba o‘lum yaxshimasmi? Jon xola, sizni boshingizdan o‘tmaganga o‘xshaydi! Oh, Xudo-yey!*

Xalcha xola qo‘lidagi xatni, ya’ni qo‘rboshining qo‘li bilan yozilgan Sayidxonning o‘limi haqidagi xatni beradi-yu, o‘zi chiqib ketadi. Sanavbar o‘zida yo‘q xursand, chunki olti oydan beri ko‘rmagan sevgilisi Sayidxondan kelgan xabarni o‘qish uchun juda

hayajonda edi. Xatni o‘qishi bilan qichqirib, yig‘i bilan sochlarini yozib:

- *Oh, dini ishini savdo ishiga aylanturgon ozuq qurbanlari! Bizni xarob qildingiz! Uh, uh! O‘z kayf-rohatingizni ko‘zda tutub, Islom olamini xarob qildingiz! Uh, uh! Yana shu holda yarim asr davom qilsangiz, billo, islam unvonida, dunyo yuzida tillardan ko‘tarilur, oh, Sayidxon! Hamisha umidida qonlar yig‘lagan hurriyat zamonini ko‘rolmay o‘ldung! Loaqal bu xoin mustabidlarni palid boshlarini oyog‘lar ostida poymol bo‘lganini ko‘zimiz bila ko‘rsak edi, oh!... Xayr endi g‘urbat xonam! - deb uyidan yugurib chiqib ketadi.*

Ota va ona uyda o‘tirar ekan, eshikdan kirib kelgan yigit Sanavbarning qo‘shni dugonasi Zaynablarning bog‘idagi daraxtga o‘zini osib qo‘ygani haqidagi xunuk xabarni yetkazadi.

Yana bir o‘lim. Diniy-shar’iy hukmi og‘ir bo‘lgan o‘z joniga suiqasd. Taassuflar bo‘lsinki, bunday sahnalar nafaqat Hamza ijodida, balki Avloniy, Qodiriy asarlarida ham uchraydi. Bu bejiz emas. Xalq mustamlaka va mahalliy amaldorlar zulmidan, diniy mutaassiblikdan shu qadar to‘yib, joni halqumiga kelgan ediki, bir-biriga yetisholmagan yosh yigit-qizlar (Avloniy, “Biz va Siz”, Maryam va Kamol; Hamza, “Zaharli hayot yoxud ishq qurbanlari”, Maryam va Mahmud, “Boy ila xizmatchi”, Jamila), qarzga botib, qarzini to‘lay olmagan eru xotinlar (Qodiriy, “Baxtsiz kuyov”, Rahima va Solih) kurashishga kuch topolmasdan, o‘limni afzal bilgan edilar.

Ko‘rinadiki, Hamza yaratgan Jamila, Maryamxon, Xolisxon, Sanavbar kabi ayollar obrazi – jaholat qurbaniga aylangan, o‘z joniga qasd qilgan ayollar. Ular ilmli, o‘qimishli bo‘lishganda, o‘zlarida yashashga kuch topib, kurashar va o‘z haqlarini ajratib olishar edi.

Har bir obrazning nutqi o‘ziga xos va farqli. Masalan, Sanavbar nutqida pafosning eng yuqori cho‘qqisini sezish mumkin. Uning nutqi romantizm bilan to‘yingan. Jamila va Maryamxonning nutqi ham Sanavbarning nutqiga yaqin. Ularda shoirona ruh ustunlik qiladi. To‘g‘ri, goh sun’iy, goho hissiy, ba’zida romantik bo‘yoqdorlik yetakchilik qiladi. Bular orasida Maryamxonning nutqida ilmu ma’rifat g‘oyasi yetakchilik qiladi. Chunki u savodi

chiqqan, mahalliy matbuot nashrlaridan boxabar qiz edi. Jamila esa o‘limga tik boqadigan, sevgisi uchun har narsaga tayyor jasur va sadoqatli qiz. Biroq u kambag‘al, o‘qimagan, savodsiz, tom ma’nodagi ojiza qiz. U Maryam kabi o‘lishni afzal biladi. Xolisxon (To‘laxon)ning nutqi eng zaif, ojiz, o‘ziga ishonchsiz, qat’iyatsiz inson xarakterini ochib bergen. U faqatgina “Iloyim, paranji qursin, meni shunday qora kunlarga solgan” deb taqdiridan norozi bo‘lib yashashdan nariga o‘tolmaydi. Xolisxon o‘z joniga qasd qilishgacha yetib bormaydi, biroq erkaklarning qo‘lida ovunchoq bo‘lib yashaydi.

Abdulla Avloniyning 1914-1917 yillarda yozilgan “Biz va Siz” dramasining bosh qahramonlari Kamol va Maryam bo‘lib, asarda ularning fojeasi tasvirlangan. Kamol Yevropada o‘n yil tahsil olgan, ham ruhan, ham jisman, ham ma’nabat barkamol yigitga aylangan edi. U vataniga qaytgach, dilini xufton qilgan manzarani ko‘radi. Eng yomoni shundaki, asar qahramoni Kamol o‘z ota-onasiga, qavmu qarindoshlariga qarshi. Uning qarshiligiga asos shunda ediki, u ma’rifatsiz ota-ona siqtovi bilan badavlat xonardonning “alvasti”dek tasqara qiziga nikohlanishga majbur qilingan. U ko‘targan isyon, afsuski, ota-ona qarorini o‘zgartirilmaydi: “Men sizning buzuq xurofotlar bilan to‘lg‘on turmushingizni istamayman. Yangi turmush istayman! Yangi hayot istayman! Mana shu yangi turmushga menga rahbarlik qilg‘udek, oila boshlig‘i bo‘lg‘udek yo‘ldosh istayman. Men yangi xayol va siz eski xayol...”<sup>305</sup>

Kamolning qarori qat’iy edi, uning so‘zlarida jadid ziylolarining g‘oyalari, ya’ni isloh yo‘li bilan maqsadga erishish kerakligi nazarda tutilgan edi. Avloniyning ushbu so‘zlari ham kurashga chorlaydi:

*Garchi manzildur xatarlik ham yiroq maqsudimiz,  
Hech yo‘l yo‘qdirki bo‘lmas unda poyon chekma g‘am.  
Har kishida bir g‘arazdur, har ko‘ngulda bir xayol,  
Har kim o‘z ummidining qurban, Hijron, chekma g‘am*<sup>306</sup>.

Zero, Kamolning “eski fikrli” otasi Karimboyning xotinlar qanaqa bo‘lishi kerakligi haqida o‘g‘liga aytgan so‘zlari barcha fojialar o‘zagi: “Xotun degan narsa erving cho‘risi bo‘ladur. Mana

<sup>305</sup> O’sha manba: – Б. 162.

<sup>306</sup> Авлоний Абдулла. Танланган асалар. 2 жилдлик. 2-жилд. Пандлар, ибратлар, хикоялар, набийлар хаёти, драмалар, мақолалар, саёҳат хотиралари.– Т.: Маънавият, 1998. – Б. 157.

*shu chahor devor ichida o‘lturub, osh-suvga, ernening yirtiq-yamog‘iga yarasa bo‘ladur*<sup>307</sup>.

Yuqoridagi lirik, epik, dramatik asarlar tahlilini umumlashtiradigan bo‘lsak, ayollarga nisbatan past nazar bilan qarash, ularga hayvon kabi munosabatda bo‘lish – ularning haq-huquqlari poymol bo‘lishiga, jabr-zulm va jaholat qurban ni bo‘lishiga va hayotdan bevaqt ko‘z yumishiga olib kelgan va bu XX asr boshida millatimizning eng og‘ir fojiasi bo‘lgan, degan xulosaga kelamiz.

Otaning gapiga javoban Kamol shunday deydi: “*Otajon! Sizning nazaringizda xotun bizga cho‘ri bo‘lsa, mening nazarimda erdan xotunning martabasi ulug‘. Butun bir oilaning tarbiyasi, yozmush saodati uy boshlug‘i bo‘lg‘on xotun qo‘lida bo‘ladur. Bobolarimiz “xotunning yaxshisi Xitoyning bojingiri” demishlar*

<sup>308</sup>.

Mana haqiqiy kontrast. Biz va Siz – eskicha qoloq qarash bilan yangicha dunyoqarash o‘rtasidagi keskin farq. Jaholat va ma’rifat o‘rtasidagi kurash.

“Biz va Siz” dramasida Maryam obrazining yorqin qiyofasini uning sevgilisi Kamolga yozgan maktublarida ko‘ramiz. Quyida Maryamning birinchi maktubini keltiramiz: “*Ey, meni oromijonim, suyuklim Kamol! Mening eshituvimga qarag‘onda zolim falak seni mendan, meni sendan tirik holimizda ajratmish. Yo‘q!.. Sen ajralsang-da, men ajramam. Tirik bormen, sen tashlasang-da, men tashlamam. Chindan sendan ajraladurg‘on bo‘lsam, bilib ishimni qilurman. Suyukling Maryam*

<sup>309</sup>. Maktub ko‘rinishida ifodalangan Maryamning ushbu nutqi uning Kamolga qanchalar oshiqu beqaror bo‘lganidan nishona. U taqdir-qismati oldida ojizu notavon. O‘z mahbubiga oshiqona maktublar yozishdan, zolim charxni yozg‘irishdan va o‘ziga o‘lim tilashdan boshqasiga kuchi yetmaydi. Maryam qo‘liga zaharni olar ekan, shunday deydi:

- *Meni bu balodan faqat o‘lim qutqaradur. Mana bu obihayot butun qayg‘ularg‘a, kulfatlarg‘a xulosa, yetmish ikki illatg‘a xotima*

<sup>307</sup> O’sha asar. – Б. 159.

<sup>308</sup> O’sha asar. – Б. 159.

<sup>309</sup> O’sha asar. – Б. 166.

*beradurg‘on, menga o‘xshash mazlumalarning dodiga yetadurg‘on davo!*<sup>310</sup>

Maryam o‘rtog‘i Xosiyatga aytganidek, tevarakdagi zolimlar uning o‘z yoriga yetisholmay, hayotdan bevaqt o‘tishiga sabab bo‘ldilar, chunki “jaholatga cho‘mg‘on insonlar” “...guldek ochilgan yosh umrlarni xazon, turmushlarin to‘zon qilalar”<sup>311</sup>.

Maryamning Kamolga yozgan so‘nggi maktubida “...ishq va muhabbat balosi meni jonimdan to‘yg‘uzdi. Bu yorug‘ dunyoda turmoqdan qorong‘u go‘rga kirmoqni avlo bildim. Bu maktubim oqasidan eshiging oldidan suyukli Maryamingni tovutin o‘tgonin ko‘rursan. Sen, yasha Kamol! Men ketdim Maryam”<sup>312</sup>, so‘zlari bitilgan edi. Xatni o‘qigan Kamolning ko‘ziga bu dunyo qorong‘u bo‘lib ko‘rina boshlaydi. U ham joniga qasd qiladi. Kalima keltirib, o‘rindiq ustiga chiqib, o‘zini osib, o‘rindiqni tepib yuboradi. Alaloqibat Maryam va Kamol sevgisiga sodiq qolmoq uchun hayotdan ko‘z yumdilar.

Maryamning nutqida, yozgan maktublarida ishq-muhabbat savdosi, azob chekish bor, lekin kurash, qat’iyat, ishonch, umid tuyg‘usi yo‘q. Asarlar tahlilidan ko‘rinib turibdiki, eng og‘ir paytlarda xotin-qizlar o‘zi uchun eng yaxshi chora va davo deb suiqasdni tanlagan.

Jadidlar tomonidan yaratilgan xotin-qizlar obrazining qaysi birini olmang, deyarli har biri zolim falakdan, xazon bo‘lgan hayotidan, zabun tole’idan shikoyat qiladi. Ko‘plab asarlarda xotin-qizlarning yoshgina umrini zavol qilgan asosiy detallardan biri – zahar ichish sahnasidir. ZOTAN, prof. U.Jo‘raqulov to‘g‘ri ta’kidlaganidek, o‘z joniga qasd qilish motivi milliy zaminga ega emas. Biroq Avloniy, Hamza, Qodiriy va boshqa ijodkorlar yaratgan qahramonlarning zahar ichish yoxud o‘zini osish sahnalari aynan real hayotda ro‘y bergen voqealar zaminida yozilganini bir qancha manbalar, xususan gazeta xabarlari tasdiqlaydi. Nafaqat asar qahramonlari, balki real insonlar ham bunday gunohga qo‘l urgani jadid ma’rifatparvarlarining bu mavzuni hech mubolag‘asiz o‘z asarlarida ko‘rsatishga intilganidan dalolat beradi. Bu holat

<sup>310</sup> O’sha asar. – Б. 175.

<sup>311</sup> O’sha asar. – Б. 174.

<sup>312</sup> O’sha asar. – Б. 183.

jadidlarni tashvishga soldi, biroq umidsizlantirmadi. Ular realistik metod yo‘li bilan haqiqat va badiiyatni uyg‘unlashtirdilar.

Avloniyning “Biz va Siz”idagi Maryam bilan Hamzaning “Zaharli hayoti”dagi Maryam o‘zaro juda o‘xshash obrazlar. Ularning nutqida bir xil qarash va maqsad seziladi. Ustiga ustak ismlari ham bir xil. Mualliflar bu qahramonlarni o‘zaro ta’sirlanib yaratgan bo‘lishi ehtimoli katta. “Advokatlik osonmi” (1914) pyesasida Avloniy bitta ayol obrazi uchraydi. O‘n besh yil davomida eridan faqat zulm va sitam ko‘rgan bu ayolning ismi Mehriniso bo‘lib, u advokatning qabuliga eridan ajrashish uchun qonuniy yordam berishini iltimos qiladi. Mehriniso advokatga:

- *O‘n besh yildan beri man baxti qaro sho‘rlik ... bir qimorbozni qo‘liga tushub, o‘tga yoqilub, toshga chaqildim. Kuyub-o‘rtanub cho‘b-ustuxon bo‘lib ketdim. ... Mani muttaham erim qurg‘ur bir kun qimorg‘a yutqizib kelub, alamini mendan olsa, bir kun mast bo‘lub kelub, man sho‘rlikni boshiga qiyomat kunini soladi. Ichg‘on oshim – zahar-zaqqum, ko‘rgan klinik – jahannam!”<sup>313</sup>*

Hayoti jahannamga aylantirilgan bu kabi ayollar o‘nlab, balki yuzlab topilardi. Ayolning tahqirlangan turmushi va xazon bo‘lgan umri haqidagi gaplarni eshitgan advokat Davronbek shogirdi Abdujabborga aytgan so‘zлari jadid ziylolarining ilg‘or qarashlarini o‘zida aks ettirgan:

- *Mana bizning oramizdan munday ko‘ngilsiz hollarning yo‘q qilmoq uchun butun kuch-quvvatimizni xotin-qizlarimizni o‘qutmoq, maorif va madaniyat ila oshno qilmoq yo‘linda sarf qilmog‘imiz lozimdir*<sup>314</sup>.

Yuqorida ikki jumlaning o‘ziyoq asar mohiyatini ochib berish uchun muhim vazifa bajargan. Ayni holatda nafaqat ayolga, xuddi shuningdek, erkakka ham ilm yetishmagani sababli qanchadan-qancha oilalar bebaxt va saodatsiz yashab kelayotganiga ishora edi. Avloniyning barcha asarlari kabi ushbu dramasi ham didaktik mazmunga ega muhim asarlardan biridir.

Xoh Hamza, xoh Avloniy asarlari tekshirilsa, xotin-qizlar mavzusiga doir muammolarning bosh sababchisi ilmsiz xalq. Ilmi yo‘q odamda esa faqat bir narsa ustunlik qiladi – nafs. O‘zлari nafs

<sup>313</sup> O’sha asar. – Б. 138-139.

<sup>314</sup> O’sha asar. – Б. 140.

qurbaniga aylangani yetmaganidek, begunoh xotin-qizlarni ham o‘z nafsi yo‘lida qurban qilganlar ozmuncha bo‘lmaganini mana shu asarlar ham ko‘rsatib turibdi. Ikkala ijodkor – Avloniy va Hamza ham jamiyat taraqqiyotini xotin-qizlarning o‘qimishli bo‘lishida, oila islohida ko‘radilar. Ular o‘z qarashlarini mazkur timsollar tomonidan aytilgan nutq – dialog va monologlarda ifoda etdilar.

Hamza va Avloniy singari dramatik asarlarda ayollar obraziga ko‘p murojaat qilgan tilshunos olim, shoir, nosir va dramaturg Fitrat haqida so‘z ketganda, uning ikki asari: “Chin sevish” va “Hind ixtitolchilari”dagi xotin-qizlar obrazini tahlilga tortamiz. Fitrat dramalarini tahlil qilar ekanmiz, asar kulminatsiyasi va eng diqqatga sazovor nutqlar ayollar obrazi orqali ifodalangani ko‘rinadi. Fitrat dramalarida dramatizm, lirizm, fojiaviylik ruhi lahza sayin kuchayib borgan.

Uning “Chin sevish” (1920) dramasi qahramonlaridang go‘zal Zulayho oshiqa. Uni sevuvchi Nuriddin ham oshiqa. Nuriddinning Zulayhoga sevgisi cheksiz. U chin ishq sohibi. Nuriddinning ishqqi, ruhoniylazzati faqatgina Sharq musulmoniga xos bo‘lgan chin ishq. Uning fikricha, kishining kamoliga sabab bo‘lmaydigan, ruhini yuksaltirmaydigan ishq – ishq emas, hayvon havasidir. So‘zimiz isboti uchun Zulayho va Nuriddin o‘rtasidagi dialogdan parcha keltiramiz:

Zulayho. *Bu yerda yolg‘izg‘ina nimalar tushunib turasiz.*

Nuriddinxon. *Hech!*

Zulayho. *Quyosh bilanmi gapurisha edingiz?!*

Nuriddinxon. (buyuk bir yurak iztirobi bilan). *Sizni ko‘rmagach, undan boshqa kim bilan gaplashay!*

Zulayho. *Shoirliq...*

Nuriddinxon. *Ishqning eng yaqin yo‘ldoshi.*

Zulayho. *Yurak yong‘inining alangasi, desak ham bo‘lur.*

Nuriddinxon. *She‘rning nima ekanini ko‘b yaxshi bilasiz.*

Zulayho. *Ishqni(ng) bilg‘anim kabi.*

Bir-birlarining ko‘zlariga oshiqona qararlar.

Nuriddinxon. *Oh... Zulayho!..*

Zulayho. *Oh... Nuriddin!..*

Nuriddinxon. *Buyur!..*

Zulayho. *Ko‘kka boq, qanday tiniq!*

Nuriddinxon. *Menim sevishim kabi.*

Zulayho. *Kel, yerning bu bulg'aniq havosindan o'zimizni qutqaraylik. Ikkimiz qo'lni-qo'lga berib uchaylik, uchaylik... Quyosh erishmag'an o'rirlarg'acha yuksalaylik!...*

Bir-biriga dil bergen ikki yosh Zulayho va Nuriddin nutqida romantik pafos kuchli. Ularning gap-so'zлari shoirona ruhda. Nuriddin shoир yigit emasmi, uning har bir so'zi go'zal lutf va tashbehlар bilan bezalgan. Ular suhbating davomi ishq egalarining yana bir qancha ibratli jihatlarini biz uchun ochib beradi:

Zulayho. *Oh... anglizlarni Hindustondan chiqarmoq na go'zal bir so'z! Biroq go'zalligicha qiyinlig'i ham bor! Ikk-uch kishining qo'lidan kelmas bir ish!*

Nuriddinxon. *Ikk-uch kishimi? Butun Hindustonda anglizlarg'a qarshu ikki-uch milyo'n kishi bor. To'g'risini aytganda, butun Hinduston ulusi anglizlarni quvmoq istaylar.*

Mana, chinakam vatanparvar yoshlар. Ular uchun eng oliv maqsad – yurt ozodligi. Nuriddin shoир edi, Zulayho esa oshiқ Nuriddинга munosib yor. Uning qalbi o'zi kabi go'zal va beg'ubor. Zulayho uchun xuddi Nuriddin uchun bo'lganidek, vatan muhabbati hamma narsadan ustun. Ular bir-birining vasliga yetolmagan chin oshiqlar, vatan uchun qurban bo'lган chin oshiqlar timsoli. Asar xotimasida Nuriddin vatan ishqи yo'lida, qolaversa, mahbubasining ishqи yo'lida jon beradi. Asar sahnaga qo'yilgan paytda Cho'lpon o'z taqrizida quyidagilarni keltirgan: “Yaqinda o'zbek sahnasi ulug' va ulug'ligi qadar yuksak va go'zal bir tomosha ko'rdi... Nuriddin “chin sevish”ga yetgan bir oshiқdir va shuning uchun xayollidir... Zulayxo ham yaxshi: biroq unga ko'broq sevgi harakati bermoq kerak edi”<sup>315</sup>.

Shoirona ruh va romantik kayfiyat bilan sug'orilgan ushbu asar keyingi dramani yaratish yo'lida bir tajriba bo'lган deyish mumkin. Chunki “Hind ixtitolchilari” (1923) dramasi qahramonlari faolligi, asarda dramatizmning kuchayishi, monolog va dialoglarning takomillashishi jihatidan “Chin sevish”dan ko'ra birmuncha ustunlik qiladi. Asar xotimalari ham shundan dalolat beradi.

---

<sup>315</sup> Чўлпон. Асарлар. IV жилд. Адабий-танқидий ва публицистик мақолалар. – Т.: Akademnashr, 2016. – Б. 68-70.

Vatanparvarlik tuyg‘usi bilan sug‘orilgan ushbu asar mutolaasida o‘quvchini cheksiz faxr, iftixor hissi chulg‘ab oladi. Boz ustiga vatan va millat uchun jonini fido etishga tayyor bo‘lgan ayollar obrazi yuksak hurmat va ehtirom hissini uyg‘otadi. Xususan, bosh qahramon Dilnavoz ham ana shunday fidoyi, jasur, matonatli, qo‘rqmas va botir qiz. Alloh unga har kimda ham uchramaydigan ichki sezgi va zakovat bergen. U odamning yovuz yo ezgu niyatli ekanini tezda sezish qobiliyatiga ega. Hech kimsa sezaga olmagan tilchi ayolni, ya’ni dushmanga sotilgan ayolni u bir ko‘rishdayoq payqagan edi. Uning sezgisini inobatga olmagan erkaklar o‘sha notanish ayolga ishongani sababli inglizlar tomonidan qo‘lga tushadilar.

Dilnavoz obrazi Cho‘lponning “Yorqinoy”ini yodga soladi. Ikkisi ham jasur va dovyurak. Uncha-muncha erkak kishi dosh berolmaydigan azoblarga chidamli bu qizlar millat faxru iftixoridirlar. Biri hind, biri o‘zbek millatiga mansub chinakam vatanparvarlar. Fitratning “Hind ixtitolchilari”ni o‘qir ekamiz, ingliz istilochilari hindlarga qanday jabr-zulm o‘tkazgan bo‘lsa, rus mustamlakachilari Turkiston xalqiga shunchalik zulm o‘tkazgani, hindlar mustamlakachiga qarshi qanday kurashgan bo‘lsa, turkistonliklar ham yovga qarshi tish-tirnog‘i bilan shunday kurashgani yodga keladi. Millatimizni tashqi dushmanidan ozod qilish uchun kurashgan millatparvar ajdodlarimizning katta qismiga “bosmachilar” degan tamg‘a bosilgan. Lekin ular chinakam millat fidoyilari bo‘lganini xalq yillar osha bilishga muvaffaq bo‘ldi. To‘g‘ri, Fitrat ular haqida asar yozolmasligi tayin edi. Fitrat o‘sha qoralangan, bo‘htonlarga uchragan, yog‘iy larga qurbon bo‘lgan millatparvar xalqi haqqi-hurmati uchun “Hind ixtitolchilari”, “Chin sevish” kabi dramalarni yaratdi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu asarlarda hind xalqi, hind sevishgan yoshlari timsolida Sharq xalqlarining yetti yot begona yovlarga o‘z yerini, vatanini osonlikcha berib qo‘ymasligini ko‘rsatib bermoqchi bo‘lgan.

Dilnavoz tahsinga loyiq qiz. U bir emas, ikki marotaba yov qo‘liga tushadi. Ikkisida ham bosqinchchi dushman tomon erkaklarining har xil maddohliklari, yengiltabiatliklari oldida bo‘yin egmaydi. Chunki uning haqiqiy sevgisi, dildan sevgan yurti bor edi.

U vatani uchun jonini berishga shay. Uning mana bu so‘zlari fikrimiz dalili:

- *Rahimbaxsh tushun. Anglizga qarshi bir kuch deganing hind ulusini-da, musulmon dunyosini-da ko‘z oldig‘a keltirib qara. Nimalar ko‘rasan: kishiga o‘xshagan bir yig‘in jonli narsalar. Miyalari tomug‘ (do‘zax) puchmog‘larindan<sup>316</sup> (jahannam ichidan) qorong‘uroq. Ko‘zları oyoq ostidan nariroqni ko‘rmaydir. Yuzlari keyinga qaytg‘an, tutash, keyinga qaraylar. Jon ozug‘in, ko‘z yorug‘in keyindan axtaralar. Olg‘a bosmoq kelgusini o‘ylamoqni “kufr” deb bilarlar. Miyalari eski, tushunchalari eski, qarashlari, qiliqlari eski. Eskilikka topinalar. Eng buyuk kishilari – o‘lik. Eng to‘g‘rili yerlari – mozor. Yashamoqqa topinalar. Odamlarcha yashamoq yo‘lini axtarmaylar. Butun dunyo bularni talamoq uchun birlashgan ekan, bunlar talovdan qutulmoq uchun birlashmaylar. Musulmon dunyosi nari tursun, bu kun hind inqilobchilari orasinda ham “birlik”, “kelishuv” degan narsalar yo‘q... Bunday bir kuchga ishonmoqni qo‘yaber, bunday bir yig‘inga “kuch” demak bo‘shadir<sup>317</sup>.*

Hind qizining bu so‘zlari jadid ziyolilarining qarash va g‘oyalarini yodga soladi. Dilnavozning har bir so‘zi uning ruhiy holatini yorqin ifodalab beradi. Uning qalbida dushmanaga nisbatan cheksiz isyon bor. Adabiyotshunos I.G‘aniev Fitratni bejiz “psixologik tahlil ustasi”<sup>318</sup> deb atamagan.

Dilnavozning nechog‘lik fidoyi, sadoqatli, dunyoqarashi keng, ilmli qiz ekanini o‘z xalqining suvratiyu siyratini tasvirlab bergan yuqoridaqgi so‘zlar orqali payqash qiyin emas. O‘sha damda bu xalq, o‘lka ahvolini ko‘rgan har qanday qalbi yoniq inson borki, mahzunlikka, hazinlikka cho‘kmay qololmasdi,adolatsizlikdan ko‘ksi

---

<sup>316</sup> Qarang: Фаниев И. Фитрат драмалари поэтикаси. Фил.фан.докт.... дисс-я. – Т., 1998. – Б. 227-237.

<sup>317</sup> Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. III жилд. Драмалар, публицистик мақолалар. – Т.: Маянвият, 2003. – Б. 47.

<sup>318</sup> Adabiyotshunos I.G‘aniev Fitrat asarlarida adabiy tildan chetlashish o‘rinlari, tushunarsiz so‘z-iboralar ko‘pligini ta’kidlab, bu haqda Vadud Mahmudning so‘zlarini keltirib, buning sabablarini topishga harakat qilgan, eng avvalo, istorizm va arxaizmlarni tahlilga tortgan. Shu o‘rinda, Fitrat qo‘llagan neologizmlar uning haqiqiy tilshunos olim ekanini namoyon etgani, adib ruscha so‘zlar qo‘llashdan qochgani hamda sof turkiycha so‘zlar yasashga intilgani tadqiq etilgan. Qarang: Фаниев И. Фитрат драмалари поэтикаси. Фил.фан.докт.... дисс-я. – Т., 1998. – Б. 198.

yorilar, qalbi tirnar holga tushmay qolmasdi. Lolahardiyol ismli qalandarning so‘zlari ham Dilnavozning so‘zlari bilan hamohang:

- *Yaqindan tanishmoq uchun ichkariroq kirganda qochirilg‘an qizlar, pardasizlangan xotunlar, bir-birining etini yegan ochlar, xo‘rlik ko‘rgan buyuklar, so‘kish eshitgan boshliqlarning qonli yoshlari, mungli boshlari, tutunli ohlari, o‘tli ingrashlari oldimizdan yasov tortib o‘tadir*<sup>319</sup>.

Ha, bu ta’rif-tavsiflar faqatgina hind eli emas, bizning Turkiston yurtida ro‘y bergen mudhish manzaralar tasviri edi. Dilnavoz va Rahimbaxsh singari millatsuyar yoshlari ana shu “qonli yoshlari”, “mungli boshlar”, “tutunli ohlar”, “o‘tli ingrashlar”ning oldini olmoq uchun bor kuch va qudrati bilan kurashga shaylandi. Bu ikkisi bir-birini “Hindistonne sevganchalik sevar” edi. Ularning muhabbatni vatan muhabbatni bilan uyg‘un, vobasta edi. Shu o‘rinda Rahimbaxshning xotin-qizlar erki haqida aytgan so‘zlari diqqatga sazovor:

- *Xotunlar qamalsalar, tarbiyasiz qolarlar. Tarbiyasiz xotunlar ulusning o‘lumi uchun yo‘l ocharlar. Tuzuk xotun kishilik bog‘chasinging gulidir. Gulni hayvondan saqlamoq teyish (kerak). Biroq uning uchun gulni yerga ko‘mmak emas, hayvoni bog‘lab qo‘yarg‘a kerak*<sup>320</sup>.

Shu o‘rinda payg‘ambarimiz Muhammad s.a.v.ning “Qiz bolani o‘qitib-tarbiyalamoq butun ummatni tarbiyalash bilan barobar”, mazmunidagi hadislarini eslash o‘rinlidir. Ko‘plab jadid ziylolarining va musulmon xalqining sevimli olimi va adibi Rizouddin Faxriddining ham ayni shu mavzudagi “Tarbiyala ona” kitobida bunday so‘zlarni o‘qiyimiz: “Xalqning yaxshi yoki yomon sifatli bo‘lishi ko‘p hollarda onalarga bog‘liq.... Tarbiyali onalar nafaqat o‘z farzandlari, balki butun musulmon eli oldida hurmat va e’zozga musharraf bo‘ladilar. Onalar mehnati – eng og‘ir va mas’uliyatli mehnat, uni na ta’riflab, na izohlab bo‘lmaydi...”<sup>321</sup>. Rahimbaxsh va Dilnavozning erk va ma’rifat haqida jon kuydirib aytgan so‘zlari,

<sup>319</sup> Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. III жилд. Драмалар, публицистик мақолалар. – Т.: Маънавият, 2003. – Б. 49.

<sup>320</sup> Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. III жилд. Драмалар, публицистик мақолалар. – Т.: Маънавият, 2003. – Б. 46.

<sup>321</sup> Фахреддин Р. Гайлэ. Тэрбияле ана. Тэрбияле хатын / ред. А.Хайри. – Казань: Академия познания. – Б. 90.

avvalo, Fitratning, qolaversa, barcha fidoyi, millatparvar, ma'rifatparvar, hurriyat uchun kurashgan jadid ziylolarining so'zlari edi.

“Dialogda ikki sevishgan yoshning qalb g‘alayonlari, yor va diyor muhabbatni kesishgan nuqtaning og‘riqli muammolari shoirona, romantik pafos bilan ifoda etilgan. Parchada ta’kidlab ko‘rsatilgan jumla-iboralar oddiy so‘zlashuv nutqiga emas, ko‘proq badiiy uslubga xos. Ammo dramaturg o‘z qahramonlarining nozik didli, ruhi yuksakliklarga parvoz qilguvchi, qalb olami dilbar shaxslar ekanligini ta’kidlash uchun, ularni o‘quvchi va tomoshabinga sevimli qilish maqsadida atayin shunday so‘zlatadi”<sup>322</sup>, - deb yozadi fitratshunos I.G‘aniev. Sevishganlarning shoirona, romantik pafos bilan yo‘g‘rilgan so‘zlari, ularning o‘zaro muloqoti – dialogi asarga cheksiz ruh va ehtiros bag‘ishlagan. Xususan, Dilnavozga xos badiiy nutq o‘zining jonligigi, ehtirosliligi bilan ajralib turadi. Uning nutqi boshqalardan ko‘ra ta’sirliroq. Unda da’vatkorlik ruhi bor.

“Chin sevish” va “Hind ixtitolchilari” dramalarining bosh qahramonlari Zulayho va Dilnavozlar bir-biriga juda o‘xshash. Ularning qarashlari, orzu-maqsadlari, nutqlari, hatto ifodalash usuli ham yaqin va o‘xshash. Ikkisining ham asosiy maqsadi yurtni hur va ozod ko‘rish. Ozod yurtda sevgani bilan birga bo‘lish. Biroq biri ikkinchisining uzviy davomi o‘laroq tasvirlangan bu qahramonlarda ayrim farqlar uchrashini payqash qiyin emas. Ularning yuqorida keltirilgan nutqlari shundan dalolat beradiki, Zulayhoda ingliz mustamlakachilariga qarshi kurashish uchun, ularni yengish uchun biroz ishonchsizlik ko‘zga tashlansa, Dilnavozda anchayin qat’iyatlilik, irodalilik, jasurlik, davyuraklik, yurtni mustamlaka qo‘lidan ozod qilish uchun sevgan yori bilan bir qancha ishlarni amalga oshirganlik kabi xatti-harakatlarni kuzatishimiz mumkin. Demak, Dilnavoz Zulayhoga nisbatan ma’nana va ruhan o‘sgan obraz. *Fitrat yuqoridagi ikki drama orqali ozodlik harakatida xotinqizlarning faol ishtiroki va ayollarning ijtimoiy hayotdagi o‘rniga urg‘u bergen.*

Cho‘lpon ta’riflaganidek “Fitratga xos so‘z ustaligi” yuqoridagi ikkala dramada ham o‘z ifodasini topgan. “Til sofligi uchun

---

<sup>322</sup> Ганиев И. Фитрат драмалари поэтикаси. – Т.: Фан, 2005. – Б. 206.

kurashgan” (Ilhom G‘aniev) Fitrat hind yoshlari hayotini tasvirlar ekan, o‘zbek xalqini va hind xalqini, bu ikki musulmon va sharq xalqini bir-biriga bog‘lovchi rishtalar ko‘p ekanini ko‘rsatish barobarida hind xalqi va ingliz mustamlakachisi timsolida Turkiston xalqi va rus-Sho‘ro mustamlakachilari nohaqliklarini oshkor etgan. “J.Neruning e’tirof etishiga ko‘ra, Fitratning bu asarlari hind xalqining mustamlakachilikka qarshi olib borgan kurashiga kuch va madad bergan”<sup>323</sup>.

Yevropaning Sharq mamlakatlari ustida amalga oshirgan adolatsiz siyosati borasidagi Abdurauf Fitratning mulohazalarini Z.Abdirashidov quyidagicha keltiradi: “Fitrat bundan biroz avvalroq yozilgan “Sharq siyosati” nomli maqolasida G‘arbga bo‘lgan munosabatini, uning haqiqiy siyosati nimada ekanligini ochib tashlagan edi. Bir vaqtlar “Sharqg‘a madaniyat maktablari, insoniyat madrasalari ocharmiz” degan bahona bilan Turkistonni qonga botirib, uning yuzini toptagan bosqinchi «jahongirlari fohishaxona va mayxonadan boshqa bir narsa» olib kelmadidi. Fitrat shu o‘rinda o‘ziga o‘zi savol beradi: «Ajabo, Ovrupa jahongirlari bu ishlarini bilibmi qildilar, bilmasdanmi qildilar?» Javobi esa «Albatta, bilib qildilar, jo‘rttaga qildilar». Fitrat maqolasida mustamlakachilarning asosiy maqsadlari qo‘l ostiga olingan mazlum xalqqa «madaniyat berish», «maorif tarqatish», «taraqqiy etdurmak» emas, «turli fohishaxonalar, mayxonalar ochib, bizning axloqimizni buzmoq» va oxir oqibatda «bizni ishdan chiqarmoq va o‘z qo‘llarig‘a muhtoj qilib qo‘ymoqdir». Fitrat bu fikrlarni yozar ekan, siyosiy jihatdan ancha yetishgan, xalqni haqiqiy ahvoldan boxabar qilish uchun hech narsadan tap tortmay fikr yuritadigan shaxs sifatida ko‘rinadi”<sup>324</sup>.

Darhaqiqat, keyingi yozilgan dramalarda fojialar mohiyati tamomila o‘zgargan. Ilk yaratilgan dramalarda xotin-qizlar mavqeい ko‘zga tashlanmagan edi. Ular uchun yagona najot og‘u bo‘ldi. Biroq keyinchalik yaratilgan Zulayho, Dilnavoz singari xotin-qizlar obrazi ruhan va jismonan yetuk, voqealar rivojida o‘zining muayyan o‘rniga ega, qolaversa, dramadagi konflikt va ziddiyatlarni

<sup>323</sup> <https://ziyouz.uz/ozbek-ziyolilari/abdurauf-fitrat-2/> Каримов Н. Ўзбек зиёлилари. Абдурауф Фитрат.

<sup>324</sup> <https://daryo.uz/k/2021/03/30/millatga-najot-yolini-korsatgan-jadid-abdurauf-fitrat-hayotiga-chizgilar/> Абдурашидов З. Миллатга «нажот йўли»ни кўрсатган жадид. Абдурауф Фитрат хаётига чизгилар.

harakatlantirish qudratiga ega ayollar obrazi sifatida paydo bo‘ldi. Bunday ayollar obrazi keyingi nasrimiz va dramaturgiyamiz tadrijiga ijobiyligi va ijodiy ta’sir ko‘rsatgani shubhasiz. Kumushbibi-yu Ra’nolardagi yetuklik va jasoratning ildizi Fitratning Zulayhoyu Dilnavozida, Cho‘lponning novvoy qizi-yu Yorqinoyida shakllanib, bo‘y cho‘zgan edi.

Fitratning yer-suv islohotiga bag‘ishlangan «Arslon» dramasida (1926) ham xotin-qizlar obraziga alohida o‘rin berilgan. Jumladan, Arslonning onasi Tursunbibi, Botirning onasi Nor xola, Arslonning sevgilisi To‘lg‘un va uning onasi Oyto‘ksa kampir, shuningdek, Mansurboyning satang xotinlari Zaynab oyim va Sharofatxonlar. Asarda Mansurboyning domлага ham, imomga ham, kattadan-kichik hammaga buyruq berishi, xotinlari ustiga to‘rtinchi xotin qilib Arslondan To‘lg‘unni tortib olishi Hamzaning “Boy ila xizmatchi” (1918) dramasi qahramonlari Solihboy, G‘ofir va Jamilani eslatadi.

Yuqorida tahlilga tortilgan dramalarda ijodkor konsepsiysi maishiy turmush va bosh qahramonlar fojeiy qismati fonida tasvirlangan. Aslida fojeiy qismat sohiblari jamiyat va millatning muayyan bir illatini, qusurini o‘zida aks etdi. Fojiaviy yakun zamonning nechog‘li og‘irligini, mutaassiblikning nechog‘li avj olib ketganini yaqqol namoyon etgan edi.

## **4.2. Konflikt – xotin-qizlar obrazi tasvirining poetik vositasi sifatida**

Konflikt an’anaviy drama nazariyasida eng asosiy tushuncha hisoblanadi. Konfliktda dramaning bosh mohiyati mujassam bo‘ladi. Aynan konflikt syujet asosida yotuvchi manba bo‘lib, u qarama-qarshi kuchlarning kurashidan iborat. Prof. D.Quronovning keltirishicha, “Konflikt – personajlarning asar syujetida badiiy ifodasini topadigan o‘zaro to‘qnashuv va kurashlari, qahramon bilan muhit orasida yoki uning ruhiyatida kechuvchi ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar”<sup>325</sup>. Konflikt – drama tuzilishining shartli asosi. Har qanday syujet asosida konflikt yotadi. Konflikt, o‘z navbatida, qarama-qarshi kuchlarning kurashi, syujet chizig‘ini

<sup>325</sup> Курунов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик лугати. – Т.: Akademnashr, 2010. – Б. 143.

harakatlantiruvchi ichki omildir. Hech shubhasiz aytish mumkinki, dramatik asar kitobxon yoxud tomoshabin tomonidan to‘laqonli tushunilishi va “hazm bo‘lishi” uchun personajning har bir jumlesi va xatti-harakati xoh ochiqcha, xoh yashirin ziddiyatli munosabatni o‘zida ifoda etishiga bog‘liq. Konflikt paydo bo‘lishi uchun maqsadlar va manfaatlar to‘qnashuvi ro‘y berishi kerak. Dramadagi konflikt, avvalo, protagonist (ijobiq qahramon) va antagonist (raqib) o‘rtasida sodir bo‘lishi mumkin.

Professor U.Jo‘raqulov konfliktni 3 ta turga ajratadi: qahramon va muhit, xarakterlar aro, tuyg‘ular aro (ichki kolliziya) konflikt shakllari. “Muhit va qahramon o‘rtasidagi konflikt muallif shaxsiyati, dunyoqarashi, badiiy niyati, u yashagan ijtimoiy vaziyat bilan bevosita bog‘liq. Tom ma’nodagi dramada muhit va qahramon o‘rtasida kechadigan konfliktning milliy etika zaminidan kelib chiqishi asosiy shartlardan biridir”<sup>326</sup>.

Tahlilga tortilgan deyarli barcha dramalarda muhit va qahramon o‘rtasidagi ziddiyatni kuzatamiz. Chunki aynan ijtimoiy muhitning nobopligi, yuqori va diniy tabaqa vakillariningadolatsizligi, mustamlakachi xalqning jabr-zulmi oddiy xalqning qarshiligidagi, nochor hayot kechirishiga, sevishganlar bir-biriga yetolmay qurbon bo‘lishlariga olib kelgan. Xarakterlararo ziddiyat ham har bitta asardagi ijobiq va salbiy qahramonlar o‘rtasida paydo bo‘ladigan konfliktlarni keltirib chiqaruvchi bosh omildir.

Dramadagi eng muhim ziddiyat shakli bo‘lgan kolliziya, ya’ni ichki konflikt, tuyg‘ular kurashi yetakchi vazifalardan birini bajaradi. Kolliziyada ambivalent tuyg‘u ustunlik qiladi. Qahramon botinida ichki monologik nutq namoyon bo‘ladi.

Bu paytga kelib ijtimoiy qarama-qarshiliklar va jamiyatning psixologik tabiatini tasvirlash keng avj olib bordi. Darhaqiqat, psixologizm, qahramonning ichki hissiyotlarini ochish uchun xizmat qiluvchi kompozitsion element. Dramatik asarlarda dramatizm va fojiaviylikni kuchaytiruvchi omillardan biri qahramonning ruhiy holati kulminatsiyasidir. Bunday holatlar asarda ichki va tashqi konfliktlarni yuzaga keltiradi.

<sup>326</sup> Qarang: Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари. Муаллиф. Жанр. Хронотоп. Илмий-назарий тадқиқотлар, адабий-танқидий мақолалар. – Т.: Фафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015. – Б. 57.

Dramatik asar konsepsiyasini tashkil qiluvchi konflikt va dialoglar milliy ruhda qurilgan taqdirdagina o‘zbek dramasining o‘ziga xos spesifikasini belgilab beradi. Aynan o‘zbek millatiga xos bo‘lgan illatlardan biri hashamatli to‘ylar qilish muammosi Abdulla Qodiriyni nechog‘li tashvishga solganini va bu qusur qanday fojialarga olib kelishini “Baxtsiz kuyov” (1914) fojiasi misolida ko‘ramiz. Asarda birgina ayol obrazi ishtirok etadi. 16 yoshdagi Rahima ismli bu qiz Solih ismli yigitga turmushga chiqadi. Ota-onasi vafot etgan Solihning amakisi Abdurahim jiyaniga yaxshilik va savob qilaman, uni uylantirib qo‘yaman deb, o‘zi bilmagan holda unga jabr qilib qo‘yadi. Sovchi bo‘lib borgan xonodon sohibi Fayziboy juda ko‘p talablarni qo‘yadi.

Solih haqiqatan ham baxtsiz kuyov bo‘ladi. Lekin nafaqat u, balki Rahima ham baxtsiz kelin. Otasi Fayziboyning hoyu havasi deb Rahima bilan kuyov Solih to‘y harajatlari uchun olgan qarzini qaytarib berolmaganidan jonlariga qasd qiladilar. Bu asarda ham yana bir ayol obrazi jaholat qurboni bo‘lganining guvohi bo‘lamiz. Ikki yoshning umri zavol bo‘lib, g‘unchalari gul solmasdan, xazon bo‘ldilar.

Ellikboshining ogohlantirishiga qaramasdan, tog‘dek harajatni kuyovning zimmasiga qo‘yayotganda Fayziboy hademay shu ochko‘z nafsi deb qizidan ajralishini tasavvur ham qilmagan edi. Sahnada yosh yigit va qiz o‘z-o‘zini pichoqlab o‘ldirishi – haqiqiy drama, haqiqiy fojia.

Asardagi konflikt jamiyat bilan yosh oila va ularning qarzi orqali ko‘rsatilgan bo‘lib, shu birgina ziddiyat o‘z ortidan yana ko‘p muammolarni keltirib chiqargan. Bular boylik va kambag‘allik, sudxo‘rlik va halollik, oqibatsizlik va muruvvat, orzu-havas va real hayot, nafs va iymon, orzular va armonlar, jaholat va o‘lim va h.k. Xalq bir-biriga muruvvatli bo‘lsa, hech bo‘limganda, ortiqcha to‘y harajatlarini o‘ylab topmasa, fojialar bunchalik ko‘p bo‘lmas edi. Oddiy xalq orasida shunchalik beboshlik va nafsi ammora ildiz otgan joyda erk, hurriyat, taraqqiyot haqida so‘z ochib, qalam tebratgan, ozodlik uchun jon fido qilgan jadid ajdodlarimiz oldida bosh egish lozim.

Abdulla Badriyning “Juvonmarg” fojiasi Toshfo‘lot va To‘xtamurod ismli jo‘ralarning pivaxonada o‘tirib, hangoma

qilishidan boshlanib, Toshfo‘lot jo‘rasiga hayotidan, taqdiridan nolib o‘tiradi va ertaga qizini Akram konturga uzatishini aytadi. Yangilikni eshitgan To‘xtamurod buni nishonlash uchun yanayam ko‘proq ichish va maishat qilishni taklif qiladi. Pul yo‘qligi sababli Toshfo‘lot uyiga borib, xotinining ko‘ylak tikib yiqqan pulidan olishga ahd qiladi. Mast holida uyga keladi. Uyni boshiga ko‘tarib janjal qilib, xotinidan bor pulini tortib oladi. Boyaqish xotinning Toshfo‘lot nazdidagi o‘rni-qiymati mana bu so‘zlarda aks etgan: “Xudoyim taolo xotunlarni bizlarg‘a qul qilib yaratib qo‘ygan. Onlar bizlarga xizmatkor... Manim xotunim, manim xizmatkorim bo‘lgandan keyin nima qilsam ham qilaman, quvlab hayday desam, haydayman. Saqlay, desam, saqlayman”<sup>327</sup>.

Bunday johil er va zolim ota Toshfo‘lot oldida onayu qiz chor-nochor qoladilar. Ona Tursunoy qizi To‘tiyoغا otasidan hech qanday yaxshilik kutish kerak emasligini, eng yaxshisi, taqdirga tan berib, o‘sha Akram konturga erga tegishlikni aytsa, To‘tiyo bunga aslo rozi bo‘lmaydi:

- *Voqeан, бизning бaxти qaroliklarimiz otamning buzuqlikidandur... Biz, xotin-qizlar, barchalarimiz baxti qarodirmiz. Xususan, biz, Turkiston xotun-qizlaridek badbaxt ham mazlumalar hech bir yerga yo‘q. Bizlarni badbaxt qilgan narsa ham nodonlikdur... Oh, nodonlik!.. Bizning boshimizga bitgan, bizni xor-zor, rasvo etgan nodonlik! Nodonlik orqasida o‘sha johil erlarimizning nafs hayvoniyalarig‘a ozuq bo‘lub, oq kunni ko‘rolmay, ostobning ravshanini ko‘rolmay, to‘rt oyoqlik molga o‘xshab to‘rt devorning orqasida yotibmiz. Qorong‘u kunjaklarda qamalib yotmoqg‘a mahkum bo‘lubmiz. Biz bechoralarning hollarig‘a toshyuraklik odamlarning ham rahmi kelmay qolmas... Uf!.. Otam mani Akram konturg‘a bermoqchi. Ammo man bormoqg‘a ixtiyor qilmasman. Otam – nodon! Nodon bo‘lub oq bilan qorani tanimaganligidan manim baxt-saodatimg‘a e’tibor qilmay, Akram konturning davlatig‘a, molig‘a e’tibor qilar. Man ul haromzodaning mol-davlatiga hech bir qiziqmasman. Man pulga sotiladurgon mol emasman*<sup>328</sup>.

<sup>327</sup> Ризаев Ш. Жадид драмаси. – Т.: Шарқ, 1997. – Б. 206.

<sup>328</sup> O‘sha asar. – Б. 208-209.

To‘tioyning so‘zlari Hamzaning “Zaharli hayoti”dagi Maryamxonni yodga tushiradi. To‘tioy erki va ozodligi uchun o‘limga tik boqadigan dovyurak qiz:

- *Man o‘limdan qo‘rqlayman. Takror-takror o‘z so‘zimni so‘ylarman. O‘z huquqimni olmoq uchun halok bo‘lsam ham bo‘lurman. Ul o‘z maylig‘a qarab ish qiladurgan zamonlar o‘tub ketgan. Hozirgi bizning zamonamiz madaniyat zamonidir. O‘lgudek vahshat zamonini emas. Hozirgi zamonlarda ilgarigidek odam o‘ldirish oson emasdur. Hozirg‘acha biz xotun-qizlar, erlarimizg‘a qul bo‘lub, onlarning qoshida hayvonlardek hayvon sanalib kelduk. Ammo hozir ul eski odatlarning barchasi barham bo‘lsa kerak. Bizlar hozir erlarimiz bilan bir huquqda bo‘lmoqimiz tegush*<sup>329</sup>.

To‘tioyning nutqida balandparvoz so‘zlar ko‘p. Lekin Abdulla Badriy qahramon nutqiga balandparvozlik berishi bejiz emas. Ijodkor xalqning “ko‘zini ochish” uchun, erkaklarni adolatga da’vat etish, xotin-qizlarni himoya qilish uchun shu usulni tanlagan bo‘lsa ajab emas. To‘tioyni o‘rab turgan odamlar ichida birgina inson, uning tog‘asi Jo‘raqul hur fikrli, ziyoli, adolatparvar va ayollarni e’zozlovchi inson edi. Jo‘raqul jiyani To‘tioy va singlisi Tursunoylarga yordam berishga, ularni johil er va zolim ota panjasidan ozod qilmoqchi edi. Lekin johilligidan ko‘zлari qonga to‘lgan Toshfo‘lot xotini bilan qizini Jo‘raqulning uyigacha izlab keladi.

Qanchalik jasur bo‘lmisin, qanchalik qarshilik ko‘rsatmasin, To‘tioy ojiza bir qiz edi:

- *Biz, bechora turkistonlik xotin-qizlar, rohat kun ko‘rib turmoq uchun emas, balki boshqalarning rohati uchun tug‘ilgan bir mahluqmiz... Bizlarga rohat-rohat yashamoq nasib bo‘lmaganidek, vahshiy hayvondan yomon shahvatparast erlarimizning rohati uchun ming xil azoblarni ko‘rub yashamoqqa mahkum bo‘libmiz. Man ham shul bechoralarning birisidurman*<sup>330</sup>.

Chorasiz qolgan To‘tioy o‘ziga ajal tilashdan boshqa najot ko‘rmaydi:

- *Oh! Bu dunyoda tirikchilik qilib, badbaxt bo‘lib yashaguncha koshki o‘lsa edi, o‘scha fosiq erlarimizning kayf-safo va nafs-*

<sup>329</sup> О‘sha asar. – Б. 210.

<sup>330</sup> О‘sha asar. – Б. 220.

*hayvoniyalari uchun mol bo‘lub yashaguncha, onlarg‘a qul bo‘lub, butun umrimni behuda qurbon qilub, ezilib, siqilib yashaguncha, koshki juvonmarg bo‘lub keta edim, ming martaba yaxshi bo‘lar edi. Uf!...<sup>331</sup>*

Erining zulmidan qochib ukasinikiga qochib kelgan Tursunoyni ko‘zi qonga to‘lgan Toshfo‘lot pichoq tiqib, o‘ldirib qo‘ydi. Onasi o‘ldirilganini ko‘rgan To‘tioy o‘ziga pichoq sanchib, bu “bevafo dunyo”dan ko‘z yumadi. Ota Toshfo‘lot ikki o‘lik ustida yig‘lab, aqldan ozib qoladi. Qilgan ishiga pushaymon, xoru zor yig‘layotgan Toshfo‘lotda ayni damda ichki kolliziya – qarama-qarshilik kuchayadi:

- To‘tioy! San nima qilding, bolam?! Ox!... O‘zung o‘zungni halok qildingmi?... Oh, xudo! Man nima qildim?! Voy, man nima qildim?! Voy, man badbaxt!... Man odam o‘ldirdim! Voy, man qon to‘kdim, odamkush bo‘ldim-ku...<sup>332</sup>.

Toshfo‘lot ham xudi Zaynab singari odam o‘ldirgach, aqldan ozib qoladi. Va o‘sha yerda o‘zi ham jon beradi. “Juvonmarg” dramasi uchta inson fojiasi – o‘limi bilan tugaydi. Bu pyesalarни o‘qigan sari hayotga, odamlarga, jamiyatga nisbatan ishonching yo‘qolib boradi. “Juvonmarg”da bosh konflikt To‘tioy bilan otasi, oilasi, jamiyat o‘rtasida paydo bo‘ladi. To‘tioy taqdirga qarshi, otasining ra‘yiga qarshi borolmasdi. Yechim – o‘lim bilan nihoya topadi. To‘tioyda shijoat bor edi-yu, lekin u oxirigacha kurasholmadi. Ayol kishi bo‘lgani uchun johil ota oldida ojizlik qildi. Asardagi konflikt qahramonning tashqi muhit bilan qarama-qarshiligida namoyon bo‘lgan.

“Juvonmarg” dramasidagi To‘tioy obraziga Miyon Buzrukning tanqidiy munosabatini B.Abdulxayrov quyidagicha keltirgan: “Bu pyesa syujeti juda jo‘n. Unda aks etgan voqealar silsilasida real hayotga to‘g‘ri kelmaydigan bir qator kamchiliklar uchraydi. Bunga asardagi o‘qimagan qiz tilidan chuqur mazmunli mushohadalar yuritilishini misol sifatida keltirish mumkin. Darhaqiqat, pyesa tipik voqelikni aks ettira olmaganligi, badiiyatining nochorligi kabi jihatlari bilan 1917-yil fevral inqilobigacha chiqqan jadid pyesalarining ko‘pchiligidan orqada turadi. Shu tufayli, u o‘z

<sup>331</sup> O‘sha asar. – Б. 221.

<sup>332</sup> O‘sha asar. – Б. 231.

davrida tomoshabinlarni o‘ziga jalb qila olmagan va sahnaga oz qo‘yilgan”<sup>333</sup>.

Miyon Buzruk taqrizida jon bor, albatta. Har qanday badiiy asar o‘qimishli bo‘lishi uchun unda o‘rni kelsa mubolag‘a ham, bo‘yoqdorlik ham, pafos ham bo‘lishi kerak. Badiiylik tamoyili shuni taqozo etadi. Lekin kitobxonni hayratga solishi mustahiq bo‘lgan narsa shuki, xotin-qizlar masalasi bilan bog‘liq qanday asarni olmang, deyarli hammasi o‘lim bilan tugaydi. Syujet biroz farq qilishi mumkin, lekin xotima bir xil. Ayollar taqdiri bir-biridan fojeiy.

Hoji Muinning “Mazluma xotin” dramasi 40 yoshdagi Uzoqboy ismli boynamo qassobning 60 yoshga kirib yetti marta Haj qilgan, lekin hidoyat topmagan nodon eshon bilan suhbatni asnosida 30 yoshga kirgan xotini Uzoqboy uchun qarilik qilayotganini, endi u ham boshqa o‘rtoqlari kabi “ko‘ngli yosh xotin istab” qolganini dardu hasrat qilishi bilan boshlanadi<sup>334</sup>. Shariatda bir erkak to‘rtta xotingacha nikohga olishi mumkinligini aytib, uning fikrini qo‘llab-quvvatlagan eshon qiz axtarishga tushadi. Nihoyat, qassobga munosib nomzod deb O‘rtoqboy qo‘yjallobning qizini tavsiya qiladi. Buning ustiga xotinni aldash-avrash yo‘llarini ham o‘rgatib qo‘yadi. Shu orada Uzoqboyning o‘g‘li Bahoiddinqulning yangi maktabdagi muallimi betobligi sababli o‘qishga bormayotgan o‘quvchisidan xabar olgani kelib, bo‘lib o‘tgan suhbatdan xabardor bo‘lgach, ikkinchi xotin olish uchun sabab-asos nimada ekanini so‘raydi. Muallim boshqa xotin olishga ayolning yoshi 30 ga kirgani asos bo‘lolmasligini aytib, ikki xotin o‘rtasida tutiladigan *adolat va madora* haqida gapiradi. Biroq boyda xotin olishga hech qanday uzri yo‘q edi. Boy uning gaplarini tushunishni ham istamaydi. Shu

<sup>333</sup> Абдулхайров Б. Миён Бузрук – жадид драматургияси ва театри тадқиқотчиси. – Т.: Фан, 2009. – Б. 117.

<sup>334</sup> “Mazluma xotin”ga g‘oyaviy-tematik va syujeti jihatidan yaqin turuvchi Cho‘lponning yangi topilgan “Yana uylanaman” komediysi haqida f.f.d. Abdullaeva D.Z. maqola e’lon qilgan va bu asar haqida quyidagilarni keltirgan: “Yana uylanaman” pesasi 3 parda 6 ko‘rinishli komediya bo‘lib, masjid imomining ish haqini bir boy o‘zlashtirib olgani, shu ikki yillik haqni undira olmayotganligi to‘g‘risida xotini bilan tortishib qolgani, achchiq qilib xotini ustiga xotin olmoqchi bo‘lgani, imomning hiyla yo‘li bilan boydan haqini undirishi kabi voqealar humor orqali ko‘rsatib beriladi. Komediyada bosh qahramonlar masjid imomi (domulla), uning xotini To‘tixon, boy, To‘xtasin, Sotqin va masjid ahli, Shirmon xola, boyning ikkinchi xotini Nazokat, Turg‘un, ayiq o‘ynatuvchi kabi ikkinchi darajali qahramonlar ishtirot etadilar.

o‘rinda muallimning Uzoqboyga aytgan so‘zlari nihoyatda muhim va ayni muddao edi:

- Payg‘ambarimiz alayhissalom sahabalarga aytibdurlarki: “Sizlardan eng yaxshilaringiz o‘z xotunlariga yaxshi muomala qiladurganlari”<sup>335</sup>.

Eng alamlisi esa, “ko‘ngli yosh xotin istab” qolgan boyning xotini Tansuqoy bor mehr-muhabbatini, hayotini, o‘zini eriga bag‘ishlagan fidoyi ayol timsoli. U erini o‘ziga chin sohib deb biluvchi, unga batamom itoat qiluvchi, unga so‘zsiz bo‘ysunuvchi xokisor ayol. U eriga shunday deydi:

- *Odamlar sizni uch pulga olmasalar ham mayli. Man sizni ming tilloga ham sotmayman. Man sizni yaxshi ko‘raman, ko‘zimga to‘ra va amirdan ham yaxshiroq ko‘rinasiz-diya, otasi!*<sup>336</sup>

Tansuqoy erini yeru ko‘kka sig‘dirmay sevsما، bu noshukur boyga yana nima kerak، degan hayrat va taajjublar befoyda. Nafs quli bo‘lmish Uzoqboy qanday yo‘l bilan bo‘lmasin yosh xotin olishini Tansiqoya bildirishi kerak. Buning uchun eshon o‘rgatgandek، xotiniga har xil mato-gazlamalar hadya qiladi. Asta-asta xotiniga rahmi kelayotgani، unga xizmatkor zarurligini bahona qila boshlaydi. Tansuqoy hech bir sabab bilan o‘z ustiga kundosh kelishini istamaydi. U shunday deydi:

- *Men sizdan bir nafas ayrilsam, o‘laman.*

Tansuqoy ko‘z ochib ko‘rgan umr yo‘ldoshini shu qadar sevadi. U eriga ikkinchi xotin olishiga biror asosi yo‘q ekanini ham aytadi:

- *Man ba’zi kishilarning xotunlaridek uy ichida isrofkorlik, xiyonatkorlik qilmasam. Sizni bir narsangizni uyingizdan beijoza birovga bermasam. Yoki man ba’zi xotunlardek qo‘limdan ish kelmaydurgan hunarsiz bo‘lmasam. Yoki tom va devordan, eshikning tirqishidan nomahram kishilarga qaraydurgan buzuq xotunlardan bo‘lmasam. Yoki man ba’zi ko‘chalardagi xotunlardek to‘y va aza va ziyofat va hammomni bahona qilib bemavrud ko‘chaga chiqadigan bo‘lmasamki, mandan ko‘nglingiz qolib, ustumga xotun olsangiz. Man dunyoda ko‘z ochub faqat sizni*

<sup>335</sup> Ризаев Ш. Жадид драмаси. – Т.: Шарқ, 1997. – Б. 295.

<sup>336</sup> O‘scha asar. – Б. 299.

*ko‘rganman. 15 yildan beri qancha umidlar bilan etagingizni ushlab yuribman*<sup>337</sup>.

Bu gaplarni eshitgan Uzoqboyda biroz ikkilish, ichki kolliziya ro‘y beradi:

- *Muni holiga qarasam, rahmim keladur. Shayton aytadurki, ikki kunlik dunyo g‘animat, xotun ol! Ammo Rahmon aytadurki, xotun olma! Kel-e, nafs! Sani ham yo‘lungga borub, dumog‘ingni chog‘ qilay! Bu dunyoda armoning qolmasun!*<sup>338</sup>.

Uzoqboyning so‘zлari nafsnинг qo‘li baland kelganidan dalolat beradi. Tansuqoy oqila ayol bo‘lgани bois kundoshlik unga falokat va fojiadan boshqa narsa keltirmasligini sezadi va “Endi o‘lganim yaxshi！”，deydi.

Kundosh bo‘lmish Suyaroy ham o‘zicha hayotdan xafa, taqdiridan norizo bo‘lib o‘tiradi. Lekin Tansuqoyga o‘tkazayotgan zulmi, nohaqligini o‘zidan boshqa hech kim bilmas edi. Tansuqoy kun sayin betoblanib, ranglari so‘lib borar edi. Ustiga ustak Suyaroyning tuhmatlariga qolib eridan kaltaklar yeydi. Tansuqoy o‘lim to‘shagida yotgan pallada Uzoqboy qilgan xatosini anglaydi, biroq endi g‘isht qolipidan ko‘chib bo‘lgan edi. Erini behad sevib-ardoqlagan Tansiqoy johil ernenг xatosi, nafsga qulligi tufayli kasallanib, vafot etadi.

Tansuqoy taqdiri XX asr boshidagi ko‘pchilik o‘zbek ayollar qismati singari ayanchli, alamlı, fojeiy. Na Tansuqoy baxtli yashadi, na Suyaroy, na Uzoqboy. Bir insonning noqisligi kasriga butun oila barbod bo‘ldi, ikki ayol baxtsiz, biri vafot etgan, o‘rtada bola yetim qolgan. Tansuqoy vafodor ayol timsoli. U erini rozi qilgan chin soliha ayol. Uzoqboy esa nafsga ergashib, o‘z baxtiga va tanmahrami hayotiga zomin bo‘lgan kaltafahm erkak timsoli. Tansuqoy mutaassiblik qurban. Asar konflikti ham aynan shunda. Diniy mutaassiblik va ayol baxti o‘rtasidagi ziddiyatning yechimi bot-bot muqarrar o‘lim. Qur’on va Hadislardan yaxshi xabardor bo‘lgan chin musulmon erkagi Uzoqboy va nodon eshon singari fikrlamaydi. Nafaqat bu asar yoki bu davrda, balki barcha zamonlarda jaholat, razolat, xiyonat, zalolatning o‘zagi birgina ilm

---

<sup>337</sup> O‘sha asar. – Б. 303.

<sup>338</sup> O‘sha asar. – Б. 304.

olish rag‘bati yo‘qligidan. Uning oqibati esa ko‘plab fojialarga asos bo‘ladi.

Cho‘lpón iste’dodi dramaturgiya janrida ham to‘liq mujassam bo‘ldi, deya olamiz. Uning katta-kichik sahna asarlaridan “Cho‘rining isyoni”, “Zamona xotini”, “Yorqinoy” (“Sarkash qiz” shu asarning ikkinchi nomi) pyesalari yaxshi ma’lum. Ular orasida tomoshabinlarda katta qiziqish uyg‘otgani “Yorqinoy” (1920) dramasi bo‘lib, u 7 yil davomida 3 marotaba sahnalashtirilgani haqida ma’lumotlar bor. Dramanining bosh qahramonlari Yorqinoy va Po‘lat. Asarda, shuningdek, O‘lmas Botir, Nishabsoy begi, Kal, Momo xotin, xizmatchi qiz Qumri, Xonzoda kabi obrazlar ishtirot etadi.

Asar markazida Yorqinoy bilan Po‘latning sevgi-muhabbati turadi. Ijodkor yoshlar sevgisi orqali davr voqeligiga murojaat etadi. Buni dramanining bosh komponenti bo‘lgan konfliktlarda ko‘ramiz. Asar konflikti muhabbat yo‘lidagi turli mashaqqatlarga qarshi kurashda o‘z ifodasini topgan. Qahramonlar xarakteridagi qat’iyat, shijoat, erkparvarlik, mardlik adib niyatini ifodalash uchun xizmat qilgan. Dramada qahramon ko‘ngilsiz voqeа bilan yuzlanadi va shuning oqibati o‘laroq konflikt va ichki kolliziyalar kelib chiqadi. Buni ayrim epizodlar orqali ko‘ramiz.

Yorqinoy xonning birinchi darajali kishisi sarkarda O‘lmas Botirning qizi bo‘lib, u Po‘lat ismli oddiy bog‘bon yigitga ko‘ngil qo‘yadi. Ikkala yosh bir-birini sevishiga qaramay, O‘lmas Botir o‘zining yakka-yu yagona qizi Yorqinoyni “yalangoyoq” Po‘latga berishni xohlamaydi. U xon bilan quda bo‘lishni, qizini Xonzodaga uzatishni istaydi. O‘lmas Botir g‘ururli, hamma narsaga qodirman, degan ishonch bilan yashaydigan inson. Afsuski u yolg‘iz qizini yovuz niyatli bek qo‘lidan qutqara olmaydi. Yorqinoy esa buning uddasidan chiqadi. Po‘latga bo‘lgan cheksiz muhabbati va sadoqati tufayli og‘ir sinovlardan o‘tadi. Kalning yolg‘oniga ishonib, Nishabsoy begining qo‘liga tushib qolgan paytda u o‘zini yo‘qotib qo‘ymaydi. U bir amallab bekning changalidan qutulishga, bekni esa o‘z qo‘llari bilan o‘ldirishga muvaffaq bo‘ladi. Natijada nafaqat o‘zini, balki bekning qo‘l ostidagilarni ham uning zulmidan ozod qiladi. Bunday ishlar har kimning qo‘lidan kelmasligi aniq.

Yorqinoy uchun ham bu ish osonlikcha kechgani yo‘q. U Nishobsoy begining saroyiga kelib qolgach, xayolan reja tuzadi:

- *Agar... agar bitta qilich bilan qalqon bo‘lsa, men bu yerdan qutilar edim! Yo‘q... yo‘q... bir pichoq, yuz kishi kelsa ham so‘z bermas edim!... Agar ish o‘ngidan kelib qolsa, bir boshini yer edima, bu qonxo ‘rning!*

Bu so‘zlar Yorqinoyning ruhan tetik va o‘ktam qiz ekanini namoyon etadi. Yorqinoy kaldan pichoqni olar ekan, o‘z hayotini xavf ostiga qo‘yib, Nishobsoy begining ko‘ksiga pichoq sanchiydi. Bu ish bir tomondan shafqatsizlikdek tuyulsa-da, lekin Yorqinoyning o‘z muhabbati, erki, ozodligi yo‘lida hech kim va hech narsadan qo‘rqmasligi, jasur va mard qiz ekanidan nishona. U ayol boshi bilan hatto erkaklar haddi sig‘magan ishni uddasidan chiqadi. Bek shunday o‘limga munosib edi. Chunki u adolatsizlik va nomussizlikning ramziy qiyofasi bo‘lib, uning butun hayoti andishasizlik va zulm ustiga qurilgan edi.

Yorqinoy obrazining insonni hayratga soladigan darajadagi dovyurakligi, jasurligi, qo‘rqmasligi alohida e’tirofga sazovor. U ayol bo‘lsa-da, o‘zini ojiza hisoblamaydi. Qilichbozlikda har qanday raqibini tang axvolda qoldiradigan darajada epchil va chaqqon edi. U Po‘lat bilan bir safda turib xonga qarshi kurashishga shay turadi. Yorqinoyning Po‘latga yozgan maktubidagi mana bu so‘zlarga e’tibor beraylik: “*Po‘lat! Boshimga yomon qiyin va og‘ir kunlar tushdi. O‘zimni qutqarish chorasisiga kirdim. Yaqinda yoqamni shu halokatdan qutqara olarman, deb umid qilaman. Agar sihat va salomat qutulsam, uyga qaytmayman, to‘ppa-to‘g‘ri sening yoningga borib, bir yigit qatorida urushga kirmakchi bo‘laman. Dunyoda hech bir xotin qilmagan ishni men qilay! Dunyoda hech bir erkak qilmagan ishni sen qilib turasan, dunyoda hech bir zolim qilmagan zulmni otam qilib turadir. Bo‘s sh kelma, haqsan! Haq yo‘lda sening, mening nomusim ketsa... mayli! Diydoringga mushtoq: Yorqin!!*”. Qizning maktubi nechog‘lik alam va o‘kinch bilan yozilmasin, unda ishonch va or-nomus bor. Haq vaadolat yo‘lida o‘limga tik boqishdek jasorat bor. Bunday sifatlar Cho‘lpon tomonidan Yorqinoyga berilishi bejiz emas.

Asar boshida Cho‘lpon shunday epigraf keltirgan: “Tog‘li va boy tili bilan ertak (cho‘pchak) aytib berib, shu asarning yozilishiga

sabab bo‘lgan kampir onaga hurmat bilan bag‘ishlayman”. Darhaqiqat, asarning bosh qahramoni bo‘lmish Yorqinoy folklor ta’siri o‘laroq yuzaga kelgan obraz ekani shubhasiz. Chunki undagi mardlik, tantilik, jasurlik bizga tanish bo‘lgan Barchinoy, Zulfizar, Malikai Husnobod kabi xalq og‘zaki ijodi qahramonlari bilan uyg‘un. Biroq Yorqinoyda, nafaqat folklor, balki To‘maris, Qurbonjon dodxoh kabi tarixiy shaxslar siymosi gavdalantirilganining guvohi bo‘lamiz. Ozod Sharafiddinovning e’tirof etishicha, Cho‘lpon Yorqinoy obrazini yaratishda “general” unvonini olgan, “Oloy malikasi” nomi bilan mashhur bo‘lgan Qurbonjon dodxoh<sup>339</sup> ismli ayolning kechmishini asos qilib olgan.

Cho‘lpon asar boshida ta’kidlaganidek, asar va uning qahramonlari xalq ertaklari ta’siri o‘laroq yaratilgani rost, lekin ular hayotdagi real shaxslar siymosi bilan mushtarak yaratilgan. Tarixchi Haydarbek Bobobekovning keltirishicha, Markaziy Osiyoga rus bosqini boshlangan davrda Qurbonjon dodxoh yurt himoyachisi sifatida maydonga tushadi. Qo‘qonda xon zulmi va chor Rossiyasi mustamlakachiligiga qarshi 1873-1876 yillar mobaynida davom etgan Po‘latxon qo‘zg‘olonida Qurbonjon dodxoh va uning farzandlari Abdullabek, Mahmudbek, Hasanbek, Botirbek va Qamchibek ham qatnashgan. Qo‘zg‘olon shafqatsizlarcha bostirilgandan keyin ham Oloy vohasidagi aholi Qurbonjon dodxoh boshchiligidida kurashni davom ettirishadi<sup>340</sup>.

Cho‘lpon bilan bir davrda va bir o‘lkada yashagan bu general ayol o‘z zamondoshlarida cheksiz hurmat va ehtirom uyg‘otgan. Shunday ekan, Cho‘lpon ham ana shunday jasur va shijoatli xotin-qizlarni o‘z asarlarida kuylab, madh etmasligi mumkin emas. Yorqinoy obrazi ham Qurbonjon dodxoh singari jasoratli o‘zbek ayolining badiiy in’ikosidir. Jadid adabiyotida Yorqinoy obraziga xos xarakterni, uning nutqiga xos so‘zlarni boshqa xotin-qizlar obrazida topish mushkul.

Muallif Yorqinoy obrazi orqali o‘zbek ayollarining hayotini, ularning aql-zakovati, mardlik va jasoratini erkaklarnikidan kam emasligini ko‘rsatgan. Bu asar sevgi-muhabbat mojarosini so‘zlab

<sup>339</sup> Qarang: Шарафиддинов О. Довондаги ўйлар. – Т.: Маънавият, 2004. – Б. 364.

<sup>340</sup><https://ziyouz.uz/matbuot/qayta-qurish-davri-matbuoti/haydarbek-bobobekov-zinnat-qurbonjon-dodhohning-tahallusi-1989/>

beruvchi ertak emas, umuminsoniy muammolardan bahs etuvchi, erk, ozodlik,adolat, nomus masalalarini olg'a suruvchi ijtimoiy-adabiy asar namunasidir. “Yorqinoy” dramasi konflikt ishqiy-sarguzasht va milliy-ijtimoiy konflikt zaminida yaratilgan. Asarda ishq-muhabbat fonida millat va xalq ozodligi uchun kurash mavzusi aks etgan. Yorqinoy ozodlik yo'lida har qanday podshoyu rahnamoga tik boqadigan jasur qiz. Uning g'ayratiyu shijoati Qodiriyning Ra'nosini yodga soladi.

Alisher Navoiy ijodidagi ayollar obrazini Maqsud Shayxzoda quyidagicha tasniflagan: “*mislsiz husn va go'zallik* (jismoniy tomondan); *chuqur aql-farosat* (aqliy tomondan); *ilm va ma'rifat* (madaniy tomondan); *davlat va mamlakat ishlarida faol ishtirok* (ijtimoiy tomondan); *jang va kurashda bahodirlilik* (jangovarlik tomondan)”<sup>341</sup>. Bu tasnif mumtoz adabiyotimizdagi jamiki ayollar obrazining xarakterli xususiyatlarini umumiy jihatdan ochib beradi, to'g'ri. Shu nigoh bilan tadqiqotimiz ob'ekti bo'lgan jadid adabiyotiga nazar solsak, bular orasida “*jang va kurashda bahodirlilik* (jangovarlik tomondan)” sifati bilan xotin-qizlarni yaratish XX asrga kelib deyarli yo'qolgan. Zotan bu davrda ham mard va jasur, harbiy unvonlarga ega xotin-qizlar borligi Cho'lponning qo'liga qalam tutqizgan.

“Zamona xotini” (1928) dramasi (“Mushtumzo'r” asarning ikkinchi nomi) haqida 1992-yildagi Mumtoz Muhamedovning “Sharq yulduzi”da chiqargan maqolasiga qadar biror ma'lumot uchramagan. Asarda bir nechta xotin-qizlar obrazlari ishtirok etadi. Bosh qahramonlar – Rahima xola va qizi Sharofat, ikkinchi darajali qahramonlarga Jahonbu (kundosh), Sharofatning dugonalari – Qumri, Zuxra, Xadicha, Patti, shaharlik ikki ayol kabi obrazlar shular jumlasidan. “Zamona xotini” haqida Cho'lpon mana bunday yozadi: “Bu asar Moskvada vaqtimda Bilim yurti qoshidagi jamoat tashkilotlarining o'tinishlari bo'yicha 8 mart – Xotin-qizlar kuni uchun ikki pardali qilib “Zamona xotini” nomi bilan yozilgan edi. Uni havaskorlar tomonidan shoshiliqlik bilan juda tez, ahamiyatsiz tez o'ynaldi... So'ngra men uni bir oz kengaytirib, muosir bir pyesa holida yozdim. U na kulgu, na fofja bo'limganligidan “pyesa”

<sup>341</sup> Шайхзода М. Асарлар. Олти томлик. Тўртинчи том. Ғазал мулкининг султони. Нашрга тайёрловчи Н.Маллаев. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1972. – Б. 68.

deyishga to‘g‘ri keldi. So‘ngra Markaziy davlat truppassi buni qo‘ymoqchi bo‘lib o‘rtoq Uyg‘urga havola qildi. Uning topshirig‘i bo‘yicha men uni ko‘prak kulgidan iborat bo‘lg‘on burungi holidan chiqarib, fojiaga aylantirdim. Shunday qilib, bu asar uch daf‘a yozilib chiqqan bo‘ldi. Endi bas qildik...”<sup>342</sup>.

Uchinchi pardaning birinchi ko‘rinish birinchi va ikkinchi majlislarida Sharofat va dugonalarining suhbati berilgan. Bu yerda Cho‘lponning badiiy niyati va g‘oyasi qizlarning sodda va, shu o‘rinda, ayovsiz haq gaplari, bir-biridan hafa bo‘lishlari zamiriga singdirilgan. Masalan, Patti tilidan “Ajab qilibdir bolshavoy... Qandini olsin!” desa, Zuhra tilidan “Ilohim, yer yutsin bolshavoyni”, deydi. Keyingi majlisda Zuhra Sharofatga qarab: “O‘sha muvallimning nimasiga qiziqasiz? Choch o‘sirib, popiros chekib, o‘risg‘a o‘xshab yurishidan boshqa nimasি bor? Otam aytadi: u yigit deydi, to‘g‘ri do‘zaxga ketadi deydi”. Bu gapdan achchig‘langan Sharofat esa: “Otangiz aytan beradi. O‘zi behishtga tushar ekanmi? Sudxo‘rlik qilib pul topadi-yu...” Dugonalarning mana shunaqa achchiq-chuchuk so‘zlarida ijodkor g‘oyasi mujassam bo‘lgan. Chunki adib sudxo‘rlikka ham, o‘rischa madaniyatga ham, bolshavoyga ham millatining tobe bo‘lib yashashini istamas edi.

“Zamona xotini”da tasvir etilgan konfliktlar o‘z ortidan muayyan yechimni ham olib keladi. Masalan, Rahima xolaning eri Rustam aka Zokirjonne bo‘g‘izlab, ikkinchi marta Rahima xolaga pichoq bilan tashlanar ekan, uning taqdiri hal bo‘ladi. Asosiysi, uning yovuzligidan xotini Rahima va qizi Sharofat qutuladilar. Rahima xolaga yetkazgan jabr-zulmlari uchun u allaqachonlar jazoga mahkum etilishi kerak edi.

Yoki yana bir misol, Azimjon, Zokirjon, Rustam uchovlari aroq ichib, maishatni boshlab yuborgan bir paytda bularning ko‘nglini ovlash uchun kirib kelgan ikki shaharlik ayol bilan o‘rtalarida janjal ko‘tarilib, oxir-oqibat bu bazmi jamshid ikki kishining o‘limi bilan tugaydi. Azimjonne o‘g‘li To‘xtasin bo‘rdoq, Zokirjonne esa Rustam pichoqlab qo‘yishadi. To‘xtasin padarko‘sh bo‘ladi, Rustam ikkisi turmaga o‘tiradi. Bu lavha orqali ikki yengiltak ayol keltirib

<sup>342</sup> Чўлпон А.С. Асарлар. Тўрт жилдлик. III жилд. Драмалар. Таржималар. – Т.: Akademnashr: 2016. – Б.534.

chiqargan konflikt asar syujetini tubdan burib yuborishga xizmat qilgan.

Aslida ushbu asar siyosiy mafkura taz'yiqi bilan yozilgan bo'lsa-da, ijodkor qalbida "bolshovoy"ga xam, "sho'ro"chilarga ham munosabatida birmuncha ikkilanishlar bo'lgani seziladi. Avval boshida ularga oddiy xalq singari sidqidildan ishongan ijodkor asarning bosh qahramoni sifatida o'zbek ayolini avval Qo'shchi a'zosi, so'ng ijroqo'm raisi qilmagan, uning tilidan "Zamon – kambag'alniki" deb so'zlamagan bo'lardi. To'g'ri, garchi ayolning o'rni siyosatda bo'lmasa-da, uning davlat va jamiyat rivoji, taraqqiyoti, erku ozodligi yo'lidagi hissasi cheksiz.

"Zamona xotini" yuqori dramatizm bilan yozilgan asar deya olmaymiz. Unda o'ziga xos kamchiliklar uchraydi. Masalan, Muallim bilan Sharofatning suhbatini olsak, Muallim aytadi:

- Men hech narsaga ishonmayman. Zamon bizning tomonda! Qo'rwmang! Zamondan kuchli narsa bo'lmaydi dunyoda! Zamon xohlag'anini qiladi. Yaxshi ko'rganini ko'klarga chiqaradi, yomon ko'rganini yetti qavat yerkirga kirgizadi!

Shu kabi jumlalar zo'rma-zo'raki, senzura ostida, siyosat niqobi bilan yozilgani sezilib turadi. Shu sababli asarning badiiy qimmatini biroz pasaytirgandek bo'ladi. Chunki ijodkor Muallim tilidan yuqoridagi so'zlarida "zamon" so'zining o'rniga mutlaqo boshqa so'zni qo'llashi ham mumkin edi.

"Zamona xotini" asarida kundoshning hasadi, zulmi, qabohati ham tasvirga olingan. Rahima xolaning kundoshi Jahonbu erining qizi Sharofatga yomonlik istab, bir necha bor irim qilib hovlisiga o'qitilgan tumorlarni ko'mib ketadi. Bir safar shu ishi ustida Jo'raning ziyrakligi sharofati bilan qo'lga olinadi.

Cho'lponning xotin-qizlar mavzusida yozgan yana bir asari "Hujum" dramasidir. Bu asar buf-drama janrida bitilgan. Buf-drama – XX asrning 30-yillarida tomoshabinlar e'tiborini tortish maqsadida dramaturglar va rejissyorlar sirk san'atidagi buffonadaga xos unsurlardan foydalanishi natijasida ijod qilina boshladi. Masalan, V.Mayakovskiyning "Hammom" asari buf-drama janrida yozilgan. "V.Yan qalamiga mansub "Hujum" buf-dramasini o'zbek tiliga o'girish jarayonida shunday o'zbekona ashula matnlari va ichakuzdi replikalarni yozib berdiki, rus adibi uning ham

muallifdosh bo‘lishiga bajonidil rozi bo‘lgan”<sup>343</sup>. “Hujum” buf dramasida Tursun (Hujumxon), Oyjamol, Guljamol, Muallima kabi ayollar obrazi uchraydi.

Bu dramaning bosh qahramoni Tursun asar boshidan to oxirigacha o‘zini O‘roz o‘g‘li Tursun deb tanishtirgani bois uni hamma o‘g‘il bola deb o‘ylaydi. U asarning eng so‘nggi epizodlarida o‘zini tanishtiradi. Asarni o‘qir ekansiz, Tursunning jonli tili, ichakuzdi jumlalari, yumori, qofiya bilan aytilgan gap-so‘zlari tomoshabinni o‘ziga jalg qilmasdan qolmaydi. Tursunni Shum bolaning qiyofadoshi desak ham bo‘ladi. U so‘zga chechan, askiya, humor va istehzoni joyiga qo‘yadi. Masalan, Eshon Etemasga o‘zini tanishtirganida u shunday deydi: “Men, taqsir, dunyoni shunday aylanib yuraman, qiziq-qiziq narsalarni ko‘raman, har qaerni kezaman, har narsani bilaman. Har bir ishga ustaman, xizmatga kamarbastaman. Yelday uchaman, zarraday ko‘chaman, buqaday chopaman, qidirg‘onimni topaman, taqsir!”

Tursunning ushbu so‘zlari ayni haqiqat edi. Bunga biz asarni o‘qish davomida amin bo‘lamiz. Tursunning so‘zlari dramaga boy va rang-barang tus bergen. Uning so‘zlari tomoshabinni kuldiradi, lekin chuqurroq razm solinsa, uning so‘zlari achchiq haqiqatni ifoda etadi. Muallif yumorga boy jumlalar, kulgu yo‘li bilan johil kishilarning asl qiyofasini ochib bergen.

Eshonning ishongan odamlaridan biri Tabib unga un uchta dardingizga davo bo‘ladigan ish – bu uylanish deganini, xotinlikka nomzod sifatida Eshondan qarzlari ko‘payib ketgan kambag‘al qo‘shnisi Ahmadjon va Oyjamolning maktab yoshida bo‘lgan yoshgina qizi Guljamolni ko‘rsatilganda Tursun astoydil Eshonni sharmandai sharmisor qilishga bel bog‘laydi. Undagi shijoat, botirlik, mardlik uncha-buncha yigitda ham topilmaydi. Shu bois uni o‘g‘il bola deb tasavvur etish tabiiy tuyuladi. Lekin Tursun ilk sahnadayoq yolg‘on yo‘lidan boradi. U bir qishloqqa kelib qolgach, “Yolg‘ondan gadoy bo‘lib olsam, hamma narsani bilib olaman”, deydi. Haqiqatan ham shunday bo‘ladi. U o‘zini avval gadoy, keyin xizmatkor, keyin lo‘li qiyofasiga solib o‘z maqsadiga erishadi. Bu harakatlar “Hujum” deb atalgan siyosiy kampaniya harakatining

<sup>343</sup> Чўлпон А.С. Асарлар. Тўрт жилдлик. III жилд. Драмалар. Таржималар. – Т.: Akademnashr: 2016. – Б.532.

ham asl qiyofasini ochib bergandek bo‘ladi. Bu sahna asari “Hujum” harakatining zamirida Sho‘ro manfaati, uning yolg‘on va’dalari yotganiga ishora bo‘lgandek.

Tabibning Ahmadjon hovlisiga sovchi bo‘lib kelgan paytdagi epizod biz uchun yaxshi tanish bo‘lgan “Kecha va kunduz” romani lavhalarini yodga soladi. Oyjamol yoshgina qizini saksondan oshgan qari cholga berishni istamaganini aytsa, ota Ahmadjon esa: “Sen aytishma. Bu ish sening ishing emas. Biz o‘zimiz tabib domla bilan hamma gapni gaplashamiz. Ajab emas, bizning boshimizga ham davlat qushi qo‘ngan bo‘lsa! O‘zing o‘ylab ko‘r, eshon bobomday odam bizga kuyav bo‘ladirlar!”, deydi. Bu so‘zlar sizu bizga Zebining otasi Razzoq so‘fining so‘zlarini yodga soladi.

Ushbu asarda ham xuddi “Zamona xotini”dagi singari “zamon”ga urg‘u berilgan:

“*Yo ‘q, taqsirim, yo ‘q, taqsirim, bo ‘lmaydi,  
Kechiring, taqsir, endi zamon qo ‘ymaydi*”.

Asarda bir-biridan qiziq dialoglarga duch kelamiz. Eshonning muridlari suhbat chog‘ida paranji tashlagan xotinlar haqida so‘z ochib, ularni “o‘ldirish kerak” deyishsa, boy esa “Hammaga ibrat bo‘lsin uchun bu ishlarni qilish lozim!” deb ta’kidlab qo‘yadi. Darhaqiqat, shunday bo‘lganiga tarix guvoh. Tursunoy Saidazimova, Nurxon Yo‘ldoshxo‘jaeva kabi aktrisalar biri eri, ikkinchisi akasi tomonidan vahshiylarcha o‘ldirilgan edi, bunday ayollar soni ko‘plab edi.

Tursunning lo‘li qiyofasida kelib, muridlarga yuzlanib bergen savol-topishmog‘i quyidagicha edi: “O‘zi mol emas, lekin molday sotiladi. Og‘zi-tili bor, gapirmaydi. Ko‘zi bor, ko‘rsatmaydi. Yuzi bor, to‘sadidar. U nima?” Kimdir “ko‘r”, kimdir “soqov” deb javob beradi. Shunda Tursunning aytgan javobi Cho‘lpon kabi ziyolining so‘zlari edi:

- *Ey galvarslar, “ilm”ga mastlar, boshingiz bo‘sh, maqsadingiz dunyo yig‘ish, uyma-uy kezish, xalqni ezish, boy bo‘lish, semirish, to‘lish. Umi? U o‘zbek qizi! Mol bo‘lmasa ham, molday sotasiz. Tili bor, og‘zi bor – hech bir gapirtirgani qo ‘ymaysiz! Ko‘zi bor –*

*devordan boshqani ko'rsatmaysiz. Yuzini paranji-chachvonlar bilan to'sasiz!*<sup>344</sup>.

Bu so'zlari uchun uni haydab yuborishadi.

Asar so'ngida Tursunning Hujumxon ismli qiz ekani ma'lum bo'lgach, u eshon, tabib, muridlarga qarata achchiq so'zlar bilan murojaat qiladi:

- Onalar, opalar, singillar! (Eshon va tabibni ko'rsatib) Ular butun kambag'allarning kuchi, peshona terisi bilan kun ko'rib semirganlari ustiga sizlarni o'zlarining xususiy mollari qatorida sanab, din mazhab, shariat degan narsalar bilan tilsiz qilib, paranji degan maxsus bir pardani butun gavdangizga o'rab tashlaganlar. Cho'rilik, qulliq namunasi, buzuqchilik, fahshlar pardasi bo'lg'on shul nahs paranjini boshingizdan oting! Bu kun sho'rolar hukumati er va xotunga teng huquq bergen. Haqingizga tushuning, o'qing, bilib oling! Jamoat ishlariga aralashing, erlar bilan birgalashib ijtimoiy tur mushni quring!<sup>345</sup>.

Darhaqiqat, Sho'rolar hukumati, bir qarashdan, xotin-qizlarga huquq va erkinlik bergandek bo'ldi, lekin bu huquq va erkinlik, ozodlik va tenglik zamirida xotin-qizlarning boshqa muhit, boshqa tuzum, boshqa hukumatga qaram va tobe bo'lib borganiga, jamiyatda erkaklar bilan teng huquqlilikni da'vo qilib o'zining bor ayollik latofatiyu nafosatini yo'qotib borganiga tarix o'zi guvoh bo'ldi. O'zbek jadid dramaturgiyasi ham ayni mavjud ijtimoiy muhit, ijtimoiy ehtiyojlar talabi bilan maydonga kelgandi. Begali Qosimov ta'biri bilan aytganda “*asosiy manba tarixiy sharoit bo'ldi*”<sup>346</sup>.

Bu asar Sho'roning Hujum kampaniyasi harakatlarini olqishlash va ommaga targ'ib etish uchun mo'ljallab yozilgan. 8 mart bayram arafasida yozilgan “Hujum” dramasining ham, Hujum kampaniyasining ham maqsadi xotin-qizlarning jamiyatda tutgan o'rni va mavqeini ko'tarish, ularni erkaklar bilan teng huquqli ekanini ko'rsatishdan iborat edi. Bu harakatlar oddiy xalq qatorida jadid ziylolarini ham o'ziga birmuncha maftun qilgan edi. Ayniqsa,

<sup>344</sup> Чўлпон. Асарлар. Тўрт жилдлик. III жилд. Драмалар. Таржималар. – Т.: Akademnashr, 2016. – Б. 288.

<sup>345</sup> Чўлпон. Асарлар. Тўрт жилдлик. III жилд. Драмалар. Таржималар. – Т.: Akademnashr, 2016. – Б. 297.

<sup>346</sup> Косимов Б. Излай-излай топганим... – Т.: Адабиёт ва санъат, 1983. – Б. 47.

Hamza ijodida bu haqda juda ko‘p misollar keltirish mumkin: “Keldi ochilur chog‘ing, o‘zliging namoyon qil...” Bu so‘zlar mutaassiblar tomonidan Hamzaning qoralanishiga sabab bo‘lgan edi. Erkaklar o‘z ayollarini nomahramlar oldida yuzlarini ohib yurishini tasavvuriga sig‘dira olmas edilar. Nafaqat erkaklar, hatto ayollar orasida ham paranji tashlashga qarshi bo‘lganlar ko‘p edi. Lekin paranji ichida jaholat botqog‘iga botib qolayotgan xotinqizlar paranji-chimmat ichida hech qachon ilmu ma’rifatdan boxabar bo‘lolmasligini ziyolilar bilgan edi. Har bir shaxs – xoh erkak bo‘lsin, xoh ayol jamiyatda o‘zining betakror o‘rniga ega. Xususan, oila degan maskanda ayolning roli beqiyos. Oilani boshqaruvchi inson erkak ekanini yaxshi bilsak-da, biroq uning asl boshqaruvchisi ayol ekani ham haqiqat. Erkak sirtdan oilaning moddiy ta’mintoni yetkazib beruvchisi bo‘lsa, ayol oilani ichdan, mohiyatan boshqaradi. Ayol qanchalar oqila, sarishta, pokiza va xushtabiat bo‘lsa, oila va ro‘zg‘or, bolalar tarbiyasi, erkakning topish-tutishi-yu kayfiyati ham shunga monand yuqori darajada bo‘ladi.

Aslida Tursun aytgan paranji ichidagi “nahs” ishlar haqiqatda ham ko‘plab uchraganini tarixiy manbalar tasdiqlaydi. Islom va shariat paranji-chachvonda yurib, zulmat va ilmsizlikda qolishni buyurmagan. Sallani so‘rasa, kallani olib keladigan avom xalq ilmsizligi sababli na o‘zini, na o‘zgani saodatli qila olmagan.

Payg‘ambar (s.a.v.) Arafot tog‘ida qilgan xutbasida degan ekanlar: “*Ey insonlar! Ayollar haqlariga rioya etingiz. Ular bilan mehr-shafqat ila muomalada bo‘lingiz. Ularning haqlari xususida Allohdan qo‘rqingiz! Ayollar sizlarga Tangrining omonatidir. Ularni Allah nomi bilan oldingiz. Ular amri ilohiy ila sizlarga halol bo‘ldi. Sizlarning xotinlaringiz ustida haqlaringiz bo‘lgani kabi, xotinlaringizning ham sizlarda haqlari bor*”<sup>347</sup>.

“Biroq, paranji tashlashni istagan aksariyat o‘zbek ayollari qarindoshlari va qo‘snilari tomonidan qattiq tanqid ostiga olinadi. Uyda erkaklar o‘z xotinlarining sovet yig‘ilishlariga borishlarini man etadilar va ularni ajrim bilan qo‘rkitadilar. Ko‘chada esa ular bilan xuddi fohishalarga munosabatga bo‘lgandek muomala

<sup>347</sup> Мұхаммад Камол. Мусулмон аёлларга маслаҳатлар. – Т.: Мовароуннахр, 2000. - Б. 25.

qiladilar. Markaziy Osiyodagi minglab musulmon xotin-qizlari hujumda ishtirok etgani uchun zo‘ravonlikka duch keladi. Yuzlab ayollar o‘ldiriladi; ularning jasadiga qarab ham bo‘lmaydi. Shunday hollar ham bo‘lganki, qurbon bo‘lgan ayollarning qarindoshlari bo‘lmish erlar, otalar, akalar oila sha’nini himoya qilish uchun bu qotillikka qo‘l urganlar. Tushkunlikka tushgan ayollar sovet hokimiyati ularni himoya qilmasa, qaytadan paranji kiyib olishlarini do‘q qilib hukumat vakillaridan yordam so‘rab murojaat qilishadi”<sup>348</sup>.

Ushbu chaqiriqqa javob bergen ayollar kimlar edi? Ba’zilari kommunistik partiyaning a’zosi bo‘lgan ayollar va ularning qarindoshlari bo‘lib, ular partiya orqali o‘z oilalarini ozod qilishga intilgan edi. Boshqalari yengil tabiatli yoki ko‘chada sarson-sargardon bo‘lib yurgan yetim, kambag‘al, bevalar bo‘lib, ular ayollar bo‘limi – jenotdelning yordamiga muhtojlar edi. Yana bir toifa esa ushbu kampaniyani mahalliy ayollarga nisbatan qo‘llangan cheklov larga qarshi norozilik harakati sifatida qabul qilgan edi. Ular uchun ushbu kampaniya tom ma’noda ozodlikni anglatardi. Cho‘lponning bu mavzuga oid asarlari faqat bu bilan cheklamangan<sup>349</sup>.

“Hujum” deb nomlangan kampaniya o‘z oldiga olti oy mobaynida Markaziy Osiyo ayollarini to‘lig‘icha paranjidan “qahramonlarcha” ozod qilishni, ayollar huquqining toptalishi bilan

<sup>348</sup> <https://www.uzanalytics.com/kitob/4349/> O‘zbek xotin-qizlarining hujum talablariga qarshilik ko‘rsatishi o‘sha davrdagi sovet faollari uchun (bugungi kundagi ko‘pchilik g‘arb o‘quvchilari uchun ham) eng ziddiyatli va tushunarsiz hol bo‘lgan. Ular hujumni ham, unda ishtirok etganlarni tanqid ostiga olib, shu tariqa o‘zlarining erkinlikka chiqishiga qarshi chiqqanlar. Ayrim janjalli holatlar pinhona muhokama qilinar va o‘zbek ayollarini qay tarzda shaxsiy “erkinliklariga” qarshi chiqayotganlari haqida partiyaning o‘ta maxfiy to‘plamlariga yozib borilardi. Masalan, 1929 yil may oyida maxfiy xizmat xodimlari tomonidan Andijon viloyatida ikki yuz nafar ayol aksilsovet yig‘ini o‘tkazganini aniqlagan. Unda majburan paranji tashlashga va uni musodara qilishga nisbatan noroziliklarini ifodalaganlar. Mitingda paranjilarni qaytarish talabi bilan norozilik marshini o‘tkazish to‘g‘risida qaror qabul qilinadi. Biroq miting rahbari Ugolibi Rajaboboeva (tarj: ehtimol O‘g‘iloy yoki O‘g‘ilbibi bo‘lishi mumkin) talab qilingan narsani ololmagach, zabitlardan biriga pichoq o‘qtalishi bilan voqealar izdan chiqadi. Voqeadan ikki kun o‘tib pichoq va tosh ko‘targan ayollar militsionerning uyiga borishadi. Uning uyida hech kim yo‘qligini ko‘rib jahli chiqqan ayollar to‘dasi ko‘chaga chiqadi va yuzi ochiq xotin-qizlarni urib ketadi.

<sup>349</sup> Ayni shu mavzudagi Cho‘lponning yana bir topilmagan sahna asari “Cho‘rining isyon” (1919-20) pesasida, ma’lum bo‘lishicha, o‘zbek ayolining fojiali hayoti tasvirlanadi. Bu ayol o‘qimishli bo‘lib, paranji tashlashni xohlaydi, biroq eri bunga qarshi turadi. Spektaklda u rus kiyimi va niqobda paydo bo‘ladi hamda ajoyib ovozda kuylaydi. Tomoshabinlarning kuchli olqishlaridan u ikkinchi marta sahnaga chiqadi va eski xurofiy urf-odatlardan voz kecholmayotgan hamma yoshlarni ayovsiz tanqid qila boshlaydi.

bog‘liq “eskirgan urf-odatlar” va tengsizlikka barham berishni maqsad qilgan edi. Buning uchun kommunistik partiyaga bo‘ysunuvchi Xotin-qizlar bo‘limi, ya’ni “Jenotdel” tuzilib, xalqaro xotin-qizlar kuni 8 martda o‘z faoliyatini boshlagan.

Tarix fanlar doktorlari M.M.Is’hoqov va B.S.G‘oyibovlarning keltirishicha, «paranji» ayollarning ustki ko‘chalik kiyimi demakdir. Tarixiy, xususan, arxeologik manbalarda ayollarning paranji ko‘rinishidagi kiyimda tasvirlangan namunalari mavjud<sup>350</sup>. Masalan, eftaliylar davriga (V – VI asrlar) oid Bolaliktepa (Surxondaryo vohasi) yodgorligi devoriy suratlarida ziyofat manzarasida ishtirok etayotgan ayollarning yelkasiga yopilgan yengsiz parchabof matodan tikilgan kiyim ayni biz ko‘zda tutgan paranjining o‘zidir”.

Butun dunyoda ayol kishining Islomdagi o‘rniga past nazar bilan qaralib, qadr-qimmatsiz, haq-huquqlari toptalgan, erki va huquqi o‘z qo‘lida bo‘lmagan kimsa kabi noto‘g‘ri baho berib kelingan. Vaholanki, bunday qarashning sababi insonlarning diniy ilmi yo‘qligidan edi.

Aslida Islomga qadar mavjud bo‘lgan ko‘plab taraqqiy etgan mamlakatlarda ayollarning huquqlari cheklangan edi. Bular jumlasiga Yaponiya, Xitoy, Misr, Rim, Hindiston kabi davlatlarni kiritish mumkin<sup>351</sup>. Aynan Islom kirib kelishi bilan ayollarning haq-huquqlari erkaklar bilan tenglashdi emas, ba’zi hollarda ulardan ham yuqori qo‘yila boshlandi, ayollik maqomi ulug‘lana boshlandi.

Erkak kishining ayol kishidan ustunligi shundaki, u ayoldan ko‘ra ko‘proq mas’uliyatlari va majburiyatlidir. Ayol kishi ishlamasligi, ta’lim olmasligi, ijtimoiy faoliyat yuritmasligi kerak degan talablar islomga mutlaqo yot bo‘lgan qarashlardir. Hamma gap islom ta’limotiga ko‘ra ayollar haq-huquqlariga amal qilinishida. To‘g‘ri, ko‘pchilik tenglik va bir xillik tushunchalarini adashtirishadi. Ayollarning huquqlari erkalar bilan tenglashtirilgan joyda ham, bir

<sup>350</sup> 2007-yilda Indiana universiteti nashriyoti (Indiana University Press) “Markaziy Osiyodagi kundalik hayot: o‘tmish va bugun” (“Everyday Life in Central Asia: Past and Present”) kitobini nashr etadi. Jeff Sahadeo va Rassel Zank tomonidan tahrirlangan ushbu to‘plamda turli mutaxassislar (jumladan, Marianna Kamp, Duglas Nortrop, Morgan Lyu, Laura Adams, Madlen Rivz, Erik Makglinch, Shon Roberts va boshqalar) Markaziy Osiyoning oddiy xalqi qanday hayot kechirishi, ular kechmishining tarixiy va siyosiy bosqichlari haqida so‘zlab beradilar.

<sup>351</sup> Bu haqda qarang: Абдуллаев М.А. Правовое положение женщины в исламе // Актуальные проблемы российского права. 2008. № 3. – С. 569-575.

xil degani emas. Islom ayol kishining jamiyat oldida teng huquqli bo‘lishini talab qiladi.

“Hujum”dagi Tursun obrazi garchi mafkura talabiga asosan yaratilgan obraz bo‘lsa-da, bu yerda adibning badiiy mahoratini alohida e’tirof etish lozim. Tursunning nutqi xuddi Maysaraning nutqi kabi humor va satiraga boy, shuningdek, aqlu zakovati, fahmu farosati, ayyorligi notiqligi o‘zaro o‘xshash. Ikkala ayolning ham maqsadi zo‘ravonlarni fosh qilish. Ularga nisbatan ojiza ayol sifatini berish muammoli. Chunki ular nafaqat xotin-qizlarga, balki erkagu ayolga bab-baravar ibrat bo‘ladigan kuchli xarakterga ega obrazlar. Ular har qanday vaziyatda har qanday konflikt-ziddiyatning yechimini topishga, muammolarni yengishga, qarama-qarshi kuch bilan kurashishga qodir o‘ktam ayollar obrazi.

An’anaviy adabiyotning Shirin, Mehinbonu, Layli, Dilorom kabi obrazlariga munosib davomchi bo‘la oladigan va millatning faxru iftixori bo‘la oladigan ayollar obrazi o‘zbek jadid adabiyotining barcha tur va janrlarida o‘z ifodasini topdi. Yorqinoy va Dilnavoz obrazlari orqali jasur va dovyurak, mard va tanti ayollar obrazi timsolini ko‘rishimiz mumkin. XX asr jadid adabiyotida xotin-qizlar obrazi evolyutsiyasini aynan mana shu obrazlar timsolida ko‘rishimiz mumkin.

“Xullas, har qanday badiiy asarning, butun adabiyot va san’at olamining, umuman, estetik idrok dunyosining bosh pafosi – bu mukammal hayot va komil inson haqidagi, ularning o‘zaro uyg‘unligi haqidagi ulug‘vor ideallardir”<sup>352</sup>. Drama va romanlardagi yetuk yoshlar og‘ir qismatiga, jamiyat muammolariga, insoniy illatlarga chora topolmaganidan fojeiy intihoga ro‘baro‘ bo‘ldilar. Bunday yondashuv aslida yozuvchining badiiy ideali nechog‘li yuksak bo‘lganidan nishona beradi. Avloniy, Hamza, Fitrat va Cho‘lponlarning mushtarak tilagi – istiqlol edi.

---

<sup>352</sup> Олимов М. Бадиий асар пафоси эстетик идеал ифодаси сифатида // Ўзбек тили ва адабиёти, 1994, №1-2. – Б. 12.

## XOTIMA

Qur’oni karimdan “Niso” nomi bilan alohida sura o‘rin olgani dinimizda xotin-qizlarga ehtirom ayricha bo‘lganini ko‘rsatib, undagi Maryam, Oysha (r.a.), Bilqis, Zulayxo va boshqa ayollar obrazi keyinchalik Sharq mumtoz adabiyotida ko‘plab qissa va badiiy asarlar yaratilishiga zamin hozirlagan. “Qisasi Rabg‘uziy” asarida payg‘ambarlar obraziga yondosh tarzda islom ayollar tasvirlangan bo‘lsa, Xorazmiyning “Muhabbatnoma” asari yor obrazi orqali ayol go‘zalligi ilk marta badiiy talqin etilgan asar sifatida turkiy adabiyotdan munosib o‘rin egalladi. “Ilohiynoma” asari bilan ayol sadoqatiga badiiy haykal o‘rnatildi. Navoiy va Bobur yaratgan tarixiy-badiiy obrazlar Alanquva, Zoli zar, Halima ona, Bilqisi soniy – Xadichabegim, Mehinbonu, Eson Davlatbegim, Shohbegim, Xadichabegim, Zuhrabegim og‘a hamda Zulayho, Shirin, Layli, Dilorom kabi sevgi va sadoqat timsollari mumtoz adabiyotda alohida o‘rin tutadi. Mirzo Ulug‘bek, Abulg‘oz Bahodirxonlar asarlaridagi ayollar obrazi diniy-mifologik mohiyat kasb etgani bilan ajralib turadi. Ular barchasi jadid adabiyotidagi xotin-qizlar obraziga estetik asos vazifasini o‘tagan.

2. XX asrga kelib mumtoz adabiyotda tasvirlangan mahbuba obrazi yangi milliy she’riyatda millat, ma’rifat, ozodlik tushunchalarini o‘zida mujassam etdi. Xotin-qizlarga bag‘ishlab yozilgan lirik asarlar yangi mazmun va shaklga ega bo‘lgani Hamza, Cho‘lpon, Tavallo she’rlarida ko‘rinadi. Ilk nasriy va dramatik asarlarda xotin-qizlar obrazi va ayollar bilan bog‘liq mavzular birinchi planga olib chiqildi. Anbar Otin, Nozimaxonim kabi shoiralarning asarlarida ijtimoiy muhitdan norozilik hissi, ayolning baxtli yashashga haqli ekani orzusi talqin etildi. 1925-1929- yillarda “Yangi yo‘l” ilk xotin-qizlar jurnalida Sobira Xoldorova, Xosiyat Tillaxonova kabi ilk o‘zbek jurnalist ayollarini, Ma’suma Qoriyeva kabi ilk o‘zbek aktrisasi, Maryam Sultonmurodova kabi Germaniyada o‘qib qaytgan yosh ijodkor va yana ko‘plab xotin-qizlarning turli mavzulardagi maqola va she’rlari e’lon qilindi. Barcha ijodkorlarda ilgari surilgan bosh g‘oya millat onasining ma’rifatli bo‘lishiga qaratildi.

3. She’rlarning barmoqda yozilishi jadidlarga poetik mazmunni oson va sodda, tushunarli va ta’sirchan shaklda yetkazishlariga

imkon yaratgan. Lirik qahramonning yori – ona-Vatan. Cho‘lpon an’anaviy ishq-muhabbat mavzusini yangi bir janrda ifodaladi. Hamza va Cho‘lpon oshiq holatini ikki xil yo‘l bilan, ya’ni ikki xil vaznda – biri an’anaviy, ikkinchisi zamonaviy ko‘rinishda tasvirlagan. Necha asrlardan buyon deyarli qo‘llanilmay, asosan, xalq og‘zaki ijodida istifoda etilgan barmoq vaznining milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyotidagi o‘rni tobora mustahkamlanib bordi. Hamza va Cho‘lpon lirikasidagi “malak”, “pari”, “dilbar”, “go‘zal”, “gul”, “bulbul”, “binafsha”, “chechak”, “barg” kabi poetik ramzlar “yor” obrazidan tashqari “erk”, “hurriyat”, “ma’rifat”, “haqiqat”, “millat” kabi ma’nolarni ifodaladi.

4. Hamza, Fitrat, Cho‘lpon, Tavallo, Avloniy kabi ijodkorlar ayollar qismati – jamiyat qismati ekanini o‘z asarlarida ko‘rsatib berishdi. XX asr boshida Turkiston xalqi uchun bosh muammo – yurt ozodligiga erishish uchun xotin-qizlar erkini ta’minalash zaruriyati jadid ziyolilari yozgan asarlarda o‘z ifodasini topdi. Xotin-qizlar obraziga bag‘ishlangan she’rlarning aruzda bitilishi, an’anaviy poetik ifodalari, she’riy san’atlarning qo‘llanishi mumtoz adabiyot namunalarini yodga soladi. Biroq ijtimoiy-siyosiy voqelikning badiiy ifodasi janrlar strukturasi va obrazlar tizimidagi o‘zgarishlarni, badiiy talqindagi ijtimoiylashuvni, individual idrokni, yangi uslubiy yo‘nalishlarni hamda publisistik ifodaga asoslangan realistik tasvirni taqozo etdi. Bular yangi adabiyot belgilari edi.

5. XX asr yangi o‘zbek she’riyatida badiiy tafakkur tadriji an’anaviy oshiq obrazining yangilanganida ko‘rinadi. Cho‘lpon “o‘zbek qizi”, “Sharq qizi” obrazlarini yaratgan bo‘lsa, Fitrat mungli ona obrazi orqali Vatan erki, ozodligi va hurriyatini tasvirladi, Avloniy ham o‘z she’rlarida ona timsoliga murojaat etib, vatani, yurti, millati va o‘g‘il-qizlar istiqboli haqida kuyunib faryod chekdi. Cho‘lpon she’riyatida tabiat tasviri xotin-qizlar ruhiyatini ochuvchi ramziy-majoziy vosita sifatida xizmat qilgan. Masalan, qish fasli, tun, qorong‘ilik tasviri ayollarning fojeiy holati, tushkun kayfiyati va ruhiy azobini ko‘rsatishga xizmat qilgan. Jadid she’riyatida “kecha” ifodasi timsol darajasiga ko‘tarilgan. Cho‘lpon esa nafaqat lirkada, balki nasrda ham “kecha”, “tun” obrazlaridan poetik timsol sifatida foydalandi. Bu o‘rinda tashbihlarning ulushi beqiyosdir.

Cho‘lpon, Hamza kabi shoirlar ijodida tasvirlangan ayollar obrazi Turkiston ozodligi, erkin va adolatli jamiyat, hur va saodatli millat, barkamol avlod timsoli sifatida talqin etilgan. Deyarli barcha jadid ijodkorlari lirik merosida onalarga bag‘ishlangan she’rlar mavjud.

6. Cho‘lponning “O‘zbek qizi uchun”, “Sharq qizi”, “Buzilgan o‘lkaga”, “O‘zbek qizi” she’rlarida millat qizining fojeiy qiyofasi tasvirlangan. Bu kabi she’rlarda ruhiy siniqlik, qalb og‘rig‘i, tushkunlik, umidsizlik ustuvorlik qiladi. “Qiz qo‘shig‘i”, “Chimmat qo‘shig‘i” she’rlarida o‘zbek qizlarining holatini qafasdagagi qush ramzi orqali ifodalagan. Cho‘lpon ham ilohiy, ham majoziy mazmundagi yor, go‘zallik siymosini “Go‘zal” she’rida tasvirlaydi. Jadid she’riyatida ishqiy mazmunni ifodalovchi she’rlar ko‘ngil-gul, gul-bulbul-ko‘klam kabi timsollar vositasida yaratildi. Cho‘lponning “Qizlarning daftariga”, “Kleupatra uyqusи” she’rlari buning isbotidir. Cho‘lpon poetik obrazlar tizimini milliy ruhiyat ifodasiga xizmat qildirdi.

7. Jadid nasri yangi zamon ayoli obrazi yaratilgani jihatidan o‘tmish adabiyotidan alohida ajralib turadi. Yangi zamon ayoli obrazida xotin-qizlarning zohiriyligi go‘zalligi va botiniy olami uyg‘un tasvirlandi. Ikki jins o‘rtasidagi muhabbat jadid nasrida Vatan va millat sevgisi bilan mutanosiblik kasb etdi, ayol oila bekasi bo‘lishi barobarida ilm-u ma’rifatni egallab, jamiyatda munosib o‘rin egallashi zarurati talqiniga urg‘u berildi. Yangi zamon ayoli onalik va xotinlik vazifalarini ado etish bilan birga tadrijiy ravishda siyosat va hokimiyatga ham aralashuvi mumkin bo‘la bordi. Biroq bir vaqtning o‘zida, ayol kundoshlik balosi va baxtsizlik qurbaniga aylangan holatlar ham kuzatildi. Bu kabi zulmlarga isyon ruhi kuchaydi. Ulardan ayrimlarida makr-hiyila, xudbinlik singari illatlar ham kuzatildi.

8. Jadid adabiyotidagi ayollar obrazi mumtoz adabiyot, Yevropa va qardosh xalqlar adabiyoti ta’sirida, lekin milliy ruhiyatni ifodalagan tarzda shakllangan. Yevropa adabiyotida xotin-qizlarning haq-huquqini himoya qilish talqini aksar ayol ijodkorlarning asarlarida kuzatiladi. Sharq va musulmon adabiyotida esa ayollar erki-ozodligi mavzusi eng avvalo erkak ijodkorlar tomonidan qalamga olindi va estetik takomilga erishdi. Qodiriy va Cho‘lpon asarlaridagi qayg‘u va zulm talqini tushkunlik va umidsizlik ifodasi

uchun emas, qurbonlar va fojialar evaziga bo‘y ko‘rsatgan istiqlol va istiqbol umidiga rag‘bat va quvvat berish maqsadiga xizmat qildi.

9. Jadid romanlarida jamiyatning mukammal manzarasi ideal obrazlar orqali talqin etildi. Hamzaning “Yangi saodat”, “Uchrashuv” kabi asarlari zamonaviy nasrning dastlabki namunalari edi. O‘zbek jadid nasrida xotin-qizlar obrazida, xususan, O‘zbek oyim, Oftob oyim, Kumush, Ra’no, Nigorxonim, Zebi, Qurvonbibi kabi ayollarda milliy ruh ifodasi ustunlik qilishi, ularning tabiatida milliy axloq yetakchi ekani xatti-harakatlari va nutqlari orqali yorqin ifodalangan. “O‘tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon” romanlari bosh qahramonlari ishq, vafo, zakovat bobida bir-biriga juda yaqin. O‘zbek ayolining ortida Sharq ayollariga xos andisha, itoatkorlik, ma’sumalik, mutelik, ko‘nikuvchanlik xislatlari, ayniqsa, Cho‘lpon qahramonlari – Zebi, Qurvonbibi, Sharofatxon, Qumribush, novvoy qiz, Gavharoy kabi obrazlarda yorqinroq aks etgan. Xuddi shuningdek, Sharq ayollarari qonidagi isyonkorlik,adolatsizlikka qarshi kurash tuyg‘usi Qurvonbibi, novvoy qiz kabi obrazlarda namoyon bo‘lgan. Cho‘lpon hikoyalarida ham xuddi she’rlaridagi kabi qahramonlar ichki va tashqi olamini tabiat hodisalari, osmon jismlari, hayvonlar, suv va tog‘-u toshlarga tashbeh etish orqali go‘zal badiiy tasvirlar yarata olgan.

10. Oila saodati, farzandlar istiqboli uchun eng mas’ul shaxs ona ekanini yanada kengroq planda tasvir etishni maqsad qilgan Hamza ma’rifatparvar ona obrazini nasrga ilk bor olib kirdi. “Yangi saodat” asari qahramoni Maryam ilm-ma’rifatli ona obrazi timsoli bo‘lib, farzandi Olimjonning barkamol inson bo‘lib yetishishida muhim o‘rin tutadi. “Mehrobdan chayon” romanida Nigor oyim, “Kecha va kunduz”da Qurvonbibi ona sifatida o‘z qizining taqdiriga aralasha olmasligi tasvirlansa, “O‘tkan kunlar”dagi Mirzakarim qutidor turmush o‘rtog‘i Oftob oyimning ra'yiga qaraydi, uni hurmat qiladi, Yusufbek hoji ham O‘zbek oyimning oiladagi ayollik, onalik mavqeini baland tutadi. Turkistonda XX asr boshida ayollarga bo‘lgan munosabatni aynan mana shu asarlar belgilaydi.

11. Hamza, Qodiriy, Cho‘lpon, Fitrat, Avloniy, Hoji Muin kabi ijodkorlar birinchilardan bo‘lib ayollarni bosh obraz sifatida dramaturgiyaga olib kirdi. Dramalarda xotin-qizlar obrazi Sharq ayollarining jaholat vaadolatsizlikka qarshi isyonini timsoli sifatida

namoyon bo‘lgan. Fojiaviy yakun zamonning nechog‘li og‘irligini, mutaassiblikning naqadar avj olib ketganini yaqqol namoyon etgan. Hamzaning Maryam va Jamilasi, Avloniyning Maryami, Qodiriyning Rahimasi, Badriyning To‘tioyi zolim falakdan, xazon bo‘lgan hayotidan, zabun tole’idan shikoyat qilib, o‘z jonlariga qasd qiladilar, yagona najot sifatida og‘uni tanlaydilar.

12. Hamzaning tahlilga tortilgan dramalaridagi qahramonlar nutqida jonlilik, mubolag‘a, metafora, kakofemizm va evfemizmlar yetakchilik qiladi. Hamza dramalari tili jonli xalq tiliga juda yaqin va rang-barang. Tahlilga tortilgan barcha asarlar orasida Maysara tipidagi obraz yoxud uning nutqiga monand nutq boshqa hech bir ijodkor asarlarida uchramaydi. Hamza “Zaharli hayot”, “Istibdod qurbonlari”, “Maysaraning ishi”, “Paranji sirlari”, “Qozining sirlari”, “Boy ila xizmatchi” kabi o‘nlab dramatik asarlarida xotin-qizlar obrazi vositasida ilm-ma’rifat, tenglik, ozodlik g‘oyasini badiiy talqin etdi. Adib dramalarida xotin-qizlarning haq-huquqlarini himoya qilish bilan birga soxta din ulamolarini fosh etish birlamchi o‘rin tutadi. Hamza dramalarida tasvirlangan xotin-qizlarning ayrimlari mute, erksiz, jabrdiyda va jamiyat qurboni sifatida tasvirlansa, ba’zilari mard, jasur va tanti, kurashchan ruhdagi ayollar timsolini o‘zida mujassam etadi.

13. Hoji Muinning “Mazluma xotin” dramasidagi Tansuqoy, Suyaroy, Karomatoy obrazlari orqali o‘sha davr ayollarining erksiz, mute, nochor ahvoli tasvirlangan. Tansuqoy – vafodor ayol timsoli. U erini rozi qilgan chin soliha ayol. Uzoqboy esa nafsiga ergashib, o‘z baxtiga va tanmahrami hayotiga zomin bo‘lgan kaltafahm erkak timsoli. “Mazluma xotin” – XX asr boshidagi o‘zbek ayoli timsoli. U mutaassiblik qurboni. Asar konflikti ham aynan shunga asoslangan. Mutaassiblik va ayol baxti o‘rtasidagi ziddiyat oxir-oqibat o‘lim bilan yakun topadi. Cho‘lponning “Yorqinoy” dramasida esa vatanparvarlik,adolat, Vatan va Millatga, muhabbatga sadoqat talqini yetakchilik qiladi. Muallif Yorqinoy obrazi orqali o‘zbek ayollarining hayoti og‘ir ekanini, ularning aql-zakovati, mardlik va jasorati erlarnikidan kam emasligini ko‘rsatgan. Drama ishqiy-sarguzasht va milliy-ijtimoiy konflikt zaminida yaratilgan. Asarda faqatgina ishq-muhabbat mavzusi emas, millat va xalq ozodligi uchun kurash mavzusi ham yorqin aks etgan.

14. Ilk dramalarda xotin-qizlar mavqeい ko‘zga tashlanmagan bo‘lsa ham, keyinchalik yaratilgan Fitratning Zulayho, Dilnavoz singari qahramonlari ruhan va jismonan yetuk, voqealar rivojida o‘zining muayyan o‘rniga va dramadagi konflikt va ziddiyatlarni harakatlantirish qudratiga ega ayollar obrazi sifatida shakllandi. Bunday ayollar obrazi dramaturgiyamiz tadrijiy takomiliga ijobiy va ijodiy ta’sir etdi. Zulayhoda ingliz mustamlakachilariga qarshi kurashish va ularni yengish uchun biroz ishonchsizlik ko‘zga tashlansa, Dilnavozda esa qat’iyat, iroda, jasurlik, dovyuraklik, yurtni mustamlaka zulmidan ozod qilish uchun sevgan yori bilan birga amaliy faoliyatni yo‘lga qo‘yish kuzatiladi .

15. O‘tgan asr 20-yillarida yozilgan dramalar, asosan, hukmron mafkura talabiga muvofiq kelar edi. Cho‘lponning “Zamona xotini”, “Hujum” kabi dramalari shular sirasidandir. Aslida, ushbu asarlar yakka mafkuraga mos yozilgan bo‘lsa-da, ijodkor qalbida “bolshovoy”ga ham, “sho‘ro”chilarga ham munosabatda birmuncha ikkilanishlar bo‘lgani seziladi. “Hujum”dagi Tursunning nutqi xuddi Maysaraning nutqi kabi humor va satiraga boy, shuningdek, aql-u zakovati, fahm-u farosati, ayyorlig-u notiqligi o‘zaro o‘xhash. Ikkala ayolning ham maqsadi zo‘ravonlarni fosh qilish. Ular nafaqat xotin-qizlarga, balki barchaga ibrat bo‘ladigan kuchli xarakterga ega, har qanday vaziyatda konflikt yechimini topishga, muammolarni yengishga, qarama-qarshi kuch bilan kurashishga qodir o‘ktam ayollar obrazlardir.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek jadid adabiyotida xotin-qizlar obrazi uch adabiy tur – she’riyat, nasr va dramada tadrijiy ravishda takomil bosqichlarini o‘tadi. Xotin-qizlar obrazining genezisi va evolyutsiyasiga doir izlanishlar uning jadid ijodkorlar estetik idealini ifodalaganidan hamda an’anaviylikdan poetik yangilanish sari o‘sib borganidan dalolat beradi. Ijtimoiy-siyosiy vaziyat taqozosi o‘laroq ijodkor badiiy tafakkuri o‘sib, ijodiy niyati asar janri va tabiatini, obrazlar ko‘lamini belgiladi hamda realistik tendensiya kuchaya bordi. Xotin-qizlar obrazining badiiy-irfoniy tabiatni Vatan ozodligi, millat taraqqiysi hamda milliy ma’rifat yuksalishi uchun mas’uliyatni zimmasiga olgan faol kurashchi darajasida poetik takomilga erishdi.

# **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

## **I. Normativ-huquqiy nashrlar va metodologik adabiyotlar:**

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т.: O'zbekiston, 2016. – 32 б.

2. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: O'zbekiston, 2017. – 483 б.

3. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Т.: O'zbekiston, 2017. – 32 б.

4. Мирзиёев Ш.М. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш –

халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир. Президент Ш.Мирзиёевнинг Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузаси // Халқ сўзи. – 2017. – 4 август.

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси” тўғрисидаги Фармони // Халқ сўзи, 2017 йил, 8 феврал.

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари” тўғрисида // Халқ сўзи, 2017 йил, 21 апрель.

7. Ўзбекистон Республикаси Президенти  
Ш.М.Мирзиёевнинг БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида сўзлаган нутқи // Халқ сўзи, 2017 йил, 20 сентябрь.

## **II. Milliy-nazariy adabiyotlar:**

### **Milliy nashrlar:**

8. Абдулжавод А. ва б. Мўътабар мўмина аёллар. – Т.: Мовороуннаҳр, 2018. – 176 бет.

9. Абдулхайров Б. Миён Бузрук – жадид драматургияси ва театри тадқиқотчиси. – Т.: Фан, 2009. 312 бет.

10. Абдурашид Х. Ўзбек драматургиясида Навоий образининг бадиий талқини / Истиқлол даври ўзбек навоийшунослиги. 30 жилдлик. Ж. 25. Нашрга тайёрловчилар О.Давлатов, Д.Юсупова. – Т.: Tamaddun, 2022. – 118-179.

11. Азимов С. Абадият. Сайланма. 2 томлик. – Т.: Адабиёт васанъат, 1988. Т. 2. – Б. 41-42.
12. Акрам Б. Шоирнинг ёруғ юлдузи. – Т.: Zilol buloq, 2019. – 120 бет.
13. Афоқова Н. Жадид шеърияти поэтикаси. – Т.: Фан, 2005. – 140 б.
14. Баймұхамбетова Р. Тарих. Тахт. Аёл. – Т.: Құлпон номидаги нашриёт матбаа-ижодий уйи, 2016. – 240 бет.
15. Бобокалонова Ж. “Шоҳнома”да аёлларнинг ўрни. – Душанбе, 1998. – Б. 90.
16. Болтабоев Ҳ. Фитрат ва жадидчилик. – Т.: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2007. – бет.
17. Ёқубов И. Ўзбек романи тадрижи. – Т.: Fan va texnologiya, 2006. – 164 бет.
18. Жабборов Н. Адабиёт ва миллий маънавият. – Т.: Маънавият, 2015. – 32 бет.
19. Жабборов Н. Маоний аҳлининг соҳибқирони. – Т.: Adabiyot, 2021. – 256 бет.
20. Жабборов Н. Маърифат надир. – Т.: Маънавият, 2010. – 114 бет.
21. Jadidlar. Abdulla Avloniy: risola. Olim Oltinbek. – Т.: Yoshlar nashriyot uyি, 2022. – 156 b.
22. Жадид маърифатпарварлик ҳаракатининг ғоявий асослари. Мас.мух. Ҳасанов Б., Каримов Н. – Т.: Тошкент ислом университети, 2016. – 216 бет.
23. Жалолов Т. Ўзбек шоирлари. – Т.: F.Ғулом, 1980. – 416 бет.
24. Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари. Муаллиф. Жанр. Хронотоп. Илмий-назарий тадқиқотлар, адабий-танқидий мақолалар. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015. – 356 бет.
25. Жўрақулов У. Худудсиз жилва. – Т.: Фан, 2006. 204 бет.
26. Зиё А. Ўзбек аёллари тарих саҳнасида. Томир хотун, Қабаж хотун, Сароймұлхоним, Гавҳаршодбегим. – Т.: Фан, 2002. – 52 бет.
27. Йўлдош Қ. Сўз ёлқини. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2018. – 504 бет.

28. Karim B. O'tkan kunlar ibrati. – Т.: Mashhur press, 2019. – В. 152.
29. Карим Б. Абдулла Қодирий феномени. Монография. – Т.: Info kapital group, 2019. 480 бет.
30. Каримов Б. Чўлпон ва танқид. – Т.: Адабиёт жамғармаси, 2004. – 84 бет.
31. Каримов Н. Жадид театри. – Т.: Тошкент ислом университети, 2016. – 260 бет.
32. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. – Т: O'zbekiston, 2008. – 536 бет.
33. Маллаев. Низомий Ганжавий мероси ва унинг маърифий-тарбиявий аҳамияти. – Т.: Ўқитувчи, 1985. – 72 бет.
34. Мирвалиев С. Абдулла Қодирий. – Т.: Фан, 2004. – 176 бет.
35. Мусина F. Ўзбек халқ достонларида хотин-қизлар образи. – Т.: Фан, 1983. – 104 бет.
36. Мўминова А. Халқ оғзаки ижодида аёллар образи. – Т, 1969.
37. Наливкин В., М.Наливкина. Очерк быта женщины оседлого туземного населения Ферганы. – Казань, 1886. – 244 стр.
38. Нарзуллаева С. Умрбоқий зеболар образи. – Т.: Ўзбекистон, 1975. 39 бет
39. Назарова Ш. XX аср бошлари ўзбек шеъриятининг янгиланиш тамойиллари. – Т.: Akademnashr, 2022. – 256 б.
40. Насретдинова Д. Туркистон маданий ҳаётида татар аёллари. – Т.: Yangi nashr, 2015. – 184 бет.
41. Норматов У. Қодирий мўъжизаси. Тадқиқот, қайд, сұхбат ва мулоҳазалар. – Т.: Ўзбекистон, 2010. – 272 бет.
42. Нуриддинова Ф. Миллий матбуот фиҳристи. – Т.: Mumtoz so'z, 2020. – 696 бет.
43. Нуриддинова Ф. “Турон” жавоҳирлари. – Т.: Mumtoz so'z, 2019. – 472 бет.
44. Пардаев К.У. Ўзбек миллий уйғониш адабиётини ўрганишда матбуотнинг ўрни. – Т., 2011. – 118 бет.
45. Ризаев Ш. Жадид драмаси. – Т.: Шарқ, 1997. – 320 бет.

- 46.Ризоуддин ибн Фахруддин. Оила. Нашрга тайёрловчи Тешабой Зиёев. – Т.: Мехнат, 1991. – 62 бет.
- 47.Ризоуддин Фахриддин ўғли. Машхур хотунлар. Таржимонлар: М.Эшмуҳаммедова ва Б.Умурзоков. – Т.: Navro‘z, 2019. 304 бет.
- 48.Рустамий А. Сайланма. 2 жилд. Туркий тил маҳзани. – Т.: Zilol buloq, 2022. – 392 бет.
- 49.Тихонова Н.Е. Исмаил Гаспринский и егоprotoевразийские идеи. – Санкт-Петербург, 2016. – 100 стр.
- 50.Тосун Мурат. Олим етиштирган оналар. – Т.: Factor press, 2021. – 154 бет.
- 51.Учок Б. Женщины-правительницы в мусульманских государствах. – М.: Наука, 1982. – 176 стр.
- 52.Файзуллоев Б. Чўлпоннинг бадиий маҳорати (“Гӯзал” шеъри мисолида) // “Yangi o’zbek adabiyotining shakllanishi va takomilida Abdulhamid Cho‘lpon ijodining o‘rni” Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya (2022-yil 15-mart) materiallari. – Andijon – 2022. – 417 bet.
- 53.Фармонов Р., Фармона М. Амир Темур Кўрагон ва император Наполеон. – Т.: Tamaddun, 2017. – 240 б.
- 54.Холикова Н. Ўзбек жадид шеъриятида озодлик ҳаракатининг бадиий талқини. – Т.: Наврӯз , 2020. – 148 бет.
- 55.Холикова Н., Умаралиев Х. Комил инсон: ғоя, талқин ва тадриж. – Т.: Fan ziyyosi, 2022. – бет.
- 56.Хушвақтова У. Маликалар китоби ёхуд Темурий маликалар қандай тарбияланади? – Т.: Akademnashr, 2019. – 192 бет.
- 57.Чўлпоннинг бадиий олами. Мас.муҳ. Наим Каримов. – Т.: Фан, 1994. – 132 бет.
- 58.Шайхзода М. Асарлар. Олти томлик. Тўртинчи том. Фазал мулкининг султони. Нашрга тайёрловчи Н.Маллаев. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1972. – 372 бет.
- 59.Шарафиддинов О. Довондаги ўйлар. – Т.: Маънавият, 2004.
- 60.Шиммел А. Жонон менинг жонимда. Олмон тилидан Й.Парда таржимаси. – Т.: Шарқ, 1999. – 176 бет.

- 61.Шодмонова С. Туркистон тарихи – матбуот кўзгусида (1870-1917 йиллар). – Т.: Yangi nashr, 2011. – 296 б.
- 62.Қосимов Б. Миллий уйғониш даври адабиёти. 2-жилд. – Т.: Ғафур Ғулом, 2022. – 340 б.
- 63.Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. – Т.: Маънавият, 2002. – 400 бет.
- 64.Қурунов Д. Адабиётшуносликка кириш. – Т.: Фан, 2007. – 227 б.
- 65.Қурунов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Akademnashr, 2010. – 400 бет.
- 66.Қурунов Д. Чўлпон насли поэтикаси. – Т.: Шарқ, 2004. – 288 б.
- 67.Қўшжонов М. Абдулла Қодирийнинг тасвирлаш санъати (“Ўтган кунлар” романи мисолида). Т., Фан, 1966. 76 бет.
- 68.Қўшжонов М. Ўзбекнинг ўзлиги. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1994. - 136 бет.
- 69.Ғаниева С. Алишер Навоийнинг прозаик асарлари. – Т.: Ўзбекистон, 1981. – 37 б.
- 70.Ғаниева С. Навоий ёдга олган асарлар. – Т., 2009.
- 71.Ҳайитметов А. Навоийхонлик сухбатлари. – Т.: Ўқитувчи, 1993. – 216 б.
- 72.Ҳайитметов А. Темурийлар даври ўзбек адабиёти. – Т.: Фан, 1996. – 160 б.
- 73.Ҳайитметов А. Навоий лирикаси / Нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи Н. Жумахўжа. – Т.: Ўзбекистон НМИУ, 2015. – 326 б.
- 74.Ҳамдам У. Янги ўзбек шеърияти (адабий-танқидий мақолалар). – Т., 2012. – 250 б.
- 75.Ҳамза ва XX аср ўзбек адабиёти: мақолалар тўплами. Нашрга тайёрловчи З.Қобилова. – Т.: Фарғона, 2019. – 256 б.
- 76.Ҳасанов С. Бобирнинг “Аruz рисоласи” асари. – Т.: Фан, 1981. – 96 б.
- 77.Ҳаққулов И. Тасаввуф ва шеърият. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1991. – 184 б.
- 78.Ҳаққулов И., Очилов Э. Ишқ ва ҳайрат олами. – Т.: Ўзбекистон НМИУ, 2016. – 304 б.

79.Хаққул И. Талант – жасорат жавхари. – Т.: Muharrir nashriyoti, 2018. – 284 б.

80.Хожиева Ш. Чўлпон ва миллий шеърият янгиланиши. – Т.: Muharrir, 2019. – 157 б.

### **Xorijiy nashrlar**

81.Baldauf I. Orient und Frau in der frühen uzbekischen Lyrik. – Berlin, 2008. – 200 s.

82.Judith E.Tucker. Women, family and gender in Islamic law. – Cambrige: Cambridge University Press, 2008. – 255 p.

83.Marianne Kamp. The new Woman in Uzbekistan: Islam, Modernity, and Unveiling under Communism. University of Washington press, 1989. – 332 pp.

84.Habiba Fathi. Femmes d'autorité en Asie centrale. Quête des ancêtres et recompositions identitaires dans l'islam postsoviétique. - Paris, Maisonneuve & Larose, 2004. – 348 p.

85.Nəzakət Əzizova. Hüseyin Cavid dramaturgiyasında qadinlarin tipləri və Cavidin məhəbbət konsepsiyası. – Baki: Elm, 2005. – 275 s.

86.Nikki R. Keddie. Women in the Middle East: Past and Present, Princeton University Press, 2007. – 356 p.

87.Susan Magarey. Unbridling the Tongues of Women. A biography of Catherine Helen Spence. Australia: University of Adelaida Press, 1985, 2010. – 214 p.

### **III. Diniy manbalar, adabiyotlar**

88.Тажвидли Қуръони Карим. – Т.: Hilol-nashr, 2021. – 625 бет.

89.Шайх Мұхаммад Содик Мұхаммад Юсуф. Тағсири Хилол. 1-жуз. – Т.: Hilol nashr, 2019. – 640 бет.

### **IV. Badiiy adabiyotlar**

90.Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. I жилд. Шеърлар, настрий асарлар, драмалар. – Т.: Маънавият, 2000. – 256 бет.

91.Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. III жилд. Драмалар, публицистик мақолалар. – Т.: Маънавият, 2003. – 256 бет.

92.Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – Т.: Cho'lpon, 2019. – 144 bet.

93. Авлоний Абдулла. Танланган асарлар. 2 жилдлик. 1-жилд. Шеърлар, ибратлар. – Т.: Маънавият, 2006. – 272 бет.
94. Авлоний Абдулла. Танланган асарлар. 2 жилдлик. 2-жилд. Пандлар, ибратлар, ҳикоялар, набийлар ҳаёти, драмалар, мақолалар, саёҳат хотиралари. – Т.: Маънавият, 2006. – 304 бет.
95. Анбар Отин. Шеърлар. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1970. – бет.
96. Абулғози Баҳодурхон «Шажараи турк». Т.: «Чўлпон», 1990. – бет.
97. Исломоил Гаспринский (Гаспрали). Ҳаёт ва мамот масаласи. Танланган асарлар. – Т.: Маънавият, 2006. – 320 б.
98. Мирзо Улугбек. Тўрт улус тарихи. Таржимон ва муҳаррир Б.Аҳмедов ва бошқалар. – Т.: Чўлпон, 1994. – 352 бет.
99. Ниёзий Ҳ.Ҳ. Тўла асарлар тўплами. Биринчи том. Девон. – Т.: Фан, 1988. – 380 б.
100. Ниёзий Ҳ.Ҳ. Тўла асарлар тўплами. Иккинчи том. Шеърлар. Педагогик рисолалар. Насрий асарлар. – Т.: Фан, 1988. – бет.
101. Ниёзий Ҳ.Ҳ. Тўла асарлар тўплами. Тўртинчи том. Драмалар (1921-1928). – Т.: Фан, 1989. – 348 б.
102. Ойбек. Болалик хотираларим. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1995. – бет.
103. Остин Ж. Андиша ва ғуур. – Т.: Янги аср авлоди, 2019. – 404 бет.
104. Рабғузий Носируддин. Қиссаси Рабғузий. Нашрга тайёрловчи ва изоҳлар муаллифи Б.Абдушукуров. – Т.: Ёшлар нашриёт уйи, 2018. – 264 бет.
105. Сафаров Н. Кўрган-кечирганларим. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1968. – бет.
106. Хондайлиқий Сидқий. Русия инқилоби. – Т.: Равнақ кут-си, 1917. – 48 бет.
107. Чўлпон. Яна олдим созимни. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1991. – бет.
108. Чўлпон А.С. Асарлар. Тўрт жилдлик. 1 жилд. Шеърлар, мансуралар. Шеърий хатлар. – Т.: Akademnashr, 2016. – 368 бет.

109. Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий. Тўла асарлар тўплами. Биринчи том. Девон. – Т.: Фан, 1998. – 380 бет.
110. Husayn Jovid. Saylangan asarlar (Pyesalar). – Т.: Tafakkur qanoti, 2018. – 392 bet.
111. Oybek. Erk kuylari. Nashrga tayyorlovchi O.Hamroyeva. - Т.: Bookmany print, 2024. - 46 bet.
112. Zafariy G‘. Jadidlar. – Т.: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – 156 bet.

#### **V. Dissertatsiya va avtoreferatlar**

113. Абдуллаева Ш. Алишер Навоийнинг хотин-қизлар ҳақидаги гуманистик қарашлари. Филол.фан.номз. .... дисс-я. – Т., 1954.
114. Ашуррова Н.Д. Эволюция художественного видения образа женщин в персидско-таджикской классической литературе (на примере творчества Фирдоуси и Низами). Диссертатсия на соискание ученой степени доктора филологических наук. – Душанбе, 2021. – 460 стр.
115. Болтабоев Ҳ. XX аср боши ўзбек адабиётшунослиги ва Фитратнинг илмий мероси. Филол.фан.докт. ... дисс. – Т., 1996. – 287 бет.
116. Гимранова Д.Г. Проблема женщин в литературных трудах Ризаэддина Фахреддина (“Салима, или Целомудрие”, “Асма, или Деяние и кара”). Автореферат диссертатсии на соискание ученой степени кандидата филологических наук. – Казань, 2011. – 24 стр.
117. Давлатова А.Р. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиётида эстетик идеал муаммоси. Филол.фан.номз. ... дисс. – Т., 2011. – 162 бет.
118. Жернова Н.С. Образ женщины в произведениях А.М. Ремизова: к проблеме типологии. Диссертатсия на соискание ученой степени кандидата филологических наук. – М., - С. 201.
119. Жўраева Н.Д. Ўзбекистон ижтимоий-иқтисодий ва маданий ҳаётида хотин-қизларнинг ўрни (XX асрнинг 20-30 йиллари). Тарих фан.номз.... дисс-я. – Т., 2004.
120. Жўракулов У. Фитратнинг тадқиқотчилик маҳорати (ўзбек адабиёти тарихига оид тадқиқотлари мисолида). Филол.фан.номз. ... дис. автореф. – Т., 1998. – 26 бет.

121. Лутфиддинова Х. Ёзувчининг эстетик идеали ва аёллар образи (“Ўтган кунлар” ва “Кеча ва кундуз” романлари мисолида). Филол.фанл.номз. .... дисс-я. – Т., 1994. – 141 б.
122. Нормуродов О. Сайийд Қосимий маснавийлари поэтикаси. Филол.б.фалс.фан.докт....автор. – Гулистон, 2023. – 49 б.
123. Пардаева Н.К. Анбар Отин асарларида муаллиф ижодий нияти ва бадиий-эстетик идеалининг поэтик ифодаси. Филол.фан. ... (PhD) дисс. – Т., 2022. – 140 бет.
124. Пензина О.В. Женская проза второй половины века: Гендерный аспект авторства. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук. – М., 2009. – 20 с.
125. Рахмонова Д.М. Тавалло ижодида поэтик шакл, мазмун ва образ янгиланиши тамойиллари. Филол.фан. ... (PhD) дисс. – Т., 2022. – 131 бет.
126. Сафуанова А.И. Русская драматическая сказка 1930 – 50-х гг. (типология героев и конфликтов) Диссертация на соискание ученой степени кандидата филологических наук. Москва – 2016. – 216 стр.
127. Тўйчиева О. XV-XX аср адабиётида аёлларга бағишланган тазкиралар. Филол.фан.фалс.докт. ... (PhD) дисс-я. – Т., 2021. – 178 бет.
128. Усманова С. Ўзбек ва инглиз романларида аёл руҳияти тасвири (Абдулҳамид Чўлпон ва Самуэль Ричардсон ижоди мисолида). Филол.фан. ... (PhD) дисс. – Фаргона, 2021. – 142 бет.
129. Усмонов О. Гулом Зафарийнинг ижодий йўли. Филол.фан.номз. ... дисс-я. – Т., 1999. – 130 бет.
130. Эркинов А.С. Алишер Навоий “Хамса”си талқинининг XV-XX аср манбалари: Филол.фан.докт. ... дисс. – Т., 1998. – 220 бет.
131. Эшматова Ю. Истиқлол даври ўзбек қиссачилигида аёл руҳиятининг бадиий талқини. Филол.фан.фалс.докт. (PhD).... дисс-я. – Т., 2020. – 137 бет.
132. Эшонова С. Қўқон шоиралари: Нисо ва Хоний ижоди. Филол.фан.номз.... дисс-я. – Т., 2006.

133. Фафорова З. Алишер Навоий ҳамд ва наът газалларининг ғоявий-бадиий таҳлили. Филол.фан. ... (PhD) дисс.автореф. – Самарқанд, 2018. – 48 бет.

134. Ғаниев И. Фитрат драмалари поэтикаси. Фил.фан.докт.... дисс-я. – Т., 1998. – 299 бет.

135. Rajabova D. Turkistonda jadid qarashlarida ayollar va yoshlar masalasi. Tarix fanlari nomz.... diss-ya. – Т., 2015.

136. Yuldashev N.T. Cho‘lpon she’riyati poetikasi. Filol.fan.d-ri...diss.avtoref. – Andijon, 2024. – 80 bet.

## **VI. Ilmiy to‘plam, jurnal va gazetalardagi maqolalar**

137. Абдуллаев М.А. Правовое положение женщины в исламе // Актуальные проблемы российского права. 2008. № 3. – С. 569-575.

138. Абубуллаева Э. Роль женщины в видении Исмаила Гаспринского (перевод на русский язык очерка И. Гаспринского «Женщины») Крымское историческое обозрение, 2015, № 1. – С. 216-231.

139. Алиев А. Фитрат ва унинг “Арслон” драмаси // Гулистан, 1989. № 12.

140. Аҳмедова Ш. Япон ва Қувайт адібалари ҳикояларида аёл образи // Yaponshunoslar xalqaro forumi. Volume 2, Special Issue 22, April, 2022. – В. 24-27.

141. Владимирова Н. Возвращение “Клеопатры” // Правда Востока, 1992. 7 апр. – С. 3.

142. Владимирова Н. Чўлпон – ҳикоянавис // Чўлпоннинг бадиий олами. – Т., 1994. – Б. 109-112.

143. Древетняк Е.В. Египетская проза XX века как отражение процесса эмансипации арабской женщины // Ученые записки Таврического национального университета им. В.И.Вернадского. Серия «Филология. Социальные коммуникативы». Том 25 (64). № 2, ч. 2. 2012 г. С. 128–133.

144. Жабборов Н. “Ўткан кунлар”да миллий рух ифодаси // Филология масалалари, 2020. № 2. - Б. 3-16.

145. Жабборов Н. Ҳамза ва жадидчилик // Ҳамза ва XX аср ўзбек адабиёти. Мақолалар тўплами. Нашрга тайёрловчи Зебо Қобилова. – Фарғона, 2019. – 256 бет.

146. Желоховцев А.Н. Образ женщины в литературе / Социальные и гуманитарные науки. Отечественная и зарубежная литература. Серия 7. Литературоведение. 1994-4. – Москва, 1999. – С. 61-75.
147. Исимиддинов З. Икки аёл // Тафаккур, 2007. № 4. – Б. 47.
148. Йўлдош К., Йўлдошева М. Амир Темур Ҳусайн Жовид талқинида // Жаҳон адабиёти, 2013 йил, 4-сон
149. Каримов Н. Ҳамза Ҳакимзода Ниёзийнинг XX аср ўзбек адабиёти тараққиётидаги ўрни ва аҳамияти // Ҳамза ва XX аср ўзбек адабиёти. Мақолалар тўплами. Нашрга тайёрловчи Зебо Қобилова. – Фарғона, 2019 – 256 бет.
150. Каримов Э. XX аср бошида Туркистанда адабий муштараклик // Ўзбек тили ва адабиёти, 1994 йил, №4-5-6. 16-22 бетлар.
151. Мағзава. Хотин-қизлар фифони: Шеър // Муштум, 1925. № 13.
152. Мелиев С. “Бой ила хизматчи” ёки тикланган нусха муаммоси // “Ёшлик” журнали, 1989 йил, 11-сон.
153. Менгдобилова М.Қ. Анбар Отиннинг “Қаролар фалсафаси” асарида жамиятдаги хотин-қизларнинг ижтимоий тенгсизлиги масаласи // Scientific progress, Volume 3, Issue 4, 2022. – Р.1223-1225
154. Мусабекова У. Образы дев – воительниц в тюркском фольклоре // Adabiy meros, 2022-yil, 2-sin (6).
155. Мухаммаджонова Л. Анбар Отин ижодида адолат, шахс эрки ва феминизм ғоялари // Тил ва адабиёт таълими, 2006, 3-сон.
156. Мухаммедова Н. Феменизмнинг инглиз адабиётида акс этиши / Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси, 2020 – 3/2. – Б. 87-89.
157. Олимов М. Бадиий асар пафоси эстетик идеал ифодаси сифатида // Ўзбек тили ва адабиёти, 1994, №1-2. 6-12 бетлар.
158. Попова А.Н. Отражение феминизма в зарубежной литературе / Международный научный журнал «Вестник науки» № 1 (58) Т. 4. 2023 г.– С. 201-205.

159. Саримсоқов Б. Адабиётда шакл ва мазмун муносабатларининг айрим муаммолари // ЎТА, 1997. – №6. – Б.11.
160. Соатбоев А. Диёнат аҳлина очиқ хат // Ал-изоҳ. 1918, 9 март. № 24. – Б. 357.
161. Тўйчиева Г. Мовароуннахр маданиятида гендер тенглик тамойиллари ва амалиёти // Оиласий-ҳуқуқий муносабатларда гендер тенглиги. Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами – Т.: Mahalla va oila nashriyoti, 2021. – Б. 87-93.
162. Улуғов А. Чўлпон насрода ҳаёт ҳақиқати фалсафаси // Чўлпон ижоди ва замонавий адабий жараён. Конференция материаллари. – Т., 2018. – Б. 139-168.
163. Хидирова Н. Аёллар масаласига оид манбалар ва уларнинг таҳлили (XVI-XX аср бошлари Ўрта Осиё мисолида) / JCAR Journal of Central Asian Renaissance, Volume 2, Issue 1, 2021. - Р. 37-47.
164. Чубукчиева Л. Женский вопрос в истории джадидизма // Из глубины столетий, 2014, № 1/2. – С. 44-51.
165. Юсупова Д. Навоий ижодида аёл сиймоси // Алишер Навоий илмий ва ижодий меросини ўрганиш масалалари мавзусидаги халқаро илмий-амалий анжуман. – Т., 2023 йил. – Б. 191-196.
166. Ўзбек қизи. Энди гал бизники // Муштум, 1925. № 4. – Б. 6.
167. Қориева М. Билимлик мураббиялар етиштирайлик // Янги йўл. – 1928. № 7.
168. Қосимов Б. Оташин маърифатпарвар // Ҳамза ва XX аср ўзбек адабиёти. Мақолалар тўплами. Нашрга тайёрловчи Зебо Қобилова. – Фарғона, 2019. – 256 бет.
169. Қувватова Д. Чўлпоннинг “Ойдин кечаларда” ҳикояси ва тизимли таҳлил имкониятлари // Чўлпон ижоди ва замонавий адабий жараён. Конференция материаллари. – Т., 2018. – Б. 182-187.
170. Ҳожи Муин. Хотин-қизлар озодлиғи ва хижоб масаласи // Зарафшон, 1927, 9 май.

171. Abdirashidov Z. Ismoilbek suygan ayollar // Tafakkur, 2011, 4-son. – B. 63.

172. Abdullayeva D., Madgaziyev I. Cho'lpon dramaturgiyasi: noma'lum dramalari va yangi topilgan komediyasi haqida // Adabiy meros, 2022, 2-son (6). – B. 121-132.

173. Matqurbanova D. Cho'lponning “Gavharoy” hikoyasida ayol taqdiri tasviri // O'zbek tili va adabiyoti, 2021, 2-son. – B. 94-98.

174. Muhiddin R. Turkistonda aholiga tibbiy yordam ko'rsatish va xotin-qizlar masalalari davriy matbuot talqinida (1870-1917 yillar) / Ўзбекистон олимлари ва ёшларининг инноватсия илмий-амалий тадқиқотлари мавзусидаги конференция материаллари. – 2021, 30 июн, № 29. – Б. 7-10.

175. Xolikova N. “Yangi yo'l” jurnali: xotin-qizlar ma'rifati // Til va adabiyot ta'limi. Elektron jurnal. – Т., 2022-yil, 8-son. – B. 20-23.

176. Xolikova N. Cho'lpon she'riyatida zamondosh ayollar taqdiri // Til va adabiyot ta'limi. – Toshkent, 2023. – №10. – B. 66-68.

177. Xolikova N. Hamza she'rlarida zamondosh ayollar obrazi (“Oymisan yo qamara...” she'ri tahlili misolida) // Jadidchilik harakati va uning turkiy xalqlar adabiyotiga ta'sirini o'rganish muammosi. Xalqaro ilmiy konferensiya. 2023-yil 13-oktabr. B.104-106.

## VII. Internet manbalari

178. <https://cyberleninka.ru/article/n/navoiy-ijodida-ayol-siymosi/viewer> // Юсупова Д. Навоий ижодида аёл сиймоси // Алишер Навоий илмий ва ижодий меросини ўрганиш масалалари. Халқаро илмий-амалий анжуман. – Т., 2023 йил. – Б. 192.

179. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/nafas-shodmonov-ilohiynoma-da-yusuf-obrazi> // Шодмонов Н. “Илоҳийнома”да Юсуф образи

180. <https://ziyouz.uz/matbuot/qayta-qurish-davri-matbuoti/haydarbek-bobobekov-zinnat-qurbanjon-dodhohning-tahallusi-1989> // Ҳайдарбек Бобобеков. Зиннат – Қурбонжон

додхонинг тахаллуси (1989) / “Ёш куч” журнали, 1989 йил, 3-сон.

181. <https://cyberleninka.ru/article/n/zhenskoe-dvizhenie-genezis-i-evolyutsiya/viewer> // Т.А.Королева. Женское движение: генезис и эволюция // Вестник Томского государственного университета. 2013. № 368. – С. 44-50.
182. <https://ziyouz.uz/ozbek-ziyolilari/abdurauf-fitrat-2/> Каримов Н. Ўзбек зиёлилари. Абдурауф Фитрат.
183. <https://daryo.uz/k/2021/03/30/millatga-najot-yolini-korsatgan-jadid-abdurauf-fitrat-hayotiga-chizgilar/> Абдурашидов З. Миллатга «нажот йўли»ни қўрсатган жадид. Абдурауф Фитрат ҳаётига чизгилар.
184. <https://biography.wikireading.ru/78575> // Ру Жан-Поль. Женщины.
185. <https://ozattar.kz/ru/material/view?id=15741> / Елеулова А.А. Положение женщины в золотоордынской цивилизации.
186. <https://dzen.ru/a/YFuBNiHqlEoGfR8G?sid=553651459108632478> / Н.Саттар. Кадимисты о джадидах
187. <https://dzen.ru/a/ZgWRuJJV-DlCNPb4?sid=553651459108632478> / Ублых Л. Женщина в арабском мире
188. <https://ana-yurt.com/qrt/content/problema-emansipacii-zhenshchiny-v-tvorchestve-dzhemiliya-kermenchikli> / Керимов Т.Н. Проблема эмансипации женщины в творчестве Джемиля Керменчикли
189. <https://einfolib.uz/index.php/2020/10/17/xix-asr-ohiri-xx-asr-boshlarida-turkiston-matbuotida-hotin-qizlar-huquqlari-haqidagi-munozaralar> / Шодмонова С. XIX аср охири-XX аср бошларида Туркистон матбуотида хотин-қизлар ҳуқуқлари ҳақидаги мунозаралар
190. <https://www.gutenberg.org/files/4087/4087-h/4087-h.htm> // Daniel Defoe. An Essay upon Projects. Cassell & Company, limited: London, Paris, New York & Melbourne, 1887. Дата выпуска: 10 августа 2014 г. [электронная книга №4087]

## ILOVALAR

### 1-ilova

Shirin obrazining genezisi ko‘zdan kechirilsa, ko‘plab manbalar uning tarixiy shaxs bo‘lganini tasdiqlaydi. Avvalo xalq og‘zaki ijodi, so‘ngra Firdavsiyning “Shohnoma”sida, Nizomiy, Dehlaviy va Navoiylarning “Xamsa”sida bosh qahramonlardan biri bo‘lgan Shirin obraziga turli xalqlar turlicha yondashgani ravshanlashadi. Tarixiy haqiqatga ko‘ra, Xusravning mahbubasi Shirin obraziga hamma davr shoirlari ham birdek munosabatda bo‘limganlar. XII asrda yashagan Saljuquyilar davlatining vaziri Nizomulmulk Xusrav va Shirin sarguzashtini mashhur qissa, deb tilga olsa-da, “Siyosatnoma” kitobida Shiringa salbiy nazar bilan qaraydi: “Xusrav Shiringa shu darajada muhabbat bog‘lagan ediki, unga hatto hokimiyatning ixtiyorini berib qo‘yan edi. U nima desa, shuni bajarishga tayyor edi. Lekin Shirin behayolik yo‘liga kirib ketdi va Xusravdek bir shoh huzurida turib, Farhodga ko‘ngil qo‘ydi”. Shiringa saroy shoirlari kinoya, istehzo, hatto nafrat bilan qaraganlar. Lekin ora-sira uchrab turgan bunday munosabatlar Shirin haqidagi an'anani yo‘q qilib yuborishga qodir emas edi. Shirin obrazi og‘zaki ijoddha ham, yozma adabiyotda ham, ko‘pincha, sadoqatli yor timsolida gavdalantirilgan.

Ozarbayjonlik olima S.Shixiyeva 2021 yili ilmiy jamoatchilikka taqdim etgan “Shirin turkligi bilan faxrlanadi. Nizomiyning “Xusrav va Shirin” asari asosida” nomli maqolasi Shirin obrazi genezisi haqida yangi fikr va qarashlarni tug‘dirdi. Maqolada keltirilishicha, Nizomiy “Xusrav va Shirin” dostonining ko‘p nuqtalarida Shirinning milliy o‘ziga xosligiga goh ochiq, goh imo-ishora tilida e’tibor qaratadi. Ulardan biri shu paytgacha tadqiqotchilar e’tiboridan chetda qolgan arman Shirinning ko‘chmanchi turmush tarzidir. Nizomiy qahramoni – Shirin xolasi hukmronlik qilgan o‘lka ahlining hayot yo‘li ham, Shirin hayoti ham ko‘chmanchi turklar hayotiga mos tarzda tasvirlangan. Asarda asli, turkligidan g‘ururlanish faqat Mehinbonu nutqida emas, Shirinning turkiyigini ifodalashda ham ko‘rinadi. Qizig‘i shundaki, Nizomiy o‘zi Shirin bilan bog‘liq holda qo‘llagan “turk” so‘zida o‘xshatishlarning takrorlanishiga yo‘l qo‘ymaydi. “Shirinning Xusravga javobi” deb nomlangan bobda Shirin “noz qilishni bilmaydigan turk yo‘q”, “yuragi bilan ov qilgan

turk bor”, “ko‘zlari mast turklardek” deydi va “Men arab tilini bilmaydigan turk emasman” kabi jumlalar uchraydi. Ko‘rinib turibdiki, Nizomiy Shirinning turkiy kelib chiqishi haqida tizimli surat yarata olgan. Bu jihat shoir o‘z qahramonining turkiyligini o‘zi bilan bog‘liq har bir detal (qarindoshlik, do‘stlik, hurmat so‘zleri, tashqi ko‘rinish, turmush tarzi va hokazo) orqali o‘quvchiga singdirganligini tasdiqlaydi<sup>353</sup>.

Alisher Navoiy yaratgan Shirin obrazi esa benihoya go‘zal, axloqiy jihatdan mukammal, chin sevgi qahramonidir. Shirin uchun sultanat, podshohlik nasabi emas, chin insoniylik muhim. U oliv insoniy fazilatlar egasi bo‘lgan zotning shaydosidir. Ana shunday oljanob inson Farhod edi. Shirin Farhoddek kamolot timsoliga munosib mahbubadir. Shirin Farhodning vafotini eshitgach, mahbubining hijroniga chiday olmay hayot bilan vidolashadi.

Alisher Navoiy Shirin haqidagi tarixiy-rivoyaviy manba va an’analar bilan yaqindan tanish bo‘lganini uning “Tarixi muluki Ajam” risolasi tasdiqlaydi. Muallif dostonning yangi g‘oyaviy-estetik mohiyati, rejasi, voqeа va obrazlar silsilasi munosabati bilan an’anaviy Shirindan chekinadi ham. Uning Shirini rivoyat va afsonalardangina emas, balki salaflarining “Xamsa”larida tarannum etilgan obrazdan ham katta farq qiladi. U Xisravning qallig‘i emas, balki mehnatkash va ijodkor Farhodning sevikli yori, u “sut arig‘i”ning emas (bu Shirinning ma’naviy olamini xiyla chegaralab qo‘ygan bo‘lar edi), balki el-yurtga “hayot” va “najot” bag‘ishlagan “Nahr ul-hayot” va “Bahr un-najot”ning tashabbuskorlaridan biri (Xalq afsonalarining ko‘pchiligi ham Shirin faoliyatini suv bilan, ariq ochish bilan bog‘laydi). Shirin xalq eposlaridagi jasoratlari va oqila qizlarni eslatadi.

S.Erkinovning qiyoslashlariga ko‘ra, Mir Alisher Navoiy va Orif Ardabiliy dostonlaridagi Shirin obrazi bir-biriga yaqin. Bu, Navoiyning Orif Ardabiliy dostoni bilan tanish bo‘lish-bo‘lmastigidan qat’i nazar, xalq ijodiyotida Shirin haqida qadimiyoq an’anaviy rivoyat va afsonalardan farq etuvchi yangi asarlar ham vujudga

<sup>353</sup> [https://edebiyyatqazeti.az/news/science/7931-turkluyu-ile-qururlanan-sirin-nizaminin-xosrov-ve-sirini-esasinda?fbclid=IwAR0NO0iYRF4H\\_r3eRGQeH5Bbcq44m0RtN190v99e7fqYKObLV5rCgPIE5SU](https://edebiyyatqazeti.az/news/science/7931-turkluyu-ile-qururlanan-sirin-nizaminin-xosrov-ve-sirini-esasinda?fbclid=IwAR0NO0iYRF4H_r3eRGQeH5Bbcq44m0RtN190v99e7fqYKObLV5rCgPIE5SU) // Türklüyü ilə qururlanan Şirin. Nizaminin "Xosrov və Şirin"i əsasında - Səadət Şixiyeva

kelgan, Navoiy ham, Orif Ardabiliy ham shunday asarlardan ilhomlanib, ulardan ijodiy foydalangan, deb faraz qilmoqqa imkon beradi. Darhaqiqat, Shirin nomi bilan bog‘liq ko‘pgina rivoyat va afsonalar bor. Qahramonni o‘z yurti bilan bog‘lab ko‘rsatish xalq ijodiga xos an’analardan biri. Shunga muvofiq, Shirin xalq asarlarida turli elatga mansub qilib tasvirlanadi, ayrim qishloqlar, binolar, soylar, chashmalar va boshqalar uning nomi bilan ataladi. Ammo shu atamalar asosida Shirin “tarixi”ni tiklashga intilish, shubhasiz, foydasiz, natijasiz bo‘lur edi. Chunki Shirin allaqachonlar yakka shaxslikdan chiqib obrazga, go‘zallik, sadoqat, aql-iroda timsoliga, xalqning suv haqidagi g‘oyasi va orzusi tajassumiga aylanib, had-hududni kechib o‘tgan edi. Navoiyning bahosiga ko‘ra, Farhod va Shirin muhabbatidek pokiza sevgini falak o‘zi paydo bo‘lgan fursatdan beri hanuzgacha ko‘rmagan edi.

## 2-ilova

Abulg‘ozi Bahodurxonning keltirishicha: «...Bir kecha yotib erdi, sahar vaqtinda o‘yg‘andi. Tunglikdan bir yoruq nimarsa kelib kirdi, kunday ko‘rdi kim yoruqning ichinda bir kishi shaklli oq-sari, ko‘zлari shahlo kelib evning ichiga tushdi. Alanquva qotinda yotqan zaifalarni turg‘uzmoq uchun qichqirayin tedi. Ovozi chiqmadi. Tili tutildi. Turayin tedi, qo‘l va oyoqining joni ketdi. Ammo aqli yerinda. Ul kishi ohista-ohista qatig‘a keldi. Taqi juft bo‘ldi. Yana tunglikdin chiqib ketdi. Bu so‘zni aytsam hech kishi ishonmas teb, aytmadi. Besh-olti kun o‘tkandin so‘ng, yana keldi. 4-5 oyliq bo‘lg‘andin qarintoshlari yig‘ilib kelib homila bo‘lg‘anining voqeotin so‘rdilar. Alanquva ancha ko‘rganin aytdi. Taqi aytdi: «menga er kerak bo‘lsa bormasmu erdim. Taqi ulkim zaifa ham bo‘lsam ko‘p xalq meni podshoh qilib tururlar. O‘zumni muncha elni va xalqni va ikki o‘g‘limni sharmanda qilib bunday noma’qul ishni hargiz qilurmanmu? Bir necha kecha evimning toshinda saqlab yoting, Xudoyi Taolo meni sharmanda qilmas bo‘lsa, sizlarga ham ko‘rsatur. Taqi ulkim meni bu qornimdaqi o‘g‘lon tuqsa, albatta rasmiy kishiga o‘xshamas, andin ham bilursiz. Xudoyi Taoloning bir hikmati bir turur, mening bu homila bo‘lmoqliqimda», tedi. Bu so‘zni eshitgandin so‘ng barchalari inondilar. Aning uchun Alanquvaning qiliqin bilurlar erdi. Andag‘ ham bo‘lsa ko‘p xalq kunda kecha evning atrofini saqlab yotdilar. Taqi navbat birlan uyg‘oq o‘lturdilar. Bir necha kundin so‘ng sahar vaqtinda tunglikdin evning ichina tushganda oftobday barq ura turg‘on nimarsa osmondin paydo bo‘ldi. Ul ko‘rganida qotinda yotqanlarni turg‘uzdi. Kelib Alanquvaning evining tunglikindin kirdi. Bir zamondin so‘ng qaytib chiqib ketdi. Yotqan xalqning kelganin ozroqi ko‘rdi va ketganin barchasi ko‘rdilar. Ammo kishining suvratini ko‘ra bilmadilar. Mundin so‘ng Alanquvaning so‘zini chinliqi barchag‘a ma’lum bo‘ldi... Alanquva ucham er o‘g‘il topdi».

### 3-ilova

“Milliy tariximizda harbiy ayollar mavzusini yoritish lozim. Tarix otasi Gerodot ham skiflar haqida erkagu ayolining kuchli harbiy salohiyatidan so‘zlagan. Ayniqsa To‘maris onamizning lashkarboshi sifatidagi siy wholemosini ko‘z oldimizga keltirsak, harbiylik erkagu ayolga xos bo‘lgan kasb va mashg‘ulot bo‘lganini ko‘rishimiz mumkin. To‘maris harbiy sarkarda, janglarda chiniqqan, son-sanoqsiz qo‘singa ega bo‘lgan, o‘scha davrda unga teng kelolmagan lashkarboshi va shohanshoh Kir II ni yengganiga qaraganda harbiy ilm yuqori bo‘lgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, erkaklar kabi ayollar ham otning ustida nayzabozlik kurashi, kamonda o‘q otish bo‘yicha mohir ekanlar. Ular biror daraxtga ilingan halqaga uzoqdan ot soldirib kelib o‘jni o‘scha xalqaga bexato ura olgan ekanlar. Ayol momolarimiz ot ustida har qanday jangni olib bora olgan ekanlar. Gerodot massagetlarning otlarining aksessuarlari, idish-tovoqlari ko‘p narsalari oltindan bo‘lganligini aytib o‘tgan. Iskandari zamon Maqidunli ham O‘rta Osiyoda unga qarshi kurashga chiqqan ayollar garnizoni bilan kurashishdan bosh tortgan. Ibn Arabshoh ham Amir Temur qo‘shindan harbiy ayollar qismlari bo‘lgani, ular jangni qoyilmaqom olib borishi, hujumga suron solib o‘tganlarida, dushman tomon erkaklari bu harbiy ayollar hujumiga dosh bera olmay tirra qochganligini ta’kidlab o‘tgan. U tajribali jangchi ayollar haqida hikoya qilib o‘tgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, bu ayollar umri davomida bir kun ham o‘troq hayot kechirmagan. Ular bir umr otning ustida yurib jang qilgan, oila qurgan, farzandli bo‘lgan va ularni yurishlar paytida uylantirgan harbiylikka umrini baxshida qilgan ayollar edilar. Agar yurishlar paytida uyushtirilgan to‘y-hasham, yig‘in, urf-odatlar tarixini o‘rgansak, harbiylik va ijtimoiy hayot o‘scha davrning o‘ziga xos xususiyati bo‘lganini ko‘rishimiz mumkin. Yurishlar paytida davlat boshqaruv masalalari ko‘rib chiqilardi. Demak Sohibqiron sultanatida ikki qavatli, qo‘sish bilan olib yuriladigan, buzilib taxlanadigan, tamoman yog‘och o‘ymakorligi asosida ishlangan ikki qavatli ko‘chma masjidi jome borligini eslasak, davlat boshqaruvining ko‘chma boshqaruv apparati bo‘lganini ham anglab yetishimiz mumkin”<sup>354</sup>.

<sup>354</sup> <https://www.facebook.com/groups/246149995752425/posts/416658868701536/> // Ўлжаева III. Юртимизда ҳарбий аёллар тарихи ҳақида.

## 4-ilova

Insonlar o‘troq turmush tarziga o‘tganlaridan so‘ng, davlat va jamiyat qurishni boshladilar. Garchi birinchi davlat qayerda paydo bo‘lganligi aniq ma’lum bo‘lmasa-da, lekin eng qadimiysi Osiyo qismida, ya’ni Sharqda (quyosh chiqadigan joyda) bo‘lgan. Xitoy, Hindiston, Bobil, Fors – qadimgi sivilizatsiyalar. Yevropa jamiyati va davlatlari ularning oldidagi juda yosh. Agar Yevropadagi eng qadimgi davlatga 1000 yil bo‘lsa, Xitoy 4000 yildan beri mavjud. Eski, ya’ni Osiyo madaniyati va yangi, ya’ni Yevropa madaniyati o‘rtasida sezilarli farq bor. Eng katta va g‘ayrioddiy farq – bu ayollar mavqeい. Qadimgi Xitoy, Hindiston va Eronning urf-odatlari va madaniyati ayollarni past darajada qo‘yadi. Ayollar erkaklarga berilgan huquq va erkinliklarning o‘ndan biriga ham ega emas. Ular mulk, shaxsiy erkinlik va ta’limdan mahrum. Xitoyliklar bu borada shu darajaga yetdiki, ularning fikricha, ayol kishiga yurishning hojati yo‘q. Shu bois qizlarga oyog‘i o‘smasligi uchun bolaligidan maxsus poyabzal kiydirilgan va bu an’anaga aylangan. Ushbu an’ana tufayli xitoylik ayollar nogiron bo‘lib qoladilar. Hindistonda yangi tug‘ilgan qizlar bo‘g‘ib o‘ldirilgan, beva qolgan xotinlar erining o‘limidan keyin gulkanda yondirilgan. Mana shunday g‘alati an’analari o‘ylab topilgan. Qadimgi Eronning ham o‘ziga xos an’analari bor edi, unga ko‘ra ayollar uyda qolishga majbur bo‘lgan va erkak bilan bir dasturxon atrofida ovqatlana olmaydigan past jonzot sifatida qaralgan. Shu bilan birga, ayollarga yozish va o‘qishni bilish shart yemas deyilgan. Bu an’analarni ko‘rgan Yevropa Sharq ayollarining erkinlik, o‘qish va ta’lim olish huquqlaridan mahrum ekanligida Islomni ayblaydi. Ko‘p muslimmonlar bu narsalarni Islom me’yorlari deb o‘ylashlari sharmandali holat. Va yevropaliklar ham shunday xulosalar chiqarishi noto‘g‘ri. Aslida muslimon ayollari va osiyolik ayollar o‘rtasida tog‘dek farq mavjud. Qadimgi davrlarda G‘arbda va Yevropada ayollarning mavqeい Osiyo, Xitoy, Hindiston va Eron ayollariga juda o‘xshash edi. To‘g‘ri, Yevropada xotin-qizlarning oyoqlariga tor poyabzal kiydirishmagan, biroq mulkni boshqarish, bilim olish va ilm-fan o‘rganish va shu kabi holatlarda ayollarga juda past nazar bilan qaralgan. Bir paytlar Yevropada olimlar “ayollarning qalbi bormi?” degan savolni muhokama qilishgan. Ayollarga nisbatan bundan ortiq

mas'haralash bo‘lmasa kerak. Faqat oxirgi asrlarga kelib Yevropada ta’lim va sivilizatsiya darajasi rivojlandi va shunga mos ravishda ayollarning haq-huquqlari biroz kengaydi. Ayollarga hurmat ko‘rsatila boshlandi, shuningdek, unga bilim olish va o‘qishga ruxsat berildi.

## 5-ilova

“Xitoy xotin-qizlarining qulluqda qolishlari, shu darajaga kelib yetdiki, ular odatga bo‘yunsunub, o‘zlarini mayiblandiradurlar. Xitoy xotini eriga to‘la ravishda bo‘yunsung‘on qul bo‘lishig‘a qaramasdan, uning ko‘nglini topish uchun o‘zining badanini mayiblandirishga majburdir. Qiz bolalar tug‘ulg‘on zamon uning oyog‘ini yog‘och qoliplarga solib qo‘yish odat bo‘lib qolg‘on. Bu qolip bilan oyoqlarini siqib, yaramas tuyoq shakliga kirgizib qo‘yodirlar. Xitoy xotini unday tuyoqlarda juda qiyinlik bilangina yura oladir. Hatto qattiqroq shamolda ham yura olmaydurlar. Chunki shamol ularni tikka qo‘yilg‘on yog‘ochni yiqitqon kabi yiqitib yuboradur. Bu odat 1911 nchi yilda nashr qiling‘on maxsus inqilobiy qonun bo‘yicha qiling‘on bo‘lsa ham, ba’zi bir eski fikrdan qaytmayturg‘on ota-onalar shu kunga qadar eski odatni tashlamasdan o‘z bolalarini mayiblashda davom qiladurlar. Dunyoda eng qiyinliq bilan yoshog‘on va qul qatorida hisoblang‘on Xitoy xotinidir. Xitoy xotinlari erga tekkandan keyin uch yil ichida o‘g‘ul bola tug‘ub bermasalar, erlari ularni yana otasig‘a qaytarib berishga yoki ko‘chaga haydab chiqarishg‘a haqlidirlar. Faqat keyingi vaqtlardag‘ina o‘qug‘uchi (student) yoki ziyoli otalarning qizlari ko‘b kurashlar natijasida o‘zлari xohlag‘on kishiga kiyovga chiqish huquqig‘a ega bo‘ldilar. Ularda xizmat qilib, pul topadurg‘on xotin-qizlar topqan pullarini o‘zlarining xo‘jayinlari bo‘lg‘on ota yoki erlariga keltirib berishlari kerakdur. Xitoydan boshqa hech bir mamlakatda xotin-qizlarni sotish odati yo‘q. Xitoy oilasining otasi hali bo‘yi yetishmagan yosh qizlarni fabrikaga yoki fahshxonaga ko‘b pul barobariga sotib yuborib, yo bo‘lmasa muvaqqat foydalanish uchun boy ajnabiylarga ko‘tara sotib yuboradur”<sup>355</sup>.

---

<sup>355</sup> А.Л. Хитой хотин-қизлари: эски оdat курбонлари // Янги йўл, 1927 йил, № 2. – Б. 29-30.

## 6-ilova

“Hurmatli Shafiqqa xanum, biz kamtarona holda quyidagilarni ma'lum qilamiz... Hammaga ayon bo'lsa kerak, bugunda Rossiyada erkinlik, huquqlar, o'sish va islohotlarga katta ahamiyat berilayapti. Musulmon ayollari ham o'ziga xos haftalik nashrga ega va ular o'z fikr-mulohazalari, savollari va takliflarini yozib yuborishga qodirligi ma'lum. Bunga faqat barakallo deymiz! Ammo, biz Rossiya markazida faoliyat ko'rsatayotgan musulmon ayollariga minnatdor holda, bu yerda o'z vazifalarimizni ayni darajada bajara olishga imkonimiz yo'qligidan afsusdamiz. Boshqalar astoydil harakat qilarkan, biz, Sartiya musulmon ayollari ko'p narsadan bexabar, hamon uyqudamiz. Ro'znomaning faqat bir necha satrlarida, biz, Sartiya musulmon ayollarining Qrim va Qozon ayollariga nisbatan o'z huquqlarimiz haqida bilimga ega emasligimiz haqida yozilsaydi! Agar bizning ahvolimiz haqida bayon qilinsa, kelajagimiz islohotlar orqali yaxshilanishi mumkin va biz o'z huquqlarimizga ega bo'lardik. Biroq bu amalga oshadimi? Ox, bu qashshoqlik! Biz hammamiz ilm va ta'limga muxtojmiz! Biz hozir bilim olmasak, keljakda ham buning iloji bo'lmaydi. Faqat yuzdan bir musulmon ayoli yozish va o'qishni bilishini ta'kidlash lozim. Bu jahonda biz kabi musulmon ayollaridek huquqlaridan mahrumlar bo'lmasa kerak... Biz o'z farzandlarimizni o'zimiz kabi ilmsiz qilib tarbiyalashni istamaymiz. Biz, farzanlarimiz uchun qizlar maktabi ochishga urinayotgan No'g'ay o'qituvchilariga yordam qila olmayapmiz. Bizning ilm olishga bo'lgan urinishlarimiz bizga yo'l ochib bermay, qiyinchilik tug'dirib, dong qotib qolganimiz tan olinishi zarur. Agar shu yo'lida davom etadigan bo'lsak, bir kun, biz, musulmon ayollarining nomi tarix sahifalarida nafrat bilan tilga olinishi tayin. Bizga o'z holimizni o'zgartirishga, islohotlarni amalga oshirishga, (ulardan) o'rnak olishga izn bering! Farzandlarimiz, o'g'il va qizlarimizni No'g'ay maktabiga yuborishga yo'l bering!”<sup>356</sup>.

---

<sup>356</sup> [https://www.uzanalytics.com/tarix/3330/#\\_edn1](https://www.uzanalytics.com/tarix/3330/#_edn1) // Матяқубова Д. Ўзбекистон аёлининг янги қиёфаси: У қандай шаклланган? XIX-XX аср аёлларининг модернизацияга чакируви.

## **7-ilova**

Kleopatra shu ismdagi 16 nafar malika ichida yettingchisi bo‘lib, 38 yil yashagan va 21 yil taxtni boshqargan. U buyuk Yuliy Sezarning muhabbatini qozonib, undan bir o‘g‘il farzand ko‘rgan. 18 yoshida Kleopatra 9 yoshli ukasi Ptolemeyga turmushga chiqadi. O‘sha paytlardagi Misr qonunlariga ko‘ra, ayolning o‘zi hukmdor bo‘la olmasdi – u faqat hukmdorning xotini bo‘lishi mumkin edi. Bu nikoh unga hokimiyat huquqini bergandi, zero, uka faqat rasmiyat uchun kerak edi. Uning eri va ayni paytda ukasi Ptolemey 13 yoshida Kleopatraga qarshi isyon ko‘taradi. U Sezar qo‘sishinlari yordamida bostiriladi. Kleopatra haqiqiy ko‘ngil bergani – bu Rim qo‘mondoni Mark Antoniy edi. Malika undan uch nafar farzand ko‘radi. Tarixchilarning qayd etishicha, Kleopatra yetti til bilgan. Sezar vafotidan keyin Rimda imperator Oktavian hokimiyat tepasiga kelganida, Rim qo‘sishinlari yana Misrga yurish qilib, uning qo‘sishinlarini tor-mor etadi. Oktavian uni o‘z ma’shuqasiga aylantirishni rejallashtirganini bilgan Kleopatra o‘z joniga qasd qiladi. Darhaqiqat, Kleopatra makkor va shuhratparast ayol, shu bilan birga mohir davlat boshqaruvchisi, ajoyib notiq va mag‘rur shaxs sifatida nom qoldirdi. Rayder Xaggard unga shunday ta’rif bergen edi: “U dilbar, juda go‘zal, hamdu sanolar uchun yaratilgan. Ayni paytda Xudo bergen kuch sohibasi edi... U bo‘rondek qudratli, oftobdek yorqin, vabodek shafqatsizdir”.

Zero, shonli tariximizda turkiy millatga mansub ayollarning ham erishgan yutuqlari, mavqelari va qozongan muvaffaqiyatlari ko‘p bo‘lgan. Ahamoniylar davlatining mashhur podshohi Kir II ni mag‘lub etgan birinchi ayol hukmdor To‘maris turkiy massaget qabilasidan edi.

## 8-ilova

Qadimgi Bobil malikasi Semiramidaning ismi dunyoning yetti mo‘jizalaridan biri – Osma bog‘lar nomi ham bo‘lganidan abadiylikka muhrlandi. Uning haqiqatan tarixda yashab-yashamagani ma’lum emas. Tarixchi sitsiliyalik Diodor rivoyat va ma’lumotlarni tartibga solgan va hozirgacha biz bilgan malika Semiramida haqidagi afsonalarning muallifidir. Aytishicha, Semiramida dengiz ma’budasi Derketo va oddiy inson qizi edi. Onasi bolani o‘rmonda qoldirgach, u yerda qizni kaptarlar boqadi. Qirolning cho‘poni Sima qizaloqni topib olib, parvarishlab o‘stiradi. Qizchaga “kaptar” ma’nosini anglatuvchi Semiramida ismini beradi. Qiz ulg‘aygach, behad chiroyliligi uchun unga Ossuriya shohi Ninning generali Onney uylanadi. Onney qizni o‘zi bilan jangga olib boradi va u yerda ossuriyaliklarning g‘alabasiga sabab bo‘lgan qal’a hujumini shaxsan qizning o‘zi boshqaradi. Podshoh Nin go‘zal jangchini ko‘rib, Onneydan xotinini unga berishini talab qilib, evaziga generalga o‘zining qizini taklif qiladi. O‘z xotinini sevgan general bu taklifni rad etadi. Shunda hukmdor qo‘mondonga ko‘zlarini o‘yib olish bilan tahdid qiladi. Sevimli ayolidan voz kecha olmagan general o‘zini osadi. Podshoh bundan mamnun bo‘lib, yosh bevani xotinlikka oladi. Yangi malika harbiy yurishlarni davom ettiradi. Bir muddatdan so‘ng Semiramida Niniy ismli o‘g‘il tug‘ib beradi. Yaqin Sharq deyarli butunlay zabit etilganda, qal‘alardan biriga hujum paytida podshoh yaralanadi va vafot etadi. Jang qizg‘in davom etayotgan paytda Ossuriya askarlarining jangovorlik kayfiyatini saqlab qolish uchun Semiramida kichik o‘g‘li nomidan qo‘shinlarga buyruq yubora boshlaydi. G‘alabadan so‘ng Semiramida o‘zini rasman “regentsha”, ya’ni valiahd voyaga yetgunga qadar davlatni idora qilish huquqiga ega inson, deb e’lon qilib, erining ishlarini davom ettiradi.

Uzoq davom etgan hukmronlik davrida (Diodorning so‘zlariga ko‘ra, u 42 yil davom etgan) Semiramida Liviya va Efiopiyani o‘z davlatiga qo‘shib oladi va Hindistonni zabit etish uchun yo‘l oladi. Biroq u yerda ossuriyaliklar kutilmagan muammoga duch kelishadi: Hind armiyasining tarkibida jangovor fillar bor edi. Semiramida hindlarni qo‘rqtishga qaror qiladi. U mingta qora buqani so‘yishni va ularning terisini yog‘och taxtalarga cho‘zishni buyuradi.

Natijada, uzoqdan qaraganda ulkan fillarga o‘xhash hayvonlar paydo bo‘ladi. G‘ildiraklarga o‘rnatilgan bu yasama hayvonlarni tuyalar harakatlantirib boradi. Birinchi hujum muvaffaqiyatli o‘tadi, keyin esa hindlar va ularning haqiqiy fillari hujumchilarni mag‘lub etishadi va hatto malikani yarador qilib, ossuriyaliklarni Hindistondan qochishga majbur qilishadi.

Muvaffaqiyatsizlikdan keyin Semiramida shaharsozlik ishlari bilan shug‘ullanishga qaror qiladi. U avvalo Bobilning ikki tarafini bir-biriga bog‘lash maqsadida Furot ostidan yer osti yo‘li qazishni mo‘ljallaydi. Uning ikkinchi loyihasi dunyo mo‘jizalaridan biri sifatida mashhur bo‘lgan Osma bog‘lar edi. Diodorning tasvirlashicha, bu bog‘ tog‘ o‘simliklari o‘sadigan ko‘p qavatli ayvonlardan iborat edi. Ular Furotdan maxsus ko‘tarilgan suv bilan sug‘orilgan. Inshootning balandligi 60 metr bo‘lgan. Ayvonlarning har birida tuproq qatlami shunday qalinlikka ega ediki, unda daraxtlar chuqur ildiz otish imkoniyatiga ega bo‘lgan. Ba’zi zamonaviy olimlar bu bog‘ning mavjud bo‘lganiga shubha qilishadi, chunki bu haqda xabar beruvchi hamma manbalar so‘nggi antik davrga borib taqaladi, bog‘larning taxmin qilingan joyidagi qazishmalar esa hech qanday natija ko‘rsatmagan.

## 9-ilova

Lidiya Seyfullina 1889 yil 3 aprelda Orenburg guberniyasida tug‘ilgan. Otasi tatar, onasi esa rus edi. U tabiatan mard va jasur, shijoatli va haqiqatparast, ushoq jussasiga qaramay, hukumat rahbari (I.V.Stalin nazarda tutilmoxda)ga ham tik qarab turib, ijodkorlarga nisbatanadolatsizlik qilmaslikni aytgandi. U M.Gorkiy, M.Mayakovskiy, A.Fadeyev kabi ilg‘or rus shoirlarining e’tibrini qozongan, hatto bulardan ayrimlarining ijodga kirib kelishiga turtki bo‘lgan. 7 yoshidan boshlab qo‘liga qalam tutgan Lidiya o‘z hayotini ta’lim va tarbiya, kutubxonachilik, o‘qituvchilik faoliyati bilan davom ettirgan. 1909-1911 yillarda teatrda faoliyat ko‘rsatib, u yerda yosh bolalar va komik kampirlar rolini ijro etgan. Lidiya kasallanib qolgach, teatrga qaytmagan. Uning turmush o‘rtog‘i ham o‘zi kabi ijodkor va adabiy tanqidchi – Valerian Pravduxin bo‘lib, ular hamkorlikda ijod qilishgan.

1917 yildan boshlab Lidiya Orenburg matbuotida faollik ko‘rsatgan. Kutubxonachilik qila turib, mahalliy rus va boshqird aholisining hayoti va turmush tarzini chuqur o‘rganib chiqdi, hamqishloqlari, ayniqla, ayollar manfaatlarini tish tirnog‘i bilan himoya qildi. 1924 yilda yaratilib, ko‘p e’tiroflarga sabab bo‘lgan dehqon ayoli haqida “Virineya” asari Moskva, Leningrad, Praga kabi shaharlarda sahnalashtirilib, muvaffaqiyatli ijro etilgan. A.V.Lunacharskiy asar to‘g‘risida shunday deb yozgan edi: “inqilobdan keyingi teatr san’ati bizga bergen eng yorqin va ibratli obraz sifatida Vireneyani e’tirof etishga tayyorman”. 1923 yilda Lidiya oilasi bilan Moskva shahriga ko‘chib kelganida uning ikki xonali uyida kimlar mehmon bo‘lmagan deysiz. Bular S.Yesenin, M.Sholoxov, M.Prishvinlar edi. Teatrda ishlab yurgan kezlarida ko‘p joylarda gastrollarda bo‘lgan, shular orasida Toshkent shahri ham bor edi. U ko‘plab Yevropa mamlakatlari – Turkiya, Polsha, Chexoslovakiya, Fransiyaga sayohat qiladi. Uning rang-barang va mashaqqatlarga to‘la hayoti asarlarida o‘z aksini topdi. Lidiya Seyfullinaning yozishicha, uni hayotning o‘zi yozuvchi qilgan edi<sup>357</sup>. 1922 yilda yozilgan “Huquqbazarlar” (“Pravonarushiteli”) kitobi unga katta shuhrat keltirgan. Kitob Moskva va Novosibirskda

<sup>357</sup> Бу хақда қаранг. <https://miasslib.ru/2014/04/21/lidiya-seyfullina-stranitsy-biografii-20140421-095428/>

katta tirajlarda chop etilib, boshqa tillarga tarjima qilingan. Asar Ural va Sibirdagi maktab dasturlariga kiritilib, barcha shahartumanlarga bezori bolalarni tarbiyalash instruksiyasiga qo'shib tarqatilgan. "Huquqbuzarlar" yosh avlodni tarbiyalash yo'lidagi dasturilamal sifatida keng targ'ib etildi. Bu asar bolalar tarbiyasiga qaratilgan harakatda ilk qadam edi. Mashhur pedagog A.S.Makarenko Lidiya Seyfullinaning "Huquqbuzarlar" qissasini yuqori baholagan. Hali bu paytda uning "Pedagogik poema"si dunyoga kelmagan edi.

1920-yillarda Rossiya uchun qarovsiz qolgan yetim bolalar haqiqiy falokat edi. Tabiiyki, bu mavzu o'sha yillarning ko'plab yozuvchilarini ham tashvishga solgan. Bu Anton Makarenko, Aleksandr Neverov, Leonid Panteleyev, Grigoriy Belix, Vyacheslav Shishkov va boshqalarning asarlarida aks etgan. Ammo Lidiya Seyfullina unga birinchilardan bo'lib murojaat qildi. Va yozuvchining o'zi bir vaqtlar ko'cha bolalari bilan ko'p ishlaganligi sababli (asarda tasvirlangan bolalar koloniyasi va qahramonlarning prototiplari haqida hujjatli dalillar mavjud) bu muammoni ichkaridan bilar edi.

Turgoyak ko'li bo'yidagi Mehribonlik uyi 1920 yilda ko'cha huquqbuzarlari uchun birinchi qishloq xo'jaligi koloniyasi sifatida ish boshlagan va 1924 yilgacha mavjud bo'lgan. Hozirda bu manzil eshitmaydigan va eshitish qobiliyati past bolalarga turar-joy vazifasini bajaradi.

1921 yil yozida Lidiya Nikolayevna va uning turmush o'rtog'i koloniya rahbari Mixaylovnning taklifiga binoan bu yerga kelishadi. Koloniyadagi bolalar uni qo'rquv aralash tuyg'u bilan qabul qilishadi. Ammo tez orada ular uni hikoyachi sifatida qadrlay boshlashadi. Lidiya bolalar bilan birga tushlik qilar, qo'ziqorin va rezavor mevalarni yig'ish uchun qayiqda birga suzar edi. Bolalar ham jon qulog'i bilan uning ajoyib hikoyalarini, ertaklarini tinglar edi. Uning rahbarligida Turgoyak ko'li yaqinidagi Madaniyat uyida qishloq bolalari va aholisi uchun spektakllar namoyish etishardi. Afsuski achchiq qismat Lidiyanı ham chetlab o'tmadı. Uning eri 1937 yilda hibsga olingan va qatl qilingan. Hayot zarbaları Lidiyaning qaddini buka olmadı. Urush davrida u harbiy muxbirlik

qildi va komandirlar orasida “Gvardiya onaxoni” nomini oldi. U 1954 yilda vafot etdi.

Darhaqiqat, Cho'lpon ta'kid etganidek, Lidiya Seyfullina – Lolaning nolasini butun jahon tinglashga muyassar bo'ldi. Uning asarlari hayotligidayoq xorijiy tillarga o'girildi, odamlarni ziyoga,adolat va to'g'rilikka da'vat etdi.

Endi bu nolangni jahon tinglasin!

Dillarda bor esa vijdon, tinglasin!

## MUNDARIJA

<b>KIRISH.....</b>	<b>3</b>
<b>I BOB. O'ZBEK ADABIYOTIDA XOTIN-QIZLAR</b>	
<b>OBRAZINING TARAQQIYOT BOSQICHLARI.....</b>	<b>10</b>
1.1. O'zbek mumtoz adabiyotida xotin-qizlar obrazining badiiy tadriji .....	10
1.2. Xotin-qizlar obrazi talqinida o'zbek jadid adabiyotining xos xususiyatlari.....	26
<b>II BOB. JADID SHE'RIYATIDA XOTIN-QIZLAR</b>	
<b>OBRAZINING POETIK IFODASI .....</b>	<b>63</b>
2.1. Jadid she'riyatida an'anaviy ayol obrazining yangilanishi.....	63
2.2. Xotin-qizlar obrazi – erk va ozodlik talqinining badiiy-estetik asosi.....	95
<b>III BOB. JADID NASRIDA XOTIN-QIZLAR OBRAZI</b>	
<b>EVOLYUTSIYASI.....</b>	<b>115</b>
3.1. Xotin-qizlar obrazi – milliy ruh talqini vositasi sifatida.....	115
3.2. Jadid nasrida ona obrazining badiiy tasviri .....	155
<b>IV BOB. JADID DRAMASIDA XOTIN-QIZLAR OBRAZI</b>	
<b>TAKOMILI.....</b>	<b>169</b>
4.1. Xotin-qizlar obrazining dramatik talqinida badiiy nutqning o'rni .....	169
4.2. Konflikt – xotin-qizlar obrazi tasvirining poetik vositasi sifatida .....	198
<b>XOTIMA .....</b>	<b>220</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>	<b>226</b>
<b>ILOVALAR .....</b>	<b>240</b>

**Xoliqova Nodira Jahongirovna**

**JADID ADABIYOTIDA  
XOTIN-QIZLAR OBRAZI**

**Monografiya**

**Monografiya muallifning tahririda taqdim etilgan.**

**“Bookmany print” nashriyoti**

Nashriyot tasdiqnomalar raqami № 022246. 28.02.2022-y.

Bosishga ruxsat etildi: 06.12.2024.

“Times New Roman” garniturasi. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/16

Nashriyot bosma tabog‘i 14,5. Shartli bosma taboq 15,2.

Adadi 100 nusxa. Ofset bosma usulida bosildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

“BOOKMANY PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

E-mail: bookmany\_print@mail.ru

t.me/ Bookmanyprint +998 99 180 97 10